

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

**S. Ya. ATAMURODOV, M. S. SODIKOV**

## **BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

2-nashr

TOSHKENT  
2013

UO'K336.1:657(075)

KBK65.261.3

A87

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi ilmiy-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

**Taqrizchilar:**

**Z. T. Mamatov**, «BANK VA MOLIYA» Akademiyasi, i.f.d.,

professori, «ODIL-AUDIT» auditorlik firmasi rahbari;

**A. N. Maxmudov**, Toshkent Bank kolleji direktori, i.f.n., dotsent.

**Atamurodov S. Ya., Sodikov M. S.**

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. /—T. «Voris-nashriyot», 2013.— 224 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining asosiy tushunchalari o'ziga xos jihatlari, hisob siyosatining asosiy tamoyillari va yo'nalishlari bayon qilingan.

O'quv qo'llanmada budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining amaldagi holati, hisob-kitob shakllari, to'lov va hisob-kitob balanslari hamda budjet mablag'larining sarflanishi, shuningdek, smeta ijrosi bo'yicha hisob-kitoblari kabi masalalar yoritilgan.

O'quv qo'llanma kasb-hunar kollejlarining «300000—Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq», «3340900—Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)» ixtisosliklari o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, o'quv qo'llanmadan Oily o'quv yurtlari talabalari, turli o'quv kurslarining tinglovchilari ham foydalaniishlari mumkin.

UO'K336.1:657(075)

KBK65.261.3

© «VORIS-NASHRIYOT», 2012

© «VNESHINVESTPROM», 2013

---

## KIRISH

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini rivojlantirish, buxgalteriya hisob sohasida islohotlar jarayonining avj olishi shu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan olim va mutaxassislar zimmasiga juda katta ma'suliyat yuklaydi. Bugungi kunda g'azna ijrosida mablag'larni maqsadli ishlatalish, budget tashkilotlarda hisob-kitob muomalaldarini shakllantirish hamda hisob siyosatining tizimli ma'lumotlarini umumlashtirishni tashkil qilish, xalqaro andazalar darajasida milliy andozalar talablarining ijrosini ta'minlashni taqozo etadi. budget tashkilotlari buxgalteriya hisobida hisob siyosatini takomillashtirishning zaruriyati shundan iboratki, bu jarayonlarning pirovard natijasida budget tashkilotlari doimiy sur'atda ishlab, rivoj topadi hamda budget tashkilotlari manfatlari darajasini oshiradi. Zero, iqtisodiyotni tubdan modernizatsiya qilish, mulkchilikning xilma-xil shakllarida bozor mexanizmlarini qo'llashni biladigan, mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy negizi bo'lgan malakali innovatsion texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan, buxgalteriya sohasida bilim-ko'nikmalari yuksak bo'lgan yosh kadrlar tayyorlashda mazkur o'quv qo'llanma birlamchi hisoblanadi.

Mamlakatimizda budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi yo'lga qo'yish maqsadida ga'znachilik tizimining joriy qilinishi obyektiv zarurat bo'lib, mazkur tizim bugungi kunda o'zining samarasini amalda ko'rsatib kelmoqda. Bu albatta davlat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy yo'nalishlardan biridir. Malakali professor-o'qituvchilar ham bu yo'nalishda munosib hissa qoshishlari lozim.

Mazkur o'quv qo'llanma aynan o'quvchi-yoshlarga budget tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning nazarriy jihatlarini amaliy ma'lumotlar asosida tushunchalar berishi bilan

ahamiyatlidir. Iqtisodiy bilimli va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lgan yoshlар mamlakatimizning buyuk kelajagini qurishda hal qiluvch kuchga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Bu borada yuksak vazifalarni bajarish, xususan, davlat budgetining asosiy qismini tashkil etuvchi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning o‘ziga xos qirralari, vazifalari va mazmuni, budget tashkilotlarini moliyalashtirish hisobi, smeta xarajatlarini tuzilishi va uning bajarilishi hisobining xususiyatlari, pul mablag‘lari, asosiy vositalar va moddiy zaxiralar hisobi, mehnat sarfi, mehnatga haq to‘lash hisobi, ijtimoiy sug‘urta muassasalariga ajratmalar hisobi va ular bo‘yicha hisoblashishlar, turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashishlar, budgetdan tashqari mablag‘lar hisobi, mol-mulk va moliyaviy majburiyatlarni inventarlash va ularning natijalarini hisobga olish, hisobvaraqlarga yillik xulosalar va ularning yopilishi, budget tashkilotlarining buxgalteriya hisobotlari va shu kabilar hisobchilar hamda mutaxassislar zimmasiga kiradi.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini o‘rganish iqtisodiy nazariya, buxgalteriya hisobi nazariysi, tannarx kalkulatsiyasi, iqtisodiy tahlil, audit, mikroiqtisodiyot, statistika, marketing va menejment asoslari soliq tizimi, pul muomalasi va kredit, tadbirkorlik va biznes asoslari fanlarini o‘zlashtirishdan boshlanadi.

«Budget tashkilotlarida buhgalteriya hisobi» darsligini o‘qish orqali o‘quvchilar budget tashkilotlarining buxgalteriya hisobi to‘g‘risida berilgan tushuntirishlar bo‘yicha ko‘proq mustaqil ravishda amaliy mashg‘ulotlar bilan taqqoslagan holda o‘rgansa, ularning bilim va ko‘nikmalari kundan-kunga ortishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ushbu o‘quv qo‘llanmani o‘rganishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (multimediali kompyuter majmuasi, proyektor, kodoskop)lardan, yangi pedagogik texnologiyalar, ya’ni aqliy hujum, kichik guruhlarga bo‘linib ishslash, keys-stadi, breyn-ring ish o‘yinlari, bahs-munozara, zanjir, shajara daraxti va boshqalar, shuningdek «IS buxgalteriya hisobi» va «Buxgalteriya elektron madad» buxgalteriya dasturlaridan foydalanib, o‘rganilsa, foydadan xoli bo‘lmaydi.

# **1-bob. BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISH**

---

---

## **1.1-§. BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING VAZIFALARI VA UNING ASOSIY QOIDALARI**

### **1.1.1. Budget tashkilotlari to‘g‘risida tushuncha**

*Budget tashkiloti* – bu budget mablag‘lari hisobidan moliyalanib, yuqori davlat hokimiyatlari tomonidan tasdiqlangan smeta asosida faoliyat olib boradigan yuridik maqomga ega davlat tashkilotlaridir. Mazkur tashkilotlar davlat tomonidan ishlab chiqarilgan reja va topshiriqlarni o‘z vakolati doirasida hal etadi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritadigan tashkilotlar budgetdan moliyalashtirilishiga qarab, budget tashkiloti yoki nobudget tashkilotlariga bo‘linadi:

*Budget tashkilotlari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:*

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa vazirliklar hamda ularning quyi bo‘g‘inlari;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari hamda ularning quyi boshqarmalari;
- Davlat nazorat organlari (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat Soliq qo‘mitasi, Milliy xavsizlik xizmati, prokuratura, sud va h.k.);
- Davlat multq qo‘mitasi;
- Talim sohalari (Institutlar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari va h.k.);
- Sog‘liqni saqlash sohalari (tibbiyot muassasalari, sanatoriylar, poliklinikalar, qishloq tez tibbiy yordam muassasalari va h.k.);
- Ma’daniy-marifiy muassasalar.

2. Nobudget (budgetdan moliyalashtirilmaydigan) tashkiltlari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- Fond shaklidagi tashkilotlar;
- Ekosan xalqaro jamg‘armasi;
- Qizil Yarim Oy jamiyati;
- O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi va boshqa uyushmalar;
- Xo‘jalik yurituvchi subyektlar (ma’suliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy korxonalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, kompaniya, konsernlar va qo‘shma korxonalar);
- Banklar va shu kabilar;
- Budjetdan moliyalashtirilmaydigan barcha tashkilotlar.

### **1.1.2. Budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobining predmeti, maqsadi va vazifalari**

*Budjet tashkilotida buxgalteriya hisobining predmeti* – bu budjet mablag‘lari evaziga berilgan smeta xaratjatlarining to‘g‘ri sarflanishi, o‘z vaqtida rasmiylashtirilishini amalga oshirish va buxgalteriya tamoyillari, belgilangan me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida uzlusiz nazoratni amalga oshirish, pirovardida hisobotlar tayyorlanishi hamda taqdim etilishini o‘rganishdan iborat.

*Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining maqsadi* hisob-kitob ishlarini davlat tomonidan chiqarilgan tartib qoidalar doirasida bajarilgan ishni to‘g‘ri tashkil etish va foydalanuvchilarni o‘z vaqtida aniq buxgalteriya ma’lumotlari bilan ta’minalashdan iboratdir.

*Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifasi* bo‘lib buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida rashmiylashtiriladigan ma’lumotlarni to‘g‘ri va aniq aks ettirish, ularni pulda ifodalash, smeta ijrosini o‘z vaqtida ta’minalash, qonun ustuvorligini buxgalteriya hisobi hujjatlarida ko‘rsata bilish, buxgalteriya hisobvaraqlarida keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligini ta’minlab, pirovard natijada hisobotlar yozish tushuniladi.

### **1.1.3. Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari**

*Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:*

- Hisob siyosati
- Hisoblab yozish tamoyili

- Ikkiyoqlama yozuv usuli bilan hisob yuritish
- Davomiylik
- Xo‘jalik muomalalari, aktivlar va passivlarga pul bilan baho berish
- Ishonchlilik
- Ehtiyyotkorlik
- Mazmunning shakldan ustunligi
- Ko‘rsatkichlarning qiyosiyligi
- Moliyaviy hisobotning xolisligi
- Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy bahosi
- Hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarning bir-biriga muvofiqligi
- Tushunarllilik
- Ahamiyatlilik
- Muhimlik
- To‘g‘ri va beg‘araz tasavvur
- Tugallik
- Izchillik
- Zamonaviylik
- Xolislik

*Hisob siyosati* – tashkilotning hisob siyosati 1-sonli BHMA da ketirilgan tamoyillar asosida belgilanishi lozim.

*Hisoblab yozish tamoyili* – pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotdan tashqari moliyaviy hisobtlar hisoblab yozish tamoyili asosida rasmiylashtiriladi.

Hisoblab yozish tamoyiliga muvofiq aktivlar, passivlar, o‘z sarmoyasi, daromadlar, xarajatlar, xo‘jalik muomalalari va voqealar buxgalteriya hisobida bu harakatlar yuzasidan pul mablag‘lari yoki ekvivalentlari olingan yoxud to‘langan paytda emas, balki shu harakatlar sodir etilgan (yoki haqiqatda olingan) paytda aks ettiriladi.

Hisoblab yozish tamoyili asosida tayyorlangan moliyaviy hisobtlar undan foydalanuvchilarga o‘tmishda pul to‘lab yoki pul mablag‘larini olib amalga oshirilgan muomalalar to‘g‘risidagina emas, balki kelgusida pul to‘lanadigan majburiyatlar to‘g‘risida ham axborot beradi, bu esa tegishli iqtisodiy qarorlarni qabul qilish chog‘ida juda zarur hisoblanadi.

*Ikkiyoqlama yozuv usuli bilan hisob yuritish* – ikkiyoqlama yozuv usuli bilan hisob yuritish qoidasi xo‘jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya muomalalarini ikkiyoqlama yozuv tizimi asosida ro‘yxatga olishi lozimligini bildiradi. Ikkiyoqlama yozuv tizimi shundan iboratki, bir muomala bo‘yicha bir miqdor buxgalteriya hisobining ikki hisobvarag‘ida – birining debetida va ikkinchisining kreditida aks ettiriladi.

*Davomiylik* – moliyaviy hisobotni davomiylik qoidasi asosida tayyorlash xo‘jalik yurituvchi subyekt doimiy harakat qilishini va uzoq muddat davomida o‘z faoliyatini davom ettirishini, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zini tugatishiga yoki o‘z faoliyati sohasini qisqartirishga ehtiyoji yo‘qligini bildiradi.

*Xo‘jalik muomalalari, aktivlar va passivlarga pul bilan baho berish* barcha xo‘jalik muomalalarini, voqealar, aktivlar va passivlar bir xil birlikda o‘lchanishi – pul bilan baholanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida pul birligi – so‘m, uning bo‘laklari – tiyinlardir.

*Ishonchlilik* – axborotda muhim xato yoki g‘arazlilik bo‘lmasa va foydalanuvchilar unga tayanishlari mumkin bo‘lsa, ishonchli hisoblanadi.

Muomalalar yoki voqealarning ishonchliligi odatda dastlabki hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi lozim.

*Ehtiyyotkorlik* – ehtiyyotkorlik tamoyili moliyaviy hisobotda aktivlar va daromadlar narxining oshirilib yuborilishiga va majburiyatlar yoki xarajatlar bahosi kamaytirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozimligini bildiradi.

Bu tamoyilning qo‘llanishi yashirin zaxiralarni barpo etishga yoki ta’mintoni oshirib ko‘rsatishga, aktivlar yoki foydani, majburiyatlar va xarajatlarni ataylab kamaytirishga va oshirib ko‘rsatishga huquq bermaydi.

*Mazmunning shakldan ustunligi.* Ushbu tamoyilning mazmuni shuni bildiradiki, agar hisobga olish hujjatlaridagi va moliyaviy hisobotdagi axborot muomalalar va voqealarning mazmunini to‘g‘ri aks ettirsa, bu axborot moliyaviy hisobotda hisobga olinishi va ko‘rsatilishi lozim.

*Ko'rsatkichlarning qiyosiyligi* – moliyaviy axborot foydali va mazmunli bo'lishi uchun u turli hisobot davrlaridagi axborotlarga qiyoslanadigan bo'lishi kerak. Hisobotdan foydalanuvchilar xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotni tayyorlash chog'ida foydalangan hisob siyosatidan, bu siyosatdagi barcha o'zgarishlardan va bunday o'zgarishlarning natijalaridan xabardor bo'lishi kerak.

Qiyosiylik tamoyiliga rioya qilish uchun quyidagi shartlarni bajarish kerak:

1) butun axborot miqdoriga nisbatan talablar;

2) hisobot yilida hisobotni taqdim etishga yondashuv o'zgargan taqdirda undan oldingi davr axboroti qiyoslash maqsadlari uchun qaytadan tasnif etilishi lozim;

3) agar amaliy mulohazalar bilan qayta tasnif etish mumkin bo'lmasa, basharti qayta tasnif amalga oshirilganda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning sabablari va xarakteri ochib berilishi lozim.

*Moliyaviy hisobotning xolisligi* – moliyaviy hisobotning ishonch-lilagini ta'minlash uchun unda keltiriladigan axborot yanglishlardan xoli bo'lishi kerak.

*Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy bahosi* – aktivlar va majburiyatlarni haqiqiy baholash tamoyili ularning tannarxi yoki sotib olingan narxi baholashga asos bo'lishini nazarda tutadi.

Andazalarda ko'zda tutilgan ayrim hollarda haqiqiy baholash sotib olish qiymatidan farq qilishi mumkin.

*Hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarning bir-biriga muvofiqligi* – hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarning bir-biriga muvofiqligi ushbu davrda mazkur hisobot davrida olingan daromadlarga asos bo'lgan xarajatlarni aks ettirishini bildiradi. Agar xarajatlar va daromadlarning ayrim turlari o'rtaсидаги bevosa bog'liqlikni aniqlash qiyin bo'lsa, xarajatlar taqsimlashning biror-bir tizimiga muvofiq tarzda bir necha hisobot davriga taqsimlab chiqiladi. Bu bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlariga ham taalluqlidir.

*Tushunarilik* – moliyaviy hisobotda keltiriladigan axborot foydalanuvchilar uchun tushunarli va sodda bo'lishi lozim.

*Ahamiyatlilik* – moliyaviy axborotning ahamiyatliligi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qarorlar qabul qilish jarayonida ular-

ning ehtiyojini qondirishi va operatsion, moliyaviy hamda xo'jalik faoliyatiga doir voqealarga baho berishda ularga yordam berishi lozimligini bildiradi. Axborotning mohiyati va qiymati uning ahamiyatliligiga ta'sir qilishi mumkin.

*Muhimlik*—agar axborotning tushirib qoldirilishi yoki noto'g'ri ko'rsatilishi axborotdan foydalanuvchilarning moliyaviy hisobot asosida qabul qiladigan iqtisodiy qarorlariga ta'sir qilsa, bunday axborot muhim hisoblanadi.

*To'g'ri va beg'araz tasavvur*—moliyaviy hisobotlar ulardan foydalanuvchilarda subyektning moliyaviy ahvoli, muomalalarning natijalari va pul mablag'larining harakati to'g'risida haqqoniy va beg'araz tasavvur hosil qilishi kerak.

*Tugallik*—ishonchlilikni ta'minlash uchun moliyaviy hisobotlardagi axborot to'la bo'lishi kerak.

*Izchillik*—moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar xo'jalik yurituvchi subyektning turli hisobot davrlaridagi moliyaviy hisobotlarini uning moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar tamoyillarini aniqlash uchun qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lislari kerak.

*Zamonaviylik*—axborot o'z vaqtida berilgan taqdirdagina u foydali bo'ladi. Agar moliyaviy hisobotlar undan foydalanuvchilar tasarrufiga tuzilgan vaqtdan keyin oqilona vaqt ichida taqdim etilmasa, uning foydasi qolmaydi. Hisobot axborotlari asossiz ravishda ushlab qolinsa, u o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

*Xolislik*—moliyaviy hisobot subyektning moliyaviy ahvolini, uning faoliyati moliyaviy natijalarini va pul mablag'larining harakatini xolisona ko'rsatishi lozim.

Xolislik tamoyiliga erishish uchun har bir xo'jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish chog'ida BHMA va buxgalteriya hisobi asosiy tamoyillarini qo'llanishga majburdir.

Faoliyatning xilma-xil turlari bo'yicha yangiliklarni joriy etishning tezligi shunday muomalalar va vaziyatlarga olib kelishi mumkinki, bunday muomalalar va vaziyatlar bo'yicha Buxgalteriya Hisobi Milliy andazalari (BHMA) hali ishlab chiqilmagan. Bunday holatlarda moliyaviy hisobotning xolisligiga hisob siyosatini tanlash va qo'llanish yo'li bilan erishiladi. Bunday siyosat xo'jalik

yurituvchi subyekt tomonidan ushbu andazaga muvofiq ravishda mustaqil ishlab chiqilishi lozim.

Hisob siyosati budjet tashkiloti moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzish uchun foydalanadigan maxsus tamoyillarni, konvensiyalarini, tartib va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi.

Budjet tashkiloti ham hisob siyosatini shakillantirish vaqtida mazkur tashkilotning ishlash, ish yuritish mexanizmini eng maqbul variantlarini hisobga olish va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari asosida tuzilgan bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish 1998-yil 26-iyuldag'i O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan № 17-17/86-sonli xati hamda 1998-yil 14-avgustdag'i O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan № 474-buyrug'ini inobatga olib, budjet tashkiloti «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot»ni 1-sonli buxgalteriya hisobining milliy andazasiga muvofiq «Hisob siyosati»ni tashkilot miqyosida ishlab chiqishdan boshlanadi.

#### **1.1.4. Buxgalteriya hisobining usullari**

Buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari va tamoyillaridan kelib chiqib *buxgalteriya hisobining usullarini* sanab o'tamiz:

- 1) hujjatlashtirish;
- 2) baholash;
- 3) kalkulatsiyalash;
- 4) inventarlash;
- 5) ikki yoqllama yozuv;
- 6) hisobvaraqlar va ularda muomalalarni aks ettirish;
- 7) balans;
- 8) hisobotlar.

*Hujjatlashtirish deb*, yuridik asosga ega bo'lgan, rekvizit (9-modda)<sup>1</sup>li shakllarda xo'jalik muomalalarni aks ettirishiga aytildi.

---

<sup>1</sup> 30.08.1996-yil «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonundan.

*Baholash* – aktivlarni va ularni tashkil topish manbalarini pul o‘lchov birligida ifodalashdir.

*Kalkulatsiyalash* – bajarilgan ish va xizmat (mahsulot)larni tan-narxini aniqlab topishdir

*Inventarlash* – budjet tashkilotiga keltirilib hujjatlashtirilgan moddiy boyliklarning butligini aniqlash maqsadida hujjatda va haqiqatda borligini aniqlash.

*Ikki yoqllama yozuv* – bir muomalani ikki hisobvaraqa qda birining debetida ikkinchisining kreditida, bir xil summa bilan, bir sanada ro‘yxatga olish tushuniladi,

*Hisobvaraqlar va ularda muomalalarni aks ettirish* – buxgalteriya barcha hisobvaraqlar rejasidagi mavjud bo‘lib, ular sodir etilgan ish mazmunidan kelib chiqib, kod va nomlangan hisobvaraqa qda ro‘yxatga olishi hamda hisobot davriga qadar yig‘ib boruvchi hujjatlardir

*Balans* – hisobvaraqlarni budjet tashkilotlarida muomala aktiv mablag‘lari va aktiv mablag‘larning tashkil topish manbalari (passiv) hisobvaraqlarda qiymatliklarni natijaviy tengligini aniqlab turuvchi moliyaviy hujjatdir.

*Hisobotlar* – budjet tashkilotining ma’lum bir davrda bajarilgan ishlarini yakuniy natijaviyligini aks ettirib turuvchi moliyaviy hujjatlardir.

### **1.1.5. Buxgalteriya hisobotlarini taqdim etish tartibi**

*Hisobot davri va hisobot tuzilgan vaqt* – 1-yanvardan 31-dekabr gacha bo‘lgan kalendar yil moliyaviy hisobotning hisobot davri hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot kalendar yildan farqli davr uchun, qonunda ko‘zda tutilgan hollarda 1 oy yoki 3 oy uchun tuzilishi mumkin.

Hisobot davrining so‘nggi kalendar kuni moliyaviy hisobotlar uchun hisobot sanasi hisoblanadi. Chunonchi subyektning yillik buxgalteriya balansi uchun 31-dekabr hisobot sanasi hisoblanadi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi yillik hisobot uchun 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo‘lgan davr hisobot davri bo‘ladi.

*Moliyaviy hisobotni taqdim etish* – moliyaviy hisobot quyida-gilarga taqdim etiladi:

- 1) Ta'sis hujjatlariga muvofiq subyektning mulk egalariga (davlat mulkini boshqarishga vakolat beradigan organlarga, ishtirok-chilarga, muassisrlarga);
- 2) Subyekt ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organlariga;
- 3) Davlat statistika organlariga;
- 4) Qonunga muvofiq – boshqa organlarga.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotni hisobot yilidan keyingi 15-fevraldan kechiktirmay topshiradi.

Vazirliklar, idoralar, o'zga boshqaruv organlari va ayrim subyektlar uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobot taqdim etishning boshqa muddatlarini belgilaydi.

Budget tashkiloti bilan bir shaharda joylashgan mahkamalarga moliyaviy hisobotni taqdim etish vaqtini amalda tegishli joyga topshirish kuni hisoblanadi, boshqa shahardagilar uchun esa pochta korxonasi muhrida ko'rsatilgan sana uni jo'natish kuni hisoblanadi.

Hisobotni taqdim etish vaqtini dam olish kuniga to'g'ri kelib qolgan hollarda taqdim etish muddati dam olish kunidan keyingi birinchi ish kuniga o'tkaziladi.

## **1.2-§. XO'JALIK MUOMALALARINI HUJJATLASHTIRISH**

### **1.2.1. Boshlang'ich hisob hujjatlari va ularning majburiy va qo'shimcha rekvizitlari**

Boshlang'ich hujjatlar va ularning rekvizitlari O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuning 9-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagи «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi 140-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 23-dekabrdagi №131 sonli hamda 2004-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan №1297-sonli «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanushi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi» buyrug'i hamda buxgalteriya hisobining

milliy standartlari ijrosini ta'minlash maqsadida budget tashkilotlari buxgalteriya bo'limida hujjatlarni tartibga solish shart.

Shuningdek, budget tashkilotlarida har bir muomala jarayonlarining o'zini rasmiylashtirish hujjatlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular muomala sodir etilgan vaqtida rasmiylashtirilib borilishi lozim. Hujjatlar rasmiylashtirilish jarayoni albatta tasdiqlangan hujjat blankalari orqali ma'sul ijrochilar tomonidan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich hisob hujjatlarining majburiy va qo'shimcha rekvizitlari mavjud bo'lib, ularda xo'jalik muomalalari aks ettiriladi.

Boshlang'ich hisob hujjatlarining *majburiy rekvizitlari* quyidagilardir:

- tashkilotning (muassasaning) nomi;
- hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy;
- xo'jalik muomalasining qisqacha mazmuni va miqdor o'lchovi (natura holida va pulda ifodalangan holida);
- mas'ul shaxslarning shaxsiy imzolari;
- Birlamchi hujjatlarda quyidagi *qo'shimcha rekvizitlar*<sup>2</sup> keltirilishi mumkin:
- tashkilotning yuridik manzili;
- hujjat bilan qayd qilingan xo'jalik muomalasini amalga oshirish uchun asos;
- hujjatlashtirilayotgan xo'jalik operatsiyasining xususiyatini belgilaydigan boshqa qo'shimcha rekvizitlar.

### **1.2.2. Hujjatlashtirishga qo'yilgan talablar**

Boshlang'ich hisob hujjatlarini tuzgan hamda imzolagan shaxslar ularning o'z vaqtida to'g'ri va aniq tuzilishi, shuningdek, buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun ularning belgilangan muddatlarda topshirilishiga ma'suldirlar.

Boshlang'ich hisob hujjatlariga xo'jalik operatsiyasi qatnashchilari tomonidan tasdiqlanmagan tuzatishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, bank va g'azna-pul muomala hujjatlarida tuzatishlar va o'chirib yozishlarga umuman yo'l qo'yimasligi lozim.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 23-dekabrdagi № 131сонли buyrugining 2-bo'lim, 7-bandi.

To‘g‘ri bajarilgan ishga nazorat organlari tekshiruvchi auditorlari va monitoring xodimlari tomonidan berilgan xulosalarida ijobiy fkirlar yozilishiga sabab bo‘ladi.

Buxgalteriya bo‘limida ish yuritishni tartiblashtirish uchun hamda hujjatlar betartib yig‘ilishlarining oldini olish maqsadida reestr papkalarini joriy etish buxgalterning mahorati bilan tartibga solib boriladi. Reestr papkalarga quyida namunadan sanab o‘tamiz:

- kirish xatlari
- chiqish xatlari
- buyruqlar
- farmoyishlar
- qaydnomalar
- shartnomalar
- kommunal to‘lovlar bo‘yicha hisoblashishlar
- to‘lov topshiriqnomalari
- g‘azna hujjatlari va hisobotlari
- moddiy javobgar shaxlarning hisobotlari
- hajmi katta va keng ko‘lamdagi ishlar uchun
- soliq hisobotlari
- bank hisobotlari va h.k.

Yuqoridagilar bo‘yicha tuman arxiv bo‘limi bilan qilingan ishlarni tasdiqlatib, nomenklatura hujjat shakliga keltirib shakllantirib qo‘yish shart. Chunki budjet tashkilotlarida buxgalteriya hujjatlari nazorat organlari tomonidan, monitoring xodimlari tomonidan tekshirishdan o‘tgandan keyin buxgalteriya hujjatlari 1 yilgina o‘zida saqlanadi. Qolgan davrlar uchun barcha hujjatlар belgilangan tartibda arxivga topshiriladi.

### **1.3-§. BUXGALTERIYA HISOBI HISOBVARAQLARI REJASI**

#### **1.3.1. Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari to‘g‘risida tushuncha**

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibi 2010-yil 17-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 105-sun buyrug‘i hamda 2010-yil 22-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatga olingan 2169-soni xatlari bilan ishlab chiqilgan yo‘riqnomasi asosida tartibga solinadi. Mazkur

me'yoriy hujjat talablaridan kelib chiqib barcha budjet tashkilotlari 2011-yilning 1-yanvaridan boshlab, buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tuzish hamda taqdim qilish yangi hisobvaraqlar rejasid asosida ishslashni tashkil qiladi.

Yuqoridagi me'yoriy hujjatni ishlab chiqilishi bilan bir qatorda Moliya vazirligi tomonidan buxgalteriya hisob siyosatida yangi yana bir qator hujjatlarni ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llanilmoqda:

- yangi va amalda bo'lgan hisobvaraqlar rejasid bo'yicha o'zaro Muvofiglik javdvali;
- Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasid bo'yicha analitik hisobvaraqlar ikki yoqlama yozuv usuli;

2011-yilning 1-yanvar holatiga tuzilgan yakuniy balans (1-shakl) da qolgan analitik hisobvaraqlarning debet va kredit qoldiqlarini yangi hisobvaraqlar rejasining analitik hisobvaraqlariga o'tkazish bo'yicha Solishtirma jadvallar.

Yuqoridagi hujjatlar asosida bazisli davr ma'lumotlarni endilikda (2011-yil 1-yanvardan) budjet tashkilotlarining bosh hisobchilari mazkur tartib bo'yicha buxgalteriya hisob va hisobot ishlarni tashkil etib, bajarilayotgan ishlarni muntazam nazoratga olishlari shart.

### **1.3.2. Budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobida sintetik va analitik hisobvaraqlari**

Budjetlarning g'azna ijrosi buxgalteriya hisobi bo'yicha muomalarlar Davlat budgetining g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining g'azna usuliga asoslangan. Budjet tashkilotlari g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasidagi hisobvaraqlarda yuritiladi.


### **1.3.2. Budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobida analitik va sintetik hisobvaraqlar**

Budjet tashkilotlarining hisobvaraqlar rejasidagi ikki guruhga bo'linadi:

1) ON–birinchi tartibli hisobvaraqlar buxgalteriya hisobida. Bu sintetik hisobvaraqlar ham deb ishlataladi (masalan, 01-sonli, 02-sonli hisobvaraqlar va boshqalar);

2) ONN-ikkinchi tartibli hisobvaraq. Bu analitik hisobvaraq atamasida ishlatiladi (masalan, 010-sonli, 011-sonli, 020-sonli, 021-sonli hisobvaraq va boshqalar).

Budgetlar ijrosi bo'yicha muomalalar hisobini yuritishda va memorial orderlarni rasmiylashtirishda birinchi va analitik tartibli hisobvaraqlar shifrlariga, shuningdek, ularning ikki yoqlama yozuv usuliga amal qilinishi lozim (1-chizma).



*1-chizma.* Bitta hisobvaraqnning sintetik va analitik hisob holati va farqlari.

Budget tashkilotlarida bajarilgan ishlar o'z vaqtida tegishli hisobvaraqlarda qayd etilib, hisobot davri bo'yicha balans va boshqa hisobotlarda umumlashtiriladi.

Kunlik sodir etilgan hisob ishlari hisobvaraqlarda alohida-alohida qayd etib boriladi. Biz buxgalterlar mazkur hisobga olinishlarni analitik hisobvaraqdagi hisobga olinish deb baholashimiz yoki tushunmog'imiz kerak. Hisobot davriga kelib hisobvaraqlar albatta umumlashtiriladi. Mazkur umumlashtirilish natijalari moliyaviy hujjat (balans)da aks ettirildi va u sintetik hisobvaraqdagi aks ettirilish deb tushuniladi.

Analitik hisobvaraqlarda qoldiqni aniqlash tartibi 2-, 3-chizmalarda o'z aksini topgan. Mazkur hisob-kitoblarni kunlik bajarilayotgan ishlar hajmining hisobot davriga kelib, natijaviy hisobvaraqlar qiymatliklari to'g'risidagi axborot olish uchun o'zlashtirish

shart. Bu hisoblashishlarni budget tashkilotlari buxgalterlari va budget tashkiloti bo'lmagan nobudget tashkiloti buxgalterlari ham bilishlari lozim.

### Hisobvaraq nomi

Debet	Kredit
<input type="text"/> + Qiymatliklar kirimi (Bir nechta bo'lishi mumkin)	<input type="text"/> - Qiymatliklar chiqimi (Bir nechta bo'lishi mumkin)
Debet aylanish jami	Kredit aylanish jami
<input type="text"/> Qi <sub>oy</sub> oxiriga	

2-chizma. Analitik aktiv hisobvaraqlardagi hisob-kitoblar.

Budget tashkilotida mavjud aktiv hisobvaraqlar oy oxiri yoki hisobot davriga kelib sarhisob qilinadi. Aktiv hisobvaraqlarning oy (hisobot) oxiriga qoldiq qiymatini quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_{oy\ oxiriga} = (Q_{oy\ boshiga} + \text{Debet aylanish jami}) - \text{Kredit aylanish jami}$$

### Hisobvaraq nomi

Debet	Kredit
<input type="text"/> - Qiymatliklar kirimi (Bir nechta bo'lishi mumkin)	<input type="text"/> + Qiymatliklar chiqimi (Bir nechta bo'lishi mumkin)
Debet aylanish jami	Kredit aylanish jami
<input type="text"/> Qi <sub>oy</sub> oxiriga	

3-chizma. Analitik passiv hisobvaraqlardagi hisob-kitoblar.

Budget tashkilotida mavjud passiv hisobvaraqlar oy oxiri yoki hisobot davriga kelib sarhisob qilinadi. Passiv hisobvaraqlarning oy(hisobot) oxiriga qoldiq qiymatini quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$Q_{\text{oy oxiriga}} = (Q_{\text{oy boshiga}} + \text{Kredit aylanish jami}) - \text{Debet aylanish jami},$$

Debet aylanish jami=Qiymatliklar kirimi (Bir nechta bo'lishi mumkin).

Kredit aylanish jami=Qiymatliklar chiqimi (Bir nechta bo'lishi mumkin),

Formulalardagi Q-qoldiq, Debet–kirim, Kredit–chiqim, Plyus–mablag‘larni ko‘payish, Minus–mablag‘larni kamayish ma’nolarida ishlatalmoqda.

### 1.3.3. Hisobvaraqlarning turkumlanishi

Buxgalteriya hisobi hisobvarqlarining turkumlanishi borasida quyidagilarni aytish mumkin:

A–Aktiv (bor, ko‘rsa, sanasa bo‘ladigan mablag‘lar va moddiy ko‘rinishdagi qiymatliklar tushuniladi. Bu aktivlarni aks ettirishga mo‘ljallangan hisobvaraq bo‘lib, unda iqtisodiy resurslarning qoldig‘i va ko‘payishi hisobvaraqnning debetida, kamayishi esa kredit bo‘yicha aks ettiriladi. Barcha aktiv hisobvaraqlarning sintetik holati balansning aktiv qismidagi moddalarida qayd etiladi);

AK–Aktivni kamaytiruvchi (bu u bilan bog‘liq bo‘lgan aktiv hisobvarag‘ining qoldig‘idan chegiriladigan moliyaviy hisobot (balans)da aktivning sof qiymatini aks ettiruvchi hisobvaraqdир. Asosiy vositalarni eskirish hisobini aktivni kamaytiruvchi hisobvaraq deyishimiz mumkin. Mazkur hisobvaraq ham balansning aktiv qismida qayd etiladi);

P–Passiv (Bu majburiyat va sarmoyani aks ettirishga mo‘ljallangan hisobvaraq bo‘lib, unda majburiyat va sarmoyaning qoldig‘i va ko‘payishi hisobvaraqnning krediti bo‘yicha, kamayishi esa debet bo‘yicha aks ettiriladi.);

PK – Passivni kamaytiruvchi (bu u bilan bog'liq bo'lgan passiv hisobvaraqnning qoldig‘idan chegiriladigan balans hisobotida majburiyat yoki sarmoyaning sof qiymatini aks ettiruvchi hisobvaraqdир.)

T – Tranzit (bu hisobot davrida foydalaniladigan, lekin hisobot davri oxiriga qoldiqqa ega bo‘lmaydigan daromadlar va xarajatlarning vaqtinchalik hisobvaraqlaridir. Shuningdek, budget tashkiloti bosh hisobchisi tomonidan hisobot davri uchun soliq va majburiy to‘lovlар bo‘yicha, daromad va xarajatlarni shakllantirishda qo‘llaniladigan hamda hisob siyosatiga kiritilgan hisobvaraqlaridir);

BT – Balansdan tashqari (Bu tashkilotga qarashli bo‘lgan, lekin tasarrufida bo‘lgan aktivlarni bori va harakati, shartli huquqlar va majburiyatlar haqidagi axborotni umumlashtirishga mo‘ljallangan hisobvaraqlardir. Misol tariqasida, ijaraga olingan asosiy vositalar va boshqa balansdan tashqari qiymatliklar hisobini yuritish vazifasini bajaradi.).

Budget tashkilotlarining hisobvaraqlari rejasи quyida keltirilgan bo‘lib, u 5 bobni o‘z ichiga qamrab oladi:

I bob. Nomoliyaviy aktivlar.

II bob. Moliyaviy aktivlar.

III bob. Debitorlar va kreditorlar.

IV bob. Moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar.

V bob. Balansdan tashqari hisobvaraqlar.

*Budget tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobiining yangi hisobvaraqlar rejasи (2011-yil 1-yanvardan boshlab barcha budget tashkilotlarida qo‘llaniladi).*

### **I bob. Nomoliyaviy aktivlar**

#### **§ 1. Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli nomoliyaviy aktivlar**

##### **01 Asosiy vositalar**

010 Turar-joy imoratlar

011 Noturar joy imoratlar

012 Inshootlar

013 Mashina va jihozlar

015 Transport vositalari

018 Kutubxona fondi

019 Boshqa asosiy vositalar

**02 Asosiy vositalarning eskirishi**

020 Turar-joy imoratlarning eskirishi

021 Noturar joy imoratlarning eskirishi

022 Inshootlarning eskirishi

023 Mashina va jihozlarning eskirishi

025 Transport vositalarining eskirishi

029 Boshqa asosiy vositalarning eskirishi

**03 Boshqa uzoq muddatli nomoliyaviy aktivlar**

030 Nomoddiy aktivlar

**§ 2. Noishlab chiqarish aktivlari**

**04 Noishlab chiqarish aktivlari**

040 Yerni obodonlashtirish

**§ 3. Tovar-moddiy zaxiralar**

**05 Tayyor mahsulot**

050 Tayyor mahsulot

06 Boshqa tovar-moddiy zaxiralar

060 Qurilish materiallari

061 Oziq-ovqat mahsulotlari

062 Dori-darmonlar va yarani bog'lash vositalari

063 Inventar va xo'jalik jihozlari

064 Yonilg'i, yoqilg'i-moylash materiallari

065 Mashina va asbob-uskunalarining ehtiyyot qismlari

069 Boshqa tovar-moddiy zaxiralar

**§ 4. Nomoliyaviy aktivlarga qo'yilmalar**

**07 Asosiy vositalarga qo'yilmalar**

070 O'rnatish uchun mo'ljalangan asbob-uskunalar

071 Tugallanmagan qurilish

072 Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar

08 Nomoddiy aktivlarga qo'yilmalar

080 Nomoddiy aktivlarga xarajatlar

09 Boshqa nomoliyaviy aktivlarga qo'yilmalar

090 Tovar (ish, xizmat)larga xarajatlar

091 Tovar-moddiy zaxiralarga boshqa xarajatlar

**II bob. Moliyaviy aktivlar**

**10 Hisobvaraqlardagi budjet mablag'lari**

100 Tashkilotni saqlash uchun moliyalashtirilgan budjet mablag'lari

101 Boshqa maqsadlar uchun moliyalashtirilgan budjet mablag‘lari

## **11 Hisobvaraqlardagi budjetdan tashqari mablag‘lar**

110 To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag‘lar

111 Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar

112 Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari

113 Boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar

114 Budjet tashkilotining vaqtincha ixtiyorida bo‘ladigan mablag‘lar

115 Valuta hisobvarag‘i

119 Boshqa hisobvaraqlardagi pul mablag‘lari

## **12 G‘azna**

120 Milliy valutadagi naqd pul mablag‘lari

121 Xorijiy valutadagi naqd pul mablag‘lari

## **13 Boshqa pul mablag‘lari**

130 Akkreditivlar

131 Yo‘ldagi pul mablag‘lari

132 Pul ekvivalentlari

## **14 Moliyaviy qo‘yilmalar**

140 Depozitga qo‘yilgan pul mablag‘lari

### **III bob. Debitorlar va kreditorlar**

## **15 Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar**

150 Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar

152 Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar

154 Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar

155 Budjet tashkilotining ixtiyorida vaqtincha bo‘ladigan mablag‘lar bo‘yicha hisob-kitoblar

156 To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar

159 Boshqa debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar

## **16 Budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalar bilan hisob-kitoblar**

160 budjetga to‘lovlar bo‘yicha budjet bilan hisob-kitoblar

161 Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha hisob-kitoblar

162 Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i badallari bo‘yicha hisob-kitoblar

163 Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bilan hisob-kitoblar

169 Boshqa budjetdan tashqari jamg‘armalar bilan hisob-kitoblar

17 Xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar

170 Kamomadlarga doir hisob-kitoblar

171 Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo‘yicha hisob-kitoblar

- 172 Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar
  - 173 Xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar
  - 174 Stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar
  - 175 Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar
  - 176 Xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadigan haq bo'yicha hisob-kitoblar
  - 177 Deponentlangan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar
  - 179 Xodimlar bilan boshqa hisob-kitoblar
- 18 Boshqa hisob-kitoblar**
- 180 Yuqori va quyi tashkilotlar o'rtasidagi boshqa hisob-kitoblar

#### **IV bob. Moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar**

##### **§ 1. Realizatsiya va xarajatlar**

##### **20 Mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasi**

- 200 Mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasi
- 201 Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi
- 21 Boshqa xarajatlar
- 210 Taqsimlanadigan xarajatlar
- 211 Davr xarajatlari

##### **§ 2. Joriy yilga moliyaviy natijalar**

##### **23 Budjet mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar**

- 230 Budjet mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar
- 231 Budjet mablag'lari bo'yicha haqiqiy xarajatlar
- 232 Budjetdan moliyalashtirish

##### **24 To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar**

- 240 To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar

241 To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar

242 Ta'lim muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag'lari

##### **25 Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar**

- 250 Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar

251 Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar

252 Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha daromadlar

## **26 Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natijalar**

260 Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natijalar

261 Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar

262 Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar

## **27 Boshqa daromadlar bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natijalar**

270 Boshqa daromadlar bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natijalar

271 Boshqa daromadlar bo‘yicha haqiqiy xarajatlar

272 Boshqa budjetdan tashqari daromadlar

273 Inventarlash natijasida ortiqcha chiqqan mol-mulklar

## **§ 3. Yakuniy moliyaviy natijalar**

### **28 Yakuniy moliyaviy natijalar**

280 Budjet mablag‘lari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natija

281 To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo‘yicha yakuniy moliyaviy natija

282 Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natija

283 budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natija

284 Boshqa daromadlar bo‘yicha yakuniy moliyaviy natija

285 budjetga va budjetdan tashqari jamg‘armalarga hisoblangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yicha imtiyozlar

## **V bob. Balansdan tashqari hisobvaraqlar**

01 Ijaraga olingan asosiy vositalar

02 Mas’ul saqlashga olingan tovar-moddiy qimmatliklar

04 Qat’iy hisobot blanklari

05 Ishonchsiz debitorlarning qarzlarini xarajatga chiqazilishi

06 Markazlashtirilgan ta’mnotin bo‘yicha to‘langan moddiy qimmatliklar

07 O‘quvchilar va talabalarning qaytarilmagan moddiy qimmatliklar bo‘yicha qarzlarini

08 Ko‘chma sport sovrinlari va kuboklari

09 To‘lanmagan yo’llanmalar

- 10 Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlari
- 11 Harbiy texnikalarning o‘quv predmetlari
- 12 Eskirganlarining o‘rniga berilgan transport vositalarining ehtiyyot qismlari

### **Tayanch iboralar:**

*Hisobvaraqlar. Hisobvaraqlar rejasi. Aktiv hisobvaraq. Passiv hisobvaraq. Oy boshiga qoldiq. Oy oxiriga qoldiq. Debet. Kredit. Nomoliyaviy aktivlar. Moliyaviy aktivlar. Balansdan tashqari aktivlar. Tranzit hisobvaraq*

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari to‘g‘risida tushuncha.
2. Budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobida sintetik va analitik hisobvaraqlari deganda nimani tushunasiz?
3. Hisobvaraq nima o‘zi?
4. Sintetik hisobvaraq nima?
5. Analitik hisobvaraq nima?
6. Sintetik va analitik hisobvaraqlarning farqi nimada?
7. Hisobvaraqlarning turkumlanishi deganda nimalarni tushunasiz?
8. Buxgalteriya hisobi registrlari deganda nimalarni tushunasiz?

## **1.4-§. BUXGALTERIYA HISOBI REGISTRLARI**

### **1.4.1. Buxgalteriya hisobi registrlari to‘g‘risida tushuncha**

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining registrlari ikki yoqlama yozuv qoidalariga muvofiq yuritiladi. Buxgalteriya hisobining registrlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- Hisobga olish jurnallari;
- Mol-mulkni qayd etish qaydnomalari;
- Hisob cheki va chek daftarlari;
- Buxgalteriyada hisobga olish uchun tasdiqlangan blanklar;
- Asosiy vositalarning harakatini qayd etish kartochkalari;
- Kirim orderlari;
- Chiqim orderlari;
- Memorial orderlar.

Registrlarni shakllantirish tartibi buxgalteriya hisobi Milliy an-dazalari asosida tartibga solinadi. Buxgalteriya hisobi registrlarini

belgilangan tartibdagi qoidalardan tashqari tuzatishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Budget tashkilotlari muomala jarayonlarining har biri o'zining tegishli registrlarida aloqida-alohida qayd etib borilishiga ko'ra *analitik va sintetik hisobvaraqlar* shaklida rasmiylashtiriladi.

Bosh kitob – *sintetik hisob registri* hisoblanadi. Mazkur registrda boshlang'ich hisobvaraqlardagi muomalalarning qiymatlari jami summasi aniqlanib, bosh kitobga faqat bosh hisobchi tomonidan ko'chirib yoziladi.

Hisob-kitoblar daftari, g'azna va haqiqiy xarajatlarni hisobga olish daftari, asosiy hisobga olish kartochka(shakl)lari *analitik hisob registri hisoblanadi*.

Analitik registrlar atamasi – bir muomala (ish va xizmatlar) bajarilganligini qayd etilishi uchun ishlab chiqilgan hisobvaraqlar (hujjat)dir.

Sintetik registrlar atamasi – analitik ishlarning bir turiga mos barcha muomalalar qiymatining yig'indisini aks ettiruvchi hisobvaraqdirdir.

Boshqa tashkilotlarda bo'lgani kabi, budget tashkilotlarida ham barcha ish yuritish jurnallari, bosh kitob va boshqa registrlar belgilangan tartibda himoyalananadi. Ya'ni:

– registrlar tartib (1, 2, 3 ..., n) bilan har bir varaqlari sahifalanadi;

– tikiladi (tikilish registr (daftar)ning umumiyo ko'rinishini buzmagan holda, daftar orqa qismiga mahkamlanib tugiladi va kichik qog'oz bilan yelimlanib muhr, sahifa jamisi, sanasi, budget tashkiloti rahbari imzo va muhri bilan to'ldiriladi).

– saqlanadi (seyfda, quruq holatda, alohida ishslash xonasida, muddati o'tkanlari esa arxivda).

#### **1.4.2. Buxgalteriya hisobining asosiy registrlari**

Budget tashkilotlari buxgalteriya hisobining g'azna ijrosida qo'llaniladigan registrlari mavjuddir. Budget tashkilotlarining g'azna ijrosi bo'yicha muomalalarning buxgalteriya hisobi registrlari ikki-

yoqlama yozuv qoidalariga muvofiq tasdiqlangan blanklar (shakllar), jurnallar, kitoblardan iborat bo‘ladi.

Budgetlarning g‘azna ijrosi bo‘yicha muomalalarnining buxgalteriya hisobi quyidagi hisobga olish registrlarida yuritiladi:

- a) 1-k–sonli shakldagi «Bosh-jurnal» daftari;
- b) 3kbs, 3-kvpf va 3-kvbs–sonli shakldagi budget va budgetdan tashqari mablag‘larning g‘azna xarajatlari bo‘yicha daftarlari (mazkur Qoidalarning 4 «a» –4 «v»–sonli ilovasi);
- d) 4-bs–sonli shakldagi budgetlar o‘rtasidagi budget ssudalari bo‘yicha hisob-kitoblar daftari (mazkur Qoidalarning 5–sonli ilovasi);
- e) 4-k –sonli shakldagi boshqa budgetlar bilan hisob-kitoblar daftari (mazkur Qoidalarning 6 k–sonli ilovasi);
- f) 5-k–sonli shakldagi budget mablag‘lari daromadlari va tushumlari hisobi daftari (mazkur Qoidalarning 7–sonli ilovasi).

Bunda, budgetlarning g‘azna ijrosi buxgalteriya hisobi registrlarini bo‘yicha muomalalar elektron shaklda yuritiladi.

Amalga oshirilgan g‘azna xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumot Davlat budgetining g‘azna ijrosi dasturiy majmuida kunlik asosida va hisobot oyi, choragi va yilining o‘sib boruvchi yakuni bilan bank ko‘chirmalaridan olingan va tegishli g‘azna hisobvaraqlariga (operatsiya amalga oshirilgan kunning ertangi bank kunitan kechiktirmasdan) kelib tushgan va ko‘chirilgan mablag‘lar to‘lov hujjatlari ma’lumotlari asosida aks ettiriladi.

Davlat budgetining g‘azna ijrosi dasturiy majmuida muomalalar yozuvni «Bosh-jurnal» daftarida (1-k–sonli shakl) va mazkur Qoidalarda ko‘zdautilgan boshqa buxgalteriya hisobi registrlarida avtomatik tarzda shakllanadi.

«Bosh-jurnal»daftari (1-k–sonli shakl) asosida har bir budget bo‘yicha budgetning g‘azna ijrosi balansi alohida shakllanadi.

Buxgalteriya hisobi registrlarida o‘tgan yil uchun sintetik hisobvaraqlardagi mavjud bo‘lgan qoldiqlar keyingi yilda budgetlar ijrosi hisobi uchun ochilgan tegishli buxgalteriya hisob registrlariga ko‘chiriladi va hisobga olinadi.

#### **1.4.3. Buxgalteriya hisobining memorial-order shakli**

Buxgalteriya hisobining memorial-order shakli buxgalteriya hisobida ayrim boshlang‘ich hisob hujjatlari yoki guruhlovchi va yig‘uvchi qaydnomalar asosida memorial-orderlar rasmiylashtiriladi va har bir orderning umumiyligi summasi ro‘yxatga olish jurnaliga yoziladi. Memorial-orderlarning ma’lumotlari bosh kitobga yoki bosh kitobning o‘rnini oladigan nazorat qaydnomaga yoziladi. Bunda debet hisobvarag‘i bo‘yicha ikki yoqlama yozuvlanuvchi kreditlanuvchi hisobvaraqlar hamda kredit hisobvarag‘i bo‘yicha ikki yoqlama yozuvlanuvchi debetlanuvchi hisobvaraqlar ko‘rsatiladi. Oy tugagandan keyin har bir hisobvaraqnинг debeti va kreditidagi qiymatliklar sintetik hisobvaraqlar bo‘yicha aylanma qaydnomaga o‘tkaziladi. Bu qaydnomaning jami ro‘yxatga olish jurnali bo‘yicha jami summa bilan solishtiriladi. Memorial-orderlarga ilova qilingan hujjatlarning ma’lumotlari bo‘yicha analitik hisob hisobvaraqlari olib boriladi; oyning oxirida ular asosida aylanma qaydnomalari rasmiylashtiriladi; sintetik hisobvaraqlar bo‘yicha aylanma qaydnoma bilan solishtiriladi. Sintetik hisobvaraqlar bo‘yicha aylanma qaydnoma asosida balans rasmiylashtiriladi.

Memorial-order shaklining asosiy kamchiliklari bo‘lib, analitik hisobning sintetik hisobdan alohidaligi, bitta summaning ko‘p marotaba yozilishi(memorial-orderda, ro‘yxatga olish jurnalida, sintetik hisob va analitik hisob registrlarida), hisobot tuzishda joriy hisob ma’lumotlarini yig‘ib chiqilishi va guruhlashtirilishini amalga oshirish kerakligi hisoblanadi.

#### **1.4.4. Buxgalteriya hisobining jurnal-order shakli**

Budget tashkilotlarda buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini aks ettirish borasida belgilangan me’yoriy hujjat talablariga muvoifiq buxgalteriya hisobi yuritishning memorial-order shaklida hisob–kitoblarini yozib boriladi. Barcha vazirliliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari, shuningdek, ularning tizimidagi boshqarmalar,

bo‘limlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda buxgalteriya hisobini yuritishni jurnal-order shaklida olib borishlari mumkin.

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shakli ko‘pgina budget tashkilotlarida va markazlashtirilgan buxgalteriyalarda qo‘llaniladi. Buxgalteriya hisobining jurnal-order shakli muomalalari ko‘p bo‘lgan budget tashkilotlarida qo‘llaniladi.

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shakli boshlang‘ich hisob hujjatlarining ma’lumotlarini sintetik va analistik hisobini olib borish uchun kerak bo‘ladigan tushunchadan kelib chiqib, umumlash-tirishda foydalanishga asoslangandir. Hisobning bu shaklida umum-lashtiruvchi registrlarning ikki xil shakli qo‘llaniladi: *jurnal-orderlar* va *yordamchi qaydnomalar*. Jurnal-orderlarda ikki yoqlama yozuvlanuvchi hisobvaraqlar keltiriladi, shuning uchun ham memorial-orderlarni tuzish zarurati yo‘q. Jurnal-orderlarda yozuvlar alohida-alohida hisobvaraqlar tartibida olib boriladi, shuning uchun ham ro‘yxatga olish jurnalini yuritishga zarurat qolmaydi.

Boshlang‘ich hisob hujjatlarining yoki yordamchi va guruh-lovchi qaydnomalarning ma’lumotlari har bir sintetik hisobvaraqga alohida-alohida yuritiladigan jurnal-orderlarga yoziladi. Ayrim jurnal-orderlar bir-nechta o‘zaro aloqador sintetik hisobvaraqlar uchun tayinlangan bo‘ladi. Jurnal-orderlar kredit alomati bo‘yicha tuzilgan, ya’ni ularda yozuvlar mazkur hisobvaraqning krediti bo‘yicha ikki yoqlama yozuvlanuvchi debetlanuvchi hisobvaraqlar bilan amalga oshiriladi. Budget tashkilotining g‘azna va talab qilib olgunga qadar depozit hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiya ustidan qat’iy nazoratni ta’minlash uchun debet bo‘yicha maxsus qaydnomalar ham yuritiladi. Jurnal-orderlarning oylik jami bosh kitobga o‘tkaziladi. Bu bosh kitob memorial-order shaklida olib boriladigan bosh kitobdan shaklan farq qiladi, chunki hisobvaraqning krediti bo‘yicha kredit aylanmaning umumiyligini ikki yoqlama yozuvlanuvchi debetlanuvchi hisobvaraqlar bo‘yicha bo‘linmasdan yozish uchun bir ustun ko‘zda

tutilgan. Bundan tashqari, aylanmani yozish uchun har bir oyga faqat bir qator ajratiladi; saldo ko'rsatiladi. Bosh kitob asosida (sintetik hisobvaraqlar bo'yicha aylanma qaydnomasi tuzmasdan) balans rasmiylashtiriladi.

Jurnal-orderlarda ko'pgina hisobvaraqlar bo'yicha sintetik va analitik hisoblar birga olib boriladi. Katta miqdordagi analitik hisobvaraqlarga ega bo'lgan hisobvaraqlar bo'yicha alohida analitik hisob olib boriladi. Bu analitik hisobvaraqlar bo'yicha aylanma yoki saldo qaydnomalari rasmiylashtiriladi.

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklida yozuvlar va registrlar soni qisqaradi; analitik hisob sintetik hisob bilan yaqinlashtiriladi; ko'pgina hisobot ko'rsatkichlarni joriy hisob registridan to'g'ridan to'g'ri olish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa hisobotni tuzishni osonlashtiradi va tezlashtiradi hamda hisob analitik sifatini yuqori darajaga ko'taradi.

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shakli kamchiliklarga ega bo'lib, ayrim jurnal-orderlarning tuzilishini murakkabligi va beso'naqayligi buxgalteriya hisobida shaxsiy kompyuterlarni qo'llanilgan hollarda jurnal-orderlarni qo'llashning qiyinligi hisoblanadi.

#### **1.4.5. Buxgalteriya hisobining bosh-jurnal shakli**

Bosh-jurnal shakli qo'llanilganda, buxgalteriya hisobi kitoblarda yoki kartochkalarda yuritiladi. Bu tartibni yuqori tashkilotning bosh hisobchisi belgilaydi. Bunda quyidagi kitoblar qo'llaniladi: «Bosh-jurnal» kitobi, g'azna kitobi, mehnat haqi to'lashga tarqatuvchilarga berilgan pullar kitobi, joriy hisobvaraqlar va hisob-kitoblarni hisobga olish kitobi, deponet qilingan mehnat haqi va stipendiyalarining analitik hisobini olib borish kitobi, moddiy qiyamatliklarni miqdor-summali hisobini olib borish kitobi, quyi tashkilotlarni moliyalashtirish bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga olish kitobi, maxsus mablag'larni hisobga olish kitobi. Bosh-jurnal kitobi sintetik hisob uchun, hamma qolganlari esa analitik hisob uchun tayinlangan.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi hisob va hisobot tizimini yaxshilash, avvalo, hisobni markazlashtirish va ma'lumotlarni ishlashning elektron tizimini qo'llash hisoblanadi.

## **1.5-§. BOSH HISOBCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **1.5.1. Bosh hisobchining asosiy vazifalari**

Buxgalteriya bo'limining boshlig'i bu lavozimiga budget tashkiloti direktorining buyrug'i bilan tayinlanadi va ozod etiladi.

Budget tashkiloti buxgalteriya bo'limi bosh hisobchisining asosiy vazifalarini sanab o'tamiz:

Bosh hisobchi vazifasiga tayin etilganda ishni qabul qilish yoki ozod etilganda ishni topshirish hujjat (akt) bilan rasmiylashtiriladi. Buxgalteriya bo'limi boshlig'i bevosita budget tashkiloti direktori va uning iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rribbosariga bo'ysunadi. Bosh hisobchi budget tashkiloti tizimida, moddiy, mehnat va moliyaviy zaxiralardan samarali foydalanish, davlat mulkini ehtiyyot qilish maqsadida hisob-kitob ishlarini tashkil etadi, hisobga olish va hisobot ishlarini yo'lga qo'yishga metodik rahbarlik qiladi, hisoblash texnikasi, hisobga olishning istiqbolli shakl va usullarini qo'llaydi, hisobchi xodimlarning kasb mahorati va ijodiy faoliyatini ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, amaliy nazorat va ishda tezkorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, mablag' va boylik bilan bog'liq moddiy ma'suliyatli vazifalarini bajarishga ruxsat etilmaydi, ya'ni bevosita cheklar va boshqa hujjatlar bilan pul yoki mollarni olish taqiqilanadi;

Budget tashkilotida buxgalterlik va hisob-kitob ishlariga metodik rahbarlik qiladi hamda istiqbolli ish shakllari va usullarini tadbiq etish bo'yicha bo'lim ish rejalarini va tadbirlarini ishlab chiqadi. Shu bilan birga mazkur hisob-kitob, hisobot ishlarini innovatsion texnologiyalar asosida avtomatlashtirish vositalaridan foydalanishni tashkil etadi;

Asosiy mulklar va moddiy boyliklarning ehtiyyotlab saqlanishi va samarali foydalanimishi ustidan nazorat o'rnatadi. Dastlabki hisob-

kitob hujjatlarining yagona uslubini joriy etish ishlarini nazorat qiladi;

Bo‘lim bo‘yicha yakuniy hisobotlarni tekshirib, ko‘rsatilgan vaqtarda tegishli joylarga yetkazib berilishini ta’minlaydi.

### **1.5.2. Bosh hisobchining huquqlari**

Budjet tashkiloti buxgalteriya bo‘limi faoliyatiga taalluqli masalalar bo‘yicha kengash va maslahat yig‘ilishlarini chaqiradi.

Budjet tashkiloti buxgalteriya bo‘limi boshlig‘ining huquqlari sifatida quyidagilar hisoblanadi:

1. Bo‘lim xodimlari zimmasiga yuklangan vazifani bajarganligi yoki qoniqarsiz bajarganligi uchun unga nisbatan jazo chorasi ko‘rish (vazifasidan ozod qilish) haqida taklifni korxona rahbariyatiga tavsiya qiladi, xodimlarning o‘z vazifalarini bajarishda ko‘rsatgan jonbozligi uchun ularga mukofot miqdorini ko‘paytiradi yoki kamaytiradi.

2. Tashkilot faoliyatidan tushgan va xarajat qilingan mablag‘larni hisobga olishni tashkil etadi.

3. Tashkilot mablag‘laridan samarali foydalanish, davlat mulkini asrash, hisobga olish va hisobot ishlarini to‘g‘ri va muntazam tashkil etilishini talab qiladi.

### **1.5.3. Buxgalteriya bo‘limi boshlig‘ining burchlari**

Budjet tashkiloti buxgalteriya bo‘limi boshlig‘i albatta bosh hisobchi hisoblanib, u berilgan huquqlar doirasida quyidagi vazifalarning bajarilishini ta’minlashi kerak:

1) hisob-kitob va hisoblash ishlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashтирish, hisob-kitob ishlarining istiqbolli shakl va usullarini qo‘llash;

2) iqtisod bo‘limi bilan birgalikda, korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini, uning ichki imkoniyatlarini topish, zarar va befoyda xarajatlarning oldini olish maqsadida muntazam ravishda tahlil qilish;

3) hisob-kitob xarajatlarini saqlash, rasmiylashtirish va arxivga tartib asosida topshirilishini tashkil etish;

- 4) pul mablag‘larini, moddiy boyliklarini, asosiy jamg‘armalar, hisob-kitob va to‘lov hujjatlarini inventarlash qilishda amaldagi tartib-qoidalarga rioya qilish;
- 5) debitorlik va kreditorlik qarzlarini vaqtida uzish, to‘lov intizomiga rioya qilish;
- 6) xodimlarni bo‘lim nizomi, lavozim yo‘riqnomalari, bo‘limning ish rejasi va boshqa normativ hujjatlar bilan tanishtirish, ularni bajarish uchun zaruriy imkoniyatlar yaratish;
- 7) bo‘lim xodimlari o‘rtasida ishlab chiqarish, iqtisodiy mavzularda mashg‘ulotlar o‘tkazish, ularning kasb mahoratini oshirishga ko‘mak berish;
- 8) Bo‘limda mehnat sharoiti, mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasiga rioya qilish, jamoada amaliy ishchanlik vaziyatini vujudga keltirish;
- 9) Korxona moliyaviy mablag‘lari bilan bog‘liq hisob-kitoblari, tijorat va boshqa daromadlariga oid ma’lumotlarni sir saqlash; zaruriy ma’lumotlar esa rasmiy ravishda, korxona direktori (direktorning iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari) ruxsati bilan berilishiga rioya qilish;
- 10) Maosh va boshqa to‘lovlar uchun asos bo‘ladigan hujjatlar (tabellar, kasallik varaqalari, to‘lov varaqalari)ning to‘g‘ri va haqqoniyligini tekshirish.

#### **1.5.4. Buxgalteriya bo‘limi boshlig‘ining malaka talablari**

Budget tashkiloti buxgalteriya bo‘limi boshlig‘ining malaka talablarini sanab o‘tamiz:

1) Bo‘lim boshlig‘i lavozimiga tayinlanadigan xodim kamida bakalavr yoki magistrlik darajasida buxgalteriya hisobi mutaxassis bo‘lishi bilan bir qatorda mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil ishlagan bo‘lishi kerak. Ba’zi hollarda kuchli iqtidor sohibi bo‘lsagina, uni budget tashkiloti buxgalter mutaxassisligi doirasida ishlash vaqtini 5 yildan kamaytirishi yoki yo‘qqa chiqarilishi mumkin;

2) Yuqori tashkilotlardan keladigan va bo‘lim faoliyatiga aloqador nizomlar, yo‘riqlarnomalar va boshqa normativ hujjatlarni bilishi kerak;

3) Hech bo'limganda debet, kredit, foyda, zarar, hisobot, jarima, javobgarlik, ma'suliyat kabilar borasida kasbdoshlariga o'rnak bo'la oladigan ma'naviyatli inson bo'lishi kerak;

4. Har qanday muomala mazmuni bo'yicha buxgalteriya ikki yoqlama yozuvlarini amalga oshirishni bilishi shart.

Bo'limda, bo'lim boshlig'i ishda bo'limgan davrda (safarda, ta'tilda yoki betob bo'lganida) uning vazifalarini yetakchi mutaxassislardan biri bajaradi va bu holat budget tashkiloti bo'yicha buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

### **1.5.5. Budget tashkiloti bosh hisobchisining javobgarligi**

Budget tashkiloti bosh hisobchisining javobgarligi quyidagilarda gavdalanadi:

1. Bosh hisobchi o'z faoliyatida Vazirlar Mahkamasining qarorlari, nizomlari, korxona nizomi, Bosh hisobchilar haqidagi yo'riqnama, hay'at qarorlari, budget tashkiloti direktorining barcha buyruqlariga qonun doirasida rioya qiladi.

2. Buxgalterlik hisobotlarini o'z vaqtida va aniq tuzib, manzillarga jo'natishni nazorat qiladi.


3. Xarajat uchun olingan mablag'larning to'g'ri va o'z vaqtida hisobga olinishini nazorat qiladi.

4. Lavozim bo'yicha uning zimmasiga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishiga ma'suldir;

5. Mehnat va moliyaviy intizomning korxona ichki tartib-qoidalaring bajarilishiga ma'suldir;

6. Mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi talablarining benuqson bajarilishiga ma'suldir. Shuningdek, berilgan yoki jo'natilgan hujjatlar belgilangan ijro intizomi talablari doirasida bajarilishining nazorat (monitoring)ini olib boradi.

Budget tashkilotida topshiriqlarning berilishi hamda ularning ijrosi yuzasidan hisobotlarni talab qilishda buxgalteriya bo'limining rolini (4-chizma) ko'rib o'tamiz.



Bu yerda:

→ Topshiriq olish.      - - - → Hisobot talab qilish.

*4-chizma.* Budget tashkiloti rahbarining topshiriq berishi va bosh hisobchini g'azna ijrosi yuzasidan davriy hisobotlarni qabul qilish.

Quyidagi strukturaviy tuzilishdan, bosh hisobchini to'g'ridan ta'g'ri rahbardin topshiriqlar olib, u bo'yicha hujjatlar ijrosini ta'minlashini ko'rishimiz mumkin.

Rahbarning barcha muovinlari bosh hisobchi ustidan buyruq berishlari yoki g'azna ishlarini nazorat qilishlari mumkin emas.

Agar tashkilot rahbari buyruq chiqarish orqali rasmiy ko'rinish kiritadigan bo'lsa, shunda ham nazorat organlari mutaxassislari jalb qilinsagina (a'zo sifatida tekshirish komissiyasida qatnashishi) kuzatuvchi sifatida talluqli masalalarda ishtirok etishi mantiqqa to'g'ri keladi.

Bosh hisobchi moliyaviy ishlar (G'azna ijrosi) yuzasidan rah-barning barcha muovinlari, boshqarma (bo'lim)lardan davriy hisobtlarni talab qilishga, tasdiqlangan smeta xarajatlarini g'azna talablari doirasida nazoratga ma'sul hisoblanadi.

Bosh hisobchi va uning yordamchi muovinlari buxgalteriya hisob ishlarini yuritishda maxfiylikka rioya qilishlari shart (1996-yil 30-avgust O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuning 22-moddasi).

Buxgalteriya hisobi registrlarining mazmuni bilan tanishishga budget tashkiloti direktori ruxsati bilan yoki qonun hujjatlarida na-zarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi. Buxgalteriya hisobi registrlari bilan tanishishga ruxsat etilgan shaxslar ularning maxfiyligini saqlashlari shart. Maxfiylikni buzganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Shuningdek, buxgalteriya hujjatlarini saqlash va registrlar, mikrofilmlar yoki kompyuter hisobi moliyaviy ma'lumotlari kamida uch yil, moliyaviy hisobot esa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida saqlanadi. Undan tashqari, buxgalteriya hujjatlarini olib qo'yish yuqori vakolatli davlat nazorat organlari tomonidan chiqarilgan hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Pul, tovar-moddiy va boshqa boyliklarni qabul qilish va berish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlar, korxona, muassasa va tashkilotning kredit va hisob-kitob majburiyatları, shuningdek buxgalteriya hisobotlari va balanslari rahbar tomonidan yoki u belgilaydigan shaxslar tomonidan imzolanadi.<sup>3</sup>

Rahbar imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarining ikkita ro'yxatini tasdiqlaydi. Birinchi ro'yxatga – rahbarlik vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar (rahbar, birinchi o'rinnbosari), ikkinchisiga – buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar kiradi.

Budget tashkiloti rahbari va bosh hisobchisining imzosi bo'lma-gan hujjatlar haqiqiy hisoblanmaydi.

---

<sup>3</sup> 1996-yil 30-avgust O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunning 8-moddasi.

## **1.6-§. HARAJATLAR SMETASI VA UNING TARKIBI**

### **1.6.1. Xarajatlar smetasining me'yoriy-huquyiy asosi**

Budjet tashkilotlarining smeta xarajatlari 2010-yil 29-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining № 92-sonli buyruq'i hamda 2010-yil 19-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining № 2157-sonli xatlari asosida ishlab chiqarilgan «O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida» Nizomi asosida tartibga solinadi.

Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 1–2-son, 6-modda), «Davlat budgetini g'azna ijrosi to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 43-son, 453-modda) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrdagi PQ-1245-son «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 52-son, 560-modda), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 14-iyuldagagi 358-son «Davlat budgeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlar faoliyatini tartibga solish to'g'risida»gi, 1999-yil 3-sentabrdagi 414-son «Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami, 1999-y., 9-son, 51-modda), 2003-yil 19-noyabrdagi 520-son «Vazirliklar va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalariga mablag'lar ajratish va ulardan foydalanishni tartibga solish choratadbirlari to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2003-y., 22-son, 223-modda), 2004-yil 28-dekabrdagi 610-son «O'zbekiston Respublikasining 2005-yilgi Davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-yil, 52-son, 523-modda) qarorlariga muvoifiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetida turuvchi tashki-

lotlarining budgetdan ajratilgan mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasini va budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, shtatlar jadvalini tuzish va ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilaydi.

Budget tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ishlab chiqilgandan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy moliya organlarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Budgetdan ajratilgan mablag'lar doirasida budget tashkilotlari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan maqsadlar uchun g'azna ijro xarajatlarini amalga oshiradi. Shuningdek, budget tashkilotining xarajatlarni qoplash uchun budgetdan ajratilgan mablag'lardan tashqari boshqa daromad manbalari mavjud bo'lgan budget tashkilotlari ham budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarni tuzish orqali o'z xarajatlari doirasida mablag'larni maqsadli ishlataadi.

Budget tashkilotining xarajatlar smetasi deb, budget tashkilotlari tomonidan joriy moliya yili uchun rasmiylashtiriladigan va tasdiqlanadigan xarajatlarni aniq moddalar bo'yicha taqsimlovchi hujjatga aytildi. Unda budget tashkilotlari uchun xarajatlar smetasi hujjatining moddalarida xarajatlar moddalarini bandlari ketma-ketligi aniq maqsadlar uchun qayt etilib, oldindan belgilanadi.

Budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta-tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun rasmiylashtiriladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkil topish manbalari va ushbu mablag'larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda budgetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi;

Xarajatlar moddasi-budget tasnifining qismi bo'lib, Davlat budgeti xarajatlarining iqtisodiy tayinlanishi va to'lovlarni aniq turlarini ifodalaydi;

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi-tashkilotlarning xarajatlar smetasi tasdiqlangunga va ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar amal qiluvchi hujjat bo'lib, unda budget tashkilotlari uchun ko'zda tutilgan, qonunchilikka o'zgartirishlarni hisobga olgan holda, har oyda avvalgi moliya yilining oxirgi choragidagi budgetdan ajratiladigan

mablag‘larning uchdan bir qismidan ortiq bo‘lmagan miqdorlardagi budgetdan ajratilgan mablag‘lar (xarajatlar rejasи) aks ettiriladi.

Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag‘lari – qonunchilikda nazarda tutilgan budgetdan tashqari manbalar hisobidan tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadigan mablag‘lar.

Davlat budgetidan mablag‘ oladigan tashkilotda tasdiqlangan xarajatlar smetasi, budgetdan tashqari mablag‘lar mavjud bo‘lganda esa budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta bo‘lishi shart.

Tashkilotlar, agarda qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, mustaqil ravishda xarajatlar smetasini, budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetani, shuningdek, shtatlar jadvalini tasdiqlangan tashkiliy tuzilma, shtat birliklari, namunaviy shtatlar va budgetdan moliyalashtirish me’yorlariga muvofiq ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

Xarajatlar smetasiga O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli hokimiyatlar ularga berilgan tegishli huquq va vakolatlar doirasidagi qarorlari va farmoyishlarida ko‘zda tutilgan xarajatlar kiritiladi.

Xarajatlar smetasi va budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta bir yillik muddatga – 1-yanvardan 31-dekabrni ham qo‘sghan holda, mavsumiy yoki joriy yilda ishga tushiriladigan tashkilotlar bo‘yicha esa ularning mazkur moliya yildagi faoliyat ko‘rsatish muddatiga rasmiylashtiriladi va amal qiladi.

Agar kelgusi moliya yili uchun Davlat budgeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan bo‘lsa, u holda Davlat budgeti qabul qilinbunga qadar bo‘lgan davrda xarajatlar budget tashkilotllari tomonidan vaqtinchalik xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetasini, budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetani tuzishda mehnatga haq to‘lash miqdorlari va shartlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi va tariflari quyidagicha hisobga olinadi:

1) mavsumiy tashkilotlar yoki joriy yilda ishga tushirilgan tashkilotlar bo'yicha – ushbu tashkilotning faoliyat ko'rsatishi boshlangan oyning birinchi sanasi holatiga;

2) qolgan tashkilotlar bo'yicha – mazkur smetalar tuzilayotgan tegishli yilning 1-yanvariga bo'lgan amaldagi shartlarda.

Budjet ijrosi jarayonida yuzaga keladigan barcha qo'shimcha xarajatlarga tashkilotlarning xarajatlar smetalariga qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritib boriladi.

Tashkilotlarning tasdiqlangan yil yoki choraklarga (oylarga) belgilangan xarajatlar smetasi mablag'lari miqdoriga yil davomida kiritiladigan o'zgartirishlar bo'yicha yuqori tashkilotlar o'ziga bo'y-sunuvchi tashkilotlarni yozma ravishda xabardor qilishlari lozim.

Bu o'zgartirishlar tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan smetala-riga tuzatishlar kiritmay, g'azna va haqiqiy xarajatlar kitobida (294-son shakl) hisobga olib boriladi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi, budjetdan tashqari mablag'-lar bo'yicha smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, shuningdek, shtatlar jadvali, qoida tariqasida, ming so'mda rasmiylashtiriladi.

### **1.6.2. Xarajatlar smetasini tuzish**

Xarajatlar smetasi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhlari bo'yicha, 4 guruh xarajatlarining to'liq yoyilmasini va hisob-kitoblarni o'z ichiga olgan holdagi ilova bilan birgalikda, shuningdek, Budjet tashkilotlarning smeta xarajatlari 2010-yil 29-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining №92-sonli buyrug'i hamda 2010-yil 19-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining №2157-sonli xatlari asosida ishlab chilgan «O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida» Nizomi asosida muvofiq shakl bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Smetaga qilinayotgan ilova, xarajatlar smetasining ajralmas qismi bo'lib, smetasining prognoz hisob-kitoblarini asoslaydi va hisobot tuzish maqsadida foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalar bo‘yicha xarajatlar smetasi erkin almashtiriladigan valuta va so‘mda xarajatlar guruhlari bo‘yicha, boshqa xarajatlarning to‘liq yoyilmasi va hisob-kitoblarni o‘z ichiga olgan holdagi ilova bilan birgalikda rasmiylashtiriladi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo‘yicha ishlarni tashkil etish davomida O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo‘limlari o‘zlariga bo‘ysunuvchi tashkilotlarga tegishli xalq deputatlari Kengashi sessiyasining budgetni tuzish tartibi va muddati to‘g‘risidagi qaroridan va moliya organining ushbu masala bo‘yicha ko‘rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to‘g‘risida ko‘rsatmalar beradilar.

Buning uchun O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo‘limlari o‘zlariga qarashli tashkilotlarning rahbarlari hamda tegishli xodimlari kengashini chaqiradilar va xarajatlar smetasini tuzish tartibi va muddatlari to‘g‘risida yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadilar, ularga tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga va ularga xarajatlar smetasini tuzish masalalari bo‘yicha qonunchilik talablarini tushuntiradilar, budget mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetasi hisob-kitoblarini albatta qonunchilikka muvofiq kelishi, xarajat qilishda moliya intizomiga, iqtisod qilish tartibiga rioya qilish haqida ko‘rsatmalar beradilar, shuningdek, xarajatlar smetasini tuzish hamda blanklarni to‘ldirish texnikasi masalalari bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadilar.

Bir vaqtning o‘zida ular o‘zlariga qarashli tashkilotlarga ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida (sinflar, o‘quvchilar, bolalar, shifoxonalarda joy-kunlar, bola-kunlar soni va boshqalar) kelgusi yil uchun ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yozma ravishda xabar qiladilar.

Xarajatlar smetasi bo‘yicha xarajatlarni hisoblab chiqish mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojga muvofiq iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini va iqtisod qilishning qat’iy tartibini amalga oshirishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi shart.

*Xarajatlarni hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilish kerak:*

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli hokimiylarning ularga berilgan huquq va vakolatlar doirasida qabul qilingan qaror va farmoyishlariga;
- Budget tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar me’yorlariga;
- Tovar va xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga;
- Xarajatlar smetasiga ish haqi uchun mablag‘lar qonunchilik bilan belgilangan maoshlari hamda ish haqi stavkalari va ularga qo’shimcha to’lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va me’yorlarga rioya qilishdan kelib chiqib kiritiladi. Ishbay usul bilan bajariladigan ishlar uchun ish haqi xarajatlar smetasiga budget yiliga xarajatlar smetasida ko’zda tutilgan ish hajmlaridan kelib chiqib kiritiladi;
- pedagog xodimlar ish haqi uchun mablag‘larni ajratishda, qonunchilikda belgilangan ish haqi stavkalaridan va o‘quv rejasiga muvofiq, daftar tekshirish, sind rahbarligi va boshqalar uchun qo’shimcha haq to’lashni hisobga olgan holda tuzilgan tarifikatsiyalardan kelib chiqilishi lozim;
- tibbiyat xodimlari ish haqi uchun mablag‘larni ajratishda, ish haqi stavkalari va qonunchilikka muvofiq mehnatga haq to’lash shartlarini hisobga olgan holda tuzilgan tibbiyat xodimlari tarifikatsiyalaridan kelib chiqilishi lozim;
- oliv o‘quv yurtidan keyingi ta’limda ta’lim oluvchilarning stipendiya xarajatlari belgilangan stipendiyalar miqdori va stipendiya ta’minoti tartibidan kelib chiqqan holda hisoblanadi;
- mehnatga haq to’lash jamg‘armasidan yagona ijtimoiy to’lovni to’lash xarajatlari xarajatlar smetasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq belgilangan stavkalarda, qonun-

chilikka muvofiq yagona ijtimoiy to‘lov to‘lanadigan barcha to‘lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

– ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta mukofotini to‘lash xarajatlari xarajatlar smetasiga qonunchilikda belgilangan tartibda ish beruvchining barcha xodimlarining o‘tgan yilgi ish haqining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

– xo‘jalik xarajatlari, jumladan, kommunal xizmatlar uchun xarajatlar limitlar doirasida kommunal xizmatlar uchun baho va tariflarni hisobga olgan holda hisoblanadi;

– telefon va boshqa telekommunikatsiya xizmatlari xarajatlari abonent raqamlari soni va xizmatlar uchun tasdiqlangan tariflari dan kelib chiqib hisoblanadi. Bunda limitdan oshiq foydalanilgan shaharlararo (davlatlararo) so‘zlashuvlar uchun aloqa xizmatlari, internet bo‘yicha xizmatlar va boshqa aloqa xizmatlari xarajatlari budget tashkilotlarining xarajatlar smetasida tegishli moliya organlari bilan kelishilgan holda o‘zlarining faoliyat xususiyatlaridan va ushbu xizmatlarga bo‘lgan talabdan kelib chiqib ko‘zda tutiladi;

– davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soha muassasalarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar tashkilotlarning har bir turi uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining o‘rtacha yillik sonidan va natural me’yorlaridan kelib chiqib hisoblanadi;

– dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar qonunchilikda belgilangan pul xarajatlari me’yoriga qarab: statsionarlarda – har bir joykunga, shifoxonalarda – shifokorga har bir kirishga belgilanadi;

– ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyafzal, choyshab, yotish anjomlari va boshqa yumshoq buyumlar sotib olishga ketadigan xarajatlar moddiy ta’minotning me’yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag‘lar doirasida hisoblanadi;

– suv, o‘rmon xo‘jaligi va boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari ularning bajarayotgan ish me’yori va hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

– inspeksiya va qo‘riqlash faoliyati bilan bog‘liq xizmatlar to‘lovi xarajatlari tashkilotlar va ushbu xizmatlarni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomaga muvofiq aniqlanadi;

- tashkilotlarning binolar, inshootlar va transport vositalaridan foydalanish, binolar va transport vositalari, shuningdek, boshqa davlat mulklari ijerasi bilan bog‘liq xarajatlari belgilangan limitlar va natural ko‘rsatkichlardan kelib chiqib aniqlanadi;
- xizmat safarlarini bilan bog‘liq xarajatlar tashkilotlarning oldiga qo‘yilgan vazifalaridan, shuningdek, qonunchilikda belgilangan me’yorlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi;
- epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar va qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga (chigirtkalar, tut parvonasi va boshqalar) qarshi kurashish bilan bog‘liq xarajatlar prognoz ish hajmlari va kimyoviy preparatlarga bo‘lgan ehtiyojlar, shuningdek, bajariladigan ish turlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan xarajatlar, shuningdek, Davlat budgeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi bo‘yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda boshqa ko‘rsatkichlar va uslublar qo‘llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi tegishli moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘limgan va tegishli davlat boshqaruvi organlari huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotlar bo‘yicha quyidagi alohida hollarda jamlanma xarajatlar smetasi tuzilishi mumkin:

- bir turdagisi kichik tashkilotlar bo‘yicha – veterinar uchastkalar va punktlar hamda boshqa tashkilotlar bo‘yicha;
- bir turdagisi yirik tashkilotlar bo‘yicha, qachonki ularga xo‘jalik xizmatlarini ko‘rsatish xo‘jalik xizmatlarni ko‘rsatuvchi maxsus guruuhlar orqali markazlashtirilgan holda amalga oshirilsa;
- fuqorolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘yicha.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tashkil etilgan tegishli davlat boshqaruvi organlari (bosh tashkilotlar) rahbarlari va tegishli hudud hokimlari (ular vakolat bergen mansabdor shaxslar) jamlanma xarajatlar smetasi bo‘yicha budgetdan ajratilgan mablag‘larni taqsim qiluvchilar bo‘lib hisoblanadilar.

Jamlanma xarajatlar smetasi xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotlarning rahbarlaridan olingan buyurtmalar asosida hamda markaz-

lashtirilgan buxgalteriyada mavjud bo‘lgan hisob va hisobot, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga muvofiq markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan rasmiylashtiriladi.

Jamlanma xarajatlar smetasini tuzish uchun buyurtmalar hokimiyatlarning tegishli boshqarma va bo‘limlari tomonidan belgilangan shakllar yoki ko‘rsatkichlar ro‘yxati bo‘yicha, xarajatlarning guruhlari bo‘yicha va ilovalarni hamda smetalarga qilingan hisob-kitoblarni ilova qilgan holda tashkilotlar tomonidan taqdim qilinadi.

Buyurtmalarda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

– isitish, yoritish, suv ta’minoti xarajatlarini hisoblash uchun zarur natural ko‘rsatkichlar;

– sotib olish uchun mo‘jallangan asbob-uskunalar va jihozlar ro‘yxati;

– kapital va joriy ta’mirlash bo‘yicha asosiy ishlar ro‘yxati;

– o‘rmon xo‘jaligi tashkilotlarining bajaradigan ishlari hajmi;

– qonunchilikka muvofiq belgilangan kadastr yuritish bo‘yicha ishlar hajmi va boshqa ko‘rsatkichlar hisobi;

– bino va inshootlarni kapital ta’mirlash bo‘yicha manzilli ro‘yxatga kiritish uchun hisob-kitoblarning asoslanganligi;

Budgetdan mablag‘lar ajratishni asoslash uchun boshqa kerakli hisob-kitoblar.

Tashkilotlar tomonidan berilgan buyurtmalar markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan tegishli tashkilotlarning vakillari ishtirokida oldindan ko‘rib chiqiladi hamda jamlanma xarajatlar smetasini tuzishda hisobga oladi.

Markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuzilgan jamlanma xarajatlar smetasining loyihalari tegishli tashkilotlar rahbarlari ishtirokida ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi uch nusxada tuzib, tashkilotning rahbari yoki uning o‘rinbosari (birinchi imzo huquqiga ega shaxs), tashkilot bosh hisobchisi yoki uning o‘rinbosari (ikkinchi imzo huquqiga ega shaxs), shuningdek, moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i (shtatlar jadvaliga muvofiq moliya-iqtisod masalalari bo‘yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi hamda belgilangan tartibda moliya organida ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng birinchi

nusxasi – tashkilotda qoladi; ikkinchi nusxasi – tegishli moliya organiga taqdim qilinadi; uchinchi nusxasi – yuqori tashkilotga taqdim qilinadi (zarur hollarda).

Tegishli moliya organlari xarajatlar smetasini chuqurroq o'rganish maqsadida tashkilotlarning xarajatlar smetasini tuzish va ijro etishning istalgan bosqichida ularning qo'shimcha hisob-kitoblarini talab qilishga haqli.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning xarajatlar smetasi tashkilotlar bilan markazlashtirilgan buxgalteriyalar bosh (katta) hisobchilari yoki iqtisodchilari ishtirokida rasmiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha ularning o'zini saqlash uchun xarajatlar smetasidan tashqari tashkilotning markazlashtirilgan tadbirdari uchun xarajatlar smetasini rasmiylashtiriladilar. Bunda, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda bir necha tadbirdar (tizimdag'i barcha tashkilotlar bo'yicha qo'riqlash xizmatini to'lash, xizmat kiyimini sotib olish, yagona axborot-kompyuter tizimiga xizmat ko'rsatish, seminarlar o'tkazish va boshqalar) bo'yicha xarajatlar amalga oshirilayotganda, xarajatlar smetasiga har bir to'lanadigan markazlashtirilgan tadbirdar bo'yicha hisob-kitoblar ilova qilinadi.

Kelgusi yilga ochilishi kerak bo'lgan tashkilotlarni tashkil etish, saqlash bo'yicha xarajatlar smetasi tegishli vazirliklar, idoralar hamda tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari, bo'limlari tomonidan har bir tashkilotga alohida, mehnatga haq to'lash shartlari va faoliyat ko'rsatayotgan shunga o'xshash tashkilotlarda mavjud bo'lgan xarajatlarining o'rtacha me'yorlaridan kelib chiqqan holda rasmiylashtiriladi.

Bunda yangi tashkilotlarni saqlash xarajatlari ushbu tashkilotlar faoliyatining boshlanishi mo'jallanayotgan muddatlardan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

### **1.6.3. Xarajatlar smetasini ko‘rib chiqish**

O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari, bo‘limlari va xarajatlar smetalarini tasdiqlash huquqiga ega bo‘lgan boshqa tashkilotlar, O‘zbekiston Respublikasi «Budget tizimi to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq ularga yetkazilgan ajratilgan mablag‘lar hajmlari, belgilangan tartibda rejalashtirilgan yil uchun tasdiqlangan Davlat budgeti parametrlari doirasida o‘z qaramoq‘idagi tashkilotlarning kelib tushgan xarajatlar smetalarini sinchiklab ko‘rib chiqishni ta’minlaydilar.

Tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan xarajatlar smetalarini zarur hollarda tegishli tashkilotlarning rahbarlari ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Bunda, xarajatlar smetalarini ko‘rib chiquvchi tashkilotlar quyidagilarga majbur:

- qonunchilik talablariga, shuningdek, kelgusi yil smetalarini tuzish bo‘yicha ko‘rsatmalarga qat’iy amal qilishni ta’minlash;
- iqtisod qilish tartibiga amal qilgan holda xarajatlar smetalarida talab etilmaydigan tadbirlar uchun mablag‘lar ajratishga yo‘l qo‘ymaslik;
- alohida tadbirlarni o‘tkazish muddatlari va ularni moliyalashtirish imkonini ta’minlashni hisobga olgan holda xarajatlar smetasi bo‘yicha ajratilgan mablag‘larni chorak (oy)larga taqsimlashni ta’minlash;
- hisob-kitoblar va asoslantirishlar bilan tasdiqlanmagan summalarni xarajatlar smetalarida qabul qilishga yo‘l qo‘ymaslik.

Agar tashkilotlarning xarajatlar smetalarini ko‘rib chiqish natijasida O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirligi, idorasi bo‘yicha, hokimiyatning boshqarma, bo‘limi bo‘yicha jami xarajatlar summasi yoki ish haqi, ish haqiga ajratmalar, kapital qo‘yilmalar va xarajatlarning boshqa turlari bo‘yicha xarajatlar summasi qabul qilingan budget va tegishli moliya organlari tomonidan ularga yetkazilganiga nisbatan ortiq bo‘lsa, vazirlik, idora, hokimiyatning boshqarma va bo‘limi rahbari alohida tashkilotlarning xarajatlar smetalari bo‘yicha xarajatlarini tegishlicha qisqartirishi lozim.

O‘z qaramog‘idagi tashkilotlarning xarajatlar smetalarini, marказлаштирилган xarajatlar uchun xarajatlar smetalari va vazirliklar, idoralar, hokimiyatning boshqarma va bo‘limini saqlash uchun xarajatlar smetalarni ko‘rib chiqqandan keyin O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo‘limlari jismoniy ko‘rsatkichlar (sinflar, koykalar miqdori, xodimlar soni va shu kabilar) bo‘yicha jamlanma hisob-kitoblarning ilovasi bilan birga Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq bo‘lim, kichik bo‘lim, bob va moddalar kesimida jamlanma xarajatlar smetalarini tuzadilar.

O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo‘limlari tashkilotlarning smetalari bo‘yicha ishlarni yakunlashi bilan O‘zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirliklariga va tegishli moliya organlariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimiyatlar tomonidan belgilangan muddatlarga kelgusi yil budjeti bo‘yicha quyidagi materiallarni taqdim etadilar:

- barcha smetalar bo‘yicha xarajatlar yig‘indisini budjet tasnifining bo‘limlari, kichik bo‘limlari, boblari va xarajat moddalarini hamda yilning choraklari (oylari) bo‘yicha bo‘lingan holatda;
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklga muvofiq tashkilotlar kesimida setlar, shtatlar va kontingentlar bo‘yicha umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar.

Bir vaqtning o‘zida, moliya organining talabiga asosan alohida tashkilotlar bo‘yicha tekshirish va tanishib chiqish uchun, keyinchalik, moliya organi qaytarib beradigan xarajatlar smetasiga ilovalar va hisob-kitoblar taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari taqdim etilgan materiallarni jamlangan xarajatlar smetasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tasdiqlanayotganda belgilangan umumiylar xarajatlar hajmiga, belgilangan ish haqi, ish beruvchining ajratmalari, kapital qo‘yilmalar va boshqa xarajatlar turlari bo‘yicha amal qilinganligini, shuningdek, Davlat budjetini

tuzish bo'yicha qonunchilik talablarining bajarilishi nuqtayi nazaridan tekshiradilar.

Ushbu talablar bajarilmagan taqdirda moliya organlari vazirliklar, idoralar, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlariga, tasarruflaridagi muassasalarning smetalari bo'yicha xarajatlarini qisqartirishni taklif qiladilar.

Vazirliklar, idoralar, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari tomonidan norozilik yuzaga kelsa, umumlashtirilgan smetala laga aniqlik kiritish masalasi bo'ysunuviga qarab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi yoki tegishli hokimiyatlar tomonidan hal etiladi.

Umumlashtirilgan smetalar tekshirilganidan va zarur bo'lgan hollarda ularga o'zgartirishlar kiritilgandan keyin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari tashkilotlarga umumlashtirilgan smetalarining tegishli budgetga kiritilgani haqida xabar beradilar va ayrim tashkilotlar bo'yicha tekshirishga olingan xarajatlar smetalarini qaytarib beradilar.

Tumanlar, shaharlar (shaharga bo'ysunadigan tumanlar) tegishli hokimiyatlarining boshqarmalari va bo'limlari shu budgetlarda turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetalarini ko'rsatilgan tartibda ko'rib chiqadilar va mablag'larni tuman, shahar budgetiga taqsimlangandan so'ng tuman va shahar moliya bo'limi xabar qilgan summalar doirasida xarajatlarni qabul qiladilar.

#### **1.6.4. Xarajatlar smetasini tasdiqlash**

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti va mahalliy budgetlar tasdiqlanganidan keyin, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari tashkilotlarga ularning umumlashtirilgan smetalarini bo'yicha choraklar kesimidagi taqsimotini, shuningdek, ish haqiga, ish beruvchilarning ajratmalariga, kapital qo'yilmalarga va boshqa xarajatlar summasiga budgetda belgilangan eng yuqori miqdorlarini ajratib ko'rsatgan holda xabar beradilar.

Shahar moliya bo'limlari, bundan tashqari, shaharga bo'y sunadigan tuman hokimiyatlarining bo'limlariga, yuqorida ko'rsa-

tilgan xarajatlarni Xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyasi tomonidan tasdiqlangan ularning budgetlari hajmlari doirasida ajratib ko'rsatib, xabar qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti tasdiqlangandan so'ng unga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari o'z tasarruflarida bo'lgan tashkilotlar xarajatlar smetalariga kerakli tuzatishlar kiritadilar.

Shundan keyin O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari ular tomonidan ilgari belgilangan tashkilotlar smetalarini bo'yicha yillik mablag'lar miqdorlarini budget bo'yicha barcha smetalar xarajatlari umumiyligi summalariga mos keladigan qilib aniqlik kiritadilar. Bunda, tegishli tuzatishlar o'zlarida qoladigan nusxalarga kiritiladi.

Shundan keyin O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari belgilangan yillik budgetning choraklar (oylar) bo'yicha taqsimotiga amal qilgan holda, hajmlari budget bilan har bir chorakka (oyga) alohida belgilangan xarajatlarning umumiyligi summasi, shuningdek, ish haqi, ish beruvchilarning ajratmalari, kapital qo'yilmalar va boshqa turdag'i xarajatlar summasi budgetning tasdiqlangan choraklar (oylar) bo'yicha taqsimotiga to'g'ri kelishini hisobga olgan holda tashkilotlarning xarajatlar smetasini bo'yicha qabul qilingan yillik xarajatlar summasini choraklar (oylar) bo'yicha bo'lishlari kerak.

Tashkilotlarning xarajatlar smetalarida tasdiqlangan xarajatlarni yillik va choraklik (oylik) summalarini, tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan xarajatlar smetalarining ikkinchi nusxasiga o'tkaziladi.

Xarajatlar smetasini tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Qorqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining yoki tegishli viloyatlar, shaharlar, tumanlar Xalq deputatlari kengashlari sessiyalarining budget haqidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab ikki hafta muddat ichida (agar boshqa muddat

belgilanmagan bo'lsa) va tegishli budjetlarda turuvchi tashkilotlar uchun xarajatlar tasnifi moddalari bo'yicha bo'lingan holda amalga oshiriladi hamda smetalarni tasdiqlagan tashkilot rahbari (yoki rahbar o'rinosari) imzosi bilan, tasdiqlangan kuni ko'rsatilgan holda, shuningdek ushbu tashkilotning muhri smetaning barcha nusxalariga bosilib, bir paytning o'zida xarajatlar smetasi bo'yicha umumiy summasini yuqori o'ng burchagida shtatdagi xodimlarning mehnatga haq to'lash jamg'armasining umumiy summasini ajratib ko'rsatgan holda rasmiylashtiriladi.

Xarajatlar smetalarida budget mablag'larini yil choraklari (oylari) bo'yicha taqsimoti tegishli budjetlarning daromadlari va xarajatlari choraklar (oylar) bo'yicha taqsimotini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Tashkilotlarning xarajatlar smetalari, shuningdek markazlashgan xarajatlar smetalari tasdiqlangandan so'ng choraklar (oylar) kesimi-dagi xarajatlarni yillik umumlashmasi budget tasnifining bo'limlari, kichik bo'limlari, boblari va iqtisodiy tasnifi bo'yicha choraklarga (oylarga) bo'lingan holda aniqlanadi va tegishli moliya organiga taqdim etiladi.

Shu bilan bir vaqtida setlar, kontingenntlar va shtatlar bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlar taqdim etiladi.

Umumiy smetalar tasdiqlangandan so'ng markazlashgan buxgal-teriyalar bu smetalar bo'yicha moliyalashtiriladigan tashkilotlarga quyidagilarni xabar qiladilar:

- shtatlar va tashkilot xodimlarining ish haqi stavkalari haqi-dagi ma'lumotlar;
- tashkilotlarning xo'jalik ehtiyojlariga rejalashtirilayotgan yil-da ajratiladigan yoqilg'i miqdori, elektroenergiya va suv bo'yicha natural ko'rsatkichlar;
- Budget mablag'ları doirasida sotib olishga mo'ljallangan inven-tarlar va asbob-uskunalar ro'yxati;
- kapital va joriy ta'mirlash bo'yicha asosiy ishlar ro'yxati;
- hokimiyatlarning tegishli moliya boshqarmalari va bo'limlari tomonidan, yuqori moliya organlari bilan kelishilgan holda belgi-

langan tashkilotlarga xabar beriladigan ko'rsatkichlar va shakllari ro'yxati.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari tomonidan umumlashtirilgan xarajatlarni va alohida xarajatlar smetalarini tasdiqlangan budgetga, shuningdek, budgetni tuzish bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq kelishi tekshirib ko'rildi.

E'tirozlar bo'limgan taqdirda, moliya organi xarajatlar umumlashmasining bиринчи betida «Kelishilgan» degan belgi qo'yadi va muhr bilan tasdiqlagan holda xarajatlar umumlashmasining bir nusxasini tegishli vazirlik, idora, hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlariga qaytaradi.

Agarda xarajatlar umumlashmasi bo'yicha e'tirozlar bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari rahbarlaridan xarajatlar umumlashmasi va tegishincha alohida tashkilotlarning xarajatlar smetalariga tegishli tuzatishlar kiritishni yozma talab qiladilar.

Alohida va umumiylar xarajatlar smetalarining bir nusxasi vazirliklar, idoralar, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlarida qat'iy hisob hujjatlari tariqasida saqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari tekshirilgan umumlashtirilgan xarajatlar smetalari asosida, budgetda ko'zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun asos bo'lib hisoblanadigan choraklarga (oylarga) bo'lingan tegishli budget xarajatlari yillik yoyilmasini tuzadilar.

#### **1.6.5. Shtatlar jadvalini tuzish**

Shtatlar jadvali rejalshtirilayotgan yilning 1-yanvar holatiga har bir tashkilot bo'yicha alohida holda, ularning tuzilmaviy bo'limlari kesimida mazkur tashkilot uchun o'rnatilgan mehnatga haq to'lash shartlariga muvofiq ravishda, rasmiylashtiriladi.

Shtatlar jadvaliga kiritiladigan lavozimlar nomlari va ma'muriy-boshqaruvi, o'quv-yordamchi va yordamchi (xizmat ko'rsatuvchi va texnik) xodimlarining soni xodimlar va mehnatga haq to'lash

bo'yicha ularning razradlari (bazaviy stavkalari) quyidagilarga muvofiq bo'lishi shart:

- belgilangan tartibda tasdiqlangan namunaviy shtatlar jadvalida va mehnatga haq to'lash bo'yicha razradlarda (bazaviy stavkalarda) nazarda tutilgan lavozimlarga;
- xodimlarning umumiylarini birliklari doirasiga va boshqaruv xizmatchilarining xodimlar birliklariga;
- tashkilotlar turlari bo'yicha belgilangan tartibda tasdiqlangan namunaviy shtatlar jadvallariga;
- davlat boshqaruv organlarida xodimlar toifalarining me'yoriy nisbatlarini Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlari lavozimlarining nomenklaturasi (ro'yxat raqami 1288, 2003-yil 9-dekabr) (O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2003-y., 23-son) bilan muvofiqligiga.

Tarifikatsiya ro'yxatiga muvofiq mehnatga haq to'lanishi hisob-kitob qilinadigan lavozimlar shtatlar jadvaliga stavkalar soni, lavozimlarning har bir guruhi bo'yicha (o'qituvchilar, tarbiyachilar, vrachlar, o'rta tibbiy xodimlar va boshqalar), to'lov larning turlari bo'yicha (pedagoglarga daftар tekshirishga, sinf rahbarligiga, maxsus unvon uchun va boshqalar) oylik mehnatga haq to'lash jamg'armasini ko'rsatgan holda va tarifikatsiya ro'yxatini shtatlar jadvaliga ilova qilgan holda kiritiladi.

Shtatlar jadvalida, shuningdek, yakun bo'yicha alohida qatorda mehnatga haq to'lash shartlarida nazarda tutilgan mehnatga haq to'lash jamg'armasi va yil bo'yicha hisob-kitoblar natijasida ustamalar to'lashga, qo'shimchalar va xodimlarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltiriladigan mablag'lar ko'rsatiladi, masalan:

- mehnatga haq to'lash jamg'armasiga nisbatan 15 foiz miqdorda shakllanadigan budjet tashkilotlari va muassasalarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi tashkil etiladi;
- uzoq yillik mehnati uchun bir martalik rag'batlantirishni to'lash, moddiy yordam ko'rsatish, mukofotlash uchun mehnatga haq to'lash jamg'armasi shakllantiriladi;

- mehnat ta’tilidagi shaxslarning o‘rnini bosuvchi xodimlarning mehnatiga haq to‘lash uchun mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi ishlab chiqiladi;
- umumta’lim muassasalari, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining direktor jamg‘armasi va boshqalar inobatga olinadi.

#### **1.6.6. Budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalarni tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash**

Tashkilotlar ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetani har yili tuzadilar va tasdiqlaydilar. Bunda, tashkilotlar budgetdan tashqari mablag‘lar tushumlarini va xarajatlarini rejalashtirishni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradilar. Budget tashkilotlari quyidagi budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalarni tuzishlari mumkin:

- budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi;
- tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlanish jamg‘armasi;
- ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushumlar;

Budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha, budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi va Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi bundan mustasno, smetalar tegishli moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalarni tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash tashkilotlarning xarajatlar smetasi uchun mazkur Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetada budgetdan tashqari mablag‘lar tushumlarining hajmi va ushbu mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlari qonunchilik talablaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalarning daromad qismiga budgetdan tashqari mablag‘larning qonunchilikka muvofiq

barcha shakllanish manbalari bo'yicha kutilayotgan mablag'lar tushumi va moliya yilining boshiga mablag'lar qoldig'i kiritiladi.

Qonunchilikka muvofiq budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalar hisobidan xodimlar birliklari saqlangan hollarda, smetaga mazkur Nizomning III bobida ko'rsatilgan tartibda tuzilgan shtatlar jadvali ilova qilinadi. Bunda, ro'yxatdan o'tkaziladigan budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta bilan birga shtatlar jadvali ham ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim qilinadi.

### Tayanch iboralar:

*Budget tashkiloti. Nobudjet tashkilot. Buxgalteriya hisobi. Mazmunning shakldan ustunligi. Hujjatlashtirish. Baholash. Kalkulatsiyalash. Inventarlash. Ikki yoqllama yozuv. Hisobvaraqlar. Balans. Hisobotlar. Xarajatlar smetasi smetaning elementlari. smetalarning turlari. Yakka smetalar. Umumlashtirilgan smetalar. Yig'ma smetalar smeta xarajatlari. Xarajat guruhlari va moddalari. Budget me'yorlari. Natural me'yorlar, moliyaviy me'yorlar. Yagona tarif setkasi. Tarif koeffitsiyenti shtatlar jadvali. Smetalarni tuzish.*

### Mustaqil ta'lim uchun savollar

1. Budget tashkiloti deganda nima tushuniladi?
2. Budget tashkilotlari smeta xarajatlari nima?
3. G'azna nima? G'azna ijrosi nima?
4. Budget tashkilotlari buxgalteriya hisobining predmetiga ta'rif bering.
5. Buxgalteriya hisobining 7-tamoyili.
6. Buxgalteriya hisobining hujjatlashtirish usuliga ta'rif bering.
7. Moliya yili deganda nimani tushunasiz? Hisobot yili nima?
8. Hisobvaraqlari nima?
9. Budget tashkilotining moliyaviy rejasi qanday nomlanadi? Uning qanday turlari mavjud?
10. Smeta xarajatlari qanday guruhanladi?
11. Budget tashkilotining shtatlar ro'yxati nima va u qanday maqsadlarda rasmiylashtiriladi?
12. Budget tashkilotining budgetdan tashqari mablag'larining shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlarini aytib bering.

## **2-bob. BUDJET TASHKILOTLARIDA PUL MABLAG'LARI HISOBI**

---

---

### **2.1-§. BANKDAGI JORIY DEPOZIT HISOBVARAQLARDAGI MABLAG'LAR HISOBI**

#### **2.1.1. Budjet tashkilotlarida pul mablag'larini hisobga olish hisobvaraqlari to'g'risida tushuncha**

Budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasining 10–14 sintetik hisobvaraqlarda budjet bo'yicha tasdiqlangan xarajatlar smetasiga moliyalashtirilgan mablag'larni, g'azna va budjet yoki budgetdan tashqari hisobvaraqlaridagi pul mablag'-larining harakatini hamda akkreditivlar, pul ekvivalentarini, chet el valutasidagi va boshqa pul mablag'larini hisobga oladilar. Mazkur hisobvaraqlarda chet el valutasidagi pul mablag'lari va ularga tegishli muomalalar milliy valyutada – so'mda, chet el valyutasini muomala amalga oshirilgan sanadagi (tegishli bank ko'chirmasi va boshqa tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan sanadagi) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha qayta hisoblash orqali hisobga olinadi.

Pul mablag'larini hisobga olish uchun hisobvaraqlar rejasida quyidagi hisobvaraqlar belgilangan:

- 10 «Hisobvaraqlardagi budjet mablag'lari»;
- 11 «Hisobvaraqlardagi budgetdan tashqari mablag'lar»;
- 12 «G'azna»;
- 13 «Boshqa pul mablag'lari»;
- 14 «Moliyaviy qo'yilmalar».

#### **2.1.2. Bankdagi joriy depozit hisobvaraqlardagi budjet mablag'larining hisobi**

Budjet tashkilotlarida budjet mablag'larini hisobga olish uchun alohida hisobvaraqlar mavjud bo'lib, u hisobvarag'lar rejasidagi 10

## 2-MEMORIAL ORDER

**Budjet mablag'larining harakatiga doir jamlanma qaydnomasi**

analitik hisobvaraq  381-ton shakl  
 yil uchun

Tashkilotning nomi

Vazirlik (idora, qo'mita)

Budjet turi

O'chov birligi: so'm.

t/r	Bank ko'chirmasi g'aznachi hisoboti sanasi	Debet analitik hisobvaraq			Kredit analitik hisobvaraqlar			Jami						
		3	4	5	6	7	8		9	10	11	12	13	14
1	2													
	Jami													

Oy boshiba qoldiq  Oy oxiriga qoldiq  Aylanmalar summasi 381-ton shakl 2-b.  
 ikkilamchi yozuvlar

t/r	Bank ko'chirmasi yoki g'aznachi hisoboti sanasi	Debet analitik hisobvaraq			Kredit analitik hisobvaraqlar			Jami							
		16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29
1	2														
	Jami														

Bajaruvchi  Bosh hisobchi   
 (lavozimi)  (imzo)  (F.I.Sh.)   
 Illova  varaqda   
 (imzo)  (F.I.Sh.)

«Hisobvaraqlardagi budjet mablag‘lari» hisobvarag‘i va uning analitiklari 100 «Tashkilotni saqlash uchun moliyalashtirilgan budjet mablag‘lari», 101 «Boshqa maqsadlar uchun moliyalashtirilgan budjet mablag‘lari» hisobvaraqlarida hisobi yuritiladi.

Bu hisobvaraqdha tashkilotlar tomonidan budjetdan moliyalashtirish maqsadiga muvofiq holda xizmat ko‘rsatuvchi banklarda ochilgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘idagi tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan moliyalashtirib berilgan pul mablag‘larining harakati va holati hisobga olinadi.

Tashkilotlarning budjet hisobvaraqlaridagi mablag‘larining harakati bo‘yicha muomalalar hisobi 1-jadvalda yuritiladi.

### **2.1.3.Budjet tashkilotining mablag‘ini tijorat banki depozit hisobvaraqlarida saqlash hisobi**

Budjet tashkilotida moliyaviy qo‘yilmalar hisobvaraqlar rejasining 14-sintetik va uning analitik hisobvaraqlarida hisobi yuritiladi

140 «Depozitga qo‘yilgan pul mablag‘lari» analitik hisobvarag‘ida tashkilotlarning vaqtincha bo‘sh turgan budjetdan tashqari mablag‘larini banklarga depozitga qo‘yilishi aks ettiriladi.

Vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni banklarga depozitga qo‘yilishi 11 hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvarag‘lari kreditida va 140 «Depozitga qo‘yilgan pul mablag‘lari» analitik hisobvarag‘ining debetida aks ettiriladi. Ushbu mablag‘larning tashkilot hisobvaraqlariga qaytarilishi esa, aksincha, 11 hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari debetida va 140 «Depozitga qo‘yilgan pul mablag‘lari» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi.

Depozitga qo‘yilgan mablag‘lar bo‘yicha foiz ko‘rinishidagi daromadlarning hisoblanishi 159 «Boshqa debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ining debetida va 272 «Boshqa budjetdan tashqari daromadlar» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi. Ushbu foiz ko‘rinishidagi daromadlarning kelib tushishi pul mablag‘larini hisobga oluvchi tegishli analitik hisobvaraqlarning debetida va 159 «Boshqa debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi.

Tashkilotlar tomonidan vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini banklarga depozitga qo'yilishi qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

## **2.2-§. BANKDAGI MUASSASANI RIVOJLANTIRISH DEPOZIT HISOBVARAQLARDAGI MABLAG'LAR VA BOSHQA PUL MABLAG'LARI HISOBI**

Agar tashkilot uchun bir nechta budjet hisobvarag'i ochilgan bo'lsa, jamlanma qaydnomalar har bir budjet hisobvarag'i bo'yicha alohida holda yuritiladi. Bunda, memorial orderlarga 2-a, 2-b, 2-v, 2-g va h.k. raqamlari beriladi. Muomalalarning hajmiga ko'ra jamlanma qaydnomalar tuzish talab qilinmaydigan tashkilotlarda, bankda bir necha budjet hisobvarag'i mavjud bo'lsa, pul mablag'lari harakatining hisobi 292-son shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftarida har bir hisobvaraq bo'yicha alohida holda yuritiladi.

Mazkur muomalalar bo'yicha analitik hisob xarajatlar tasnifi ning xarajatlar turlariga bo'lingan holda 294-son shakldagi g'azna va haqiqiy xarajatlarni hisobga olish daftarida alohida holda yuritiladi.

Budjet tashkiloti buxgalteriya hisobida 100 va 101 analitik hisobvaraqlarning debetiga moliyalashtirilgan mablag'lar summalarini va g'azna xarajatlarini qayta tiklash uchun kelib tushgan summalar, kreditiga esa tegishli maqsadlar uchun sarflangan budjet mablag'lari va qaytarib olingan mablag'lar summalarini yozildi.

Tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq moliyalashtirib berilgan mablag'lar budjet mablag'larini oluvchilar tomonidan 100 «Tashkilotni saqlash uchun moliyalashtirilgan budjet mablag'lari» va 101 «Boshqa maqsadlar uchun moliyalashtirilgan budjet mablag'lari» analitik hisobvarag'larning debetiga hamda 232 «Budgetdan moliyalashtirish» analitik hisobvarag'inining kreditiga yozildi. Xizmat ko'rsatuvchi bankda ochilgan talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlarga g'azna xarajatlarini tiklash uchun tushgan mablag'lar 100 «Tashkilotni saqlash uchun moliyalashtirilgan budjet mablag'lari» va 101 «Boshqa maqsadlar

uchun moliyalashtirilgan budget mablag‘lari» analitik hisobvaraqlarning debetiga va g‘azna, hisob-kitob, hisobdor shaxslar hamda boshqalarni hisobga oluvchi tegishli analitik hisobvaraqlarning kreditiga yoziladi. Bankdan olingen yoki hisobvaraqlardan to‘lov hujjatlariga asosan to‘langan mablag‘lar summasi 100 «Tashkilotni saqlash uchun moliyalashtirilgan budget mablag‘lari» va 101 «Boshqa maqsadlar uchun moliyalashtirilgan budget mablag‘lari» analitik hisobvaraqlarning kreditiga va g‘azna, hisob-kitoblar va boshqa tegishli analitik hisobvaraqlarning debetiga yoziladi.

100 «Tashkilotni saqlash uchun moliyalashtirilgan budget mablag‘lari» analitik hisobvarag‘ida g‘azna ijrosiga o‘tilmagan ayrim tashkilotlarning markaziy apparatini saqlash uchun tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq sarflanadigan mablag‘larning harakati hisobga olinadi.

101 «Boshqa maqsadlar uchun moliyalashtirilgan budget mablag‘lari» analitik hisobvarag‘ida bosh mablag‘ taqsimlovchilar tomonidan qaramog‘idagi muassasalarga o‘tkazish uchun va markazlash-tirilgan tadbirlarga sarflash uchun mo‘ljallangan mablag‘lar, shuningdek, kapital qo‘yilmalar va boshqa tadbirlarni mablag‘ bilan ta‘minlash uchun (kapital qo‘yilmalarning hisobi xarajatlar smetasining ijrosi bilan yagona balansda yuritilgan hollarda) ajratilgan mablag‘lar harakati hisobga olinadi. Quyi mablag‘ taqsimlovchilar tomonidan bu analitik hisobvaraqa qida ular ixtiyoriga ochilgan va muassasalarni saqlash uchun, shuningdek, qaramog‘idagi muassasa-larga o‘tkazish uchun moliyalashtirilgan mablag‘lar hisobga olinadi.

### **2.3-§. HISOBVARAQLARDAGI BUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR HISOBI**

Byudetdan tashqari mablag‘lar deb, budget tashkilotining boshqa loyihi halar hisobiga shakllantirilgan mablag‘lariga aytildi.

Budget tashkilotlari hisobvaraqlar rejasidagi 11 hisobvarag‘ida budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi yuritiladi. Bu hisobvaraqa tashkilotlarning:

– to‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag‘lari;

- o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlari;
- budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, shuningdek, tibbiyot muassasalarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;
- boshqa budjetdan tashqari mablag‘lari;
- vaqtincha ixtiyorida bo‘ladigan mablag‘lari;
- valuta hisobvarag‘idagi mablag‘lari;
- Budjet mablag‘lari bo‘yicha yuzaga kelgan oldingi yillardagi debtorlik qarzlarining joriy moliyaviy yilda tushgan mablag‘lari;
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tashkilotlar xodimlarining ijtimoiy to‘lovlarini qoplash uchun kelib tushgan mablag‘lari;
- boshqa kirim qilingan budjetdan tashqari mablag‘larning hisobi olib boriladi.

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Davlat budjetidan xarajatlarning qaysi guruhdari bo‘yicha moliyalashtirish amalga oshiriladi?
2. G‘azna tekshirilganda aniqlangan ortiqcha mablag‘ kirim qilinganida budjet tashkilotining buxgalteriyasi qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvini tuzadi?
3. Xodimlarga mehnat haqi to‘langanida budjet tashkilotining buxgalteriyasi qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvini tuzadi?
4. Talabalarga va aspirantlarga stipendiya to‘langanida budjet tashkilotining buxgalteriyasi qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvini tuzadi?
5. Hisobdor shaxsga berilgan bo‘nak summasiga budjet tashkilotining buxgalteriyasi qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvini tuzadi?
6. Deponent summalar g‘aznadan to‘langanida budjet tashkilotining buxgalteriyasi qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvini tuzadi?
7. G‘aznada aniqlangan kamomad summasiga budjet tashkilotining buxgalteriyasi qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvini tuzadi?
8. G‘azna orqali haqiqiy xarajatlar to‘langanida budjet tashkilotining buxgalteriyasi qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvini tuzadi?

## **3-bob. BUDJET TASHKILOTLARIDA G‘AZNA MUOMALALARI HISOBI**

---

---

### **3.1-§. G‘AZNA HISOBVARAG‘I VA UNDAGI MUOMALALARNI RASMIYLASHTIRISH**

#### **3.1.1. Budjet tashkiloti g‘aznasi tomonidan xarajatlarining hisobi**

Budjet tashkilotlari budjetdan ajratilgan mablag‘lar hisobiga o‘z moliyaviy xarajatlarini maqsadli yo‘naltirishi lozim. Bu jarayonda albatti meyoriy-huquqiy hujjatlar talablari doirasida ish yuritib, tasdiqlangan smeta ijrosini ta’minlashi lozim.

Budjet tashkilotlari kunlik va davriy majburiyatları doirasida naqd (plastik kartochka) yoki naqd pulsiz shaklda xarajatlar uchun to‘lovlarни amalga oshirishni ko‘rishimiz mumkin.

*Naqd pul* – ko‘rinishdagi xarajatlar uchun to‘lovlar tashkilotni ichida faoliyat ko‘rsatuvchi g‘azna orqali amalga oshiriladi. Budjet tashkilotida tasdiqlangan smeta yoki ko‘zda tutilgan tashkiliy ishlari uchun, shuningdek, mazkur tashkilot ishchi-xodimlarining mehnat sarfi, qobiliyatları, intilishlari va yutuqlari kabilarni inobatga olib, direktor buyrug‘i hamda buxgalteriya bo‘limidan tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish ishlari (uchunchi bobga qaralsin) amalga oshiriladi:

- avans;
- oylik ;
- pensiya;
- xizmat safari;
- mukofot va shu kabilardir.

*Naqd pulisiz* – ko‘rinishda xarajatlar uchun to‘lovlar tashkilotning bankdagi hisobvarag‘idagi mavjud mablag‘lar hisobidan smeta xarajatlarining ijrosini ta’minlash maqsadida o‘z hisobvarag‘idan boshqa tashkilotning hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazib berishi tushuniladi. Albatta, bu jarayon ham tomonlar o‘rtasida tas-

diqlangan shartnoma, direktor buyruqlari, farmoyishlari hamda shu kabi buxgalteriya hujjatlarini rasmiylashtirilgandan so'ng xarajatga to'lovlar amalga oshiriladi.

- kommunal to'lovlar;
- soliq to'lovları;
- shartnoma bo'yicha to'lovlar;
- jarimalar;
- ma'muriy-boshqaruv xarajatlari shular jumlasidandir.

Budjet tashkilotlari xarajatlari: tashkilotlarining xarajatlari g'azna xarajatlari va haqiqiy xarajatlarga bo'linadi.

*G'azna xarajatlari*- budjet tashkilotining shaxsiy hisobvarag'i orqali g'aznachilik organi tomonidan naqd pul va pulsiz hisob-kitoblar yo'li bilan to'langan xarajatlardir. budjet tashkilotning g'aznasidan to'langan mablag'lar g'azna xarajatlariga kirmaydi, chunki bu mablag'lar budjet tashkilotning budgetdan tashqari bo'lgan hisobvarag'i orqali olinganida ular g'azna xarajatlariga qo'shiladi.

*Haqiqiy xarajatlar* – budjet tashkilotni saqlashga budjet mablag'leri hisobidan qilingan xarajatlardir, ya'ni budjet mablag'leri hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlarni tashkil qiluvchi mablag'lardir.

### **3.1.2. Budjet tashkilotining g'azna hisobvarag'i va unda muomalarni rasmiylashtirish**

12 «G'azna» hisobvarag'i 120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag'ları» va 121 «Xorijiy valutadagi naqd pul mablag'ları» analistik hisobvaraqlaridan iborat bo'lib, mazkur analistik hisobvaraqlarda tashkilot g'aznasidagi naqd pul mablag'larining (milliy va xorijiy valutada) mavjudligi va ularning harakati hisobga olinadi. G'azna muomalalari hisobini yuritish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Tashkilotlar g'aznasiga naqd pul mablag'larini qabul qilish bosh hisobchi yoki u vakolat bergen shaxs tomonidan imzolangan KO-1-son shakldagi kirim g'azna orderi (2-jadval) bo'yicha amalga oshiriladi.

Tashkilotlar g'aznasidan naqd pul mablag'larini berilishi KO-2-son shakldagi chiqim g'azna orderi yoki tegishlicha rasmiy-lashtirilgan boshqa hujjatlar (to'lov qaydnomalari, pul berish bo'yicha arizalar, hisobvaraqlar va hokazolar) bo'yicha, ushbu hujjatlarga chiqim g'azna orderining rekvizitlari bo'lgan shtamp qo'yilgan holda amalga oshiriladi. Pul mablag'larini berishga doir hujjatlar tashkilot rahbari va bosh hisobchisi yoki ular vakolat bergen shaxslar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

2-jadval

### Budjet tashkilotida g'azna kirim orderi

KO-1-son shakl

tashkilot
tarkibiy bo'linma

G'azna kirim orderi

Hujjat raqami	Sana

Debet	Kredit				Summa so'm/ tiyin	
	Tarkibiy bo'linma kodi	Bog'la- nuvchi hisob- varaqlar	Ana- litik hisob kodi			

Qabul qilindi \_\_\_\_\_

Asos: \_\_\_\_\_

Summa \_\_\_\_\_  
(summa yozuvda)

\_\_\_\_\_ so'm \_\_\_\_ t

ilova \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

Qabul qilgan g'aznachi \_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

Qirqish chiziq

tashkilot

### Chek (KVITANSIYA)

G'azna kirim orderi soni \_\_\_\_\_

«\_\_\_» \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. y.

Qabul qilindi \_\_\_\_\_

Asos: \_\_\_\_\_

Summa \_\_\_\_\_ so'm \_\_\_\_ t.  
raqam bilan

(summa yozuvda)

\_\_\_\_\_ so'm. \_\_\_\_ t.

Shu jumladan \_\_\_\_\_

«\_\_\_» \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. y.

M.O'.

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

G'azinachi \_\_\_\_\_  
(imzo) \_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

### **3.1.3. Kirim va chiqim g‘azna orderlari va ularni rasmiylashtirish**

Chiqim g‘azna orderlariga ilova qilinadigan hujjatlar (arizalar, hisobvaraqlar va hokazolar)da tashkilot rahbarining ijozat beruvchi yozushi bo‘lgan taqdirda, chiqim g‘azna orderlarida rahbarning imzosi bo‘lishi shart emas.

Kirim va chiqim g‘azna orderlari yoki ularning o‘rnini bosuvchi hujjatlar ular bo‘yicha pul olinganidan yoki berilganidan so‘ng darhol g‘aznachi tomonidan imzolanadi, ularga ilova qilingan hujjatlarga esa sana (kun, oy, yil) ko‘rsatilgan holda «To‘langan» shtampi qo‘yiladi yoki so‘z bilan yozib qo‘yiladi.

Kirim va chiqim g‘azna orderlari yoki ular o‘rnini bosuvchi hujjatlar g‘aznaga topshirilguniga qadar buxgalteriya tomonidan KO-3-son shakldagi kirim va chiqim g‘azna orderlarini ro‘yxatga olish jurnalida (3-jadval) qayd etiladi. Ish haqini berish to‘lov (hisob-kitob-to‘lov) qaydnomalarida rasmiylashtirilgan chiqim g‘azna orderlari ish haqi berilgandan keyin ro‘yxatga olinadi.

*3-jadval*

**Kirim va chiqim g‘azna orderlarini  
RO‘YXATGA OLİSH JURNALI  
(KO-3-son shakl)**

Kirim hujjatlari		Summa, so‘m. tiy.	Izoh	Chiqim hujjatlari		Summa, so‘m. tiy	Izoh
sana	raqami			sana	raqami		
1	2	3	4	5	6	7	8

Tashkilot naqd pullarining tushumlari va berilishi KO-4-son yoki 440-son shakldagi g‘azna daftarida hisobga olinadi. Bunda chet el valutasi mablag‘lari bo‘yicha alohida g‘azna daftari yuritiladi.

### **3.2-§. G‘AZNA MUOMALARINING ANALITIK VA SINTETIK HISOBI**

#### **3.2.1.Budget tashkilotlarida g‘azna daftari**

G‘azna daftaridagi yozuvlar qoraqog‘oz vositasida sharikli ruchka, siyohqalam yoki siyoh bilan ikki nusxada amalga oshiriladi.

Varaqlarning ikkinchi nusxalari qirqiladigan bo‘lishi kerak, ular g‘aznachining hisoboti bo‘lib xizmat qiladi. Varaqlarning birinchi nusxalari g‘azna daftarida qoladi. Varaqlarning birinchi va ikkinchi nusxalari bir xil raqamlar bilan belgilanadi.

G‘azna daftarida o‘chirishlar va ta’kidlanmagan tuzatishlar qilish man etiladi. Qilingan tuzatishlar tashkilot g‘aznachisi, shuningdek, bosh hisobchining yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxsning imzolari bilan tasdiqlanadi.

G‘azna daftaridagi yozuvlar g‘aznachi tomonidan har bir order yoki uning o‘rnini bosuvchi boshqa hujjat bo‘yicha pul olingan yoxud berilganidan keyin darhol amalga oshiriladi. Har kuni, ish kuni oxirida g‘aznachi kun uchun muomalalar yakunini hisoblaydi, g‘aznadagi keyingi kun uchun pullar qoldig‘ini chiqaradi va keyingi kuni buxgalteriyaga g‘aznachi hisoboti sifatida g‘azna daftarida imzo chektirgan holda kirim va chiqim g‘azna hujjatlari bilan birga ikkinchi yirtma varaqni (g‘azna daftaridagi bir kun uchun yozuvlar ko‘chirma nusxasini) topshiradi.

Topshirilgan g‘azna hisoboti buxgalteriyada tekshiriladi va uning asosida g‘azna muomalalariga doir 381-sod shakldagi jamlama qaydnomaga (1-sod memorial order) va analitik hisobning boshqa registrlariga yoziladi. 1-sod memorial order bo‘yicha oylik aylanmalarning umumiy summasidan budgetdagi (Budgetdan tashqari) hisobvaraqlar bo‘yicha aylanmalar chiqarib tashlanadi.

G‘azna daftarining to‘g‘ri yuritilishi ustidan nazorat qilish tashkilot bosh hisobchisi zimmasiga yukланади.

120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag‘lari» va 121 «Xorijiy valutadagi naqd pul mablag‘lari» analitik hisobvaraqlar g‘aznaga kelib tushgan summalarga debetланади va g‘aznadan berilgan summalarga kreditланади.

*Misol:* Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti g‘aznachisi Yaxyoev Akbar Nodirovich 2011-yil 25-noyabrda Ergasheva Dilrabo Saidmurodovnaning 2012–2013 o‘quv yili uchun tuzilgan № 113-sodli to‘lov-kontrakt sharnomasiga asosan 5700000 so‘mni

qabul qilib oldi. Bu jarayonga quyidagicha buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi yoziladi:

Debet:120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag‘lari» –5700000 so‘m

Kredit:111 «Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar» –5700000 so‘m

**Izoh:** yuqoridagi muomala mazmuniga quyidagicha buxgalteriya yozuvini tushuntirish mumkin:

D-t	111	K-t	D-t	111	K-t
		5700000 so‘m		5700000 so‘m	
2011-yil 25-noyabr					

Yuqorida keltirib o‘tilgan misol mazmuni, harakati budget tashkilotining g‘azna daftariga qayd etiladi.

Agar xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotning uzoqda joylashganligi sababli to‘lov yoki hisob-kitob to‘lov qaydnomani uch kun muddat ichida tashkilot g‘aznasiga qaytarish imkonи bo‘lmasa, unda ish haqi to‘lash hisobdor shaxs orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday hollarda ish haqi to‘lash uchun zarur bo‘lgan summa hisobdor shaxsga g‘aznadan g‘azna chiqim orderi bo‘yicha beriladi va 172 «Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar» analistik hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

Ko‘plab bo‘linmalarga ega bo‘lgan tashkilotlarda ish haqi, stipendiylar, pensiyalar, vaqtinchalik qobiliyatsizlik nafaqalari va boshqa to‘lovlarni to‘lashga g‘aznachilardan boshqa shaxslarga tashkilot rahbarining yozma buyrug‘i bilan ruxsat berilishi mumkin. Bunday hollarda mazkur shaxslar bilan ham moddiy javobgarlik to‘g‘risida shartnoma tuzilishi shart.

Ishonchli shaxslarga g‘aznadan naqd pul berilganda ularning hisobi g‘aznachi tomonidan 320-son shakldagi ish haqi, stipendiya va boshqa to‘lovlarni berish uchun tarqatuvchilarga berilgan pullarni hisobga olish daftarida (4-jadval) yuritiladi.

**Ish haqi, stipendiya va boshqa to‘lovlarni berish uchun tarqatuvchilarga berilgan pullarni hisobga olish DAFTARI ( 320-son shakl)**

2, 4, 6, 8 va h.k.betlar

Sana	Muassasa nomi	Tarqatuvchiga g‘aznadan berildi			
		familiya, ismi, otasining ismi	summa yozuvda	summa raqamda	Tarqatuvchining imzosi

3, 5, 7, 9 va h.k. betlar

Tarqatuvchi tomonidan g‘aznaga qaytarilgan naqd pullar va tasdiqlovchi hujjatlar				
Naqd pullar	To‘lov hujjatlari	Hammasi		G‘aznachining imzosi
summa raqamda	summa raqamda	Summa yozuvda	summa raqamda	Tarqatuvchining imzosi, sana

Oxirgi bet

**Tarqatuvchilikka tayinlangan shaxslarning ro‘yxati**

t/r	Muassasa nomi (bo‘linma)	Familiya, ismi, otasining ismi	Tayinlanganlik to‘g‘- risidagi buyruqning sanasi va raqami	Imzo namunasi

**3.2.2.G‘aznadan hisobdor shaxslarga pul berish bo‘yicha qaydnoma hisoboti**

G‘aznadan bir necha hisoblar kishilarga pul berilishi zarur bo‘lgan hollarda individual tarzdagi g‘azna chiqim orderlari o‘rniga 317-sod shakldagi g‘aznadan hisobdor shaxslarga pul berish bo‘yicha qaydnomadan (5-jadval) foydalilanadi. Shtatda g‘aznachilik lavozimi ko‘zda tutilmagan tashkilotlarda xodimlarga ish haqi to‘lash hamda mayda xo‘jalik xarajatlari tashkilot buyrug‘i bilan rasmiylashtirilgan hisobdor shaxslar orqali amalga oshiriladi. Bankdan naqd pul olish uchun cheklar ana shu shaxslar nomiga yoziladi.

**G‘aznadan hisobdor shaxslarga pul berish bo‘yicha  
QAYDNOMA (317-son shakl)**

Debet analitik hisobvaraq	<input type="text"/>	Kredit analitik hisob varaq	<input type="text"/>	G‘azna chiqim orderi	<input type="text"/>	Sana	<input type="text"/>
---------------------------	----------------------	-----------------------------	----------------------	----------------------	----------------------	------	----------------------

-bet

Hisobdor shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi	Tashkilot nomi	Tabel raqami	Summasi	Summa yozuvda	Olganligi to‘g‘risida yozuv	Qo‘sishma belgilari
		Jami				

Summa yozuvda \_\_\_\_\_

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F. I. Sh)

**3.2.3. Budjet tashkiloti g‘aznasida boshqa pul mablag‘lari bilan ishlashning sintetik va analitik hisobi**

Budjet tashkilotida boshqa pul mablag‘lari 13 «Boshqa pul mablag‘lari» hisobvarag‘ida sintetik hisobi yuritiladi va pul mablag‘lari ning umumiy ko‘rinishida balans moliyaviy hujjatida hisobi aks ettiriladi.

Bu hisobvaraqa akkreditivlar, yo‘ldagi pul mablag‘lari va tashkilotlarning boshqa pul mablag‘lari hisobga olinadi. Bu hisobvaraq quyidagi analitik hisobvaraqlarga bo‘linib hisobda aks ettiriladi:

- 130 «Akkreditivlar»;
- 131 «Yo‘ldagi pul mablag‘lari»;
- 132 «Pul ekvivalentlari».

130 «Akkreditivlar» analitik hisobvarag‘ida moddiy qimmatliklar yetkazib bergenliklari, shuningdek, ishlar, xizmatlar bajarilganligi uchun boshqa shaharlardagi mol yetkazib beruvchilar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro tuzilgan shartnomalar asosida qo‘yilgan akkreditivlar summasi hisobga olinadi.

Akkreditivlar budget mablag‘lari hisobidan ham, budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan ham qo‘yilishi mumkin. Akkreditivlarni rasmiylashtirish va ularning amal qilish muddatlari qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

Akkreditiv qo‘yilganda 130 «Akkreditivlar» analitik hisobvarag‘i debetlanadi hamda pul mablag‘larini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlar kreditlanadi. Foydalanilgan akkreditivlar summasi 150 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar» va boshqa analitik hisobvaraqlarning tegishlisini debetiga hamda 130 «Akkreditivlar» analitik hisobvarag‘ining kreditiga yoziladi. Akkreditivlarning foydalanilmagan summalar pul mablag‘larini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari debetiga hamda 130 «Akkreditivlar» analitik hisobvarag‘ining kreditiga yoziladi.

130 «Akkreditivlar» analitik hisobvarag‘i bo‘yicha analitik hisob qo‘yilgan har bir akkreditiv bo‘yicha 292-son shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftari (kartochkasi)da yuritiladi.

131 «Yo‘ldagi pul mablag‘lari» analitik hisobvarag‘ida saqlash joyidan chiqib ketgan, ammo mo‘ljallangan joyiga yetib bormagan pul mablag‘lari (inkassatorga berilgan tashkilotlarning naqd pul mablag‘lari, pul o‘tkazmalari va boshqalar) hisobga olinadi.

Ushbu analitik hisobvaraqlarning tranzit analitik hisobvaraqlar hisoblanadi va pul mablag‘larining harakati ustidan uzlusiz nazoratni o‘rnatish uchun bog‘lovchi vazifasini bajaradi.

Pulni inkassatorlarga topshirish, pul o‘tkazmalari va boshqa hollar 131 «Yo‘ldagi pul mablag‘lari» analitik hisobvaraqlarning debetida pul mablag‘larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Pul mablag‘lari kirim qilingandan keyin 131 «Yo‘ldagi pul mablag‘lari» analitik hisobvarag‘i kreditlanib, pul mablag‘larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar debetlanadi.

Yo‘ldagi pul mablag‘larining analitik hisobi ularning turlari bo‘yicha yuritiladi.

132 «Pul ekvivalentlari» analitik hisobvarag‘ida dam olish uylari, sanatoriylar, turistik bazalar uchun berilgan puli to‘langan yo‘llanmalar, pochta orqali jo‘natilgan pullar uchun xabarnomalar,

pochta markalari, mehnat daftarchalari blanklari hamda ularga ilova qilingan varaqlar va boshqalar hisobga olinadi.

Bunday hujjatlarni g‘aznaga qabul qilish va g‘aznadan berish g‘azna orderlari bilan rasmiylashtiriladi. Bu muomalalarning hisobi pul mablag‘lari bo‘yicha muomalalardan alohida holda yuritiladi.

Pul ekvivalentlari sotib olinganda 132 «Pul ekvivalentlari» analitik hisobvarag‘ining debetiga va pul mablag‘lari yoki hisob-kitoblar analitik hisobvaraqlarining kreditiga yoziladi.

Pul ekvivalentlari hisobdor shaxslarga berilganda 172 «Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ining debetiga va 132 «Pul ekvivalentlari» analitik hisobvarag‘ining kreditiga yoziladi.

Pul ekvivalentlarining (mehnat daftarchasi va boshqalarning) sotilishi tegishli pul mablag‘lari yoki hisob-kitoblar analitik hisobvaraqlarining debetida hamda 132 «Pul ekvivalentlari» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi.

Pul ekvivalentlarining hisobdan chiqarilishi haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi tegishli analitik hisobvaraqlarning debetida va 132 «Pul ekvivalentlari» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi.

Analitik hisobi (mehnat daftarchalari blanklari va uning ilovalaridan tashqari) ularning turlariga qarab 292-son shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftari (kartochkasi)da yuritiladi. Mehnat daftarchalari va uning ilovalari hisobi 448-son shakldagi qat’yi hisobot blanklari bo‘yicha daftarda (6-jadval) yurtiladi.

*6-jadval*

#### **Qat’iy hisobot blanklari bo‘yicha DAFTAR (448-son shakl)**

Sana			Asos (hujjatning nomi, raqami, sanasi)	Kirim			Xarajat			Qoldiq		
kun	oy	yil		miqdor	Blankning (qo‘srimcha varqa) raqami va seriyasi	summa, so‘m.	Miqdor	Blankning (qo‘srimcha varqa) raqami va seriyasi	summa, so‘m.	Miqdor	summa, so‘m.	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13

## **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Budjet tashkiloti g‘aznasi deganda nimani tushunasiz?
2. Budjet tashkilotining g‘azna hisobvarag‘i va unda muomalarni rasmiylashtirish tartibini tushuntirib bera olasizmi?
3. Kirim va chiqim g‘azna orderlari va uni rasmiylashtirishni kim amalga oshiradi?
4. Budjet tashkilotlarida g‘azna daftarini yuritish tartibi qanaqa va unga kim ma’sul?
5. G‘aznadan hisobdor shaxslarga pul berish bo‘yicha tushunchangiz?
6. Budjet tashkiloti g‘aznasida boshqa pul mablag‘lari bilan ishslashning sintetik va analitik hisobini aytib bering.
7. G‘azna atamasining oldingi nomini bilasizmi?
8. G‘azna to‘grisida qanday me’yoriy hujjatlar mavjud?
9. G‘azna hisobvarag‘ini tarkibini tushuntirib bering.
10. Oylik maosh nima sababdan beriladi?

## **4-bob. BUDJET TASHKIOTLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI**

---

---

### **4.1-§. ASOSIY VOSITALAR TO‘G‘RISIDA TUSHUNCHА VA UNING ANALITIK VA SINTETIK HISOBI**

#### **4.1.1. Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli nomoliyaviy aktivlarning analitik va sintetik hisobi to‘g‘risida tushuncha**

Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli nomoliyaviy aktivlarning budget tashkilotlari buxgalteriya hisobida quyidagi hisobvaraqlar bo‘yicha hisob yuritish tartibi keltirtiladi:

- 01 «Asosiy vositalar»;
- 02 «Asosiy vositalarning eskirishi»;
- 03 «Boshqa uzoq muddatli nomoliyaviy aktivlar».

*Asosiy vositalar* deb, qonunchilikka muvofiq zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tashkilot tomonidan uzoq vaqt davomida (bir yildan ortiq) foydalanadigan, shuningdek, ijara berishi mumkin bo‘lgan moddiy aktivlarga aytildi.

01 «Asosiy vositalar» hisobvarag‘ida tashkilotlarning barcha asosiy vositalari, shu jumladan, ijara berilgan asosiy vositalarning holati va harakati to‘g‘risidagi axborotlar, qiymatliklar umumlashtirib ( $\sum x = x_1 + x_2 + x_3 + \dots + x_n$ ) ko‘rsatiladi (7-jadval).

Budget tashkilotlarda asosiy vositalarni buxgalteriya hisobida kelib tushishi bo‘yicha, ularning tashkilot ichida joydan-joyga o‘tishi, budget tashkiloti hisobidan chiqarilishi, har bir obyektning saqlanishi va to‘g‘ri foydalanilishi ustidan nazorat qilinishi hujjalarda to‘g‘ri rasmiylashtirilishi hamda hisob registrlarida o‘z vaqtida aks ettirilishi lozim.

Budget tashkilotlari o‘zlarining zimmalariga yuklatilgan vazifa-larni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatlarini amalga oshirishi, shuningdek, ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish)

jarayonida foydalilaniladigan, qiymatidan qat'iy nazar 1 yildan ortiq xizmat qilish muddatiga ega bo'lgan moddiy aktivlarni buxgalteriya hisobida asosiy vositalar tarkibida hisobga oladi va aks ettiradi.

*7-jadval*

**Asosiy vositalarning sintetik va analitik hisobvaraqlardagi  
summalarini umumlashtirish holati**

Sintetik hisobvaraq		Analitik hisobvaraqlar			Summa
nomi	kodi	nomi	kodi		
Asosiy vositalar	01	Turar-joy imoratlar	010	$x_1$	
		Noturar joy imoratlar	011	$x_2$	
		Inshootlar	012	$x_3$	
		Mashina va jihozlar	013	$x_4$	
		Transport vositalari	015	$x_5$	
		Kutubxona fondi	018	$x_6$	
		Boshqa asosiy vositalar	019	$x_7$	
Jami			-	$\Sigma x$	
Asosiy vosi- talarning eskirishi	02	Turar-joy imoratlarning eskirishi	020	$y_1$	
		Noturar joy imoratlarning eskirishi	021	$y_2$	
		Inshootlarning eskirishi	022	$y_3$	
		Mashina va jihozlarning eskirishi	023	$y_4$	
		Transport vositalarining eskirishi	025	$y_3$	
		Boshqa asosiy vositalarning eskirishi	029	$y_4$	
		Jami	-	$\Sigma y$	

Asosiy vositalar tarkibida quyidagilar hisobga olinadi: imoratlar, inshootlar, mashina va uskunalar, kompyuter texnikasi va unga qo'shimcha qurilmalar, transport vositalari, kutubxona fondi, uzat-kich moslamalari, ishchi va mahsulot beruvchi hayvonlar va boshqa asosiy vositalar (muzey boyliklari, hayvonot olami eksponatlari, sahna-tomosha vositalari, o'quv kinofilmari, magnit disklari va lentalari, kassetalar va hokazo).

Qiymati va xizmat muddatidan qat'iy nazar, quyidagilar asosiy vositalar tarkibiga kiradi: qishloq xo'jaligi mashinalari va uskunalar, katta yoshdagi ishchi va mahsulot beruvchi hayvonlar (shu jumladan, maydasi ham), kutubxona fondlari, muzey boyliklari

(muzey eksponatlaridan tashqari), hayvonot olami eksponatlari va namunaviy loyihalashtirishga oid hujjatlar.

Ko‘p yillik ko‘chatlarga doir kapital xarajatlar har yili, butun ishlar majmui tugashidan qat’iy nazar, foydalanishga qabul qilingan maydonlarga taalluqli xarajatlar summasida asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi.

Xizmat muddati va qiymatidan qat’iy nazar, quyidagilar asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi:

- maxsus asboblar va moslamalar (muayyan buyumlarni turkumlab va yoppasiga ishlab chiqarish uchun yoki yakka tartibdag'i buyurtmalarni tayyorlash uchun mo‘ljallangan, maqsadli yo‘naltiligan asboblar va moslamalar);
- maxsus va sanitariya kiyim-kechaklari, maxsus poyabzallar;
- ko‘rpa-to‘sak anjomlari;
- yozuv-chizuv anjomlari (kalkulatorlar, stol ustiga qo‘yiladigan asboblar va boshqalar);
- oshxona anjomlari, shuningdek, oshxona uchun dasturxonsochiqlar;
- tiklanishi bo‘yicha xarajatlar qurilish-montaj ishlari tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (notitul) inshootlar, moslamalar va qurilmalar;
- bir yildan kam foydalanish muddatiga ega bo‘lgan almashtiriladigan uskunalar;
- ov qurollari (trallar, to‘rlar, qarmoqlar, matraplar va boshqalar) va shu kabi moddiy qimmatliklar.

Ushbu yuqorida keltirilgan moddiy qimmatliklar buxgalteriya hisobida tovar-moddiy zaxiralar tarkibida hisobga olinadi.

Yuqorida qayd etilgan 7-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 01 «Asosiy vositalar» hisobvarag‘i quyidagi analistik hisobvaraqlarga bo‘linadi:

- 010 «Turar-joy imoratlar»;
- 011 «Noturar-joy imoratlar»;
- 012 «Inshootlar»;
- 013 «Mashina va jihozlar»;
- 015 «Transport vositalari»;

018 «Kutubxona fondi»;

019 «Boshqa asosiy vositalar».

Budjet tashkiloti hisobvaraqlar rejasiga asosan 010 «Turar-joy imoratlar» analitik hisobvarag‘ida to‘liq yoki asosan turar-joy uchun belgilangan binolar hisobga olinadi. Shuningdek, ushbu analitik hisobvaraqa qda tashkilotlarning balansida bo‘lgan va o‘z xodimlarining, jumladan, harbiy xizmatchilarning yashashi uchun foydalaniladigan binolari ham hisobga olinadi.

Hisobvaraqlar rejasining 011 «Noturar-joy imoratlar» analitik hisobvarag‘ida esa, turar-joy bo‘lmanagan barcha imoratlar, jumladan, ishlabchiqarish xo‘jalik binolari, boshqaruvin organlari, ijtimoiy-madaniy (o‘quv yurtlari, kasalxonalar, poliklinikalar va ambulatoriyalar, internatlar, qariyalar va nogironlar uylari, mактабгача та’лим муассасалари, кутубхоналари, клублари, музейлари, лабораториялари ва босhqалари) va tashkilotlar tomonidan band qilingan boshqa binolar hisobga olinadi.

Asosiy vositalar sintetik hisobvaraqning 012 «Inshootlar» analitik hisobvarag‘ida quyidagilar hisobga olinadi: suv nasoslar, mashg‘ulot o‘tkazish maydonlari, suv havzalari, yo‘llar, ko‘priklar, yodgorlik-haykallari, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va jamoat bog‘lari, budjet tashkilotining to‘sqliari va boshqalar aks ettiriladi. Har bir analitik hisobvaraqa qda aks ettiriladigan asosiy vositalar nobudgarchiliklar, hisobotlarda adashmovchiliklar bo‘lishining oldini oladi. Bundan tashqari, ushbu analitik hisobvaraqa elektr uzatkich tarmoqlar, transmissiyalar va quvur o‘tkazgichlar, transformatsiya va quvur o‘tkazgichlarda suyuq va gazsimon moddalarni iste’molchilarga yetkazish uchun energiya uzatgichlar va boshqalar ham hisobga olinadi. Bunda, elektr stansiyalarning, gazkompressor, nasos va boshqa stansiyalarning binolari 011 analitik hisobvaraqa qda, ularning jihozlari esa 013 analitik hisobvaraqa qda hisobga olinadi.

013 «Mashina va jihozlar» analitik hisobvarag‘ida quyidagilar: kuchlanish mashinalari va jihozlar, ish mashinalari va jihozlar, o‘lchov asboblari, tartibga soluvchi asboblar va moslamalar,

laboratoriya jihozlari, hisoblash texnikasi, meditsina jihozlari hamda boshqa mashina va jihozlar alohida guruhlarga ajratilib hisobga olinadi:

– kuchlanish mashinalari va jihozlar, issiqlik va elektr energiyasini hosil qiluvchi mashina-generatorlar va turli xil energiyani (suv, shamol, issiqlik, elektr energiyasi va h.k.) mexanik, ya'ni harakat energiyasiga aylantirib beruvchi mashina dvigatellar;

– ish mashinalari va jihozlar, mahsulot yaratish yoki ishlab chiqarish tusidagi xizmatlar jarayonida mehnat predmetiga mexanik, issiqlik va kimyoviy ta'sir ko'rsatishga hamda ishlab chiqarish jarayonida mehnat predmetini mexanik dvigatellar, inson va hayvonlar kuchi yordamida joydan-joyga ko'chirish uchun mo'ljalangan mashinalar, apparatlar va jihozlar;

– o'lchov asboblari – dozatorlar, ampermetrlar, barometrlar, vattmetrlar, vaakummetrlar, vaporimetrlar, voltmetrlar, balandlik o'lchagichlar, galvanometrlar, geodeziya asboblari, gidroskoplar, indikatorlar, kompressorlar, manometrlar, xronometrlar, maxsus tarozilar, o'lchagichlar, g'azna apparatlari, elektr energiyasi, gaz, suv o'lchash asboblari va boshqalar;

– tartibga soluvchi asboblar va moslamalar, kislorod nafas oldirgich asboblar, elektr, pnevmatik va gidravlik muntazam-lashtirib turuvchi moslamalar, avtomatik boshqarish pultlari, mar-kazlashtirish, blokirovka qilish apparaturalari, dispetcherlik nazorati liniyasi moslamalari va boshqalar;

– laboratoriya jihozlari – pirometrlar, regulatorlar, kalorimetrlar, nam o'lchagich asboblar, tutish kublari, laboratoriya ko'pralari, gaz o'tkazmaslikni sinash uchun mo'ljalangan asboblar, mikroskoplar, termostatlar, stabilizatorlar, so'rib oluvchi shkaflar va shu kabilar;

– hisoblash texnikasi – elektron-hisoblash, boshqaruvchi va analogli mashinalar, kompyuterlar va unga qo'shimcha qurilmalar, printerlar, uyali va mobil aloqa apparatlari, raqamli hisoblash mashinalari va moslamalari (klavishli hisoblash va jamlovchi mashinalar, perforatsion hisoblash mashinalari) va boshqalar;

– meditsina jihozlari – meditsina jihozlari (tish davolash kreslari, operatsiya stollari, maxsus jihozli krovatlar va boshqalar),

dizenfeksiyalovchi va maxsus jihozlari, sut oshxonalari va sut stansiyalarining, qon quyish stantsiyalarining jihozlari va boshqalar;

– asbob-uskunalar – mexanizatsiyalashtirilgan va mexanizatsiyalashtirilmagan umumiy foydalanishga mo’ljallangan mehnat qurollari, shuningdek, materialarga ishlov beruvchi mashinalarga biriktirib qo‘yilgan predmetlar. Ularga quyidagilar kiradi: kesuvchi, zarb beruvchi, presslovchi va zichlovchi qo‘l mehnati qurollari, bularga elektr energiyasi, siqilgan havo va shunga o‘xhashlar yordamida ishlovchi mexanizatsiyalashtirilgan qo‘l mehnati qurollari ham kiradi (elektrodrellar, kraskopultlar, elektr vibratorlar, gayka buragichlar va boshqalar), shuningdek, materialarga ishlov berishga, montaj ishlarini bajarishga va shunga o‘xhashlarga mo’ljallangan turli xil moslamalar (tiskilar, patronlar, bo‘lgich golovkalar, avtomobil dvigatellarini o‘rnatish uchun va kardanli valni aylantirish uchun mo’ljallangan moslamalar) va boshqalar;

– ishlab-chiqarish inventarlari va buyumlari – ish vaqtida ishlab chiqarish operatsiyalarini yengillatishga xizmat qiladigan predmetlar, ish stollari, verstaklar, kafedralar, partalar va boshqalar, mehnatni muhofaza qilishga qaratilgan jihozlar: suyuq va sochiluvchan jismlarni saqlashga mo’ljallangan moslamalar (baklar, tanlar, omborlar va boshqalar), savdo shkaflari va stellajlari, inventarlari, ish mashinalari qatoriga qo‘sib bo‘lmaydigan texnika predmetlari;

– xo‘jalik inventarlari – idora jihozlari, ko‘chma baryerlar, kiyim ilgich, garderoblar, turli xil shkaflar, divanlar, stollar, kreslolar, yonmaydigan (yong‘inga chidamli) shkaflar va qutilar, yozuv mashinkalari, gektograflar, kopirograflar va boshqa apparatlar, ko‘chma o‘tovlar, palatkalar (kislorodlilardan tashqari), krovatlar (maxsus jihozli krovatlardan tashqari), gilamlar, pardalar va boshqa xo‘jalik inventarlari va, shuningdek, yong‘inga qarshi predmetlar – gidropultlar, stendlar, qo‘l narvonlari va h.k;

– boshqa mashina va jihozlar – yuqorida guruhlarda nomi keltirilmagan mashinalar, apparatlar, sport maydonlari, stadionlar

va sport binolarining jihozlari (shu jumladan sport anjomlari), o'quv yurtlaridagi xonalar va ustaxonalarning jihozlari, musiqa asboblari, televizorlar, radioapparaturalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va ilmiy ish bilan shug'ullanuvchi boshqa muassasalarning maxsus jihozlari, ATS jihozlari, o't o'chirishda ishlataladigan mexanik narvonlar, kir yuvadigan va tikuv mashinalari, sovitkichlar (muzlatkichlar), chang yutgichlar va boshqalar.

015 «Transport vositalari» analitik hisobvarag'ida quyidagilar alohida guruhlarga ajratilib odamlarni va yuklarni tashishga mo'l-jallangan barcha turdag'i vositalar hisobga olinadi:

- temiryo'l, suv va avtomobil transportining harakatdagi tarkibi (elektrovozlar, teplovozlar, paravozlar, motovozlar, motodrezinalar, vagonlar, platshakllar, sisternalar, teploxdollar, paroxodlar, dizel-elektrroxodlar, buksirlar, barjalar va barkalar, qutqaruvchi qayiqlar, suzuvchi pristanlar, parusli kemalar, yuk avtommobilari va yengil avtommibillar, pritseplar, avtosamosvallar, avtosisternalar, avtobuslar, tortuvchi traktorlar va boshqalar);
- havo transportining harakatdagi tarkibi (samolyotlar, vertolyotlar va boshqalar);
- ot-aravalar;
- ishlab-chiqarish transporti (elektrokarlar, mototsikllar, motorollerlar, velosipedlar, aravachalar va boshqalar);
- sport transportining hamma turlari.

Bunda, yuk tortadigan va sport otlari hamda boshqa ish hayvonlari 019 «Boshqa asosiy vositalar» analitik hisobvarag'ida hisobga olinadi.

018 «Kutubxona fondi» analitik hisobvarag'ida kutubxona fondlari, kitoblarning ayrim nusxalarining qiymatidan qat'iy nazar hisobga olinadi. Kutubxona fondiga ilmiy, badiiy va o'quv adabiyotlari, adabiyotning maxsus turlari va boshqa nashrlar kiradi.

019 «Boshqa asosiy vositalar» analitik hisobvarag'ida alohida guruhlarga ajratilib quyidagilar hisobga olinadi:

- ko'p yillik daraxtlar va ekinlar. Ko'p yillik daraxtlar va ekinlarga sun'iy ko'p yillik ko'chatlar (ularning yoshidan qat'iy

nazar), mevali ko'chatlarning hamma turlari (daraxt va butalar), ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlar, muassasalar hududida turarjoy uylarining hovlilaridagi ko'kalamzorlashtiruvchi va manzaralni daraxt va butalar, yashil to'siqlar, qordan to'suvchi va dalalarni himoya qiluvchi, qumlarni va daryo qirg'oqlarini mustahkamlash uchun ekiladigan daraxtlar, jar va soy yoqalariga ekiladigan daraxtlar va shunga o'xshashlar, botanika bog'lari va boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalarining hamda o'quv yurtlarining ilmiy maqsadlarga mo'ljallangan sun'iy daraxtlari va boshqa ko'p yillik sun'iy daraxtlar (hamma turdag'i yosh daraxtlar to'liq yetilgan, ya'ni meva beradigan daraxtlardan alohida hisobga olinadi).

– Muzey qimmatliklari (ularning qiymatidan qat'iy nazar) davlat muzeylarida hisobga olinadigan muzey eksponatlardan (san'at va tabiatshunoslik predmetlari, qadimiy va turmush mada-niyati predmetlari hamda ilmiy, tarixiy va texnikaviy ahamiyatga ega bo'lgan eksponatlardan) tashqari;

– hayvonot bog'lari va shunga o'xshash muassasalardagi hayvonat olami eksponatlari (ularning qiymatidan qat'iy nazar);

– sahna-tomosha vositalari, dekoratsiyalar, mebel va rekvizitlar, butaforiya, teatr kastumlari va milliy kastumlar, bosh kiyimlar, ich kiyimlar, poyafzallar, pariklar va boshqalar;

– o'quv kinofilmlar, magnit disklar, kassetalar va boshqalar;

– ish hayvonlari – otlar, xo'kizlar, tuyalar, eshaklar va boshqa ish hayvonlari (yuk tashuvchi va sport otlari hamda boshqa yuk tashuvchi hayvonlarni ham qo'shib);

– mahsuldor va zotdor mollar – sigirlar, buqalar, qo'toslar va buyvollar (ish hayvonlaridan tashqari), ayg'irlar va zotdor biyalar (ish hayvonlari sifatida foydalanilmaydiganlari), yilqida boqishga o'tkazilgan biyalar, tuyalar (ish hayvonlari sifatida foydalanilmaydiganlari), bug'ular, cho'chqalar, qo'ylar, echkilar, qo'chqorlar va boshqalar;

– boshqa inventarlar (bolalar o'yinchoqlari, maxsus chang'ilar va boshqalar);

– boshqa maxsus, shu jumladan harbiy asosiy vositalar.

#### **4.1.2. Inventar obyektlari va ularni raqamlashtirish tartibi**

Asosiy vositalarning hisobi, ular saqlanadigan joylar bo'yicha inventar obyektlariga hamda javobgar shaxslarga bo'lingan holda yuritiladi.

Tugallangan konstruktiv qurilmalar, unga qarashli barcha moslamalari va ashyolari bilan yoki ma'lum mustaqil funksiyani bajarish uchun mo'ljallangan konstruktiv jihatdan ajratilgan predmetlar, yoxud ma'lum ishni birqalikda bajaruvchi konstruktiv jihatdan birlashtirilgan bir butun predmetlar guruhi alohida inventar obyekt hisoblanadi.

Har bir alohida turgan bino «Turar-joy imoratlar» va «Noturar joy imoratlar» analitik hisobvarag'i bo'yicha inventar obyekti hisoblanadi. Bino tarkibiga uni ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo'lgan bino ichidagi barcha kommunikatsiyalar: bino ichidagi isitish tizimi, isitish uchun zarur bo'lgan qozon qurilmalari bilan birqalikda (agar u bino ichida bo'lsa), ichki suv, gaz tarmoqlari va kanalizatsiyalar, barcha qurilmalari bilan, ichki kuch va yorituvchi elektr simlari va umumi sanitariya ahamiyatiga ega bo'lgan ventilatsiya qurilmalari, ko'targichlar kiradi.

Agar binolar bir-biriga tutashgan va umumi devorga ega bo'lsa, ammo ularning har biri o'zicha mustaqil konstruktiv butunlikka ega bo'lsa, ular alohida inventar obyekt hisoblanadi.

Hovlidagi kichik imoratlar, to'siqlar va binolarga xizmat ko'rsatuvchi boshqa hovli inshootlari, bostirma, devor, quduq va boshqa binolar bilan birga bitta inventar obyektini tashkil etadi. Agar bu kichik imoratlar va inshootlar ikki va undan ortiq binolarga xizmat qilsa, ular mustaqil inventar obyekt hisoblanadi.

Binoga taqab tashqi tomonidan qurilgan mustaqil xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan imoratlar, qozonxonalarining alohida turuvchi imoratlari, shuningdek, hovlidagi kapital imoratlar (omborxonalar, garajlar va h. k.) mustaqil inventar obyekti hisoblanadi.

Asosiy vositalarning butligi ustidan nazoratni yo'lga qo'yish va ularning hisobini tashkil etish uchun har bir obyekt (predmet)ga, kutubxona fondlaridan tashqari, sakkiz belgidan (asosiy vositalar

ko‘p bo‘lgan hollarda, ushbu belgilar soni ham ko‘paytirilishi mumkin) iborat inventar raqami beriladi.

Bunda, dastlabki uch belgi analitik hisobvaraqnini bildiradi, to‘rtinchi va beshinchi belgi—guruhni, qolgan uch belgi esa predmetning guruhdagi tartib raqamini bildiradi. Guruhlar ajratilmagan analitik hisobvaraqlar bo‘yicha esa to‘rtinchi va beshinchi belgi «Nol» bilan belgilanadi.

*Masalan*, 01000001—inventar raqamida 010 «Turar-joy imoratlari» analitik hisobvarag‘ini, 001—obyektning tartib raqamini bildiradi;

01310001—inventar raqamida 013 «Mashina va jihozlar» analitik hisobvarag‘ini, 10—guruh—xo‘jalik inventari, 001—predmetning tartib raqamini bildiradi.

Inventar obyekti murakkab bo‘lgan hollarda, ya’ni u yoki bu ajratilgan elementlarni o‘z ichiga olganda, bitta yaxlitlikni tashkil etsa, ana shu elementlar har biriga ham ularni birlashtiruvchi asosiy obyektga qo‘yilgan inventar raqami qo‘yiladi.

Inventar raqami obyektga biriktirilgan tamg‘aga belgilanadi yoki bo‘yoq bilan obyektning o‘ziga va boshqa usullar bilan belgilanadi. Asosiy vositalar obyektiga berilgan inventar raqami asosiy vositaning ushbu tashkilotda bo‘lgan barcha davri uchun saqlanib qoladi.

Budget tashkiloti boshqa ikkinchi tashkilotdan biron bir asosiy vositasini ijara qila olgan bo‘lsa, u holda inventar raqami qo‘yilmaydi. Mazkur holatda asosiy vositalar ijrarachilarda 01 «Ijaraga olingan asosiy vositalar» nomli balansdan tashqari hisobvaraqdasi ijara beruvchilar tomonidan qo‘yilgan inventar raqami bo‘yicha hisobga olinadi. Tassavvur qilib ko‘ring, bir asosiy vositani 7 ta tashkilot bir oydan 7 oy davomida foydalangan bo‘lsa, unda 7 marotaba inventar raqami qo‘yilgan bo‘lar edi. Natijada bu asosiy vositaning inventar raqamlari ko‘payib ketib, hisobda adashish bilan bog‘liq muammo yuzaga kelgan bo‘lar edi. Shu boisdan ham buxgalteriya hisobida hisobga olishning yagona tartib qoidalari ishlab chiqilib, bu andazalarda, yo‘riqnomalarda, qolaversa, mana siz o‘qiyotgan darslikda ham gavdalangan.

Misol. Boshqa tashkilotlardan beg‘araz olingan va avval foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalar-inventar obyektlar kelib tushganda:

a) dastlabki (tiklanish) qiymatidan eskirishini ayirgan holda

Debet: 01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 262

b) eskirish summasiga

Debet: 01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 02- hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

Barcha asosiy vositalar budget tashkiloti, rahbarining buyrug‘i bilan tayinlangan moddiy javobgar shaxslarning mas’ul javobgarligida bo‘lishi kerak. Bu esa inventarlash jarayonida asosiy vositaga yetkazilgan istisno zararlarni undirishda, rahbar va xodim o‘rtasidagi moddiy javobgarlikka baho berishda asos bo‘ladi.

Asosiy vositalarni saqlash uchun moddiy javobgar bo‘lgan shaxslar asosiy vositalarning inventar ro‘yxati bilan (8-jadval) yuritishi kerak. Moddiy javobgar shaxslar asosiy vositalarning saqlanishini kuzatib boradilar va barcha o‘zgarishlar hisobini yuritadilar.

*8-jadval*

### **ASOSIY VOSITALARNING INVENTAR RO‘YXATI**

AV-13 son shakl

Inventar kartochka		Inventar raqami	Obyektning to‘liq nomlanishi	Hisobdan chiqarildi (ko‘chirildi)				
Raqami	Sana			Hujjat		Hisobdan chiqarilishining sababi		
				sana	raqami			
1	2	3	4	5	6	7		

#### **4.1.3. Asosiy vositalarni inventarlash**

Inventarlash jarayonida aniqlangan hisobga olinmagan asosiy vositalar, ortiqcha chiqish aniqlangan sanadagi aynan shunga o‘xshash asosiy vositalarning bozor qiymati bo‘yicha ularning haq-

qiy ahvolini hisobga olgan holda baholanadi, belgilangan tartibda tashkilot hisobiga qabul qilinadi hamda buxgalteriya hisobida 01 «Asosiy vositalar» hisobvarag‘ining tegishli analitik hisobvaraqlari debetida va 273 «Inventarlash natijasida ortiqcha chiqqan mol-mulklar» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi.

Inventarlash jarayonida aniqlangan hisobga olinmagan asosiy vositalar summasiga

Debet: 01-hisobvaraqaqning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 273

Inventarlash natijasida kamomad chiqqan asosiy vositalar summasiga (agarda moddiy javobgar shaxsdan undirilmasa):

a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi

Debet: 02-hisobvaraqaqning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 01-hisobvaraqaqning tegishli analitik hisobvaraqlari

b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi

Debet: 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

Kredit: 01-hisobvaraqaqning tegishli analitik hisobvaraqlari

Inventarlash natijasida kamomad chiqqan budget mablag‘lari hisobidan sotib olingan yoki sotib olinish manbasi noaniq bo‘lgan asosiy vositalar summasiga (agarda moddiy javobgar shaxsdan undirilsa):

a) hisoblangan eskirish summasining hisobdan chiqarilishi

Debet: 02-hisobvaraqaqning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 01-hisobvaraqaqning tegishli analitik hisobvaraqlari

b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi

Debet: 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

Kredit: 01-hisobvaraqaqning tegishli analitik hisobvaraqlari

d) aybdor shaxsdan undiriladigan summaning budget daromadlariga hisoblanishi

Debet: 170 Kamomadlarga doir hisob-kitoblar

Kredit: 160 budgetga to‘lovlar bo‘yicha budget bilan hisob-kitoblar

e) aybdor shaxs tomonidan tashkilot g‘aznasiga kamomad summasining to‘lanishi

Debet:120 Milliy valutadagi naqd pul mablag‘lari

Kredit: 170 Kamomadlarga doir hisob-kitoblar

f) kamomad summasini hisobvaraqla kirim qilinishi

Debet:113 Boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar

Kredit: 120 Milliy valutadagi naqd pul mablag‘lari

g) mablag‘larni budjet daromadiga o‘tkazib berilishi

Debet:160 budjetga to‘lovlar bo‘yicha budjet bilan hisob-kitoblar

Kredit: 113 Boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar

Inventarlash natijasida aniqlangan kamomadning aniq aybdori topilmagan yoki moddiy javobgar shaxslardan undirib olish imkonи bo‘lmagan hollarda, kam chiqqan asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishidan ko‘rilgan zarar tashkilot hisobiga olib boriladi va buxgalteriya hisobida uning dastlabki (tiklanish) qiymatini hisobdan chiqarilishi 01 hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari kreditida, qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi kirim qilish manbasidan kelib chiqqan holda haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning debetida, hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi esa 02-hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari debetida aks ettiriladi.

Moddiy javobgar shaxs aybdor deb tan olingan va agarda asosiy vosita budjet mablag‘lari hisobidan sotib olingan bo‘lsa yoki sotib olingan manbasini aniqlashning imkonи bo‘lmasa, aybdor shaxsdan undiriladigan summa qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli budjet daromadiga o‘tkazib beriladi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

– kam chiqqan asosiy vositaning dastlabki qiymatini hisobdan chiqarilishi 01 hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari kreditida, qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi kirim qilish manbasidan kelib chiqqan holda haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning debetida, hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi esa 02 hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari debetida aks ettiriladi;

– aybdor shaxsdan undiriladigan summaning budjet daromadlariga hisoblanishi 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ining debetida va 160 «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha budjet bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ining kreditida;

– aybdor shaxs tomonidan tashkilot g‘aznasiga kamomad summasining to‘lanishi 120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag‘lari» analitik hisobvarag‘ining debetida va 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ining kreditida;

– kamomad summasini hisobvaraqla kirim qilinishi 113 «Boshqa budgetdan tashqari mablag‘lar» analitik hisobvarag‘ining debetida va 120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag‘lari» analitik hisobvarag‘ining kreditida;

– mablag‘larni budjet daromadiga o‘tkazib berilishi 160 «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha budjet bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ining debetida va 113 «Boshqa budgetdan tashqari mablag‘lar» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi.

Moddiy javobgar shaxs kamomad chiqishida aybdor deb tan olingan holda (agarda asosiy vosita budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan sotib olingan bo‘lsa):

a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi

Debet: 02-hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 01-hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari

b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi

Debet: 170 Kamomadlarga doir hisob-kitoblar

Kredit: 01-hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari

d) agarda, mazkur asosiy vositaning qoldiq qiymati moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilgan summadan kam bo‘lsa

Debet: 170 Kamomadlarga doir hisob-kitoblar

Kredit: 272 Boshqa budgetdan tashqari daromadlar

e) agarda, mazkur asosiy vositaning qoldiq qiymati moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilgan summadan ko‘p bo‘lsa

Debet: 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

Kredit: 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar»

f) aybdor shaxs tomonidan kamomad summasining to‘lanishi  
Debet: pul mablag‘larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar  
Kredit: 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar»

Moddiy javobgar shaxs (yoki boshqa xodim) aybdor deb tan olingan holda (agarda asosiy vosita budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan sotib olingan bo‘lsa), aybdor shaxsdan undiriladigan summa tashkilotning budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha hisobvarag‘iga kirim qilinadi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

– kam chiqqan asosiy vositaning dastlabki (tiklanish) qiymatining hisobdan chiqarilishi 01 hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari kreditida, qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ining debetida, hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi esa, 02 hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari debetida aks ettiriladi. Agarda, mazkur asosiy vositaning qoldiq qiymati va moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilgan summa o‘rtasida farq mavjud bo‘lsa, ushbu farq summa 170 analitik hisobvaraqnning debetida (yoki kreditida) va 272 «Boshqa budgetdan tashqari daromadlar» analitik hisobvarag‘ining kreditida (yoki asosiy vositaning kirim qilish manbasidan kelib chiqqan holda haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning debetida) aks ettiriladi;

– aybdor shaxs tomonidan kamomad summasining to‘lanishi tegishli pul mablag‘larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlarning debetida va 170 analitik hisobvaraqnning kreditida aks ettiriladi.

Agarda asosiy vosita budget va budgetdan tashqari mablag‘lar hisobiga sotib olingan bo‘lsa, aybdor shaxsdan undiriladigan summa asosiy vosita qiymatidagi budget va budgetdan tashqari mablag‘larning ulushiga mos ravishda taqsimlanib, mablag‘ning tegishli qismi budget daromadiga o‘tkazib beriladi, qolgan qismi tashkilotning budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha hisobvarag‘iga kirim qilinadi.

Ushbu mablag‘lar to‘lig‘icha tashkilotning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga sarflanadi.

Agarda aniqlangan kamomad o‘rniga moddiy javobgar shaxsning tashkilot ixtiyoriga bergen asosiy vositasi kamomad chiqqan asosiy vosita qiymatiga teng yoki kam bo‘lsa, ushbu asosiy vosita belgilangan tartibda bozor qiymatida kirim qilinadi, yetishmaydigan qismi esa moddiy javobgar shaxs tomonidan pul mablag‘larini kiritish bilan qoplanadi va buxgalteriya hisobida belgilangan tartibda aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni chet el valutasi hisobiga sotib olinishida sotib olinayotgan asosiy vositalarning qiymati operatsiya sodir etilgan (bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish yoki yetkazib berilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan) sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo‘yicha chet el valutasini so‘mga hisoblab o‘tkazish yo‘li bilan belgilanadi.

Tashkilotlar tomonidan vaqtincha foydalanimayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulklarini boshqa tashkilotlarga ijara berish, shuningdek, ijara dan tushgan mablag‘larni hisobda aks ettirish qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

Ijaraga berilgan asosiy vositalar ijara beruvchi tashkilotlarda balansdan (hisobdan) chiqarilmaydi, ijara oluvchilarda esa mazkur asosiy vositalar 01 «Ijaraga olingan asosiy vositalar» nomli balansdan tashqari hisobvaraqa hisobga olinadi.

#### **4.2-§. BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALAR KIRIMI VA BALANS DAN CHIQARISH HISABI**

##### **4.2.1. Asosiy vositalarning kelib tushishi**

Kelib tushadigan asosiy vositalar obyektining qiymati budget tashkiloti balansiga kiritilishi lozim.

Asosiy vositalar quyidagilar natijasida tashkilot balansiga kirim qilinadi:

– oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha obyektni sotib olish;

Misol: Asosiy vositalar sotib olinganda:

a) sotib olingan asosiy vositalarning qiymatiga (sotib olish narxi, shuningdek, yetkazib berish va boshqa qo‘srimcha xarajatlar)

Debet: 072 «Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar»

Kredit: 15, 16 va 17-hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari

b) Asosiy vositani dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilinishi

Debet: 01-hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 072 Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar

– kapital qo'yilmalar tugaganidan so'ng tiklangan obyektni qabul qilish-topshirish;

Tashkilotning o'zi tomonidan, shuningdek, pudrat shartnomasiga asosan qurilgan asosiy vosita obyektlarining kirim qilinishi

Debet: 01-hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 071 Tugallanmagan qurilish

– beg'araz kelib tushish;

Asosiy vositalar beg'araz olinganda:

a) belgilangan tartibda aniqlangan bozor qiymati bo'yicha

Debet: 072 «Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar»

Kredit: 262 «Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha daromadlar»

b) Asosiy vositalarni yetkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlar summasiga (agar amalga oshirilsa):

Debet: 072 «Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar»

Kredit: 15, 16 va 17-hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari

d) asosiy vositani dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilinishi

Debet: 01-hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 072 «Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar»

– tovar-moddiy zaxiralar tarkibidan o'tkazish;

– asosiy vositalarning ortiqcha (hisobga olinmagan) obyektlarini aniqlash;

– qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollar.

Asosiy vositalarni buxgalteriya hisobiga kirim qilinishi asosiy vositalarning dastlabki qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

Sotib olingan asosiy vositalar, tugallangan qurilishlar va inshotlar, shuningdek, tashkilotning o'zida tayyorlangan asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga ularning sotib olish narxi va ularga

qilingan barcha xarajatlarning to‘liq summasida, jumladan, mazkur asosiy vositalarni foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan yetkazib berish va montaj qilish, o‘rnatish, ishga tushirish va boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda kiritiladi.

Sotib olingan asosiy vositalarning dastlabki qiymati quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

- yetkazib beruvchilarga hamda shartnoma bo‘yicha qurilish-montaj ishlarini bajarganlik uchun pudratchilarga to‘lanadigan summalar;
- asosiy vositalarni sotib olish (qurish) munosabati bilan qonunchilikda belgilangan tartibda to‘langan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summalarini, shu jumladan, bojxona bojlari va yig‘imlari (agar ular qoplanmasa);
- asosiy vositalarni sotib olish (qurish) bilan bog‘liq axborot va maslahat xizmatlari uchun to‘langan summalar;
- asosiy vositalarni yetkazib berish (qurish) xatarini sug‘ur-talash bo‘yicha xarajatlar;
- asosiy vositalar obyektini sotgan vositachilarga to‘lanadigan haqlar;
- asosiy vositalarni o‘rnatish, montaj qilish, sozlash va ishga tushirishga oid xarajatlar;
- aktivdan foydalanish uchun uni ishchi holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Tashkilotning o‘zida tayyorlangan (qurilgan) asosiy vositalarning dastlabki qiymati asosiy vositalarni tiklash (qurish, qurib bitkazish) bo‘yicha amalga oshirilgan barcha haqiqiy xarajatlar summasi (tannarxi) bo‘yicha aks ettiriladi.

Beg‘araz olingan asosiy vositaning dastlabki qiymati buxgalteriya hisobida mazkur bandda nazarda tutilgan xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi ularning belgilangan tartibda aniqlangan joriy qiymati bo‘yicha aks ettiriladi.

Hisobga qabul qilingan asosiy vositalarning dastlabki qiymatini o‘zgartirishga asosiy vosita obyektlarida amalga oshirilgan qo‘sishimcha qurish, qo‘sishimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekon-

struktsiya yoki modernizatsiya qilish, qisman tugatish va qayta baholash amalga oshirilgan hollarda ruxsat etiladi.

Qo'shimcha qurish, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash ishlariga asosiy vositalar obyektining texnologik yoki xizmat mo'ljalining o'zgarishi, oshirilgan ishlar ko'lami va sifatni yanada yaxshilashga doir boshqa hollar tufayli qilinishi lozim bo'lgan ishlar kiritiladi.

Rekonstruktsiya qilish ishlariga ishlab chiqarishni takomillashtirish va uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish bilan bog'liq bo'lgan hamda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, mahsulot (ishlar, xizmatlar) sifatini yaxshilash va nomenklaturasini o'zgartirish maqsadlarida asosiy vositalarni rekonstruktsiya qilish loyihasi bo'yicha amalga oshiriladigan mavjud asosiy vositalar obyektlarini qayta qurish kiritiladi.

Modernizatsiya qilishga ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ma'nан va jismonan eskirgan uskunalarini zamonaviylashtirish va ularni yangilari, unumдорligi yanada yuqori bo'lganlari bilan almashtirish asosida asosiy vositalar va ularning ayrim qismlarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi kiradi.

Asosiy vositalarni ishchi holatida saqlab turish ularni ta'mirlash 3 xil ko'rinishda, ya'ni joriy, o'rtacha va kapital tarzda amalga oshiriladi.

*Joriy ta'mirlash* – asosiy vositalar obyektini ishchi holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta'mirlashdir.

*O'rtacha ta'mirlashda* ta'mirlanayotgan agregatni qisman ajratish va detallarning qismlarini tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi.

Uskunalar va transport vositalarini *kapital ta'mirlash* – agregatni to'liq ajratib yig'ish amalga oshiriladigan ta'mirlashdir, bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki tiklash hamda agregatni yig'ish, sozlash va sinab ko'rishdir.

Binolar va inshootlarni kapital ta'mirlash – bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan konstruktsiya-

larning detallari va uzellarini almashtirish yoki tiklash amalga oshiriladigan ta'mirlashdir.

Asosiy vositalarda amalga oshirilgan joriy va o'rta ta'mirlash xarajatlari va ularning dastlabki qiymatini o'zgartirishga sabab bo'lmaydigan kapital ta'mirlash xarajatlari asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi hamda hisobotlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlari iqtisodiy tasnifining (keyingi o'rnlarda iqtisodiy tasnif deb yuritiladi) tegishli kodlari bo'yicha haqiqiy xarajatlar sifatida aks ettiriladi va hisobot yilining oxirida moliyalashtirish manbasi bo'yicha hisobdan chiqariladi.

Kutubxonalarning inventar fondiga kiritilgan kitoblar, darsliklar va boshqa nashrlar ularning dastlabki muqovalash qiymatlarini ham qo'shib, dastlabki qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Kitoblarni ta'mirlash va tiklash, shu jumladan ikkinchi marta muqovalash xarajatlari kitoblarning qiymatini oshirishga kiritilmaydi va hisobotlarda iqtisodiy tasnifning tegishli kodlari bo'yicha haqiqiy xarajatlar sifatida aks ettiriladi va hisobot yilining oxirida moliyalashtirish manbasi bo'yicha hisobdan chiqariladi.

Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ularning yuqorida ko'rsatilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holdagi dastlabki qiymatidan belgilangan tartibda aniqlangan eskirish summasini farqi sifatida aniqlanadi.

Asosiy vositalar aktiv sifatida tan olinganda ular boshlang'ich qiymat bo'yicha baholanadi.

#### **4.2.2. Asosiy vositalarni balansdan chiqarish hisobi**

Budjet tashkilotlarida ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohalarida ishlatilib, xizmat muddatini o'tab bo'lgan asosiy vositalar O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi» Qonuni va 2003-yil 9-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 114-sон buyrug'i hamda 2004-yil 1-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1299-sон bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Asosiy vositalar» nomli buxgalteriya hisobining milliy andazasi va boshqa taalluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari doirasida balans hisobidan chiqariladi.

Asosiy vositalar quyidagilar natijasida budget tashkiloti balans hisobidan chiqariladi:

a) tugatish;

Tugatilishi munosabati bilan asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi:

– hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi

Debet: 02-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

– qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi

Debet: 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

Kredit: 01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

– asosiy vositalarning tugatilishi munosabati bilan keyinchalik foydalanishga yaroqli bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralarning kirim qilinishi:

– qoldiq qiymati doirasida;

Debet: 06-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

– qoldiq qiymatidan oshgan summaga

Debet: 06-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 272 Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar

– belgilangan xizmat qilish muddati tugagandan so‘ng (eskirish to‘la hisoblanganda);

– fizik (jismoniy) eskirishi, avariya, tabiiy ofat, foydalanishning me’yoriy shartlari buzilishi natijasida foydalanishga yaroqsiz holatga kelishi munosabati bilan;

– ma’naviy eskirganda;

– tegishli hukumat organlarining qarorlari bo‘yicha chiqarilishi munosabati bilan;

– qurilish olib borilishi, kengaytirilishi, rekonstruktsiya qilinishi va budget tashkiloti qayta yangi texnika bilan ta’minlanishi munosabati bilan balansdan chiqarilishi mumkin.

b) sotish;

Asosiy vositalarning sotilishi:

1) bino va inshootlar (chet elda joylashganlardan tashqari):

a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi

Debet: 02-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi

Debet: 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

Kredit: 01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

2) qolgan asosiy vositalar (chet elda joylashganlardan tashqari):

a) asosiy vositalarning dastlabki qiymatini hisobdan chiqarilishi

Debet: 201 Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi

Kredit: 01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

b) asosiy vositalarning hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi

Debet: 02-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 201 Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi

d) Asosiy vositalarning sotish qiymati

Debet: 15-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 201 Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi

e) qolgan asosiy vositalar bir vaqtning o‘zida tegishli budget daromadiga hisoblangan summa

Debet: 201 Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi

Kredit: 160 budgetga to‘lovlar bo‘yicha budget bilan hisob-kitoblar

f) pul mablag‘larini kelib tushishi

Debet: 113 Boshqa budgetdan tashqari mablag‘lar

Kredit: 15-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

g) budgetga hisoblangan summalarining o‘tkazib berilishi

Debet: 160 budgetga to‘lovlar bo‘yicha budget bilan hisob-kitoblar

Kredit: 113 Boshqa budgetdan tashqari mablag‘lar

h) asosiy vositalarning sotilishidan ko‘rilgan ijobiy moliyaviy natija (daromad)

Debet: 201 Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi

Kredit: 272 Boshqa budgetdan tashqari daromadlar

i) asosiy vositalarni sotilishidan ko‘rilgan salbiy moliyaviy natija (zarar)

Debet: 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

Kredit: 201 Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi.

Budjet tashkilotlari asosiy vositalarni tugatishni qonunda belgilangan tartibda tegishli yuqori tashkilotning roziligi bilan, yuqori tashkilot bo‘lmagan taqdirda esa qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqariladi.

Moddiy javobgar shaxs almashgan taqdirda uning javobgarligida bo‘lgan asosiy vositalarni inventarlashsi o‘tkaziladi va bu haqda qabul qilish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Bu dalolatnoma (9-jadval) tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

*9-jadval*

**Budjet tashkilotlarida asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish to‘g‘risida dalolatnoma № \_\_\_\_**

AV-1-son budj.

Beruvchi						Oluvchi					
Tashkilot (tarkibiy bo‘linma)		Moddiy javobgar shaxs		Obyektning inventar raqami		Tashkilot (tarkibiy bo‘linma)		Moddiy javob- gar haxs		Obyektning inventar raqami	
nomi	kod	nomi	kod	nomi	kod	nomi	kod	nomi	kod	nomi	kod
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12

Obyekt nomeri						Eskirish			
Pasport, chizma (model loyihasi, tip, markasi)	Zavod raqami		Tayyorlangan (ishlab chiqarilgan) sanasi	Foydalaniшsga qabul qilinganligi to‘g‘ri- sidagi hujjatning sanasi va raqami	Dastlabki (balans) qiymati	01 va sotib olish hujjatlaridagi summa	Yillik me’yor, %		
1	2	3	4	5	6	7	8		

## Obyektning qisqacha tavsifi

Qaror yoki buyruq asosi

№\_\_\_\_\_ «\_\_\_\_»\_\_\_\_\_ y.ko‘rikdan o‘tkazildi \_\_\_\_\_  
(objekt nomi)

Foydalaniшга qabul qilindi

---

(obyejt joylashgan joy)

*AV-1-son shakl budj. 2-bet. orqa tomon*

Obyektning texnik shartlari muvofiq nomuvofiq (nimaga nomuvofiqligi ko'rsatiladi)

<b>Qayta ishlash</b>	<b>Talab qilinadi</b>	
	<b>talab qilinmaydi</b>	(nima talab qilinishi ko'rsatiladi)

## Obyektni o‘rganish natijalari

Komissiya xulosasi

Ilova

Komissiya a'zolari \_\_\_\_\_

(lavozim) (mizo) (P. I. Sh.)

**Aşaslı vosita kabul edildi**

(lavozim) (imzo) (F. I. Sh.)

Asosiy vosita topshirini  
\_\_\_\_\_  
(lavozim)              (imzo)              (F. I. Sh.)

## Kartochka ochilganligi haqida buxgalteriyaning qaydi

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_ (imga) \_\_\_\_\_ (F. I. Sh.)

«        »

Boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan asosiy vositalar tashkilotga (omborga) kelib tushganda tashkilot rahbari tomonidan tuzilgan doimiy ishlaydigan komissiya (keyingi o'rnlarda komissiya deb yuritiladi) tomonidan AV-1-son shakldagi budget tashkilotlarida asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish to'g'risida dalolatnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Mazkur dalolatnoma tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi va unga ushbu asosiy vositaga tegishli bo'l-gan barcha texnik hujjatlar (pasport, chizmalar va boshqalar) ilova qilinadi.

*10-jadval*

#### **—sonli YUKXATI**

#### **Asosiy vositalarni ichki joydan-joyga ko'chirish bo'yicha (AV-2-son shakl)**

Sana	Obyektning inventar raqami	Debet			Kredit			Balans qiyamati
		tarkibiy bo'linma	analitik hisob kodi	sintetik hisob kodi	tarkibiy bo'linma	analitik hisob kodi	sintetik hisob kodi	
1	2	3	4	5	6	7	8	9

AV-2-son shakl 2-bet

Obyekt ning texnik holati bo'yicha qisqacha tavsifi

Obyekt ni topshirdi	(lavozimi)	(imzo)	(F. I. Sh.)
Obyekt ni qabul qildi	(lavozimi)	(imzo)	(F. I. Sh.)

Kartochka (kitob)da joydan-joyga ko'chirilishi qayd qilindi.

Hisobchi	(imzo)	(F. I. Sh.)
----------	--------	-------------

Agarda asosiy vositalar tashkilot ichida bir moddiy javobgar shaxsdan boshqasiga o'tkazilsa (yoki tashkilotning bir bo'limidan ikkinchisiga berilsa) u holda AV-2-son shakldagi asosiy vositalarni ichki joydan-joyga ko'chirish bo'yicha yuk xati (10-jadval) to'l-diriladi.

Qo'shimcha qurilgan, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlangan, rekonstruktsiya yoki modernizatsiya qilingan asosiy vosita-

lar bo'yicha tugallangan ishlarni qabul qilish AV-3-son shakl-dagi qo'shimcha qurilgan, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlangan, rekonstruksiya yoki modernizatsiya qilingan asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish bo'yicha dalolatnoma (11-jadval) bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu dalolatnoma mazkur ishlarni amalgalashirgan va qabul qilib olgan shaxslar tomonidan imzolanadi.

*11-jadval*

**Qo'shimcha qurilgan, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlangan, rekonstruksiya yoki modernizatsiya qilingan asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish bo'yicha**  
**—sonli DALOLATNOMA (AV-3-son shakl)**

Tarkibiy bo'limma	Faoliyat turi	Rekonstruksiya, yoki modernizatsiya qilishdan oldingi bosholang'ich (tiklanish) qiymati, so'm.	Hisoblangan eskirish summasi, so'm.	Debet		Kredit		Raqam		
				hisobvaraq, analitik hisobvaraq	analitik hisob kodи	hisobvaraq, analitik hisobvaraq	analitik hisob kodи	Rekonstruksiya, yoki modernizatsiyani hisobga olgan holdagi bosholang'ich (tiklanish) qiymati, so'm.	inventar zavod	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11

Eskirish summasi rekonstruksiya  
yoki modernizatsiyani hisobga olgan  
holda, so'm.

Tashkilot (tarkibiy bo'linma)-ish ijrochisi

«\_» 20 yildagi \_\_\_-sonli

Shartnoma (buyurtma) bo'yicha

obyekt nomi

ta'mir (rekonstruksiya, modernizatsiya) da bo'lgan

Sana
_____

Sana
_____

dan

gacha,  
shuningdek

\_\_\_\_\_ kun

Ko'zda tutilgan ta'mirlash (rekonstruksiya, modernizatsiya) ishlari bajarildi  
to'liq  
to'liq emas

nima bajarilmaganligi aniq ko'rsatilsin

## MA'LUMOT NOMA

Bajarilgan ish hajmining qiymati, so'm.				
shartnoma (buyurtma) bo'yicha		haqiqatda		
ta'mirlash	rekonstruksiya (modernizatsiya) qilish	ta'mirlash	rekonstruksiya (modernizatsiya) qilish	asbob va usku- nalarni olib kelish xarajatlari
1	2	3	4	5

Bo'linma rahbari

\_\_\_\_\_ lavozimi \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_ F.I.SH.

Bosh hisobchi (hisobchi)

\_\_\_\_\_ lavozimi \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_ F.I.SH.

« \_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_ y

AV-3-son shakl orqa tomoni

Ta'mirlash (rekonstruksiya, modernizatsiya) qilishdan so'ng obyekt sinovdan o'tdi va foydalanishga topshirildi.

Rekonstruksiya, modernizatsiya tufayli obyekt tavsifining o'zgarishi \_\_\_\_\_

Topshirdi

M.O'. \_\_\_\_\_ lavozimi \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_ F.I.SH.

Qabul qildi

M.O'. \_\_\_\_\_ lavozimi \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_ F.I.SH.

« \_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_ y

Asosiy vositalar ombordan tashkilot rahbari tomonidan tasdiq-lanadigan 434-son shakldagi yuk xati (talabnomalar) (12-jadval) bo'yicha beriladi. Mazkur yuk xati (talabnomalar) ikki nusxada yozi-ladi. Birinchi nusxasi buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxasi esa mazkur asosiy vositani bergan moddiy javobgar shaxsda qoladi.

## —sonli YUK XATI (TALABNOMA)

434-son shakl

« \_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_ y.

Tashkilot-oluvchining nomi

Tarkibiy bo‘linma

Tashkilot (jo‘natuvchi)

Moddiy javobgar shaxs

Moddiy qiymatliklarning nomi, navi va o‘lchami	O‘l- chov birligi	Buxgalteriya yozuvi		Miqdor		Narxi, so‘m.	Summa, so‘m.
		debit	kredit	Talab qilingan	Beril- gan		
1	2	3	4	5	6	7	8

Berdi \_\_\_\_\_

(lavozimi)

(imzo)

(F. I. Sh.)

sana

Oluvchi \_\_\_\_\_

(lavozimi)

(imzo)

(F. I. Sh.)

sana

Asosiy vositalar qisman tugatilgan holda uning dastlabki (tiklash) qiymati va jamlangan eskirish summasi tegishligicha obyektning tugatilgan qismining dastlabki (tiklash) qiymati va jamlangan eskirish summasiga kamaytiriladi.

Tashkilotlar balansidan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish, shuningdek, asosiy vositalar va boshqa material qimmatliklarni sotishdan tushgan mablag‘larni taqsimlash tartibi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarni ularning tugatilishi sababli hisobdan chiqarish to‘g‘risida komissiya tomonidan qabul qilingan qaror natijalari AV-4-son shakl budjet, asosan, budjet tashkilotlarida asosiy vositalarni hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi dalolatnoma bilan, shu jumladan, transport vositalari bo‘yicha 13-jadvalga asosan budjet tashkilotlarida transport vositalarini hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi dalolatnoma bilan, kutubxonadagi mavjud adabiyotlarni hisobdan chiqarish 14-jadvalga muvofiq budjet tashkilotlari kutubxonasida mavjud bo‘lgan adabiyotlarni hisobdan chiqarish bo‘yicha dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Ushbu dalolatnomalar komissiya tomonidan ikki nusxada rasmiylashtiriladi va barcha komissiya a’zolari tomonidan imzolanadi.

Birinchi nusxasi buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxasi asosiy vositalar obyektlarining saqlanishi uchun javobgar bo'lgan shaxsda qolib, hisobdan chiqarish natijasida qolgan moddiy qimmatliklar yoki temir-tersakni omborga topshirish yoki sotish uchun asos bo'ladi. Transport vositasini hisobdan chiqarishda buxgalteriyaga dalolatnomaga bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmati organlarida hisobdan chiqarilganligini tasdiqlaydigan hujjat ham taqdim qilinadi.

Ushbu dalolatnomalar tashkilot rahbari (yoki uning o'rinnbosari) tomonidan tasdiqlanganiga qadar asosiy vositalarni qismlarga bo'lish va demontaj qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va joydan-joyga ko'chirish muomalalarining hisobi 438-soni shakldagi jamlanma qaydnomada (9-memorial orderda) olib boriladi. Jamlanma qaydnomaga yozuvlar har bir hujjat bo'yicha yoziladi. Bunda, «Jami» ustunida (tikqatorida) yoziladigan hisobdan chiqarilgan va joydan-joyga ko'chirilgan moddiy ashyolar summasi analitik hisobvaraqaqning debet bo'yicha summasiga teng bo'lishi kerak. Oyning oxirida analitik hisobvaraqaq bo'yicha natijalar «Bosh-jurnal kitobi»ga yoziladi.

*13-jadval*

#### **—sonli DALOLATNOMA**

#### **Budget tashkilotlarida asosiy vositalarni hisobdan chiqarish to'g'risida**

AV-4-soni shakl budj.

Zavod raqami	Inventar raqami		
Ko'rsatkichlar nomi	Ikki yoqlama yozuvlanuvchi hisobvaraqaq		Summa, so'm.
	debet	kredit	
1	2	3	4
Balans qiymati			
Eskirish hisoblandi			

Komissiya tarkibi \_\_\_\_\_

(lavozim, familiyasi)

Buyruq (qaror)ga asosan tayinlandi \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_» 20 \_\_\_\_ -son asos \_\_\_\_\_

Ko'rib chiqildi \_\_\_\_\_

(obyektning nomi)

Hisobdan chiqarilishi bilan bog'liq ma'lumotlar:

1. Qurilgan va tayyorlangan sanasi
  2. Tashkilotga kirim bo'lgan sana « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_. y.
  3. Kapital ta'mirlash miqdori \_\_\_\_\_ summa \_\_\_\_ so'm.
  4. Oimmatbaho materiallar to'g'risida ma'lumot (metallar, toshlar va h.k.)

Qimmatbaho materiallar nomi	Analitik hisob kodi	O'lchov birligi		Miqdor (og'irlik)
		nomi	kod	
1	2	3	4	5

#### 6. Texnik holati va hisobdan chiqarishga asos

#### 7. Komissiya xulosasi:

Ilova: 1.

2

Komissiya a'zolari:

---

(lavozimi)

(imzo)

(F. I. Sh.)

---

(lavozimi)

(imzo)

(F. L. Sh.)

---

(lavozimi)

---

(imzo)

(F. I. Sh.)

### on shakl

## AV-4-son shakl budj. 2-bet

## OBYEKTNING HISOBDAN CHIQARILISHINING NATIJASI

Sotishdan tushgan tushum \_\_\_\_\_ so‘m. \_\_\_\_\_ tiyin.

(summa yozuvda)

Inventar kartochkalarga hisobdan chiqarilganligi qayd qilindi.

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_

(imzo)

(F. I. Sh.)

«\_\_\_\_» 20 \_\_\_\_ y.

*14-jadval*

Tasdiqlayman:

Tashkilot

rahbari

(imzo)

(F. I. O)

«\_\_\_\_» 20 \_\_\_\_ y.

### DALOLATNOMA \_\_\_\_

**Budjet tashkilotlari kutubxonasida mavjud bo‘lgan  
adabiyotlarni hisobdan chiqarish bo‘yicha**

444-son shakl

«\_\_\_\_» 20 \_\_\_\_ y.

Tashkilotning nomi \_\_\_\_\_

Tarkibiy bo‘linma \_\_\_\_\_

Moddiy javobgar shaxs \_\_\_\_\_

Debet analitik hisobvaraq


Kredit analitik hisobvaraq

Komissiya tarkibi \_\_\_\_\_

(lavozimi, F. I. O)

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ yildagi \_\_\_\_\_ -son

buyruqqa asosan kutubxonadagi adabiyotlar holati tekshirilganda, ro‘yxatda keltirilgan adabiyotlar holati qoniqarsizligi va ma’naviy eskirganligi tufayli ushbu adabiyotlar hisobdan chiqarilishi talab etiladi.

Illova: hisobdan chiqarish uchun holati qoniqarsiz va ma’naviy eskirgan adabiyotlar ro‘yxati.

Kutubxona hisobidan chiqarilgan adabiyotlar inventar kitobda belgilangan.

Komissiya raisi: \_\_\_\_\_

(lavozimi)

(imzo)

(F. I. Sh.)

Komissiya a’zolari: \_\_\_\_\_

(lavozimi)

(imzo)

(F. I. Sh.)

\_\_\_\_\_

(lavozimi)

(imzo)

(F. I. Sh.)

\_\_\_\_\_

(lavozimi)

(imzo)

(F. I. Sh.)

Hisobdan chiqarilgan adabiyotlar ikkilamchi xomashyo ishlab chiqaruvchilarga quyidagi kvitansiya bilan topshirildi,

kvitansiya \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ y.

Komissiya raisi: \_\_\_\_\_ (lavozimi) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F. I. Sh.)

Komissiya a'zolari: \_\_\_\_\_ (lavozimi) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F. I. Sh.)  
\_\_\_\_\_ (lavozimi) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F. I. Sh.)  
\_\_\_\_\_ (lavozimi) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F. I. Sh.)

444-son shakl 2-bet

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ yildagi \_\_\_\_\_ -son dalolatnomaga ilova.

**Hisobdan chiqarish uchun holati qoniqarsiz  
va ma'nnaviy eskirgan adabiyotlar  
RO'YXATI**

t/r	Nashrning inventar raqami	Kitob nomi va muallifi	Miqdori, dona	Narxi, so'm.	Summa, so'm.
1	2	3	4	5	6
Jami					

Komissiya raisi: \_\_\_\_\_ (lavozimi) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F. I. Sh.)

Komissiya a'zolari: \_\_\_\_\_ (lavozimi) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F. I. Sh.)

Asosiy vositalarning analistik hisobi AV-6-sun shakldagi va AV-8-sun shakldagi inventar kartochkalarda yuritiladi. Kartochkalar har bir inventar obyekt (predmet) bo'yicha yuritiladi. Bir turdag'i predmetlar AV-9-sun shakldagi kartochkalarda hisobga olinadi.

AV-6, AV-8 va AV-9-sun shakldagi inventar kartochkalari AV-10-sun shakldagi asosiy vositalar hisobi bo'yicha inventar kartochkalar ro'yxatida xatlashdan o'tkaziladi. Ushbu ro'yxat bir nusxada yuritiladi. Undagi yozuvlar asosiy vositalarni guruhlarga bo'lib, kartochkalar ochilgan yilni ko'rsatib amalga oshiriladi. Har bir guruh uchun tegishli miqdorda sahifa ajratiladi. Raqamlash har bir guruh bo'yicha 1 dan boshlanadi. Asosiy vositalar hisobdan chiqarilganda va joydan-joyga ko'chirilganda xatlash ro'yxatining

«Izoh» grafasida memorial orderning sanasi (kun, oy, yil) hamda raqami ko'rsatiladi.

Inventar kartochkalar kartotekalarda saqlanadi. Ular tegishli analitik hisobvaraqlar va guruhlar bo'yicha hamda o'z ichida moddiy javobgar shaxslarga bo'lingan holda joylashtiriladi.

AV-6-son shakldagi inventar kartochka turar-joy imoratlar (010 analitik hisobvaraqlar), noturar joy imoratlar (011 analitik hisobvaraqlar), inshootlar (012 analitik hisobvaraqlar), mashina va jihozlar (013 analitik hisobvaraqlar), transport vositalari (015 analitik hisobvaraqlar)ni hisobga olish uchun mo'ljallangan. Inventar kartochkalarni yurtishdan maqsad asosiy vositalarni barcha tavsifini va ulardagi o'zgarishlarni aks ettirishdan iborat.

Inventar kartochka buxgalteriyada har bir alohida obyekt uchun ochiladi va asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, mazkur obyekt uchun tayyorlovchi zavodning pasportlari, texnik va boshqa hujjatlari asosida to'ldiriladi.

Asosiy vositalar obyektiiga ilova qilinadigan hujjatlarga muvofiq inventar kartochkada obyektning belgilari, ya'ni obyektning inventar raqami, chizmasi, loyihasi, modeli, xili, markasi, zavod (yoki boshqa) raqami, chiqarilgan (tayyorlangan) sanasi, qabul qilish dalolatnomasining sanasi va raqami, dastlabki (tiklash) qiymati, xarid va qayta baholash hujjatlari bo'yicha eskirishi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Asbob-uskunalar, priborlar, hisoblash texnikasi, muzey qimmatliklari va boshqalar tarkibida qimmatbaho metallar bor bo'lsa, tarkibida qimmatbaho metall bor bo'lgan detallar ro'yxati, pasportda ko'rsatilgan detallarning nomi va metall og'irligi ko'rsatiladi.

Inventar kartochkaning orqa tomonida asosiy vositalarning kelib tushishi (obyektni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida), joyini o'zgartirilishi (asosiy vositalar obyektning ichki joylashtishi joyini o'zgartirish yukxati asosida), obyektlarning hisobdan chiqarilishi (asosiy vositalar obyektni (avtotransport vositalidan tashqari) hisobdan chiqarish to'g'risidagi dalolatnomasi yoki avtotransport vositalarini hisobdan chiqarish to'g'risidagi dalolatnomasi asosida asosiy vositalar obyektning chiqib ketishida

yoki hisobdan chiqarilishida) to‘g‘risidagi ma’lumotlar, obyektning o‘ziga xos qisqacha tavsifi, uni tashkil qiluvchi predmetlar ro‘yxati va uning asosiy sifat hamda miqdor ko‘rsatkichlari, shuningdek, dalolatnomalar va ilova qilinadigan texnik hujjatlar ma’lumotlari asosida eng kerakli taqab qurilgan binolari, moslamalari va jihozlari keltiriladi.

AV-8-son shakl inventar kartochka boshqa asosiy vositalarni (019 analitik hisobvaraq) hisobga olish uchun xizmat qiladi.

Kartochka qabul qilish dalolatnomalari asosida (sotib olish hujjatlari bo‘yicha) ochiladi va unda boshqa asosiy vositalarning, jumladan, hayvonlarning yoshi, rangi (tusi), tamg‘asi, oti va h.k. ko‘rsatilgan holda o‘ziga xos tavsifi keltiriladi.

Ko‘p yillik o‘simliklar turi, o‘tqazilgan birliklar soni va maydoni ko‘rsatilgan holda inventar obyektlari bo‘yicha hisobga olinadi.

AV-9-son shakldagi inventar kartochka aynan bir xil ishlab chiqarish ahamiyatiga, texnik tavsifga ega bo‘lgan asosiy vositalar obyektlarining bir xil guruhlari: kutubxona fondlari va sahnaga qo‘yish vositalarini hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Kartochkadaagi yozuvlar miqdor va summa ifodasida yozib boriladi.

Inventar kartochka asosiy vositalar obyektlari guruhlarini qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, asosiy vositalar obyektlarining ichki joylashish joyini o‘zgartirish yukxati asosida ochiladi va har bir moddiy javobgar shaxs bo‘yicha yuritiladi. Obyektlarni hisobdan chiqarish hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

Kutubxona fondlari uchun bitta inventar kartochka ochiladi. Unda hisob umumiyligi qiymati bo‘yicha faqat pul ifodasida yuritiladi.

Sahnaga qo‘yish vositalari hisobi soni va obyektlarning qiymati bo‘yicha inventar kortochkalarda yuritiladi.

01 «Asosiy vositalar» hisobvarag‘ining debet tomonida asosiy vositalarning kirimi (dastlabki qiyamatining oshishi), kredit tomonida esa, asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi (dastlabki qiyamatining kamayishi) aks ettiriladi.

Sotib olingan asosiy vositalarning qiymati (sotib olish narxi, shuningdek, yetkazib berish va boshqa qo‘srimcha xarajatlar) hisob-

da 072 «Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar» analitik hisobvara-g‘ining debetiga va 15 «Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar» va boshqa hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari kreditiga yoziladi. Asosiy vositaning dastlabki qiymati bo‘yicha kirim qilinishi esa, 01 «Asosiy vositalar» hisobvarag‘ining tegishli analitik hisobvaraqlari debetiga va 072 «Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar» analitik hisobvarag‘ining kreditiga yoziladi.

Boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan beg‘araz olingan asosiy vositalar buxgalteriya hisobiga kirim qilish vaqtida belgilangan tartibda aniqlangan joriy bozor qiymati bo‘yicha 072 «Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar» analitik hisobvarag‘ining debetiga va 262 «Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar» analitik hisobvarag‘ining kreditiga yoziladi. Agarda, ushbu asosiy vosita bo‘yicha yetkazib berish va ishchi holatga keltirish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar amalga oshirilsa, u holda ushbu xarajatlar mazkur asosiy vositaning dastlabki qiymatini oshiradi va hisobda 072 «Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar» analitik hisobvarag‘ining debetiga va amalga oshirilgan operatsiyaning mazmunidan kelib chiqqan holda 15 «Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar» yoki boshqa tegishli hisobvaraqlarning analitik hisobvaraqlari kreditiga yoziladi. Asosiy vositaning dastlabki qiymati bo‘yicha kirim qilinishi 01 «Asosiy vositalar» hisobvarag‘ining tegishli analitik hisobvaraqlari debetiga va 072 «Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar» analitik hisobvarag‘ining kreditiga yoziladi.

Tashkilotning o‘zi tomonidan, shuningdek, pudrat shartnomasiga asosan qurilgan asosiy vosita obyektlarining kirim qilinishi 01 «Asosiy vositalar» hisobvarag‘ining tegishli analitik hisobvaraqlari debetida va 071 «Tugallanmagan qurilish» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi.

Tugatilishi munosabati bilan asosiy vositalarning dastlabki (tiklanish) qiymatini hisobdan chiqarilishi 01 hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari kreditiga, qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi asosiy vositaning kirim qilish manbasidan kelib chiqqan holda haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 yoki

271 analitik hisobvaraqlarning debetiga, hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi esa, 02 hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari debetiga yozish yo‘li bilan aks ettiriladi.

Asosiy vositalarning tugatilishi munosabati bilan keyinchalik foydalanishga yaroqli bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralarni kirim qilinishi tovar-moddiy zaxiralarni hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlarning debetida va tovar-moddiy zaxiralar summasini mazkur asosiy vositaning qoldiq qiymati doirasida 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning kreditida (uni kirim qilish manbasidan kelib chiqqan holda), qoldiq qiymatidan oshgan summa esa 272 «Boshqa budjetdan tashqari daromadlar» analitik hisobvaraqning kreditida aks ettiriladi.

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalarning sotilishi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

bino va inshootlar (chet elda joylashganlaridan tashqari):

asosiy vositalarning dastlabki (tiklanish) qiymatini hisobdan chiqarilishi 01 hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari kreditida, qoldiq qiymatining hisobdan chiqarilishi asosiy vositaning kirim qilish manbasidan kelib chiqqan holda haqiqiy xara-jatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning debetiga, hisoblangan eskirish summasining hisobdan chiqarilishi esa 02-hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari debetiga yozish yo‘li bilan aks ettiriladi;

2) qolgan asosiy vositalar (chet elda joylashganlaridan tashqari):

– dastlabki (tiklanish) qiymatini hisobdan chiqarilishi 01 hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari kreditida va 201 «Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining debetida, hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi esa 02 hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari debetida va 201 «Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi;

– asosiy vositalarning sotish qiymati 15 hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari debetida va 201 «Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining kreditida, bir vaqtning o‘zida tegishli budjet daromadiga hisoblangan summa 201

«Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining debetida va 160 «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha budget bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi;

– pul mablag‘larining kelib tushishi 15 hisobvaraqtning tegishli analitik hisobvaraqlarining kreditida va 113 «Boshqa budgetdan tashqari mablag‘lar» analitik hisobvarag‘ining debetida, budgetga hisoblangan summalarini o‘tkazib berilishi esa 113 «Boshqa budgetdan tashqari mablag‘lar» analitik hisobvarag‘ining kreditida va 160 «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha budget bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ining debetida aks ettiriladi;

– asosiy vositalarning sotilishidan ko‘rilgan ijobjiy moliyaviy natija (daromad) 201 «Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining debetida va 272 «Boshqa budgetdan tashqari daromadlar» analitik hisobvarag‘ining kreditida, salbiy moliyaviy natija (zarar) esa asosiy vositaning kirim qilish manbasidan kelib chiqqan holda haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvarag‘larning debetida va 201 «Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi.

3) chet elda joylashgan tashkilotlarning asosiy vositalari (bino va inshootlardan tashqari):

– dastlabki (tiklanish) qiymatining hisobdan chiqarilishi 01 hisobvaraqtning tegishli analitik hisobvaraqlari kreditida va 201 «Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining debetida, hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi esa 02 hisobvaraqtning tegishli analitik hisobvaraqlari debetida va 201 «Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi;

– asosiy vositalarning sotish qiymati 15 hisobvaraqtning tegishli analitik hisobvaraqlari debetida va 201 «Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi;

– pul mablag‘larini kelib tushishi 15 hisobvaraqtning tegishli analitik hisobvaraqlarining kreditida va 113 «Boshqa budgetdan

tashqari mablag‘lar» analitik hisobvarag‘ining debetida aks ettiriladi;

– asosiy vositalarni sotish natijalari bo‘yicha ijobiy moliyaviy natija (daromad) 201 «Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining debetida va 272 «Boshqa budjetdan tashqari daromadlar» analitik hisobvarag‘ining kreditida, salbiy moliyaviy natija (zarar) esa asosiy vositaning kirim qilish manbasidan kelib chiqqan holda haqiqiy harajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning debetida va 201 «Asosiy vositalar va boshqa aktivlar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi.

Tashkilotlar tomonidan asosiy vositalar beg‘araz berilganda uning dastlabki (tiklanish) qiymatini hisobdan chiqarilishi 01 hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari kreditida, qoldiq qiymatining hisobdan chiqarilishi kirim qilish manbasidan kelib chiqqan holda haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning debetida, hisoblangan eskirish summasini, hisobdan chiqarilishi esa 02 hisobvaraqlarning tegishli analitik hisobvaraqlari debetida aks ettiriladi.

Budjet tashkilotida asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi tekshirish komissiyasining asoslovchi dalolatnomalari orqali amalga oshiriladi:

- asosiy vositalarni tugatish dalolatnomasi;
- transport vositalarini tugatish dalolatnomasi;
- asboblarni, ishlab chiqarish va xo‘jalik inventarlarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi (443-shakl);
- kutubxonadan chiqarilgan adabiyotlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi (444-shakl) rasmiylashtiriladi.

Tekshirish komissiyasining asoslovchi dalolatnomalarni tuzish chog‘ida quyidagilarga e’tibor beriladi:

a) tegishli texnik hujjatlardan (pasport, darajama-daraja rejalar va boshqa hujjatlar) hamda buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalangan holda qaysi asosiy vositalarni hisobdan chiqariladi-ganligini belgilab oladi;

b) ularni tiklab yana ishlatsa bo‘lish yoki aksincha holatdaligiga baho beradi;

- d) asosiy vositalarni hisobdan chiqarish sabablari o'rganiladi;
- e) asosiy vositalarning oldinroq chiqarilishiga ma'sul shaxslar bor-yo'qligi aniqlanadi va shu kabilar yuzasidan budget tashkiloti rahbariga taklif kiritadi.

Asosiy vositalar obyekti qisman tugatilgan holatda uning boshlang'ich (tiklash) qiymati va jamlangan amortizatsiyasi tegishligicha obyektning tugatilgan qismining boshlang'ich (tiklash) qiymati va jamlangan amortizatsiyasi summasiga kamaytiriladi.

Asosiy vositalar obyektlarining chiqib ketishidan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) asosiy vositalarning chiqib ketishidan olin-gan daromaddan ularning qoldiq (balans) qiymatini, asosiy vositalarning chiqib ketishi bilan bog'liq bo'lган bilvosita soliqlar va xarajatlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Asosiy vositalar obyektlarining chiqib ketishidan ko'rilgan moliyaviy holatni aniqlashda avvalgi qayta baholangan asosiy vositalar obyektlarini qo'shimcha baholash summasi, mazkur asosiy vositalar obyektni avvalgi qo'shimcha baholashlar summasining ilgarigi arzonlashtirishlar summasidan oshib ketishi «Mol-mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» hisobvarag'i bo'yicha zaxira sarmoyasini bir yo'la kamaytirish bilan asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingen daromad tarkibiga kiritiladi.

#### **4.2.3. Budget tashkilotlarida asosiy vositalarni ijaraga berish hisobi**

Budget tashkilotlarida bino, inshoot va boshqa asosiy vositalarni ijaraga berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli «Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va boshqa qonuniy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Ijarani tartibga soluvchi davlat organi Davlat mulki qo'mitasi, uning viloyatlardagi va Toshkent shahridagi hududiy boshqarmalari tasarrufidagi davlat mulkini ijaraga berish markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

Budget tashkiloti ijara shartnomasiga asosan binolar, inshootlar yoki ularning qismlari, asbob-uskunalar, transport vositalari shaklidagi davlat mulki va boshqa mulklarini berishlari mumkin.

*Ijara subyektlari* – bu ijara oluvchi va beruvchilardir, *ijara obyekti* esa – bu ijara shartnomasi asosida olingan moddiy qiymatliklardir.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi ijara berilgan davlat mulki bo‘yicha yig‘ma (jamshanma) ma’lumotni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har chorakda hisobot choraqidan keyingi oyning 15-kunigacha taqdim etadi.

Ijara to‘lovi bo‘yicha hisob-kitoblar ijara to‘lovini hamda, zarurat tug‘ilganda, kommunal va foydalanish to‘lovlarini o‘z ichiga oladi. Ijara to‘lovi ijara oluvchi tomonidan ijara to‘lovining oxirgi belgilangan miqdoridan va ijaraning qolgan muddatidan kelib chiqqan holda hisoblangan davrlar (har chorakda, har oyda va shu kabi) bo‘yicha teng miqdorda to‘lanadi. To‘lov ijara shartnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda har bir navbatdagi davr (chorak, oy va shu kabilar) uchun yuz foiz oldindan to‘lash shaklida amalga oshiriladi.

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Asosiy vositalar sotib olinganida qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
2. Sotib olingan asosiy vositalarni tashib keltirish, o‘rnatish va montaj qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar summasiga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
3. Asosiy vositalar bepul olinganida qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
4. Asosiy vositalarning analitik hisobi qanday inventar kartochkalarda yuritiladi?
5. Asosiy vositalarga hisobot yilda hisoblangan eskirish summasiga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
6. Asosiy vositalar balansdan (hisobdan) chiqarilganida qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
  - a) agar hisobdan chiqarilayotgan asosiy vositalarga eskirish umuman hisoblanmagan bo‘lsa;
  - b) agar hisobdan chiqarilayotgan asosiy vositalarga eskirish qisman hisoblangan bo‘lsa;
  - c) agar hisobdan chiqarilayotgan asosiy vositalarga eskirish to‘la hisoblangan bo‘lsa.

## **5-bob. BUDJET TASHKILOTLARIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBI**

---

---

### **5.1-§. BUDJET TASHKILOTLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNI TURKUMLASH, BAHOLASH VA HISOBGA OLİSH VAZİFALARI**

#### **5.1.1. Tovar-moddiy zaxiralalar to‘g‘risida tushuncha**

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda tashkilotga tegishli bo‘lgan va xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo‘limgan yoki bir operatsion sikl mobaynida foydalilaniladigan mol-mulklar, jumladan, qurilish–ta’mirlash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg‘i va yonilg‘ilar, oziqa va yem-xashak, tara (idish)lar, qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish buyumlari, o‘siruvdag‘i va boquvdagi chorva mollari, o‘quv, ilmiy va boshqa maqsadlar uchun materiallar hamda laboratoriya sinovida bo‘lgan, uzoq vaqt foydalilaniladigan materiallar, shartnoma asosida bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun maxsus asbob-uskunalar va boshqalar hisobga olinadi.

#### **5.1.2. Tovar-moddiy boyliklarni hisobga olishning asosiy vazifalari**

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- barcha moddiy qimmatliklarning butligini ta’minlash hamda ishlatilishi va to‘g‘ri foydalaniishi ustidan nazorat o‘rnatish;
- zaxiralalar va xarajatlarning belgilangan me’yorlarini kuzatib borish;
- belgilangan tartibda realizatsiya qilinishi lozim bo‘lgan, foydalanimaydigan materiallarni o‘z vaqtida aniqlash;
- tashkilot omborlarida mavjud bo‘lgan qoldiqlar haqida aniq ma’lumotlar olish va h.k.

Tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish, saqlash va topshirish javobgarligi tashkilot rahbarining buyrug‘i bilan tayinlangan mod-

diy javobgar shaxslarga yuklatiladi. Bu shaxslarning almashi-nishi omborlarning inventarlashs va tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadigan qabul qilish-topshirish dalolatnomalarini tuzish bilan amalga oshiriladi. Tovar-moddiy zaxiralarni saqlash joylari tosh-tarozi jihozlari, o'lchov asboblari, o'lchov idishlari va boshqa nazorat moslamalari bilan ta'minlanishi lozim.

## **5.2-\$. BUDJET TASHKILOTLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARING KELIB TUSHUSHI VA SARFLANISHINI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI**

### **5.2.1. Budget tashkilotiga tovar-moddiy zaxiralarning kirimini hisobga olish**

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobida tovar-moddiy zaxiralarning hisobi yuritiladi va quyidagilar natijasida tashkilotga kirim qilinadi:

- shartnoma asosida sotib olganda;
- beg'araz berilganda
- uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o'tkazish;
- ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarni aniqlash;
- budget tashkilotning o'zi ishlab chiqarganda;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollar.

Tovar-moddiy zaxiralari tashkilotning buxgalteriya balansiga tannarxi bo'yicha kiritiladi, u sotib olish qiymati va ularni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni sotib olinayotgan tovar-moddiy zaxirani sotish bahosi 100000 so'm, olib kelish bilan bog'liq 5000 so'm qo'shimcha xarajat qilindi. Natijada mazkur budget tashkiloti ushbu tovar-moddiy zaxirani 105000 so'm qiymatda balansga kirim qiladi.

Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- bojxona bojlari va yig'imlari;
- tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar summalarini;

- tovar-moddiy zaxiralar ular orqali sotib olingan ta'minotchi va vositachi tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik haqi;
- tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatlash va tovar-moddiy zaxiralarни sotib olish bilan bog'liq bo'lgan texnik shartlarga muvo-fiq ularni sinash bo'yicha xarajatlar;
- tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga yetkazib berish bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari, tovar-moddiy zaxiralarni barcha turdag'i transport bilan ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga tashish uchun tariflarni to'lash bo'yicha xarajatlar, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralarini tashishda xatar-larni sug'urtalash bo'yicha xarajatlardan tashkil topadi;

– tovar-moddiy zaxiralarini sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar (akkreditiv ochish xarajatlari, o'tkazmalar uchun bank komissiyasi, tovar-moddiy zaxiralarini chet el valutasiga sotib olish chog'ida valutani konvertatsiyalash bo'yicha komissiya va boshqa bank xizmatlari), tovar-moddiy zaxiralarini sotib olish bo'yicha kontraktlarni tayyorlash, ro'yxatdan o'tkazish va yopish bilan bog'liq xarajatlar hamda aktivlarni sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lmanagan boshqa xarajatlar tovar-moddiy zaxiralarining tannarxiga kiritilmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida haqiqiy xarajatlar sifatida aks ettiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarini sotib olish bo'yicha xarajatlar ularning yuzaga kelishini tasdiqlovchi boshlang'ich hisob hujjatlari asosida belgilanadi.

Transport-tayyorlov xarajatlarining summasi alohida yig'iladi va tovar-moddiy zaxiralarining tegishli turlari o'rtasida taqsimланади.

Tashkilot tomonidan beg'araz olingan hamda asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishi natijasida olingan tovar-moddiy zaxiralarining tannarxi ularning buxgalteriya hisobiga qabul qilinish sanasidagi joriy qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarini inventarlash natijasida aniqlangan aktivlar tannarxi ular aniqlangan sanadagi joriy qiymatdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Bitta umumiy summaga sotib olingen barcha tovar-moddiy zaxiralardan har birining tannarxi ushbu summani alohida tovar-moddiy zaxiraning joriy qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Tashkilotga tegishli bo‘lmagan, vaqtinchalik tashkilotda foydalanishda bo‘lgan shartnomaga asosida mas’ul saqlashga olingen tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobida balansdan tashqari 02 «Mas’ul saqlashga olingen tovar-moddiy qimmatliklar» hisobvarag‘ida shartnomada ko‘rsatilgan qiymat bo‘yicha hisobga olinadi.

Tovar-moddiy zaxiralar chet el valutasi hisobiga sotib olinishida sotib olinayotgan material zaxiralarning qiymati operatsiya sodir etilgan sanadagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo‘yicha chet el valutasini so‘mga hisoblab o‘tkazish yo‘li bilan aniqlanadi.

### **5.2.2. Tovar-moddiy zaxiralarни rasmiylashtirish tartibi**

Buxgalteriyada budjet mablag‘lari yoki budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan sotib olingen (tayyorlangan) tovar-moddiy zaxiralarning hisobi miqdor va summa ifodasida materiallarning nomi, sotib olinish (tayyorlanish) manbalari va moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha 296-son shakldagi material qimmatliklarning miqdor-qiyomat hisobi daftari (kartochkasi)da (16-jadval) hamda M-44-son shakl (17-jadval)dagi material zaxiralar bo‘yicha aylanma qaydnomada yuritiladi.

*16-jadval*

**Moddiy qimmatliklarning miqdor-qiyomat hisobi  
DAFTARI (KARTOCHKASI) 296-son shakl**

Memorial order		Operatsiya mazmuni	Narxi, so‘m	Debet		Kredit		Qoldiq	
sana	raqam			miqdor	summa	miqdor	summa	miqdor	summa
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

**Material zaxiralar bo'yicha**

Aylanma qayd- noma t/r	Materiallar		O'lchov birligi	Qoldiq		Aylanma _____ uchun		
				1	_____ga	debet	kredit	
	nomi	xarajatlar tas- nifi bo'yicha kodi		miqdor	summa, so'm.	miqdor	summa, so'm.	miqdor
	va h.k.							
O'tkazildi								

3-bet

qoldiq		aylanma _____				belgi	t/r
1	_____ga	debit		kredit			
Miqdor	summa, so'm.	Miqdor	summa, so'm.	Miqdor	sum- ma, so'm.		1

**Qo'shimcha varaqlari**

Qoldiq		Aylanma _____						
		debit			kredit			
Miqdor	Summa, so'm	Miqdor	Summa, so'm	Miqdor	Summa, so'm	Miqdor	Summa, so'm	
qoldiq		Aylanma _____						
		debit			kredit			
Miqdor	Summa, so'm	Miqdor	Summa, so'm	Miqdor	Summa, so'm	Miqdor	Summa, so'm	

Omborlardagi tovar-moddiy zaxiralarning hisobi moddiy javobgar shaxs tomonidan M-17-son shakldagi materiallarni ombor hisobi daftarida faqat nomi, navi va miqdori bo'yicha yuritiladi.

Buxgalteriya ombordagi material zaxiralarning kelib tushishi va sarflanishi ustidan muntazam nazorat o'rnatadi, shuningdek, materiallar hisobi bo'yicha o'z yozuvlarini omborda olib boriladigan yozuvlar bilan solishtirib turadi.

Materiallar va oziq-ovqat mahsulotlari kirimi bo'yicha hisob registrlariga boshlang'ich hisob hujjatlari (hisobvaraqlar, dalolatnomalar va boshqalar) asosida ushbu material zaxiralalar olingan kun (sana) bilan yoziladi. Boshlang'ich hisob hujjatlarida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak: mahsulotlar va oziq-ovqat mahsulotlari kimdan olinganligi, nomi, navi, miqdori (og'irligi), bahosi, summasi, omborga kelib tushgan vaqt va shu qimmatliklarni qabul qilgan moddiy javobgar shaxsning qabul qilganlik haqidagi imzosi va h.k.lar.

Mahsulot yetkazib beruvchining hujjatlarida farq bo'lgan holdarda qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Ushbu dalolatnomada tashkilotdagi qabul qilish komissiyasi tomonidan ikki nusxada rasmiylashtiriladi, bu dalolatnomani tuzishda ombor mudiri (moddiy javobgar shaxs) va mahsulot yetkazib beruvchi tomon yoki manfaatdor bo'limgan boshqa tashkilotlarning vakili qatnashishi shart.

Dalolatnomaning bir nusxasi qabul qilingan moddiy qimmatliklarni hisobga olish uchun, ikkinchi nusxasi esa mahsulot yetkazib beruvchilarga da'vo xati yuborishda foydalilaniladi.

Chiqib ketayotgan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati chiqib ketish dalilini aniqlash paytida balansdan hisobdan chiqarilishi kerak. Tovar-moddiy zaxiralalar tashkilotning balansidan:

- sotish;
- beg'araz berish;
- saqlash muddati tugagach yaroqsizligi sababli, jismonan va ma'nан eskirganligi natijasida tugatish (yo'q qilish);
- kamomad, yo'qotish yoki shikastlanish (sinish, bo'linish) aniqlanishi;

– boshqa muomalalar va hodisalar natijasida hisobdan chiqariladi.

Materiallarni ombordan berish tashkilot rahbari (yoki uning o'rinnbosari) tomonidan tasdiqlangan hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Materiallarni berish uchun quyidagi asosiy hujjatlar qo'llaniladi:

434-son shakldagi yuk xati (talabnoma) materiallarni ombordan berishda va materiallarni tashkilot ichida joydan-joyga ko'chirishda qo'llaniladi. Talabnoma ikki nusxada yoziladi;

299-shakldagi oziq-ovqat mahsulotlarini berish uchun menuy talabnoma ombordan oziq-ovqat mahsulotlarini berish uchun qo'llaniladi. Menuy talabnoma oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlash me'yori va ta'minlanuvchilarning soni haqidagi ma'lumotlar asosida har kuni rasmiylashtiriladi. Menuy talabnoma oziq-ovqat mahsulotlarini berish va olish haqidagi mansabdor shaxsnинг tilxati bilan birga belgilangan muddatda (lekin oyiga uch martadan kam emas) tashkilot buxgalteriyasiga topshiriladi. 397-son shakldagi berilgan oziqa va yem-xashak qaydnomasi hisoblanadi. Oziqa va yem-xashaklar ombordan belgilangan me'yor doirasida beriladi;

410-son shakldagi tashkilot ehtiyoji uchun berilgan materiallar qaydnomasi oy davomida xo'jalik materiallari, o'quv va boshqa maqsadlar uchun materiallar berishda qo'llaniladi. Bunda, qaydnomadagi yozuvlar xronologik tartibda emas, balki har bir material pulini yozish uchun ma'lum qatorlar qoldirilgan holda to'ldiriladi, bu esa oy oxirida har bir material turi bo'yicha umumiylar yuzaga chiqarish imkonini beradi.

431-son shakldagi zabor kartasi materiallar va yonilg'ilarni kundalik berishda, shuningdek, oy davomida ma'lum muddatlarda berishda qo'llaniladi. Zabor kartasi bir necha turdag'i materiallarni maqsadga muvofiq sarflash uchun har bir qabul qilib oluvchi nomiga yoziladi. Bu karta ikki nusxada yoziladi, bittasi qabul qilib oluvchining tilxati bilan birga omborxonada saqlanadi, ikkinchisi qabul qilib oluvchida saqlanadi.

Materiallar har kuni beriladigan bo'lsa, zabor kartasi 15 kunlik muddatga, vaqtiga vaqtiga bilan beriladigan bo'lsa, bir oylik muddatga yoziladi. Materiallar va yonilg'i qabul qilib oluvchi o'z zabor

kartasini ko'rsatgach, belgilangan limit doirasida beriladi. Limitda belgilanganidan ortiqcha materiallar 434-sون shakldagi yukxati (talabnoma) bo'yicha beriladi. Yonilg'ilarni omborxonadan talab-noma yoki zabor kartasi bo'yicha berish mumkin bo'limgan hollarda sarflangan yonilg'ilar qoldig'ini o'lchash dalolatnomalari bo'yicha hisobdan o'chiriladi.

O'lchash dalolatnomalari bilan yonilg'ining belgilangan sarflash me'yorlari taqqoslanganda kamomad chiqsa, tashkilot rahbari ortiqcha sarflash sababini aniqlash tadbirlarini, tegishli hollarda esa aybdor shaxslardan undirish choralarini ko'radi.

Yo'l varaqasi sarflangan barcha turdag'i yoqilg'ini hisobdan o'chirish uchun ishlatiladi. Yoqilg'i qancha sarf bo'lgan bo'lsa, shuncha hisobdan o'chiriladi, bunda, sarflangan yoqilg'i miqdori avtomobilarning markalari uchun o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan me'yorlardan ortiq bo'lmasligi kerak.

Tovar-moddiy zaxiralalar ular sotib olingan bahoda (yetkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlarni ham hisobga olgan holda) yoki ular har xil narxlarda sotib olingan bo'lsa, o'rtacha bahoda hisobdan o'chiriladi. Materiallar va oziq-ovqat mahsulotlari belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yorlar doirasida tashkilot rahbari (yoki uning o'rribbosari) tomonidan tasdiqlangan yuqoridagi tegishli hujjatlarga muvofiq hisobdan chiqarilishi lozim.

### **5.3-§. BUDJET TASHKILOTLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR ANALITIK VA SINTETIK HISOBI**

#### **5.3.1. Tayyor mahsulot hisobvarag'ida xo'jalik muomalasini aks ettirish**

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish borasida budjet tashkilotlari quyidagi hisobvaraqlar rejasida buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

05 «Tayyor mahsulot»;

06 «Boshqa tovar-moddiy zaxiralar».

05 «Tayyor mahsulot» hisobvarag'i 050 «Tayyor mahsulot» analitik hisobvarag'idan iborat bo'lib, ushbu analitik hisobvaraqa

tayyor mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha hisobga olinadi.

Sotish uchun tayyorlangan (olingan) tayyor mahsulotlar, shu jumladan, qisman tashkilotning o‘z ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan mahsulotlarning kirim qilinishi 050 «Tayyor mahsulot» analitik hisobvarag‘ining debetida 090 «Tovar (ish, xizmat)larga xarajatlar» analitik hisobvarag‘i bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Xaridorlar (buyurtmachilar)ga ortib jo‘natilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi ushbu xaridor (buyurtmachi)lar tomonidan hisob-kitob hujjatlari taqdim etilganda 050 «Tayyor mahsulot» analitik hisobvarag‘ining kreditidan 200 «Mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘ining debetiga hisobdan chigarladi.

Shuningdek, ushbu analitik hisobvara qda yordamchi qishloq va o'quv xo'jaliklarining mahsulotlari ham hisobga olinadi. Yordamchi qishloq xo'jalik va o'quv-tajriba xo'jaliklarining mahsulotlari rejadagi bahosi bo'yicha yil davomida hisobga olib boriladi.

Bu mahsulotlar kirimga olinganda 050 analitik hisobvaraqning debetiga va 090 «Tovar (ish, xizmat)larga xarajatlar» analitik hisobvarag‘ining kreditiga yoziladi.

Mahsulotlarni sotishda sotilgan mahsulotlarning rejadagi tannarxi 050 analitik hisobvaraqning kreditidan 200 analitik hisobvaraqning debetiga yoziladi. Tashkilot o‘zining ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan mahsulotlari 050 analitik hisobvaraqning kreditiga va 06 hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari debetiga yoziladi.

Mahsulotning rejadagi tannarxi yil oxirida, yillik hisobot kalkulatsiyasiga asosan, haqiqiy tannarxi bilan muvofiqlashtiriladi. Agar yil davomida olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarining haqiqiy tannarxi rejadagidan yuqori bo'lsa, sotilmagan mahsulotlarga taalluqli bo'lgan qismida haqiqiy va rejadagi tannarxi o'rtasidagi farq summasiga qo'shimcha provodka qilinadi, bunda ushbu farq summa 050 analitik hisobvaraqnning debetiga va 090 analitik hisobvaraqnning kreditiga yoziladi, sotilgan mahsulotlarga taalluqli qismida esa 200 analitik hisobvaraqnning debetiga va 090 analitik hisobvaraqnning kreditiga yoziladi.

Agar yil davomida olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarining haqiqiy tannarxi rejadagidan kam bo'lsa, u holda rejadagi va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq summasiga (tejalgan summaga) sotilmagan mahsulotlarga taalluqli bo'lgan qismida storno bilan (qizil siyoh bilan) buxgalteriya yozuvi qilinadi, ya'ni ushbu farq summa 050 analitik hisobvaraqnning debetiga va 090 analitik hisobvaraqnning kreditiga yoziladi, sotilgan mahsulotlarga taalluqli qismida esa 200 analitik hisobvaraqnning debetiga va 090 analitik hisobvaraqnning kreditiga yoziladi.

Tayyor mahsulotlarining analitik hisobi nomi, miqdori va qiymati hamda saqlanadigan joyi bo'yicha 296-son shakldagi material qimmatliklarning miqdor-qiyomat hisobi daftari (kartochkasi)da alohida holda yuritiladi.

### **5.3.2. Boshqa turdag'i tovar-moddiy zaxiralar hisobi**

Bu hisobvaraqda qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar va yarani bog'lash vositalari, yonilg'i, yoqilg'i-moylash materiallari, xo'jalik shartnomalari asosida ilmiy-tekshirish ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobiga sotib olingan, ilmiy-tekshirish ishlarida uzoq vaqt foydalaniladigan materiallar va boshqa tovar-moddiy zaxiralar hisobga olinadi.

06 «Boshqa tovar-moddiy zaxiralar» hisobvarag'i hisobda quyidagi analitik hisobvaraqlarga bo'lingan holda aks ettiriladi:

- 060 «Qurilish materiallari»;
- 061 «Oziq-ovqat mahsulotlari»;
- 062 «Dori-darmonlar va yarani bog'lash vositalari»;
- 063 «Inventar va xo'jalik jihozlari»;
- 064 «Yonilg'i, yoqilg'i-moylash materiallari»;
- 065 «Mashina va asbob-uskunalarining ehtiyyot qismlari»;
- 069 «Boshqa tovar-moddiy zaxiralar».

060 «Qurilish materiallari» analitik hisobvarag'ida qurilish va montaj ishlari jarayonida foydalaniladigan qurilish materiallari hisobga olinadi.

Qurilish materiallari sifatida silikat materiallar (sement, qum, shag'al, ohak, tosh, g'isht va boshq.), yog'och materiallar (xodalar,

arralangan yog‘och-taxtalar, fanerlar va sh.k.), qurilish metali (temir, tunuka, po‘lat, listli rux va sh.k.), metall buyumlar (mixlar, gaykalar, boltlar, halqali buyumlar va shu kabilar), sanitariya-texnika materiallari (jo‘mraklar, muftalar va h.k.), elektrotexnika materiallari (kabellar, lampalar, patronlar, roliklar, shnur, sim va saqlagichlar va sh.k.), kimyoviy-bo‘yoq moddalari (bo‘yoqlar, oliflar va sh.k.) va boshqa shu kabi materiallar hisobga olinadi.

Qurilish materiallarining analitik hisobi materiallarning nomi, miqdori va qiymati bo‘yicha 296-son shakldagi material qimmatliklarning miqdor-qiyomat hisobi daftari (kartochka)sida yuritiladi.

061 «Oziq-ovqat mahsulotlari» analitik hisobvarag‘ida tashkilotlardagi oziq-ovqat mahsulotlari hisobga olinadi. Kelib tushgan oziq-ovqat mahsulotlarining hisobi oziq-ovqat mahsulotlaring kirimga olinadigan 300-son shakldagi oziq-ovqat mahsulotlarini kirimi bo‘yicha jamlanma qaydnomada yuritiladi.

Qaydnomaga har bir moddiy javobgar shaxs bo‘yicha alohida rasmiylashtiriladi. Qaydnomaga yozuvlar boshlang‘ich hisob hujjatlar asosida miqdor va summa ifodasida yoziladi. Oy tugagandan so‘ng qaydnomadagi raqamlarning jami hisoblab chiqiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari sarfining hisobi oziq-ovqat mahsulotlari sarfi bo‘yicha 399-son shakldagi jamlanma qaydnomada yuritiladi. Bu jamlanma qaydnomaga moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha yuritiladi. Unga yozuvlar 299-son shakldagi oziq-ovqat mahsulotlari berish uchun menyu-talabnama va boshqa hujjatlar asosida yoziladi.

Oy tugagandan keyin qaydnomadagi raqamlarning jami hisoblab chiqiladi, bu esa sarflangan oziq-ovqat mahsulotlarining qiymatini aniqlashga xizmat qiladi. Bir vaqtning o‘zida ta’lim muassasalarida ta’milanadigan bolalar soni bilan, davolash muassasalarida esa bemorlar haqidagi ma’lumotlar bilan va boshqa ma’lumotlar bilan taqqoslanadi.

411-son shaklda jamlanma qaydnomalardagi ma’lumotlaridan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarining boshqa chiqim hujjatlari (kam chiqqan oziq-ovqat mahsulotlariga, bazaga qaytarishga va boshqalarga tuzilgan dalolatnomalar) yoziladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining analitik hisobi ularning nomi, navi, miqdori, qiymati va moddiy javobgar shaxslar bo'yicha M-44-son shakldagi material zaxiralar bo'yicha aylanma qaydnomada yuritiladi. Aylanma qaydnomalarga yozuvlar 300 va 399-son shakldagi jamlanma qaydnomalari hamda oziq-ovqat mahsulotlarining kirimi va chiqimiga doir boshqa hujjatlar asosida yoziлади. Har oyda aylanma qaydnomalardagi aylanmalar hisoblab chiqiladi va oy boshiga qoldiq chiqariladi.

062 «Dori-darmonlar va yarani bog'lash vositalari» analitik hisobvarag'ida kasalxonalardagi, davolash-profilaktika, davolash-veterinariya va xarajatlар smetalarida ushbu maqsadlar uchun mablag' ajratish ko'zda tutilgan tashkilotlardagi dori-darmonlar, komponentlar, bakteriyali preparatlar, zardoblar, vaksinalar, qon va yarani bog'lash vositalari va boshqa dori-darmonlar hisobga olinadi.

Bu analitik hisobvaraqdа o'z dorixonalariga ega bo'lган meditsina tashkilotlaridagi yordamchi va dorixona materiallari ham hisobga olinadi.

063 «Inventar va xo'jalik jihozlari» analitik hisobvarag'ida tashkilotning kundalik ehtiyojlari uchun foydalaniladigan xo'jalik materiallari va kanselyariya buyumlari (elektr lampalari, sovun, cho'tka va h.k.), shuningdek, boshqa inventar va xo'jalik jihozlari hisobga olinadi.

Invetar va xo'jalik jihozlarining hisobi moddiy javobgar shaxslar tomonidan buyumlarning nomi va miqdori bo'yicha M-17-son shakldagi materiallarni ombor hisobi daftarida yuritiladi. Bu buyumlarning ombordan berish 434-son shakldagi yuk-xati (talabnoma) bo'yicha amalga oshiriladi.

Buyumlar ombordan berilayotganda tashkilotning, bo'limning nomi, foydalanishga topshirilgan yili va oyi ko'rsatilgan markirovkali shtampi qo'yiladi. Markirovka bo'yoq yordamida qilinadi yoki jeton bilan mahkamlanadi.

Singan idishlarni hisobdan o'chirish uchun singan idishlarni ro'yxatga oladigan 325-son shakldagi singan idishlarni ro'yxatga olish bo'yicha kitob yuritiladi. Kitobga yozuvlar tegishli mansabdor shaxslar tomonidan yoziladi. Doimiy ishlab turadigan komis-

siya kitobni to‘g‘ri yuritilayotganligini nazorat qilib boradi va har chorakda (har oyda) singan idishlarni hisobdan o‘chirish dalolatnomasini tuzadi. Bu dalolatnama tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash va boshqa muassasalar omboridagi mavjud ich kiyimlar, ko‘rpa-to‘shaklar, kiyim-kechak va poyafzallar quyidagicha alohida guruhlarga ajratilib hisobga olinadi:

- ich kiyimlar (ko‘ylaklar, xalatlar va shunga o‘xhashlar);
- ko‘rpa-to‘shaklar va ko‘rpa-to‘shak buyumlari (matraslar, yostiqlar, ko‘rpalar, choyshablar, ko‘rpa va yostiq jildlari, yopin-g‘ichlar, qop-ko‘rpa) va h.k;
- kiyim-bosh va shaklli ust-bosh hamda maxsus kiyimlar (kastumlar, koftalar, yubkalar, kurtkalar, shimplar) va boshqalar;
- poyafzallar, maxsus poyafzallar (botinkalar, etiklar, sandallar, piymalar va h.k.) bilan birga;
- sport kiyimlari va poyafzallari (kastumlar, botinkalar) va h.k.

063 analitik hisobvaraqtning analitik hisobi predmetlarning nomi, miqdori, qiymati va moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha 296-son shakldagi material qimmatliklarning miqdor-qiyomat hisobi daftarida (kartochkasida) yuritiladi.

064 «Yonilg‘i, yoqilg‘i-moylash materiallari» analitik hisobvara-g‘ida omborlarda, shuningdek, bevosita moddiy javobgar shaxslar ixtiyorida turadigan barcha turdagи yonilg‘i, yoqilg‘i-moylash materiallari (otin, ko‘mir, torf, benzin, kerosin, mazut, avtol va h.k.) hisobga olinadi.

065 «Mashina va asbob-uskunalarning ehtiyot qismlari» analitik hisobvarag‘ida mashinalarning (tibbiyot, elektron-hisoblash va shu kabi) uskunalar, traktorlar, kombaynlar, transport vositalarining (motorlar, avtomobil shinalari, kamera va aylana shakldagi lentalar va shu kabilar) eskirgan qismlarini almashtirish va ta’mirlash uchun mo‘ljallangan ehtiyot qismlar hisobga olinadi.

Ehtiyot qismlarning analitik hisobi ehtiyot qismlarning nomi, turi, zavod bergan raqami, miqdori, qiymati va moddiy javobgar shaxslar 296-son shakldagi material qimmatliklarning miqdor-qiyomat hisobi daftari (kartochkasi)da yuritiladi. Bunda,

eskirganlarini almashtirish uchun ombordan berilgan avtomobil shinalari va pokrishkalari balansdan tashqari 12-hisobvaraqaqa hisobga olinadi hamda oluvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, mansabi, olingan kuni va zavod raqami ko'rsatiladi.

069 «Boshqa tovar-moddiy zaxiralar» analitik hisobvarag‘ida ilmiy-tadqiqot ishlari va laboratoriya sinovlari uchun uzoq muddat ishlataladigan materiallar, shartnoma asosida bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun maxsus asbob-uskunalar, o'stiruvdag‘i va boquvdagi chorva mollari, o'quv, ilmiy va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan reaktivlar va ximikatlar, oyna va kimyoviy idishlar, metallar, elektr va radio materiallari, radiolampalar, fotobuyumlari, o'quv dasturlari hamda qo'llanma va ilmiy ishlarni nashr qilish uchun qog'ozlar, tajriba qilinadigan hayvonlar hamda o'quv maqsadlari va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun mo'ljallangan boshqa materiallar, shuningdek, protez uchun ishlataladigan qimmatbaho va boshqa tovar-moddiy zaxiralar hisobga olinadi.

Boshqa tovar-moddiy zaxiralarning analitik hisobi 296-son shakldagi material qimmatliklarning miqdor-qiyomat hisobi daftari (kartochkasi)da materiallarning nomi, navi, miqdori, qiymati va moddiy javobgar shaxslar bo'yicha yuritiladi.

Sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati (sotib olish narxi, shuningdek, yetkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlar) hisobda 091 «Tovar-moddiy zaxiralarga boshqa xarajatlar» analitik hisobvarag‘ining debetiga va 15 «Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar» hisobvarag‘ining tegishli analitik hisobvaraqlari kreditiga yoziladi. Tovar-moddiy zaxiralarning qiymati (sotib olish narxi, shuningdek, yetkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlar) bo'yicha kirim qilinishi 06 hisobvaraqaqning tegishli analitik hisobvaraqlari debetiga va 091 «Tovar-moddiy zaxiralarga boshqa xarajatlar» analitik hisobvarag‘ining kreditiga yoziladi.

Boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan beg'araz olingan tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobiga kirim qilish vaqtida belgilangan tartibda aniqlangan joriy bozor qiymati bo'yicha

091 «Tovar-moddiy zaxiralarga boshqa xarajatlar» analitik hisobarag‘ining debetiga yoziladi va

262 «Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar» analitik hisobvarag‘ining kreditiga yoziladi.

Agarda, ushbu tovar-moddiy zaxiralalar bo‘yicha yetkazib berish va shu bilan bog‘liq boshqa xarajatlar amalga oshirilsa, u holda ushbu xarajatlar mazkur tovar-moddiy zaxiralarning qiymatini oshiradi va hisobda

091 «Tovar-moddiy zaxiralarga boshqa xarajatlar» analitik hisobvarag‘ining debetiga va

15 «Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar» yoki boshqa tegishli hisobvaraqlarning analitik hisobvaraqlari kreditiga yoziladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning qiymati bo‘yicha kirim qilinishi

06-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari debetiga va

091 «Tovar-moddiy zaxiralarga boshqa xarajatlar» analitik hisobvarag‘ining kreditiga yoziladi.

Tovar-moddiy zaxiralalar foydalanish jarayonida belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi. Foydalanish jarayonida, shuningdek, beg‘araz berilishi munosabati bilan tovar-moddiy zaxiralalar qiymatini hisobdan chiqarilishi 06–hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari kreditiga va ushbu tovar-moddiy zaxiralarning sotib olinish manbasidan kelib chiqqan holda, haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 va 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisini debetiga yozish yo‘li bilan aks ettiriladi.

#### **5.4-§. BUDJET TASHKILOTLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINI INVENTARLASHDAN O‘TKAZISH**

##### **5.4.1. Inventarlash natijasida tovar-moddiy zaxiralar yuzasidan buxgalteriya yozuvlari**

Inventarlash natijasida ortiqcha chiqqan tovar-moddiy zaxiralarning kirim qilinishi tovar-moddiy zaxiralarni hisobga oluvchi tegishli analitik hisobvaraqlarning debetida va 273 «Inventarlash natijasida ortiqcha chiqqan mol-mulklar» analitik hisobvarag‘ining kreditida aks ettiriladi.

Inventarlash natijasida aniqlangan kamomadning aniq aybdori topilmagan yoki moddiy-javobgar shaxslardan undirib olish imkonи bo'lмаган hollarda, kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarni hisobdan chiqarilishidan ko'rilgan zarar tashkilot hisobiga olib boriladi va hisobda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlarning kreditiga va ushbu tovar-moddiy zaxiralarning kirim qilish manbasidan kelib chiqqan holda, haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning debetiga yozish yo'li bilan aks ettiriladi.

Moddiy javobgar shaxs (yoki boshqa xodim) aybdor deb tan olingan va agarda tovar-moddiy zaxiralalar budget mablag'lari hisobidan sotib olingan bo'lsa yoki sotib olingan manbasini aniqlashning imkonи bo'lmasa, aybdor shaxsdan undiriladigan summa qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli budget daromadiga o'tkazib beriladi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarning qiymatini hisobdan chiqarilishi tovar-moddiy zaxiralarni hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlarning kreditida va ushbu tovar-moddiy zaxiralarning kirim qilish manbasidan kelib chiqqan holda, haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning debetida buxgalteriya yozuvlari qilinishi lozim;

- aybdor shaxsdan undiriladigan summaning budget daromadlariga hisoblanishi 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ining debetida va 160 «Budgetga to'lovlar bo'yicha budget bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ining kreditida buxgalteriya yozuvlari qilinishi lozim;

- aybdor shaxs tomonidan kamomad summasini to'lanishi tegishli pul mablag'larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlarning debetida va 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ining kreditida buxgalteriya yozuvlari qilinishi lozim;

- mablag'larni budget daromadiga o'tkazib berilishi 160 «Budgetga to'lovlar bo'yicha budget bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ining debetida va pul mablag'larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlarning kreditida buxgalteriya yozuvlari aks ettiriladi.

#### **5.4.2. Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishdagi farqlarning hisobi**

Moddiy javobgar shaxs (yoki boshqa xodim) aybdor deb tan olingen holda (agarda tovar-moddiy zaxiralar budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan sotib olingen bo'lsa), aybdor shaxsdan undiriladigan summa tashkilotning budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha hisobvarag'iga kirim qilinadi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

– kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining qiymatini hisobdan chiqarilishi tovar-moddiy zaxiralarini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlarning kreditida va 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ining debetida aks ettiriladi. Agarda, mazkur tovar-moddiy zaxiralarining qiymati va moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilgan summa o'rtaida farq mavjud bo'lsa, ushbu farq summa 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ining debetida (yoki kreditida) va 272 «Boshqa budgetdan tashqari daromadlar» analitik hisobvarag'ining kreditida (yoki tovar-moddiy zaxiralarining sotib olinish manbasidan kelib chiqqan holda haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning debetida) aks ettiriladi;

– aybdor shaxs tomonidan kamomad summasining to'lanishi tegishli pul mablag'larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlarning debetida va 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ining kreditida aks ettiriladi.

Agarda tovar-moddiy zaxiralar budget va budgetdan tashqari mablag'lar hisobiga sotib olingen bo'lsa, aybdor shaxsdan undiriladigan summa tovar-moddiy zaxiralar qiymatidagi budget va budgetdan tashqari mablag'larning ulushiga mos ravishda taqsimlanib, mablag'ning tegishli qismi budget daromadiga o'tkazib beriladi, qolgan qismi tashkilotning budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha hisobvarag'iga kirim qilinadi va to'lig'icha tashkilotning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga sarflanadi.

Agarda aniqlangan kamomad o'rniga moddiy javobgar shaxsning tashkilot ixtiyoriga bergen tovar-moddiy zaxiralarining qiy-

mati kamomad chiqqan tovar-moddiy zaxiralar qiymatiga teng yoki kam bo'lsa, ushbu tovar-moddiy zaxiralar belgilangan tartibda bozor qiymatida kirim qilinadi, yetishmaydigan qismi esa, moddiy javobgar shaxs tomonidan pul mablag'larini kiritish bilan qoplanadi va buxgalteriya hisobida belgilangan tartibda aks ettiriladi.

### Tayanch iboralar:

*Tovar moddiy zaxiralar. Moddiy qiymatliklar. Narx. Tovar. Miqdor. Aylanma qaydnoma. Zaxira. Qoldiq. Aylanma qaydnoma. Materiallar. Ombor. Xomashyo. Tayyor mahsulot. Asbob-uskuna. Xo'jalik jihozlari. Tannarx.*

### Mustaqil ta'lif uchun savollar

1. Material zaxiralar hisobi uchun qaysi analitik tartibli hisobvaraqlar tayinlangan?
2. Material zaxiralar sotib olinganida qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
3. Materiallarni tashkilotga olib kelish uchun avtoxizmat ko'rsatgan korxona uchun to'lov hisoblanda buxgalteriya yozuvi qanaqa bo'ladi?
4. Me'yordan ortiq tovar moddiy qiymatlikni hisob qilishda qurilish-ta'mirlash materiallari mavsumiy zaxiralari necha kunni tashkil etadi?
5. Budget tashkilotlari tovar-moddiy qiymatliklari mavsumiy zaxiralari normasini aniqlash tartibi qanday me'yoriy hujjatni bilasiz?
6. Tovar-moddiy zaxiralarning qoldiq qiymati moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilgan summadan ko'p bo'lsa buxgalterya yozuvi qanaqa bo'ladi?
7. Tegishli moddiy boyliklarni qabul qilish va olib ketish imkoniyatidan kelib chiqib, ishonchnomalarini amal qilishi amaldagi qonunlar bo'yicha qaysi muddatga belgilanadi?
8. Tovar-moddiy boyliklarni sotishdan olingan budget tashkilotlari ixtiyorida qoldiriladigan mablag'lar ular tomonidan qaysi maqsadlarga yo'naltiriladi?

## **6-bob. BUDJET TASHKILOTLARIDA MEHNAT SARFI VA UNGA HAQ TO'LASH HISOBI**

---

---

### **6.1-§. ISH HAQI TURI, SHAKLI VA UNI HISOBBLASH TARTIBI**

#### **6.1.1. Ishchi va xizmatchilar bilan hisob-kitoblar hisobi**

Budjet tashkilotiga reja asosida ish haqi fondi belgilanadi. Ish haqi fondi rejadagi va hisobotdagi fondlarga bo'linadi. Vaqtning muayyan davrida ishchi va xizmatchilarga ish haqi to'lash uchun budjet tashkilotining xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan pul mablag'lari summasi ish haqining rejadagi fondi hisoblanadi. Muayyan davr uchun shtatdagi va shtatdan tashqaridagi xodimlarga haqiqatda hisoblangan ish haqi summasi ish haqining hisobotdagi fondi hisoblanadi. Ish haqi qaysi vaqtga to'lanayotganligi, miqdori va bajarilgan ishning sifatiga qarab asosiy va qo'shimcha mehnat haqiga bo'linadi. Ishchi va xizmatchilarning ishlagan vaqt yoki bajargan ishlarining miqdori va sifati uchun to'lovlar asosiy ish haqi hisoblanadi. Ishchi va xizmatchilarga qonunda ko'zda tutilgan ish-lamagan vaqt (ta'til vaqt uchun to'lov, davlat va jamoat vazifalarini bajargan davri uchun to'lov, o'smirlarga imtiyozli soatlari uchun to'lov va boshqalar) uchun to'lovlar qo'shimcha ish haqi hisoblanadi.

Shtatdagi xodimlar soni, ish haqi stavkalari, xodimlarning ayrim kategoriyalari, ish stoji va ma'lumoti haqidagi ma'lumotlar bo'yicha hamda tashkilot tarmoqlarini mo'ljallangan kengaytirish bo'yicha va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda ish haqi fondi hisoblab chiqiladi.

Bank muassasalari xodimlarning ish haqi va budjet tashkilotlarining xarajatlari uchun mablag' berishni tegishli moliya organi tomonidan berilgan ro'yxatga olish kartochkasi taqdim etilgandan so'ng amalga oshiradi.

Budjet tashkilotlarining shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish:

a) O'zbekiston Respublikasi respublika budgetida turuvchi tashkilotlarning shtat jadvallari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetida, viloyatlar budgetlarida va Toshkent shahrining shahar budgetida turuvchi tashkilotlarning shtat jadvallari Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligvda, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalarida;

d) shaharlar va tumanlar budgetida turuvchi tashkilotlarning shtat jadvallari shaharlar, shaharlarning tumanlari va tumanlar moliya bo'limlarida amalga oshiriladi.

## **6.2-§. ISH HAQI FONDING TARKIBI VA UNI HUJJATLASHTIRISH**

Budjet tashkilotlarining shtatlarni tasdiqlash huquqi berilgan rahbarlari tomonidan tasdiqlangan shtatlar jadvallari ro'yxatdan o'tkazishga qabul qilinadi.

Budjet tashkilotlari xodimlarining lavozim maoshlari va tarif setkalarini ish haqi to'lash bo'yicha tasdiqlangan yagona tarifatsiyalash tizimi asosida o'rnatiladi, smeta bo'yicha ko'zda tutilgan mehnatga haq to'lash fondi doirasida ro'yxatdan o'tkazishga qabul qilinadi.

Xodimlarni moddiy rag'batlantirish maxsus fondi ajratilgan ish haqi to'lash fondidan 15 foiz miqdorida ro'yxatdan o'tkazishga qabul qilinadi.

Stipendiya fondi budget tashkilotlarining xarajatlar smetasiga qilingan hisob-kitoblar asosida ro'yxatdan o'tkazishga qabul qilinadi.

Budjet tashkilotlarining shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini berish yo'li bilan rasmiylash-tiriladi. Ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi bank muassasalarida tegishli depozit hisobvaraqlari bo'lgan budget tashkilotlariga beriladi. Ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi yuqori tashkilotning vakiliga beriladi.

Budget tashkilotlarining smetalarida ish haqiga qilingan xarajatlar smetaning eng ko'p qismini tashkil etadi. Shuning uchun ish haqi hisobini to'g'ri tashkil qilish katta davlat ahamiyatiga ega. Barcha budget tashkilotlari ish haqi uchun berilgan mablag'larni xarajat qilganda shtat tartibini saqlashga, ish haqi stavkalarining ko'tarilishiga yo'l qo'yilmaslik, ish haqi fondidan tayinlanishi bo'yicha foydalanish va ish haqini smetaning boshqa moddalari hisobidan to'lashga yo'l qo'yilmasligini ta'minlashga majburdirlar. Ish haqi fondining to'g'ri sarf qilinishi, belgilangan stavkalar va shtatlarga rioya etilishi uchun javobgarlik budget tashkilotlarining rahbarlari va bosh hisobchilari zimmasiga yuklatilgan.

### **6.3-§. ISH HAQIDAN USHLAB QOLINADIGAN SUMMALAR (DAROMAD SOLIG'I VA BOSHQALAR)NING HISOB-KITOBI**

Budget tashkilotiga xodimni ishga qabul qilish haqidagi buyruq asosida buxgalteriya xodimga tabel raqami beradi, tabel yurituvchi shaxs esa uning familiyasini Ish vaqtidan foydalanish hisobi va ish haqini hisoblash tabeli (392-mex shakl)ga kiritadi. Buxgalteriya xodimni ishga qabul qilish haqidagi buyruq asosida Kartochka-ma'lumotnama (417-shakl)ni ochadi. U yil davomida xodimning ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatga olish uchun qo'llaniladi. Kartochka-ma'lumotnomada xodim to'g'risidagi umumiyligi ma'lumotlardan (familiyasi, ismi, otasining ismi, tabel raqami, lavozimi, oylik miqdori, tarifikatsiya bo'yicha razradi, tug'ilgan yili, qayerda ishlashi, mehnat haqidan ushlanmalar, soliq bo'yicha imtiyozlar va boshqalardan) tashqari har oyda ishlagan kunlari soni va turlari bo'yicha hisoblangan ish haqi summasi qayd qilinadi. Mehnat kodeksiga ko'ra grafiklarga va xodimlarning arizalariga asosan xodimlarga beriladigan navbatdagi mehnat, qo'pshmcha va o'quv ta'tillariga xodimning chiqishi Ta'til berish haqidagi ma'lumot xati (425-mex shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Ma'lumot

xatini ta'til berish haqidagi buyruq asosida xodimlar bo'limi yozadi. Ma'lumot xati, xodimlar bo'limi tomonidan buxgalteriyaga «Ta'til berish haqidagi va xodimlarni ishdan bo'shatish haqidagi ma'lumot xatlarini» ro'yxatga olish jurnaliga imzo chektirib beriladi. Xodimning ishdan bo'shatilishi Bo'shatish haqidagi ma'lumot xati (426-mex-shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Bo'shatish haqidagi ma'lumot xati xodimlar bo'limi tomonidan xodimni ishdan bo'shatish haqidagi buyruq asosida yoziladi. Bo'shatilayotgan xodim o'z hisobida bo'lgan barcha moddiy qiymatliklarni topshiradi, undan keyin bo'shatish haqidagi ma'lumot xati xodimlar bo'limi tomonidan buxgalteriyaga «Ta'til berish haqidagi va xodimlarni ishdan bo'shatish haqidagi ma'lumot xatlarini» ro'yxatga olish jurnaliga imzo chektirib beriladi. Tegishli hujjatlashtarishlarda ko'zda tutilmagan to'lovlarning yoki ushlab qolishlarning turlari bo'yicha yoki ularni to'lash hisob-kitob qilish davrining muddatlari bo'yicha to'g'ri kelmaganda hisoblangan mehnat haqi yoki ushlangan summalar To'lov yoki ushlab qolishlarning boshqa turlari qaydnomasi (426-mex-shakl)da amalga oshiriladi. Qaydnomasi hisob-kitob qilish davri uchun buxgalteriya tomonidan to'lovlarga alohida va ushlab qolishlarga alohida rasmiylashtiriladi. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida amalga oshiriladi. Vaqtincha mehdatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni to'lash ish haqi bilan birga amalga oshiriladi. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari alohida papkaga tikiladi va yil boshidan boshlab xronologik tartibda raqamlanadi. Har bir varaqda u hisoblash uchun kiritilgan hisob-kitob-to'lov qaydnomaning raqami qo'yiladi. Ish haqi bo'yicha hisob-kitoblarni tuzish bir vaqtning o'zida mehnat haqi to'lash uchun ham ishlatiladigan hisob-kitob-to'lov qaydnomasi (49-shakl) bo'yicha amalga oshiriladi. U oylik ish haqini hisoblash va oxirgi hisob-kitoblar bo'yicha oyning ikkinchi yarmi uchun xodimlarga tegishli bo'lgan ish haqini berishda qo'llaniladi. Bir nechta hisob-kitob-to'lov qaydnomalari yoziladigan budget tashkilotlarida bu qaydnomalarning jamlanmalarini bo'yicha ish

haqiga doir memorial-order bo‘ladigan «5-memorial-order. Ish haqi va stipendiyalar bo‘yicha hisob-kitob qaydnomalarining yig‘masi» (405-shakl) rasmiylashtiriladi. Ayrim hujjatlar bo‘yicha ma’lumotlar, xatolarni aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan turli xildagi qo‘sishimcha muomalalar va storno-yozuvlari, hujjatlarni to‘ldirishda kelib chiq-qan va shunga o‘xhash ma’lumotlarni yozishga buxgalteriya Buxgalteriya ma’lumotnomasi (433-mex-shakl)ni to‘ldiradi. Xodim-larning ish haqidan alimentlarni ushlab berish haqidagi ijro varaqalari Alimentlarni ushlab berish haqidaga ijro varaqalarini hisobga olish kitobi (437-shakl)da ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Rejadagi bo‘nakni to‘lash Bo‘nakni to‘lash uchun to‘lov qaydnomasi (389-shakl) bo‘yicha amalga oshiriladi.

Budget tashkilotlarining ishchi va xizmatchilariga ish haqi belgilangan muddatlarda, budget tashkilotlarining ko‘pchiligidagi oyda ikki marotaba, ayrimlarida esa bir marta beriladi. Ish haqini hisoblash oyda bir marta amalga oshiriladi. Ish haqi va boshqa to‘lovlarni hisoblash bo‘yicha hisob-kitob qaydnomasi ishga kelganlarni hisobga olish tabellari, ishchi va xizmatchilarini ishga qabul qilish, ishdan bo‘shatish va xizmat yuzasidan bir joydan boshqa joyga o‘tkazish haqidagi budget tashkiloti bo‘yicha chiqarilgan buyruqlar asosida rasmiylashtiriladi va oyning oxirgi kunida hisobda qayd qilinadi. Tabel belgilangan shakl bo‘yicha yuritiladi. Oyning oxirida tabel bo‘yicha ishlangan kunlarning umumiyloni hamda meoyoridan ortiqcha ishlangan soatlar aniqlanadi. Tabel oyning oxirgi kuni budget tashkilotining buxgalteriyasiga ish haqini hisoblash uchun beriladi. Ish haqini hisoblash bo‘yicha hisob-kitob qaydnomasi ish haqiga doir oylik hisob-kitoblar uchun xizmat qiladi. Oyning birinchi yarmi uchun mehnat haqining rejadagi 50 foizidan tegishli soliqlar va boshqa ushlab qolishlarni hisobga olgan holda bo‘nak beriladi. Rejadagi bo‘nakni to‘lash uchun to‘lov qaydnomasi rasmiylashtiriladi. Ish haqini to‘lash qaydnomalari budget tashkilotining rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi. G‘aznadan pul berishga ruxsatnomasi ham budget tashkilotining rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi.

## **6.4-§. ISH HAQI TO‘LASHNING ANALITIK VA SINTETIK HISOBI**

### **6.4.1. Ish haqini deponentga o‘tkazilgan summalarining hisobi**

To‘lash muddati tugagandan so‘ng g‘aznachi qaydnomani g‘azna hisoboti bilan birga buxgalteriyaga topshiradi. Qaydnomada ish haqini olmagan shaxslarning familiyalari qarshisiga «Deponentlashtirilgan» tamg‘asi(shtamp)ni bosadi yoki qo‘lda yozib qo‘yadi. Qaydnomaning oxirida haqiqatda to‘langan ish haqi summasi va deponentlashtiriladigan summa ko‘rsatiladi. Xodimlar ish haqining deponentlashtirilgan summalarini haqidagi ma’lumotlarni g‘aznachi Deponentlashtirilgan ish haqi va stipendiyalarning analitik hisobi kitobi (441-shakl)ga yozishi kerak. G‘aznachi tomonidan qaydnomaga qo‘yilgan belgilar va Deponentlashtirilgan ish haqi va stipendiyalarning analitik hisobi kitobidagi yozuvlar tekshirilgandan hamda to‘langan va deponentlashtirilgan summalarini qayta hisoblab chiqilgandan keyin buxgalteriya shu kunning o‘zida haqiqatda to‘langan ish haqi summasiga chiqim orderi yozadi va g‘aznaga bu summani g‘azna bo‘yicha xarajatga chiqarish uchun, ya’ni g‘aznachi hisobotiga qo‘sishish uchun beradi. Deponentlashtirilgan summalar ish haqi to‘lash muddati tugagandan so‘ng keyingi kuni bank muassasasiga budjet tashkilotining tegishli depozit hisobvarag‘iga topshiriladi.

Budjet tashkilotining buxgalteriyasi hisob-kitob to‘lov qaydnomasi asosida memorial-order tuzadi. Memorial-orderga ish haqini hisoblashga va vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqlari bo‘yicha to‘lovlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan barcha hujjatlar ilova qilinadi. Memorial-order asosida ish haqini hisoblash, undan ushslash va to‘lash bo‘yicha muomalalar yozushi bosh jurnal kitobiga va boshqa hisob registrlariga amalga oshiriladi.

Bir martalik (vafot etganda, bola tug‘ilganda va boshqa holatlarda beriladigan) nafaqalar tasdiqlovchi hujjatlar asosida g‘azna yoki hisobdor shaxs orqali to‘lanadi. Ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar o‘tgan oy uchun ijtimoiy sug‘urta hisobidan ishlovchi pensionerlarga pensiya to‘lash qaydnomasi bo‘yicha

oyning ikkinchi yarmi uchun ishchi va xizmatchilarga mehnat haqi to'lash bilan bir vaqtida to'lanadi. Pensiya to'lash qaydnoma budjet tashkilotining rahbari va bosh hisobchii hamda mazkur budjet tashkilotining kasaba uyushmasi tashkiloti raisi tomonidan imzolanadi va kasaba uyushmasi qo'mitasining muhri tushiriladi. Kasaba uyushmasining raisi tomonidan imzolanmagan pensiya va nafaqa to'lash qaydnomalari qonuniy kuchga emas deb hisoblanadi va bu qaydnomalalar bo'yicha to'langan summalar ijtimoiy sug'urtaga qilingan ajratmalar hisobiga qabul qilinmaydi.

#### **6.4.3. Ish haqi hisoblash yuzasidan buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvlari hisobi**

Budjet tashkilotida xodimlarga bir oy davomida ikki yoki bir marotaba mehnati ushun haq beriladi. Hujjatlashtirish ishlarini bosh buxgalter hisob-kitob buxgalteri bilan birgalikda amalga oshiradi. Budjet tashkilotining gaznachisi rasmiylashtirilgan hujjatlar asosida belgilangan ish haqlarini bankdan olib kelib, to'lov qaydnomasida ko'rsatilgan mablag'larni xodimlarga yetib borishini ta'minlaydi. Har bir xodim o'ziga tegishli mablag'ni pasportini ko'rsatgan holda shaxsiy imzosini to'lov qaydnomasiga qayd etib oladi. Boshqa uchunchi shaxslarning ish haqi uchun beriladigan mablag'larni olishi mumkin emas. G'aznachi tomonidan boshqa xodimlarning mablag'larini har xil vajlar bo'lganda ham berib yuborish mumkin emas.

Aytaylik, 170 ta xodimdan 2 nafari ma'lum sabablarga ko'ra oylik maoshlarini oylik maoshlarni tarqatish vaqtida ololmay qoldi. Biz bilamizki, gazna yuritish tartiblariga ko'ra g'aznachi ish haqi uchun bankdan olib kelingan pul mablag'larini gazna seyfida 3 kundan ortiq davr mobaynida saqlashi mumkin emas. Budjet tashkiloti gazna bo'limida ushlab qolningan 2 nafar xodimning ish haqlari uchun ajratilgan mablag' gaznachi tomonidan deponentga o'tkazish uchun rasmiylashtiriladigan hujjat to'ldirilib, bank depozit hisobvarag'iga o'tkaz ishlarini amalga oshiriladi. Mazkur jarayonga, ya'ni vaqtida olinmagan xodimlarni ish haqi deponentga o'tkazilganda quyidagicha buxgalterya yozuvlari amalga oshiriladi.

Debet: 173 Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar Kredit:

177 Deponentlangan to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar

Hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov summasiga tashkilotning buxgalteriyasida qanday buxgalteriya yozuvi beriladi.

Debet: 231 Budjet mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar

Kredit: 161 Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha hisob-kitoblar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2004-yil 21-dekabrdagi «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida» gi qaroriga asosan ish haqidan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga ajratma hisoblanganda

Debet: 160 Budjetga to‘lovlar bo‘yicha budjet bilan hisob-kitoblar

Kredit: 162 Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i badallari bo‘yicha hisob-kitoblar

Hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov summasi soliq idorasiga o‘tkazib berilganida qanday buxgalteriya provodkasi rasmiy-lashtiriladi?

Debet: 161 Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha hisob-kitoblar

Kredit: 232 budjetdan moliyalashtirish

G‘aznadan xodimlarga vaqtinchalik ish qobiliyatini yo‘qotganligi uchun hisoblangan nafaqa berilganda qanday buxgalteriya provodkasi rasmiylashtiriladi?

Debet: 171 Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo‘yicha hisob-kitoblar

Kredit: 120 Milliy valutadagi naqd pul mablag‘lari

Ish haqidan ijro varaqalariga asosan ushlanmalar amalga oshirilganda

Debet: 173 Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar

Kredit: 176 Xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadigan haq bo‘yicha hisob-kitoblar

Da‘vo muddati o‘tgan deponentlashtirilgan ish haqi hisobdan chiqarildi

Debet: 177 Deponentlangan to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar

Kredit: 230, 240, 250, 260

«Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida nizom» ga asosan bola tug‘ilganda beriladigan nafaqalar tayinlanganda

Debet: 231,241,251,261, 271 hisobvaraqlar

Kredit: 171 Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo‘yicha hisob-kitoblar

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Bajargan ishlari yoki ishlagan vaqqi uchun ishchi va xizmatchilarga hisoblangan ish haqi summasiga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
2. Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha Pensiya fondiga hisoblangan ajratmalar summasiga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
3. Ishchi va xizmatchilarga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha hisoblangan nafaqalar summasiga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
4. Ishchi va xizmatchilarning ish haqidan ushlangan daromad solig‘i summasiga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
5. Ishchi va xizmatchilarning ish haqidan pensiya fondiga ushlangan majburiy ijtimoiy sug‘urta to‘lovi summasiga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
6. Ishchi va xizmatchilarning ish haqidan muqobil xizmatlar foydasiga va ijro-varaqalari bo‘yicha ushlanganida qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
7. O‘quv yurtlarining talaba, aspirant va o‘quvchilariga hisoblangan stipendiya summasiga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
8. O‘quv yurtlarining talaba, aspirant va o‘quvchilarini stipendiyalaridan ijro varaqalari va boshqa hujjatlar bo‘yicha ushlangan summaga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?

## **7-bob. YAGONA IJTIMOIY TO‘LOV VA FUQAROLARNING BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG‘ARMASIGA SUG‘URTA BADALLARI**

---

---

### **7.1-§. YAGONA IJTIMOIY TO‘LOV VA MAJBURIY SUG‘URTA BADALLARI**

#### **7.1.1. Yagona ijtimoiy to‘lov va majburiy sug‘urta badallari to‘lovchilar hisobi**

*Yagona ijtimoiy to‘loving to‘lovchilari bo‘lib, buydjet tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norizidentlari hisoblanadi.*

Jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston respublikasida doimiy ravishda ishlab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardir.

Jismoniy shahslar Fuqarolarning budjetdan tashqari pensiya jamgarmasiga sug‘urta badallarini to‘lovchilari hisoblanadi. Mazkur tushuncha darslikning keyingi matnlarida «sug‘urta badallari» deb yuritiladi

Sug‘urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularni to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvch budget tashkilotining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq kodeksida ko‘rsatilgan ish haqidagi daromadlar yagona ishtimoiy to‘loving va sug‘urta badallarining soliq solish obyekti hisoblanadi.

Misol. 2011-yil noyabr oyida xodim ish normasini 20 foiz ortiq bajardi. Uning noyabr oyi uchun bajargan ish haqi miqdori 500 ming so‘mni tashkil etdi. Budget tashkilotida qabul qilingan mukofotlash to‘g‘risidagi nizomga asosan xodim ish normasini ortiq darajada bajarganda unga ish haqining 20 foiz miqdorida mukofot beriladi. Soliq kodeksining 306-moddasiga muvofiq, yagona ijtimoiy

to'lovning va «sug'urta badallari»ning soliq solish obyekti bo'lib soliq kodeksining 172, 173, 174, 175-moddalarida keltirilgan ish haqi daromadlari hisoblanadi. Budjet tashkilotida qabul qilingan mukofotlash to'g'risidagi nizomga asosan to'lanadigan mukofot summalari rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar jumlasiga kiradi.

Soliq kodeksi 173-moddasining 2-bandiga muvofiq mukofot summalari majburiy sug'urta ajratmalariga tortish obyekti hisoblanadi.

Xodimning ish normasini ortiq darajada bajarganda mukofotini hisobga olgan holdagi ish haqi miqdori 600 ming ( $500000+500000*20\%$ ) so'mni tashkil etadi. Mazkur 600 ming so'm bir ishchining bir oy davomidagi jami ish haqi fondi hisoblanadi. Ushbu summadan quyidagi ushlanmalar ushlab qolinadi:

– yagona ijtimoiy to'lov summasi 150 ming ( $600000*25\%$ ) so'mni tashkil etadi.

– yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov davlat maqsadli jamg'armalari hamda O'zbekiston Kasaba uyushmasi federatsiyasi Kengashi o'rtasida belgilangan tartibga muvofiq quyidagi miqdorda taqsimlanishi belgilab qo'yilgan: Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga – 24,8%; Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga – 0,1%; O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga – 0,1 % stavkalarda.

Majburiy sug'urta badallar summasi esa 27 ming ( $600000*4,5\%$ ) so'mni tashkil etadi.

Majburiy sug'urta badali koefitsiyenti joriy davr uchun 4,5 % ni tashkil etadi. Hisobot yilda bu korsatkich o'zgarsa (5,5%), hisobchi buni inobatga olgan holda hisob-kitoblarni olib borishga aqli yetishi kerak.

Yagona ijtimoiy to'lovni va so'gurta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza soliq kodeksiga muvofiq to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

### **7.1.2. Yagona ijtimoiy to‘lov va majburiy sug‘urta badallari bo‘yicha imtiyozlar**

Budget tashkiloti bosh hisobchisi yagona ijtimoiy to‘lov va majburiy sug‘urta badallari bo‘yicha quyidagi imtiyozlar borligini inobatga olishi shart:

- soliq kodeksining 174-moddasining 5, 8, 9, 11 va 12-bandlarida ko‘rsatilgan kompensatsiya to‘lovlari;
- hodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli budget yoki xayriya jamg‘armalariga o‘tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlari;
- yosh mutaxassislarga oliy o‘quv yurtini tamomlaganlaridan so‘ng ta’til vaqtin uchun yuridik shaxslar hisobidan to‘lanadigan nafaqalar;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining oddiy, serjant va ofitser tarkiblarida xizmatni o‘tash munosabatlari bilan to‘lanadigan pul ta’minoti, pul mukofotlari va boshqa to‘lovlari;

- quyidagi grant mablag‘lari hisobiga olinadigan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar:

a) davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet elga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag‘lari;

b) O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadigan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan berilgan grant mablag‘lari;

d) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar doirasida berilgan grant mablag‘lari;

e) Respublika Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-iyuldagи 328-sonli qarorining 7-bandida ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastklar va korxonalarda ishlovchi nogironlar mehnatiga haq to‘lash fondidan 4,7 foiz stavka bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lov undirilishi belgilab qo‘yilgan.

## **7.2-§. YAGONA IJTIMOIY TO'LOV VA FUQAROLARNING BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASIGA SUG'URTA BADALLARI**

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarini har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'laridan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarining ish haqidan ushlab qolinadi va davlat soliq inspeksiyasi orgali o'tkaziladi. Yagona ijtimoiy to'lovlarni hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan topshiradi, budget tashkiloti buxgalterlari tomonidan hisobot yilning har choragida hisobot davrining keyingi oyning 25 sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etadilar.

To'lov quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- yagona ijtimoiy to'lov (25%) – har oyda, keyingi oyning 10-sanasidan kechiktirmay;
- sug'urta badallari (4,5%) – ish haqiga pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda, taqdim etiladi.

Ish haqi hisobiga oyning birinchi yarmi uchun bo'nak (avans) olishga hujjatlar taqdim etilganda sug'urta badallari to'lovi amalga oshirilmaydi.

## **7.3-§. JAMG'ARILIB BORILADIGAN PENSIYA FONDIKA AJRATMALAR HISOBI**

Xodimlarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimida qatnashuvchi ishchi-xodimlarga o'tkazilayotgan badallar summasi yuzasidan yuritilish hujjatini ko'ramiz (18-jadval)

Xodimlarning jami daromadlaridan ushlanadigan daromad solig'i summasidan qoplanadi. Ushbu summa esa jami daroma-dining asl qiymati hisobidan (amalda 1,0%) foiz hisobida aniqlanadi.

### TASHKILOT NOMI

**Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida qatnashuvchi xodimlarga 2011-yil  
AVGUST oyi uchun o’tkazilayotgan badallar to‘g‘risidagi  
№155 raqamli REESTR**

№	Xodimning JBPT hisob-varaqasi ( 14 raqam-dan iborat)	Xodimning familiyasi, ismi va ota-sining ismi	Daromad to‘lanadigan jami daromadlar miqdori, so‘m	Hisoblangan majburiy badal miqdori, so‘m	Xodimning xohishiga ko‘ra qo‘srimcha ravishda o’tkazilayotgan badal miqdori, so‘m	Jami o’tkazib berilayotgan badal miqdori, so‘m (k.5 + k. 6)
1	2	3	4	5	6	7
		Jami				

Direktor \_\_\_\_\_ F.I.O.

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_ F.I.O.

Mazkur hujjat ikki nusxada(elektron bugungi kunda, fleshkada) rasmiylashtirilib, budjet tashkiloti joylashgan tumanning xalq bankiga mas‘ul ijrochi buxgalter tomonidan har oyning 10-sanasi dan kechiktirmasdan taqdim etiladi.

### Mustaqil ta’lim uchun savollar

- Yagona ijtimoiy to‘lov va majburiy sug‘urta badallari deganda nimani tushunasiz?
- Yagona ijtimoiy to‘lov qachon joriy qilingan?
- Yagona ijtimoiy to‘lov necha foizni tashkil etadi?
- Jismoniy shaxsnинг daromadlaridan yana qo‘srimcha ravishda yagona ijtimoiy to‘lov uchun qoshimcha mablag‘ ushlab qolish mumkinmi?
- Yagona ijtimoiy to‘lov hisoboti qayerga topshiriladi?
- Yagona ijtimoiy to‘lov hisobotining muddati belgilanganmi?
- Xalq bankiga hisobotni taqdim qilish usullarini tushuntirib bering.
- Yagona ijtimoiy to‘lov hisobotlarini davlat soliq idorasini nazorat qiladimi?
- Yagona ijtimoiy to‘lovnini hisob va hisobotlarini rasmiylashtirish hamda belgilangan muddatlaridagi xatoliklariga kimlar ma’sul?
- Yagona ijtimoiy to‘lov summalarini pirovard natijada yig‘ilib qanday maqsadlar uchun sarflanadi?

## **8-bob. DEBITOR VA KREDITORLAR BILAN HISOBLASHISHLAR HISOBI**

---

---

### **8.1-\$. TURLI DEBITOR VA KREDITORLAR BILAN HISOBLASHISHLAR**

#### **8.1.1. Turli debtorlar va kreditorlar bilan hisoblashishlar mazmuni va ahamiyati**

Bu bobda keltirilgan hisobvaraqlarda mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan ular yetkazib bergen tovar moddiy qimmatliklari, bajargan ishlari va ko'rsatgan xizmatlari uchun olib boriladigan hisob-kitoblar, budget hamda ijtimoiy sug'urta to'lovlari ajratmalar bo'yicha, kasaba uyushma tashkilotlari, hisobdor shaxslar, xodimlar, stipendiya oluvchilar, deponent qilingan summalar, ta'lif muassasalarida bolalarni saqlaganlik uchun ularning ottonalari, shuningdek, boshqa debtor va kreditorlar bilan hisobkitoblar hisobga olinadi.

Tashkilotlar o'rtasida avans to'lovlarini amalga oshirish, shuningdek, debtorlik va kreditorlik qarzlarni hisobdan chiqarish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlar bo'yicha kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda tashkilot ularni bartaraf etish maqsadida tushunmovchiliklar haqidagi materiallarni tegishli idoralarga taqdim etishi shart.

Qarzlarni qarzdorlarning to'lovga qodir emasligi oqibatida hisobdan chiqarish qarzdorlikni bekor qilish emas. Bu qarzdorlik qarzdorning mulkiy ahvoli o'zgargan taqdirda undirib olish imkoniga ega bo'lish maqsadida kuzatib borish uchun u hisobdan chiqarilgan paytdan boshlab qonunchilikda belgilangan muddat mobaynida balansdan tashqari 05 hisobvaraqda ko'rsatilishi lozim.

Da'vo muddati o'tgan debtorlik qarzlar tashkilot rahbarining ruxsati bilan amaldagi xarajatlarni oshirish bo'yicha hisobdan chiqariladi va bu haqda 10 kun muddatda tegishli moliya organiga xabar qilinadi.

Da'vo qilish muddati tugagan budget mablag'lari bo'yicha yuzaga kelgan deponent qilingan qarz summalari tashkilot moliyalashtiriladigan (xarajatlari amalga oshiriladigan) tegishli budget daromadiga da'vo qilish muddati tugagan oydan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay kiritilishi kerak.

Bunda, da'vo qilish muddati tugagan, budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha yuzaga kelgan deponent qilingan qarz summalari 272 «Boshqa budgetdan tashqari daromadlar» analitik hisobvarag'ida daromad sifatida aks ettiriladi.

Da'vo qilish muddati tugagan boshqa kreditorlik qarzlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi.

Debitorlar va kreditorlarni hisobda aks ettirish uchun hisobvaraqlar rejasida quyidagi hisobvaraqlar belgilangan:

- 15 «Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar»;
- 16 «Budget va budgetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar»;
- 17 «Xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar»;
- 18 «Boshqa hisob-kitoblar».

### **8.1.2. Turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashishlar**

15 «Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar» hisobvaraqlari sintetik hisobvaraqlari hisoblanib, u quyidagi analitik hisobvaraqlarga bo'linadi:

- 150 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar»;
- 152 «Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar»;
- 154 «Sug'urta bo'yicha to'lovlar»;
- 155 «Budget tashkilotining ixtiyorida vaqtincha bo'ladigan mablag'lar bo'yicha hisob-kitoblar»;
- 156 «To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar»;
- 159 «Boshqa debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar».

Ushbu analitik hisobvaraqlar bo'yicha analitik hisob budget va budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha hisob-kitoblarni alohida

ajratgan holda 292-son shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftari (kartochkasi)da, 285-son shakldagi aylanma qaydnomada va boshqa tegishli hisob registrlarida yuritiladi.

## **8.2-§. MOL YETKAZIB BERUVCHILAR BILAN HISOBBLASHISHLAR**

### **8.2.1. Mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashishlar**

150 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar» analistik hisobvarag‘ida mol yetkazib beruvchilar bilan yetkazib berilgan moddiy va nomoddiy qimmatliklar, shuningdek kapital qo‘yilmalar hisobiga xarid qilinadigan qurilish materiallari, konstruktsiyalar va detallar, o‘rnatish uchun jihozlar, yetkazib berilgan boshqa tovar-moddiy qimmatliklar qiymati va shu kabilar, pudratchilar bilan ularga qurilish va montaj uchun berilgan konstruktsiyalar va detallar, bajarilgan qurilish-montaj ishlari uchun hisob-kitoblar olib boriladi.

Pudratchilar bilan hisob-kitoblarda 150 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar» analistik hisobvarag‘i debetiga bajarilgan qurilish-montaj va boshqa ishlari uchun o‘tkazilgan summalar va pudratchiga qurilish-montaj ishlari uchun berilgan konstruksiya va detallar, qurilish materiallarining summalarini yoziladi. Bunda, 060 «Qurilish materiallari» va boshqa tegishli analistik hisobvaraqlar kreditlanadi.

Pudratchilarning bajargan qurilish-montaj ishlari summasiga yozuvlar 071 «Tugallanmagan qurilish» analistik hisobvarag‘ning debeti va 150 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar» analistik hisobvarag‘ning krediti bo‘yicha yoziladi.

### **8.2.2. Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar**

152 «Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar» analistik hisobvarag‘ida tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlari, ko‘rsatilgan xizmatlar va ishlab chiqargan mahsulotlarini (ish, xizmatlarini) sotish jarayonida xaridorlar va buyurtmachi tashkilotlar bilan olib boradigan hisob-kitoblari aks ettiriladi.

Xaridor va buyurtmachilardan o‘zaro tuzilgan shartnomada belgilangan to‘lovlar kelib tushganda pul mablag‘larini hisobga oluvchi tegishli analitik hisobvaraqlar debetlanadi va 152 «Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘i kreditlanadi. Bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar xaridor va buyurtmachilar tomonidan qabul qilinib olinganda (tegishli tasdiq-lovchi hujjatlarga asosan) hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlar xaridorlar va buyurtmachilarga yuklab jo‘natilganda 152 «Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘i debeti va 200 «Mahsulot (ish, xizmat)lar realizatsiyasi» analitik hisobvarag‘i krediti bo‘yicha aks ettiriladi. Analitik hisob har bir xaridor va buyurtmachilar bo‘yicha alohida holda yuritiladi.

### **8.2.3. Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlarlarning hisobi**

154 «Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar» analitik hisobvarag‘i sug‘urta bo‘yicha to‘lovlarga doir hisob-kitoblarni, jumladan, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha muomalalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun qo‘llaniladi.

Ushbu analitik hisobvaraqnning kredit tomonida tashkilotlar tomonidan majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta mukofoti summasi hamda sug‘urta majburiyatlari bilan bog‘liq boshqa majburiyatlarni hisoblanishi, debet tomonidan esa hisoblangan majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta mukofoti summalarini, shuningdek, boshqa sug‘urta majburiyatlarining to‘lanishi (bajarilishi) aks ettiriladi.

Jumladan, ish beruvchining (tashkilotning) fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta mukofoti summasi haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 va 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisini debetida va 154 «Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar» analitik hisobvaraqnning kreditida aks ettiriladi.

O‘tkazib berilgan summalar esa 154 «Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar» analitik hisobvarag‘ning debetida va tegishli pul mablag‘larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar kreditida aks ettiriladi.

#### **8.2.4.Budget tashkilotining ixtiyorida vaqtincha bo‘ladigan mablag‘lar bo‘yicha hisob-kitoblar**

155 «Budget tashkilotining ixtiyorida vaqtincha bo‘ladigan mablag‘lar bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ida tashkilotning ixtiyoriga vaqtinchalik tushgan va ma’lum shartlar bajarilgandan keyin qaytarilishi lozim bo‘lgan summalar hisobi yuritildi.

155 «Budget tashkilotining ixtiyorida vaqtincha bo‘ladigan mablag‘lar bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqning kreditiga tashkilotning ixtiyoriga vaqtinchalik tushgan summalar yoziladi, bunda 114 «Budget tashkilotining vaqtincha ixtiyorida bo‘ladigan mablag‘lar «analitik hisobvarag‘i debetlanadi, bu analitik hisobvaraqning debetiga esa belgilangan shart uchun berilgan yoki o‘tkazib berilgan summalar yoziladi, bunda 114 «Budget tashkilotining vaqtincha ixtiyorida bo‘ladigan mablag‘lar» analitik hisobvaraq kreditlanadi.

Depozit summalar analitik hisobi har bir oluvchi bo‘yicha 292-sod Shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftarida (kartochkasida) olib boriladi.

To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar

156 «To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ida quyidagilar hisobga olinadi:

- bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida (bolalar bog‘chalari va yaslilarda) saqlanganligi;
- bolalarni musiqa va san’at maktablarida o‘qitilganligi;
- tarbiyalanuvchilarni maktab-internatlarda va boshqa ta’lim muassasalarida saqlanganligi uchun ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar;
- ish joyida ovqat bilan ta’minlanganligi uchun xodimlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar va boshqa shu kabi hisob-kitoblar hisobi yuritildi.

Bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida saqlanganligi uchun ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar bo‘yicha pul hisoblab yozish bolalarning bog‘chaga kelishi hisobi olib boriladigan 305-sod Shakldagi bolalarning davomat hisobi bo‘yicha tabel asosida haqiqiy qatnagan kunlariga muvofiq amalga oshiriladi. To‘lovlarning

bevosita maktabgacha ta’lim muassasalariga to‘langanda ota-onalarga to‘langanlik haqidagi kvitansiyalar beriladi. Vakil qilingan kishilardan qabul qilingan summalar uch kunlik muddat ichida tashkilotning hisobvarag‘iga kirim qilinishi kerak.

Maktabgacha ta’lim muassasalari, maktab-internatlari va boshqa ta’lim muassasalarida bolalar ta’minotiga haq to‘lash tartibi va to‘lov miqdorlari qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

To‘lovlar hisoblanganda 156 «To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar» analistik hisobvaraqnning debetida va 242 «Ta’lim muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag‘lari» analistik hisobvaraqnning kreditida aks ettiriladi. Ota-onalardan kelib tushgan mablag‘larga 156 «To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar» analistik hisobvaraqligining kreditlanadi va 110 «To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag‘lar» analistik hisobvaraqligining debetlanadi.

Bolalar maktabgacha ta’lim muassasasidan chiqarib olingan taqdirda oldindan to‘langan summa ota-onalarga ularning arizasiga muvofiq maktabgacha ta’lim muassasasi rahbarining ko‘rsatmasiga binoan qaytariladi. Ariza maktabgacha ta’lim muassasasi buxgalteriyasiga rahbarning ko‘rsatmasi va bolalarning bog‘chaga qatnashini hisobi olib boriladigan navbatdagi tabel bilan birgalikda topshiriladi.

Qaytariladigan summa g‘azna orqali beriladi yoki pochta orqali jo‘natiladi, shuningdek, naqd pulsiz hisob-kitoblar yo‘li bilan ham qaytarilishi mumkin. Qaytarilgan summa 156 «To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar» analistik hisobvaraqnning debetiga va 120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag‘lari» analistik hisobvaraqnning kreditiga yoki 110 «To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag‘lar» analistik hisobvaraqligining kreditiga yoziladi. Bir vaqtning o‘zida 156 «To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar» analistik hisobvaraqnning debeti va 242 «Ta’lim muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag‘lari» analistik hisobvaraqnning krediti bo‘yicha storno provodkasi beriladi.

Bolalarni saqlash yuzasidan olib boriladigan hisob-kitoblarning analistik hisobi 327-son shakldagi ta’lim muassasalarida bolalarni

saqlanganligi uchun ularning ota-onalari bilan olib boriladigan hisob-kitoblar qaydnomasida yuritiladi.

327-son shakldagi qaydnoma asosida 406-son shakldagi (15-memorial order) bolalarni saqlaganlik uchun ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar bo'yicha jamlanma qaydnoma rasmiy-lashtiriladi.

Tarbiyalanuvchilarni maktab-internatlarda saqlanganligi uchun ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar bo'yicha kelib tushgan to'lovlar summasiga 156 «To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar» analistik hisobvaraq kreditlanadi, 110 «To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'lar» analistik hisobvaraq yoki 120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag'lari» analistik hisobvaraq debetlanadi. Tarbiyalanuvchilarning maktab-internatda haqiqiy bo'lgan kunlari uchun hisoblangan to'lov summasiga 156 «To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar» analistik hisobvaraq debetlanadi va 242 «Ta'lim muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag'lari» analistik hisobvaraq kreditlanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarning analistik hisobi har bir tarbiyalanuvchi bo'yicha alohida holda 327-son shakldagi ta'lim muassasalarida bolalar saqlanganligi uchun ularning ota-onalari bilan olib boriladigan hisob-kitoblar qaydnomasida yuritiladi.

Bolalarni maktablar qoshidagi internatlarda ovqatlanganligi uchun ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar bo'yicha hisoblab yozilgan to'lov summasiga 156 «To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar» analistik hisobvaraq debetlanadi va 242 «Ta'lim muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag'lari» analistik hisobvaraq kreditlanadi. Kelib tushgan to'lovlar summasiga 156 «To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar» analistik hisobvaraq kreditlanadi va 120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag'lari», 110 «To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'lar» yoki 061 «Oziq-ovqat mahsulotlari» (to'lov o'rniqa oziq-ovqat berilganda) analistik hisobvaraqlar debetlanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarning analitik hisobi 327-sون шаклдаги та’лим мұассасаларда болалар сақланғанлық үчүн үларнан ота-оналары bilan olib boriladigan hisob-kitoblар qaydnomasida yuritiladi.

Bolalarni bolalar musiqa va san’at mакtabларда, shuningdek, boshqa ta’lim muassasаларда o’qитганлик үчүн hisoblangan to’lov summalariga 156 «To’lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblар» analitik hisobvaraқ debetланади va 242 «Ta’lim muassasаларда hisoblangan ota-onalarning mablag’лари» analitik hisobvaraқ kreditланади. Kelib tushgan summаларга tegishli pul mablag’ларини hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar debetланади va 156 «To’lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblар» analitik hisobvaraқ kreditланади. Analitik hisob har bir badal to’lovchi ota-onalar bo’yicha alohida holda yuritiladi.

Xodimlar bilan үларнан ish joyлардан ovqatlanish үчүн olib boriladigan hisob-kitoblarda qonunchilikka ko’ra kasalxonalar, mакtabgacha ta’lim muassasалари, nogironlar, shuningdek, qariyalar уylари va boshqa tashkilotlar joylashган yerda umumiy ovqatlanish korxonalари bo’lmagan hollarda үларнан xodimlariga to’lov hisobiga ovqatlanish ruxsat etilgan bo’lib, ana shu tashkilotlarning xodimлари bilan ovqatlanganlik үчүн hisob-kitob olib boriladi.

Xodimlar bilan ular олган ovqatlar үчүн hisob-kitob yuritganda 156 «To’lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblар» analitik hisobvaraқning debetiga sarf qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining qiymati yoziladi, bunda, 061 «Oziq-ovqat mahsulotлари» analitik hisobvaraқ kreditланади.

Kreditiga esa xodimлardan ovqat үчүн oлинган summалар, shuningdek, oldindan to’langan avans summалари yozib boriladi, bunda tegishli pul mablag’ларини hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar (120 «Milliy valutадаги naqd pul mablag’лари» yoki 110 «To’lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblардан tushgan mablag’лар» analitik hisobvaraqlar) debetланади.

Ovqatlanish үчүн olib boriladigan hisob-kitoblarning hisobi 285-сон шаклдаги аяланма qaydномада yuritiladi. Bu qaydномада xodimлarning familiyasi va ismi ko’rsatiladi.

## **8.2.6.Boshqa debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar**

159 «Boshqa debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ida yuqorida keltirilmagan barcha hollar bo‘yicha debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar hisobi olib boriladi.

Shuningdek, ushbu analitik hisobvaraqa shtatda turmagan tarkibga (kompozitorlarga, artistlarga, mualliflarga) shartnoma bo‘yicha bajargan ishlari va chiqimlari uchun, televizor va radio-eshittirishlarda bir marta chiqish uchun qilingan buyurtmalarga beriladigan qalam haqi summalar bo‘yicha hisob-kitoblar, shuningdek, uyda nogiron bolalarni o‘qtadigan pedagoglarga to‘lana-digan kompensatsiya to‘lovlar hisobga olinadi.

Boshqa debitorlar va kreditorlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarning analitik hisobi 408-son shakldagi (6-sod memorial order) jamlanma qaydnomasida, shuningdek, 292-sod shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftarida (kartochkasida) olib boriladi.

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Debitorlik qarzi nima?
2. Kreditorlik qarzi nima?
3. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining amaldagi muddatlari necha kun?
4. Kreditorlik qarzdan kimlar ozod qilingan?
5. Xorijiy fuqarolar ham kreditorlik qarz bo‘lishi mumkinmi?
6. Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar qaysi hisobvaraqa yuritiladi?
7. Beg‘araz olingan mablag‘lar qanday qarz deyiladi?
8. Oylik maosh tashkilot g‘aznasiga olib kelindi va xodimlarga tarqatilmadi. Tashkilot bosh hisobchisi hisobot topshirish muddati kelmagan bo‘lsa-da uni kreditor qarz deb rasmiylashtirdi. Shu to‘g‘rimi?

## **9-bob. BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR HISOBI**

---

### **9.1-§. BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR TURLARI VA ULARNI SARFLASH HISOBI**

#### **9.1.1. budget va budjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar**

16 «Budget va budjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar» hisobvarag'i hisobvaraqlar rejasida qayd etilgan bo'lib, budjetdan tashqari mablag'larning qiymati mazkur hisobvaraqaqda aks ettiriladi.

Bu hisobvaraqaqda budget tashkilotlar tomonidan qonunchilikka muvofiq budget bilan, shuningdek budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarga doir, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar hisobi va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar olib boriladi.

16 «Budget va budjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar» hisobvarag'i quyidagi analitik hisobvaraqlarga bo'lingan holda hisobda aks ettiriladi:

160 «Budgetga to'lovlar bo'yicha budget bilan hisob-kitoblar»;

161 «Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha hisob-kitoblar»;

162 «Shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha hisob-kitoblar»;

163 «Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan hisob-kitoblar»;

169 «Boshqa budjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar».

160 «Budgetga to'lovlar bo'yicha budget bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ida budget bilan quyidagilar bo'yicha qilinadigan hisob-kitoblar hisobi yuritiladi: ish haqi va boshqa to'lovlardan ushlab qolningan soliqlar, aybdor shaxs hisobiga olib borilgan va budgetga o'tkazilishi lozim bo'lgan kamomadlar summalarini, moddiy

qimmatliklarni sotishdan tushgan va qonunchilikka ko‘ra budget daromadiga o‘tkazilishi kerak bo‘lgan summalar va boshqa budget bilan hisob-kitoblar.

Budget bilan hisob-kitoblar bo‘yicha vujudga kelgan hisoblangan summalar 160 «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha budget bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlarning kreditiga yoziladi, bunda 17, 25, 26, 27 va boshqa tegishli hisobvaraqlarning analitik hisobvaraqlari debetlanadi. Tegishli summalar budget daromadiga o‘tkazilganda 160 «Budgetga to‘lovlar bo‘yicha budget bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlarning debitiga yoziladi, bunda, pul mablag‘larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar kreditlanadi.

Analitik hisob har bir turdagи hisob-kitoblar turlari bo‘yicha 292-son shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftarida (kartochkasi)da olib boriladi.

#### **9.1.2. Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha hisob-kitoblar**

161 «Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlida mehnatga haq to‘lash jamg‘armasidan hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lovlarning hisobi olib boriladi.

Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha hisob-kitoblar qonunchilikka asosan tartibga solinadi.

Mehnatga haq to‘lash jamg‘armasidan hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lovlar summasi 161 «Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlarning kreditida va haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261 va 271 analitik hisobvaraqlarning debitida aks ettiriladi. Budget budget tashkilot tomonidan o‘tkazib berilgan to‘lovlar esa, pul mablag‘larini hisobga oluvchi tegishli analitik hisobvaraqlar kreditida va 161 «Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlarning debitida aks ettiriladi.

161-»Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlar bo‘yicha analitik hisob 292-son shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftarida (kartochkasida) olib boriladi.

### **9.1.3. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan Pensiya hisobvarag‘i badallari buyicha hisob-kitoblar**

162 «Shaxsiy jamg‘arib boriladigan Pensiya hisobvarag‘i badallari bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ida budjet tashkilotlar xodimlarining jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari bo‘yicha badallari hisobi yuritiladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitoblar qonunchilikka asosan tartibga solinadi.

Budjet tashkilot xodimlarining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar hisoblanganda 160 «Budjetga to‘lovlar bo‘yicha budjet bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning debeti va 162 «Shaxsiy jamg‘arib boriladigan Pensiya hisobvarag‘i badallari bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning krediti bo‘yicha aks ettiriladi. Hisoblangan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar o‘tkazib berilganda 162 «Shaxsiy jamg‘arib boriladigan Pensiya hisobvarag‘i badallari bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraq debetlanadi va tegishli pul mablag‘larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar kreditlanadi.

Analitik hisob har bir shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni o‘tkazuvchi xodimlar bo‘yicha alohida holda yuritiladi.

### **9.1.4. Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi bilan hisob-kitoblar**

163 «Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ida budjet tashkilotlarning xodimlariga hisoblangan ish haqlaridan budjetdan tashqari Pensiya jamg‘arma-siga ajratma qilinadigan badallari, qonunchilikka muvofiq sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning haqiqatdagi hajmidan majburiy ajratmalarning hisobi, shuningdek, davlat ijtimoiy sug‘urtasi va boshqa budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobidan amalga oshiriladigan to‘lovlar bo‘yicha budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bilan olib boriladigan hisob-kitoblari hisobi yuritiladi.

Xodimlarning hisoblangan ish haqlaridan Pensiya jamg‘arma-siga ushlangan majburiy badallar summalari 173 «Xodimlar bilan

mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning debetida va 163 «Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning kreditida aks ettiriladi. O‘tkazib berilgan badallar summalar esa 163 «Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlar debetida va tegishli pul mablag‘larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar kreditida aks ettiriladi.

Qonunchilikka muvofiq sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning haqiqatdagi hajmidan hisoblangan ajratmalar 163 «Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning kreditida va 211 «Davr xarajatlari» analitik hisobvarag‘ining debetida, o‘tkazib berilgan ajratma summalar esa 163 «Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning debetida va tegishli pul mablag‘larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar kreditida aks ettiriladi.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobidan amalga oshiriladigan Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar va boshqa to‘lovlar hisoblanganda 163 «Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning debetida va 171 «Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning kreditida aks ettiriladi. Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlaridan budget tashkilot hisobvarag‘iga kelib tushgan summalarga pul mablag‘larini hisobga oluvchi tegishli analitik hisobvaraqlar debetlanadi va 163 «Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlar kreditlanadi.

Analitik hisob budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobidan amalga oshiriladigan to‘lovlarini oluvchilar bo‘yicha alohida holda yuritiladi.

### **9.1.5. Boshqa budgetdan tashqari jamg‘armalar bilan hisob-kitoblar**

169 «Boshqa budgetdan tashqari jamg‘armalar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ida budget tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta’lim muassasalarini

rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha budgetdan tashqari jamg'arma, Respublika yo'l jamg'armasi va boshqa budgetdan tashqari jamg'armalar bilan qonunchilikka muvofiq olib boriladigan hisob-kitoblari yuritiladi.

Ushbu budgetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga ajratma-larning hisoblanishi 211 «Davr xarajatlari» analitik hisobvarag'ining debetida yoki amalga oshirilgan muomalalarining mazmunidan kelib chiqqan holda boshqa tegishli analitik hisobvaraqlarning debetida va 169 «Boshqa budgetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning kreditida aks ettiriladi. Hisoblangan ajratma summalarini o'tkazib berilishi tegishli pul mablag'larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar kreditida va 169 «Boshqa budgetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning debetida aks ettiriladi.

## **9.2-§. BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR ANALITIK VA SINTETIK HISOBI**

### **9.2.1. Xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar**

17 «Xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar» hisobvarag'i.

Bu hisobvaraqdada xodimlar bilan ish haqi, ijtimoiy sug'urta to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar, shuningdek, talabalar, stajor-tadqiqotchi-izlanuvchilar va o'quvchilar bilan stipendiyalar bo'yicha olib boriladigan hisob-kitoblar va xodimlar bilan boshqa hisob-kitoblar hisobi yuritiladi.

17 «Xodimlar va stipendiatlar bilan hisob-kitoblar» hisobvarag'i quyidagi analitik hisobvaraqlarga bo'linadi:

- 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar»;
- 171 «Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqlar bo'yicha hisob-kitoblar»;
- 172 «Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar»;
- 173 «Xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar»;
- 174 «Stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar»;
- 175 «Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar»;

176 «Xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadigan haq bo'yicha hisob-kitoblar»;

177 «Deponentlangan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar»;

179 «Xodimlar bilan boshqa hisob-kitoblar».

170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar» analitik hisob-varag'ida kamomadlar, talon-taroj qilingan pul mablag'lari va moddiy qimmatliklar qiymati, shuningdek, aybdor shaxslar hisobi-ga yozilgan va o'rnatilgan tartibda undirib olinishi lozim bo'lgan moddiy qimmatliklar qiymati va qonunchilikda belgilangan boshqa hollar hisobi olib boriladi.

Inventarlash jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasing buxgalteriya hisobi qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

Aniqlangan kamomadlar, talon-tarojlar, nobudgarchiliklar va shu kabilar, agarda aybdor shaxsnинг hisobiga olib borilsa, 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnинг debetiga hamda pul mablag'lari yoki moddiy qimmatliklar hamda boshqa tegishli analitik hisobvaraqlarning kreditiga yoziladi. 170 «Kamomadlarga doir hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnинг kreditiga yetkazilgan zararni qoplash uchun budget tashkilotga kirim qilingan summalar yoziladi, bunda tegishli pul mablag'larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar debetlanadi.

Bu analitik hisobvaraqnинг analitik hisobi 292-son shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftari (kartochkasi)da har bir aybdor shaxs bo'yicha ularning familiyasi, ismi va otasining ismi, qarzning vujudga kelgan sanasi hamda kamomad summasi ko'rsatilgan holda, shuningdek, budget va budgetdan tashqari mablag'larga ajratilgan holda yuritiladi.

### **9.2.2. Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo'yicha hisob-kitoblar**

171 «Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo'yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ida budget tashkilotlarning xodimlari bilan ijtimoiy sug'urta to'lovlar bo'yicha olib boradigan hisob-kitoblari yuritiladi. Ijtimoiy sug'urta to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar qonunchilikka asosan tartibga solinadi.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan yoki Pensiya jamg‘armasi orqali to‘lanadigan budget tashkilotining xodimlariga hisoblangan ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari hisobot oyining oxirgi kunida 163 «Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning debetida va 171 «Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqlar bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning kreditida aks ettiriladi. Budget mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari, jumladan, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik hamda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqlarni hisoblanishi haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231 «Budget mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar», 251 «Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar», 261 «Budget tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar» yoki boshqa tegishli analitik hisobvaraqlar debetida va 171 «Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqlar bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning kreditida aks ettiriladi.

To‘langan ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari esa 171 «Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqlar bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning debetida va 120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag‘lari» yoki boshqa tegishli analitik hisobvaraqlarning kreditida aks ettiriladi.

Analitik hisob har bir ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarini oluvchilar va ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarining turlari bo‘yicha alohida holda yuritiladi.

### **9.2.3. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar**

172 «Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraq‘ida hisobdor shaxslar bilan ularga naqd pul to‘lamasdan hisob-kitob qilish imkonи bo‘lmaydigan xarajatlarga to‘lash uchun beriladigan avanslar bo‘yicha olib boriladigan hisob-kitoblar hisobi olib boriladi. Hisobi beriladigan avanslar faqat mazkur budget tashkilotda ishlaydigan shaxslargagina beriladi.

Xizmat safarlari bo‘yicha muomalalar qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

Hisobi beriladigan avanslar avans oluvchining yozma arizasiga binoan (arizada avansning nimaga mo'ljallanganligi ko'rsatilishi kerak) budjet tashkilot rahbarining buyrug'i asosida beriladi. Hisobi beriladigan pullar ular berilayotgan vaqtida ko'zda tutilgan maqsadlar uchungina sarflanadi.

Avans summalarining sarflanganligi haqida hisobdor shaxslar 286-son shakldagi avans hisobotini (19-jadval) budjet tashkilot buxgalteriyasiga topshiradilar. Ular ushbu hisobotga qilingan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilib topshiradilar. Avans hisobotiga ilova qilingan hujjatlar hisobdor shaxs tomonidan ularning hisobotda yozilish tartibiga qarab raqamlab chiqiladi.

*19-jadval*

**AVANS HISOBOTI \_\_\_\_\_-son**

286-son shakl

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ yildan.

Tashkilot nomi \_\_\_\_\_  
 Tarkibiy bo'linma \_\_\_\_\_  
 Moliyalashtirish manbasi \_\_\_\_\_  
 Bo'lim \_\_\_\_\_  
 Xarajat turi \_\_\_\_\_  
 Hisobdor shaxs \_\_\_\_\_  
 Lavozimi \_\_\_\_\_ Avans nomi \_\_\_\_\_

Ko'rsatkich nomi	Summa, so'm.	Buxgalteriya yozuvi		Summa, so'm	
		debet	kredit		
Oldingi avans	qoldiq Ortiqcha ishlatildi	1	2	3	4
Avans olindi (kimdan va qachon)					
Jami olingan (kredit analitik his- obvaraq 120 yoki 121)					
Ishlatildi					
Qoldiq					
Ortiqcha ishlatildi					

Ilova: \_\_\_\_\_ ta hujjatlar Hisobot tekshirildi.

Maqsadli qilingan xarajatlarni tasdiqlayman		Tasdiqlash uchun _____ so‘m. _____ tiyin.
Tarkibiy bo‘linma rahbari	(imzo) (F.I.SH.)	Hisobchi _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)
Qoldiq kiritildi		g‘azna bo‘yicha tiyin. order -son _____
Ortiqcha ishlatalgan summa berildi	so‘m. (lavozimi)	«_» _____ y. «_» _____ y.
	(imzo)	(F.I.Sh.)

kesish chizig‘i

Yozishma. Tekshirishga qabul qilindi \_\_\_\_\_ avans hisoboti \_\_\_\_\_ -son \_\_\_\_\_ y. summasi \_\_\_\_\_ so‘m. \_\_\_\_\_ tiy, hujjatlar soni \_\_\_\_\_ hisobchi \_\_\_\_\_ «\_» \_\_\_\_\_ y.

(imzo) (F.I.Sh.)

2-bet

Sana	Hujjat raqa- mi	Kimga, nima uchun va qaysi hujjatga asosan to‘landi	Xarajat summasi				Debet analitik hisob- varaq	
			hisobot bo‘yicha		hisobga qabul qilindi			
			so‘mda	valutada	so‘mda	valutada		
1	2	3	4	5	6	7	8	9
		Jami						

Hisobdor shaxs \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

Buxgalteriyada avans hisobotlari arifmetik tekshirib chiqiladi, shuningdek, hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi hamda mablag‘-larni muayyan maqsadlar uchun sarflanganligi tekshiriladi. Tekshirib chiqilgan avans hisobotlari budget tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Foydalanimagan avans qoldig‘i hisobdor shaxs tomonidan avans hisoboti topshirilgandan so‘ng uch kundan kechiktirmasdan budget tashkilot g‘aznasiga qaytarilishi lozim. Hisobdor shaxsga oldin berilgan avans summasi to‘liq qaytarilgandan so‘ng yangidan avans beriladi.

Hisobi beriladigan summalarining sarflanganligi haqida belgilangan muddatda avans hisoboti topshirilmagan yoki foydalanimagan

avans qoldig‘i g‘aznaga qaytarilmagan hollarda budjet tashkilotlar bu qarzlarni avans olgan shaxslarning ish haqlaridan qonunchilikda belgilangan tartibda ushlab qolish huquqiga ega.

Hisobdor shaxslarga berilgan summalariga 172 «Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqtan debetlanadi, 120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag‘lari» analitik hisobvaraqtan kreditlanadi (agarda avans summalarini xorijiy valutada berilsa, 121 «Xorijiy valutadagi naqd pul mablag‘lari» analitik hisobvaraqtan kreditlanadi). Avansning sarf qilingan summasi va hisobi beriladigan summaning qaytarilgan qoldig‘i summasi 172 «Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqtan kreditiga va tegishli analitik hisobvaraqlar debetiga yoziladi. Shuningdek, ushbu analitik hisobvaraqaqda budjet tashkilotning shtatlar jadvalida g‘aznachilik lavozimlari belgilanmagan hollarda ish haqi va boshqa to‘lovlarni naqd pulda to‘lashi uchun javobgar shaxslarga berilgan naqd pul mablag‘larining ham hisobi olib boriladi.

Hisobdor shaxslar bilan qilinadigan hisob-kitoblarning analitik hisobi 386-son shakldagi hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar bo‘yicha jamlanma qaydnomada (8-memorial orderda) yuritiladi. Hisobdor shaxslarning soni unchalik ko‘p bo‘lmagan budjet tashkilotlarda analitik hisob har bir hisobdor shaxs bo‘yicha 292-son shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftari (kartochkasi)da olib borilishi mumkin. Bunda, analitik hisob budjet va budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha alohida holda yuritiladi.

#### **9.2.4.Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar**

173 «Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ida budjet tashkilotning xodimlari bilan ish haqining barcha turlari, mukofotlar va boshqa mehnatga haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan hisob-kitoblar hisobga olinadi.

Ish haqi, mukofotlar, turli moddiy yordamlar va boshqa to‘lovlari oyiga bir marta hisoblab yoziladi va hisobda joriy oyning oxirgi kunida aks ettiriladi.

Ish haqini hisoblab yozish uchun quyidagilar asosiy hujjatlar hisoblanadi: budjet tashkilotning ishga qabul qilganlik, bo‘sbatgan-

lik va xodimlarni tasdiqlangan shtatlar jadvali va ish haqi stavkalariiga muvofiq joydan-joyga ko'chirish haqidagi buyruqlari, 421-son shakldagi foydalanilgan ish vaqtি hisobi va ish haqi hisoblash tabeli va boshqa hujjatlar.

Tabellar budget tashkilot rahbarining buyrug'i bilan tayinlangan shaxslar tomonidan har oyda belgilangan shaklda yuritiladi. Tabellar butun budget tashkilot bo'yicha yoki tuzilmaviy bo'linmalar (bo'limlar, bo'linmalar, fakultetlar, laboratoriylar va boshqalar)ga bo'lingan holda yuritiladi. Oyning oxirida tabel bo'yicha ishlangan kunlarning umumiy miqdori, shuningdek, ortiqcha ishlangan soatlar aniqlanadi. To'ldirilgan va tegishli imzolar bilan rasmiylashtirilgan tabel va boshqa hujjatlar belgilangan muddatda ish haqini hisoblab yozish uchun buxgalteriyaga topshiriladi.

Ishdan bo'shashda yoki ta'tilga ketishda qilingan hisob-kitoblar 425-son shakldagi ta'til berish (ishdan bo'shash) bo'yicha hisob yozushi bo'yicha amalga oshiriladi. Bu hisob-kitoblar bo'yicha hisoblangan summalar joriy oy uchun ochilgan hisob-kitob-to'lov qaydnomalariga kiritiladi. Ishdan bo'shashda yoki mehnat ta'tiliga ketishda qilinadigan bunday hisob-kitoblar, hisob-kitob davri oralig'iga to'g'ri kelib qolgan hollarda, to'lovlar 389-son shakldagi to'lov qaydnomasi yoki g'azna chiqim orderlari orqali amalga oshiriladi. Bu hisob-kitoblar orqali hisoblangan va to'langan summalar joriy oy hisob-kitob-to'lov qaydnomalariga kiritiladi.

Hisob-kitob-to'lov qaydnomalari ana shu qaydnomalarni tuzgan va tekshirgan xodimlar tomonidan imzolanadi. Ish haqi to'lash uchun ruxsatnomalarni budget tashkilot rahbari va bosh hisobchi tomonidan imzolanadi.

Oyning birinchi yarmi uchun xodimlarga avans beriladi. Avans belgilangan tartibda ushlab qolinishi kerak bo'lgan soliq summasini hisobga olmagan holda, qoidaga ko'ra, ish haqining 40 foizi miqdorida belgilanadi. Avans 389-son shakldagi ish haqi, avans berish uchun to'lov qaydnomasi bo'yicha beriladi.

Oy uchun ish haqi hisoblab yozish va oyning ikkinchi yarmi uchun to'lash, odatda, T-49-son shakldagi hisob-kitob to'lov qaydnomasi bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu hisob-kitob to'lov qaydnomasiga xodimlarning familiyasi, ismi va otasining ismi, hisoblan-

gan ish haqi va nafaqalar summasi, berilgan avans, ushlangan soliqlar va boshqa summalar yoziladi.

Ish haqi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari, stipendiya, pensiya va mukofotlarni to'lashning belgilangan muddatlari tugashi bilan g'aznachi:

- to'lov qaydnomasida ish haqi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari, stipendiya, pensiya yoki mukofotlar to'lanmagan shaxslar familiyasi to'g'risiga shtamp qo'yadi yoki qo'lda «Deponentlangan» deb belgi qo'yadi;

- deponentlangan summalar reestrini rasmiylashtiradi;

*20-jadval*

### DEONENTLANGAN SUMMALAR REESTRI

414-son shakl

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. y.

Tashkilot	_____
Bo'lim	_____
Karajat turi	_____
O'lchov birligi: so'm.	_____

Analitik hisob kodi	<input type="text"/>	Debet analitik hisobvaraq	<input type="text"/>	Kredit analitik hisobvaraq	<input type="text"/>
---------------------	----------------------	---------------------------	----------------------	----------------------------	----------------------

Tarkibiy bo'linma	To'lov qaydnomasi raqami	Familiyasi, ismi, otasining ismi	Tabel raqami	Hisob-kitob turi	Summa
1	2	3	4	5	6
Jami					

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_ (lavozimi) \_\_\_\_\_ (F. I. Sh)

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. y.

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F. I. Sh.) \_\_\_\_\_ G'aznachi \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F. I. Sh.)

Hisobchi \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. y.  
(F. I. Sh.)

KARTOCHKA-MA'LUMOTNOMA

21-jadval

417-son shakl

Tashkilot

Tarkibiy bo'linma

Bo'lim

Variations

Familiya, ismi, sharifi

卷之三

ANSWER

## Tabel raqami

Tug‘ilgan yili	Kategoriya tasnifi	Ma’lumoti	Ilmiy unvoni	Ish stajii	Asosiy okladi (stavka)	Miqdor qaranganda	Qaysi guruh nogironi	Pensiya chiqish vaqtি
----------------	--------------------	-----------	--------------	------------	------------------------	-------------------	----------------------	-----------------------

Ishga olish va o'tish qavdлari

Dokumentationen von sozialen Aktionen

2-bet											
Ko'rsatkich nomi	Qator kodi	Yanvar		Fevral		Mart		Aprel		May	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Ishlangan kunlar	01										
Jami hisoblandi	02										
jumladan:	03										
...	04										
Jami to'lov ushlammalari	13										
jumladan:	14										
...	15										
Beriladigan	24										
summa											

3-bet											
Ko'rsatkich nomi	Qator kodi	Iyul		Avgust		Sentabr		Oktabr		Noyabr	
1	2	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
Ishlangan kunlar	01										
Jami hisoblandi	02										
jumladan:	03										
...	04										
...	05										
Jami to'lov ushlammalari	10										
jumladan:	11										
...	12										
Beriladigan	15										
summa											

Tuzuvchi	(lavozimi)	(imzo)	(F.I.SH.)	« ____ »	____	____	____	____	____	____	y.
----------	------------	--------	-----------	----------	------	------	------	------	------	------	----

## SHAXSIY HISOBVARAQQLARNI YOPISHTIRIB QO'YISH JOYI

4-bet

Qaydnoma oxirida haqiqatda to‘langan summa va ish haqi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari, stipendiya, pensiya yoki mukofotlarni to‘lashning olinmagan, deponentlanishi kerak bo‘lgan summasi to‘g‘risida yozib qo‘yishi, ushbu summalarini to‘lov qaydnomasi bo‘yicha umumiylashtirishi va yozuvni o‘z imzosi bilan tasdiqlashi kerak. Agar pulni g‘aznachi emas, balki boshqa shaxs bergan bo‘lsa, qaydnomaga qo‘srimcha ravishda **«Pulni qaydnoma bo‘yicha berdi (imzo)»** deb yozib qo‘yiladi. Pulni g‘aznachi va tarqatuvchi bitta qaydnoma bo‘yicha berishi man etiladi;

G‘aznachi g‘azna daftariga haqiqatda to‘langan summani yozishi va qaydnomaga **«-son chiqim g‘azna orderi»** shtampini qo‘yishi shart.

Buxgalteriya g‘aznachilar tomonidan to‘lov qaydnomalariga qilingan belgilarni tekshiradi va ular bo‘yicha berilgan hamda deponentlangan summalarini hisoblaydi. Deponentlangan summalar bankka topshiriladi va topshirilgan summalariga bitta umumiylashtiriladi.

Budget tashkilotda ish haqi hisoblash va to‘lash bo‘yicha ma’lumot olish uchun har bir xodim bo‘yicha 417-son shakldagi kartochka-ma’lumotnomalar (21-jadval) yuritiladi.

Xodimlarga hisoblab yozilgan ish haqi, mukofotlar, turli moddiy yordamlar va boshqa to‘lovlar summalarini 173 «Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqning kreditiga va haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi 231, 241, 251, 261, 271 va boshqa tegishli analitik hisobvaraqlar debetiga yoziladi. To‘langan ish haqi va boshqa to‘lovlar summalarini va tegishli tartibda ushlab qolangan summalarini 173 «Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqning debetiga hamda 120, 172, 160, 176 va boshqa tegishli analitik hisobvaraqlarning kreditiga yoziladi.

Hisobot oyining oxirgi kuni holatiga ish haqi hisobi bo‘yicha 5-son memorial order rasmiylashtiriladi. Mazkur memorial orderga ish haqini hisoblab yozish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan

barcha hujjatlar (ish vaqtidan foydalanish tabellari, ishga qabul qilinganlik, ishdan bo'shatilganlik haqidagi buyruqlardan ko'chirmalar va boshqa hujjatlar) ilova qilingan bo'lishi kerak.

Analitik hisob budjet tashkilotning har bir xodimi bo'yicha alohida holda yuritiladi.

#### **9.2.5. Stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar**

174 «Stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar» analitik hisob-varag'ida oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarining studentlari, staor-tadqiqotchi-izlanuvchilar hamda kurs tinglovchilari va boshqalar bilan stipendiyalar bo'yicha olib boriladigan hisob-kitoblar hisobga olinadi.

Stipendiyalarni hisoblab yozish va to'lash hisob-kitob to'lov qaydnomalarida oyiga bir marta budjet tashkiloti direktorining buyruqlar asosida rasmiylashtiriladi. Hisoblab yozilgan stipendiya-larning summalarini 174 «Stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraq kreditiga yoziladi, ushbu analitik hisobvaraq-ning debetiga esa ushlab qolangan summalar, berilgan va muddatida olinmagan stipendiyalarning summalarini yoziladi.

Analitik hisob o'quv muassasasining har bir stipendiya oluvchisi bo'yicha alohida holda yuritiladi.

#### **9.2.6. Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar**

Budjet tashkiloti buxgalteriyasida 175 «Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ida ta'lim muassasalarida talabalar bilan to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha va o'quv jarayonida yuzaga keladigan boshqa hisob-kitoblar olib boriladi.

To'lov-kontrakt mablag'larini hisoblanishi 175 «Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnинг debetida va 252 «Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha daromadlar» analitik hisobvarag'ining kreditida aks ettiriladi. To'lov-kontrakt mablag'larining kelib tushishi esa, 175 «Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnинг

kreditida va 111 «Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar» analitik hisobvarag‘ida aks ettiriladi.

Analitik hisob har bir talaba bo‘yicha alohida holda tashkil qilinadi.

#### **9.2.7. Xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadigan haq bo‘yicha hisob-kitoblar**

Budjet tashkiloti hisobvaraqlar rejasining 176 «Xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadigan haq bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘ida ish haqidan ushlangan kasaba uyushma a’zolik badallari (kasaba uyushma budjet tashkilotlari bilan naqd pulsiz hisob-kitob tizimi joriy etilgan hollarda), shuningdek, ish haqi, stipendiyalar va boshqa to‘lovlardan ijro varaqalari va boshqa hujjatlar bo‘yicha ushlab qolingga summalar hisobga olinadi.

Kasaba uyushma a’zolik badallarini ushslash kasaba uyushma a’zolarining ulardan naqd pulsiz kasaba uyushmaga a’zolik badallarini qabul qilish haqidagi yozma arizalari mavjud bo‘lgan hollardagina amalga oshiriladi. Ish haqidan kasaba uyushmaga a’zolik badallarini to‘lash uchun ushlangan summalar 176 «Xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadigan haq bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning kreditiga va 173 «Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning debetiga yoziladi. Budjet (Budgetdan tashqari) hisobvarag‘idan o‘tkazilgan summalar 176 «Xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadigan haq bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvarag‘i debetiga va pul mablag‘larini hisobga oluvchi tegishli analitik hisobvaraqlar kreditiga yoziladi.

Ish haqi, stipendiyalar va boshqa to‘lovlardan ijro varaqalari va boshqa hujjatlar bo‘yicha ushlab qolingga summalar 176 «Xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadigan haq bo‘yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqnning kreditiga hamda 173 «Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar», 174 «Stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar» va boshqa tegishli analitik hisobvaraqlarning debetiga yoziladi. 176 «Xodimlarning ish haqi-

dan ushlab qolinadigan haq bo'yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlarning debetiga budjet (Budjetdan tashqari) hisobvaraqlardan o'tkazilgan summalar yoziladi, bunda pul mablag'larini hisobga oluvchi tegishli analitik hisobvaraqlar kreditlanadi.

Xodimlar bilan turli ushlanmalarning analitik hisobi har bir xodim bo'yicha alohida holda 292-son shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftarida (kartochkasida) olib boriladi.

#### **9.2.8. Deponentlangan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar**

Budjet tashkiloti hisobvaraqlar rejasining 177 «Deponentlangan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ida belgilangan muddat ichida olinmagan ish haqi, stipendiyalar va boshqa to'lovlargaga doir summalar hisobi yuritiladi.

Belgilangan muddat ichida olinmagan ish haqi, stipendiyalar va boshqa to'lovlargaga doir summalar 177 «Deponentlangan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlarning kreditiga va 171 «Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo'yicha hisob-kitoblar», 173 «Xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar», 174 «Stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar» va boshqa tegishli analitik hisobvaraqlarning debetiga yoziladi. Bunda, hisobvaraqqacha topshirilgan mablag'lar summasiga pul mablag'larini hisobga oluvchi tegishli analitik hisobvaraqlar debetlanadi hamda 120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag'lari» analitik hisobvaraqlar kreditlanadi.

To'langan deponent qarzlar summasiga «Deponentlangan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlar debetlanadi va 120 «Milliy valutadagi naqd pul mablag'lari» yoki 172 «Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlar kreditlanadi.

Shuningdek, da'vo muddati o'tib ketgan va tegishli budjet daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan budjet mablag'lari bo'yicha yuzaga kelgan deponent qarzlar summasi 177 «Deponentlangan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlarning debetiga yoziladi, bunda 160 «Budjetga to'lovlar bo'yicha budjet bilan hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlar kreditlanadi.

Da'vo qilish muddati tugagan budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha yuzaga kelgan deponent qarzlar tegishli budgetdan tashqari mablag'larning daromadlarida aks ettiriladi. Bunda, 177 «Deponentlangan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar» analitik hisobvaraqlarning debetlanadi va budgetdan tashqari daromadlarni hisobga oluvchi 242, 252, 262 va 272 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi kreditlanadi.

Ish haqi va stipendiyalar bo'yicha deponentga o'tkazilgan summalarning hisobi 441-son shakldagi deponent qilingan ish haqi va stipendiyalarning analitik hisobi bo'yicha daftarda (22-jadval) yuritiladi.

*22-jadval*

**Deponent qilingan ish haqi va stipendiyalarning analitik hisobi bo'yicha  
DA F T A R**

*441-son shakl*

y uchun.

Budjet tashkilot nomi \_\_\_\_\_  
O'lchov birligi: so'm.

Ochilgan sanasi

Yopilgan sanasi


Tabel raqammi	Familiyasi, ismi, otasining ismi	Kredit (deponent hisobiga o'tkazildi)			Debet – to'landi												
		Oy	To'lov qayd-noma	Summa	G'azna chiqim orderi	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentabr	oktabr	noabr	dekabr
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18

Budjet tashkiloti hisobvaraqlar rejasingin 179 «Xodimlar bilan boshqa hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'ida xodimlar bilan qonunchilikka muvofiq boshqa turli masalalar bo'yicha yuzaga

kelgan hisob-kitoblar, shuningdek, xodimlarning ish haqidan ularning savdo budget tashkilotlaridan kreditga olgan mollari uchun bergen topshiriq-majburiyatlari bo'yicha ushlab qolingga summalar, omonat g'aznalarga naqd pulsiz shaxsiy jamg'armaga o'tkazish haqidagi yozma arizalari asosida ushlangan summalar, ijtimoiy sug'urta budget tashkilotlari bilan tuzgan ixtiyoriy sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovlarini to'lash haqidagi topshiriqnomalariga asosan ularning maoshlaridan ushlangan summalar, xodimlarning banklardan olgan ssudalariga doir muomalalar va boshqalar hisobga olinadi.

Budget tashkilotlaridagi xodimlar bilan boshqa hisob-kitoblar bo'yicha analitik hisobi 292-son shakldagi joriy hisoblar va hisob-kitoblar daftarida (kartochkasida) har bir xodim bo'yicha alohida holda olib boriladi.

#### **9.2.9. Boshqa hisob-kitoblar**

18 «Boshqa hisob-kitoblar» hisobvarag'i 180 «Yuqori va quyi budget tashkilotlar o'rtasidagi boshqa hisob-kitoblar» analitik hisobvarag'idan iborat bo'lib, ushbu analitik hisobvaraqa yuqori mablag' taqsimlovchilar bilan ularga qarashli bo'lgan muassasalar orasida xarajatlar smetasining ijrosi jarayonida vujudga keladigan turli hisob-kitoblar, jumladan, markazlashgan tartibda berilgan moddiy aktivlarga doir muomalalar hisobga olinadi.

Ushbu analitik hisobvaraqa quyi mablag' taqsimlovchilar tomonidan, shuningdek, yuqori mablag' taqsimlovchilar tomonidan ham qo'llaniladi. Quyi mablag' taqsimlovchilar bu analitik hisobvaraqa kreditiga yuqori mablag' taqsimlovchilardan markazlashgan tartibda olingan moddiy aktivlar summalarini, shuningdek, boshqa hisob-kitoblar bo'yicha summalarini aks ettiradilar. Analitik hisobvaraqa debetiga esa markazlashgan tartibda olingan moddiy aktivlarni hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi.

Yuqori budget tashkilotlar ushbu analitik hisobvaraqa debetida quyi budget tashkilotlarga markazlashgan tartibda tovar-moddiy qimmatliklarni berilishi va boshqa yuqori va quyi budget tashki-

lotlar o‘rtasidagi hisob-kitoblarni aks ettiradilar. Analitik hisob-varaq debetida esa quyi budget tashkilotlarga markazlashgan tartibda berilgan tovar-moddiy qimmatliklarni hisobdan chiqarilishini aks ettiradilar.

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Maxsus mablag‘larga doir muomalalarning hisobi uchun budget tashkilotlarida qaysi hisobvaraqlar qo‘llaniladi?
2. Mazkur budget tashkiloti tomonidan maxsus mablag‘lar bo‘yicha bajarib topshirilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun buyurt-machilardan bank muassasasidagi maxsus mablag‘lar bo‘yicha talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘lar summasiga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
3. Maxsus mablag‘lar bo‘yicha sarf qilingan materiallar, pul mablag‘lari va boshqa xarajatlar summalariga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?
4. Boshqa tashkilotlar tomonidan, maxsus mablag‘lar bo‘yicha xarajatlarga doir bajarib topshirilgan ishlari va ko‘rsatgan xizmatlari summasiga qanday buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi?

## **10-bob. BUDJET TASHKILOTLARIDA INVENTARLASHNI O'TKAZISH TARTIBI VA ULARNI HISOBGA OLİSH**

---

### **10.1-\$. INVENTARLASHNING O'TKAZISH OBYEKTLARI VA ULARDA INVENTARLASHNI O'TKAZISH TARTIBI**

#### **10.1.1. Inventarlash to‘g‘risida tushuncha**

Inventarlash – *iqtisodiy atama bo‘lib, budget tashkilotiga kirim qilingan, mol-mulkni ma’sul biriktirilgan shaxslarda bor yo‘qligini, haqiqiy holatini bирgalikda aniqlash tushiniladi.* Inventarlash atasining bazisli nomi bu inventarizatsiya deb nomlanib kelingan.

Inventarlash atamasini – xatlovdan o’tkazish, ro‘yxatga olish, kamomadlarni aniqlab topish, sanab chiqish va monitoringini o’tkazish tushunchalari bilan hamohanglikda mazmunini shakllantirish mumkin.

Boshqa tashkilotlarda bo‘lgani kabi budget tashkilotlarida ham 1996-yil 30-avgustdagи «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasiga muvofiq, 1999-yil 19-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi №eg/17-19-2075-sonli buyrug‘i hamda 1999-yil 2-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan № 833-sonli xatlari bilan inventarlashni tashkil etish va o’tkazish to‘g‘risidagi 19-son buxgalteriya hisobi milliy andazasi asosida inventarlashni o’tkazish qonuniy tartibga solib qo‘yilgan. Shuningdek, mazkur me’yoriy hujjatlar asosiy faoliyati budget mablag‘lari hisobiga moliyalanadigan tashkilot tomonidan mol-mulk hamda moliyaviy majburiyatlarni inventarlashdan o‘ztkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish tartibini belgilaydi.

Inventarlashning asosiy maqsadlari mol-mulkning haqiqatda mavjudligini aniqlash, haqiqatda mavjud mol-mulkni buxgalteriya

hisobi ma'lumotlari bilan qiyoslash, majburiyatlar hisobda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirishdan iborat.

Budjet tashkilotidagi barcha moddiy qiymatliklari joylashgan yeri va barcha turdag'i moliyaviy majburiyatlaridan qat'iy nazar barcha mol-mulk inventarlashlanishi kerak. Chunki ertangi kunda yoki inventarlash vaqtida hujjat bilan haqiqatda bor yoki yo'q bo'lgan mol-mulk solishtiriladi. Moddiy qiymatliklarni inventarlashdan o'tkazish uning joylashgan yeri va moddiy javobgar shaxs bo'lgandagina o'tkaziladi.

Budjet tashkilotlarida tasdiqlangan rejadan tashqari boshqa vaqtarda ham inventarlash o'tkazilishi shart:

- mol-mulk ijara berilganda, sotib olinganda, sotilganda, shuningdek, davlat korxonasi o'zgartirilgan chog'da qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda;

- yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan, inventarlash hisobot yilining 1-oktabridan kechiktirmay o'tkaziladigan mol-mulkdan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 28.08.98-yilda 486-son bilan ro'yxatga olingen «Tovar-moddiy zaxiralar» deb nomlangan 4-son BHMSga binoan tovar-moddiy zaxiralar bir yilda kamida bir marta inventarlanadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 23.09.98-yilda 491-son bilan ro'yxatga olingen «Asosiy vositalar» deb nomlangan 5-son BHMSga muvofiq asosiy vositalar ikki yilda kamida bir marta, kutubxona fondlari esa besh yilda bir marta inventarlanadi.

Budjet tashkilotlarining g'azna mablag'lari, g'azna hujjatlari, boyliklar va qat'iy hisobdagi blanklar oyda bir marta, yonilg'i-moylash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari – har chorakda, qimmatbaho metallar – tarmoq ish yuritish buxgalteriya hisob siyosatiga kiritilgan tartiblarga muvofiq inventarlanadi.

### **10.1.2. Inventarlashning o'tkazish obyektlari**

Ayrim joylar va mavsumiy tusda ishlaydigan korxonalarda ishlab chiqarish zaxiralari ular eng kam miqdorda qolganda quyidagi hollarda inventarlanadi:

- asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar qayta baholanganda;
- moddiy javobgar shaxslar almashganda (ishlarni qabul qilish – topshirish kunida);
- o‘g‘irlilik, suiiste’mol yoki boyliklarni ishdan chiqarish faktlari aniqlanganda;
- tabiiy ofatlar, yong‘inlar, falokatlar yoki g‘ayritabiyy sharoitlar yuzaga keltirgan boshqa favqulodda vaziyatlar yuz berganda;
- budget tashkiloti tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish balansini tuzish oldidan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Shuningdek, budget tashkilotining umumiyligi moddiy javobgarlik sharoitida inventarlash jamoa rahbari o‘zgarganda, jamoadan uning ellik foizdan ortiq a’zolari chiqib ketganda, shuningdek jamoaning bitta yoki bir nechta a’zosi talabi bilan quyidagi inventarlash obyektlarida o‘tkaziladi:

- Bosh hisobchi xonasida.
- G‘azna xonasida.
- Hisob-kitob buxgalteri ishida.
- Omborxonada.
- Xo‘jalik bo‘yicha ma’sul shaxslarning ishida.
- Xodimlar bo‘limida.
- Budget tashkilotida mavjud bo‘lgan barcha boshqarma va bo‘limlarda.

#### **10.1.3.Budget tashkilotidagi moddiy qiymatliklarni inventarlash tarkibi**

Budget tashkilotlarida inventarlashni o‘tkazish uchun budget tashkilotlari tarkibidan inventarlash komissiyasi ishtirokchilari tanlab olinadi:

- 1) budget tashkiloti rahbari yoki uning o‘rinbosari (komissiya raisi);
- 2) bosh hisobchi;
- 3) boshqa mutaxassislar (muhandislar, iqtisodchilar, texniklar va hokazolar) xodimlar bo‘lgan doimiy ishlaydigan inventarlash komissiyalari rasmiylashtiriladi.

Inventarlash komissiyasi tarkibiga budjet tashkilotining ichki audit vakillari kiritilishi mumkin. Ishlar hajmi katta bo‘lganda mol-mulk va moliyaviy majburiyatlarni inventarlashni bir vaqtda o‘tkazish uchun qo‘srimcha ravishda boshqa a’zolarni kiritib tarkib aniqlanadi.

Izoh o‘rnida:

- 1) komissiya raisi – budjet tashkiloti rahbari (Akbar Yaxyoev)
- 2) a’zolar:
  - tovarshunos (Keldiyor Murodov),
  - muhandis (Najimiddin Eshonxo‘jaev),
  - texnolog (Barno Radjapova),
  - mexanik (Shermuhammad Azamatov),
  - ish yurituvchi (Dilfuza Majidova),
  - iqtisodchi (Dilrabo Saidmurodova),
  - buxgalteriya xodimi va boshqalar (ishchi inventarlash komissiyasi kabilar)dan rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, komissiya tarkibiga inventarlanayotgan boyliklar, narxlar va birlamchi hisobni yaxshi biladigan tajribali xodimlar kiritilishi kerak. Faqat moddiy javobgar shaxslarda xuddi shu xodimni ketma-ket ikki marta ishchi inventarlash komissiyasining raisi qilib tayinlash taqiqlanadi. Doimiy ishlaydigan va ishchi inventarlash komissiyalarining shaxsiy tarkibini budjet tashkiloti rahbari tasdiqlaydi. Inventarlashni o‘tkazish chog‘ida komissiyaning aqalli bitta a’zosi yo‘q bo‘lsa, bu hol inventarlash natijalarini haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘ladi.

Bundan tashqari, budjet tashkilotida doimiy ishlaydigan inventarlash komissiyalari quyidagilarga amal qildilar:

- boyliklar saqlanishini ta’minlashga doir profilaktika ishlarini o‘tkazadi, zarurat bo‘lganda o‘z majlislarida boyliklarning saqlanishi masalalari bo‘yicha sex, bo‘lim, shu’balar rahbarlarining axborotlarini tinglaydi;
- inventarlash o‘tkazilishini tashkil etadi va ishchi inventarlash komissiyalari a’zolariga yo‘l-yo‘riq beradi;
- inventarlash to‘g‘ri o‘tkazilganini nazorat tariqasida tekshiruvlarni amalga oshiradi, shuningdek, inventarlashlar orasidagi davrda

saqlash va qayta ishslash joylarida tovar-moddiy boyliklarni tanlab inventarlashdan o'tkazadi;

– inventarlash natijalari to‘g‘ri chiqarilganini, bazalar, omborlar, omborxonalar, sexlar, qurilish uchastkalari va boshqa saqlash joylarida boyliklarni qayta navlarga ajratish bo‘yicha takliflar asosli ekanligini tekshiradi;

– zarur hollarda budjet tashkiloti rahbarining topshirig‘iga binoan takroriy yalpi inventarlashlarni o’tkazadi;

– boyliklar kamomadi yoki ularni shikastlashga, shuningdek, boshqa buzilishlarga yo‘l qo‘ygan shaxslardan olingan tushuntirishlarni ko‘rib chiqadi va aniqlangan kamomadlar hamda boyliklarni shikastlashdan ko‘rilgan talafotlarni bir izga solish tartibi to‘g‘risida taklif beradilar.

Ishchi inventarlash komissiyalari esa quyidagilarni amalga oshiradi:

– saqlash va ishlab chiqarish joylarida boyliklar va pul mablag‘-larini inventarlashni amalga oshiradi;

– budjet tashkiloti buxgalteriyasi bilan birgalikda inventarlash natijalarini aniqlashda ishtirok etadi va kamomadlar hamda qayta navlarga ajratish chog‘idagi ortiqcha chiqishlarni hisobga olish hamda tabiiy yo‘qolish me’yorlari doirasida kamomadlarni hisobdan o‘chirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

– tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish, saqlash va berishni tartibga solish, hisobga olishni yaxshilash va ular saqlanishini nazorat qilishni tartibga solish masalalari, shuningdek, me’yordan ortiqcha va ishlatilmaydigan moddiy boyliklarni sotish bo‘yicha takliflar kiritadi;

– quyidagi hollarda:

a) budjet tashkiloti rahbarining buyrug‘iga muvofiq inventarlashni o‘z vaqtida o’tkazish va uni o’tkazish tartibiga rioya qilish uchun;

b) hisob-kitoblarda tekshirilayotgan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘lari va vositalarning haqiqatdagi qol-diqqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ro‘yxatga to‘liq va aniq qayd etilishi uchun;

d) tovar-moddiy boyliklarning ular narxi belgilanadigan farqlovchi belgilari ro'yxatda to'g'ri ko'rsatilishi uchun;

e) belgilangan tartibga muvofiq inventarlash materiallari to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirilishi uchun javob beradi.

Inventarlash komissiyalari a'zolari tovarlar, materiallar va boshqa boyliklar kamomadi va ishlatib yuborgani yoki ortiqcha chiqqanini yashirish maqsadida ro'yxatga boyliklarning haqiqatdagi qoldiqlari to'g'risida ataylab noto'g'ri ma'lumotlarni kiritganlik uchun belgilangan tartibga muvofiq javobgarlikka tortiladilar. Mol-mulkning haqiqatdagi mavjudligini tekshirishni boshlashdan oldin inventarlash komissiyasi inventarlash paytidagi eng so'nggi kirim-chiqim hujjatlarini yoki moddiy vositalar va pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlarni olishi kerak.

Inventarlash komissiyasining raisi hisobotlarga ilova qilingan barcha kirim-chiqim hujjatlariga «inventarlashgacha ...da (sana)» deb ko'rsatgan holda viza qo'yadi, bu esa buxgalteriyaga hisob ma'lumotlari bo'yicha inventarlashni boshlash paytida mol-mulk qoldiqlarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Moddiy javobgar shaxslar inventarlash boshlanishiga qadar mol-mulkka doir barcha kirim-chiqim hujjatlari buxgalteriya yoki komissiyaga topshirilgani va ular javobgarligiga kelib tushgan barcha boyliklar kirim qilingani, chiqib ketganlari esa chiqimga hisobdan o'chirilgani to'g'risida tilxat beradilar. Mol-mulkni sotib olishga hisobot beriladigan summalar yoki uni olish uchun ishonchnomalari bo'lgan shaxslar ham shunday tilxat beradilar.

#### **10.1.4. Inventarlashga qo'yilgan talablar**

Budjet tashkilotida inventarlashni o'tkazishga quyidagi talablarini sanab o'tamiz:

Inventarlashni o'tkazishni boshlash va tugatish muddatlari.

Inventarlash komissiyalari ishida tanaffus bo'lganda ro'yxatlar seyfda saqlanishi.

Inventarlash ijrosi nazorat qilish daftarida ro'yxatga olinishi.

Inventarlash moddiy javobgar shaxs ishtirokida o'tkazilishi va h.k.

Inventarlashni o'tkazish oldidan ishchi inventarlash komissiyalari a'zolariga buyruq, komissiya raislariga esa plombir topshiriladi (inventarlash komissiyasi ishlaydigan butun ish vaqtida plombir komissiya raisida saqlanadi). Buyruqda inventarlashni o'tkazishga doir ishni boshlash va tugatish muddatlari belgilanadi.

Agar mol-mulkni inventarlash bir necha kun mobaynida o'tkazilsa, moddiy boyliklar saqlanayotgan xona inventarlash komissiyasi ketayotganida muhrlanishi kerak. Inventarlash komissiyalari ishida tanaffus bo'lganda (tushlik vaqt, tunda, boshqa sabablarga ko'ra) ro'yxatlar inventarlash o'tkazilayotgan yopiq xonadagi seyfda saqlanishi shart.

Buyruqlarni buxgalteriya inventarlashni o'tkazish to'g'risidagi buyruqlar bajarilishini nazorat qilish daftarida ro'yxatga oladi.

Asosiy vositalar, xomashyo, materiallar, tayyor mahsulot, tovarlar, pul mablag'lari va boshqa boyliklarni inventarlash ularning har bir joylashgan yeri va ana shu boyliklarni saqlayotgan javobgar shaxs bo'yicha o'tkaziladi.

Haqiqatdagi qoldiqlarni tekshirish moddiy javobgar shaxslarning albatta ishtirok etishi bilan amalga oshirilishi lozim.

Inventarlash paytida boyliklarning mavjudligi albatta sanash, tarozida tortish, o'lhash yo'li bilan aniqlanishi kerak.

Yetkazib beruvchining ochilmagan o'ramida saqlanayotgan materiallar va tovarlar bo'yicha ushbu boyliklar miqdori istisno tariqasida hujjatlar asosida, ushbu boyliklar bir qismini albatta naturada (tanlab olib) tekshirish bilan aniqlanishi mumkin. Qoplanmagan mahsulotlar og'irligi (yoki hajmi)ni o'lhash va texnik hisob-kitoblar asosida aniqlashga yo'l qo'yiladi; o'lhash dalolatnomalari va hisob-kitoblar ro'yxatga ilova qilinadi. Tarozida tortiladigan ko'p miqdordagi tovarlar inventarlanganda tarozida tortish qaydnomalarini ishchi inventarlash komissiyasining a'zolaridan biri va moddiy javobgar shaxs yuritadi. Ish kuni oxirida (yoki tarozida tortish tugagach) ana shu qaydnomalar ma'lumotlari solishtiriladi va chiqarilgan yakun inventarlash ro'yxatiga qayd etiladi. Tarozida tortish qaydnomalari ro'yxatga ilova qilinadi.

Inventarlanadigan boyliklar va obyektlarning nomlari va ularning miqdori ro'yxatlarda nomenklatura bo'yicha va hisobda qabul qilingan o'lchov birliklarida ko'rsatiladi.

Ro'yxatlarga ishchi inventarlash komissiyasining barcha a'zolari va moddiy javobgar shaxslar imzo chekadilar. Ro'yxat oxirida moddiy javobgar shaxslar komissiya boyliklarni ularning hozirligida tekshirganini, komissiya a'zolariga nisbatan hech qanday da'volar yo'qligi va ro'yxatda sanalgan boyliklar mas'uliyatli saqlashga qabul qilinganini tasdiqlaydigan tilxatga imzo chekadilar.

Boylıklarning haqiqatda mavjudligini tekshirish paytida moddiy javobgar shaxslar o'zgargan taqdirda boyliklarni qabul qilgan shaxs inventarlash ro'yxatlariga ularni olganligi, topshirgan shaxslar esa ularni topshirganligi xususida imzo chekadilar. Xo'jalikka tegishli bo'limgan, biroq unda joylashgan boyliklarga alohida ro'yxatlar rasmiylashtiriladi. Inventarlash paytida inventarlash bo'yicha birlamchi hisob hujjatlarining tasdiqlangan namunaviy shakllari qo'llanilishi kerak.

Inventarlash ro'yxatlari mexanik vositalarda yoki qo'lida to'ldirilishi mumkin.

Qo'lida rasmiylashtiriladigan inventarlash ro'yxatlari aniq-ravshan qilib to'ldiriladi. Hech qanday o'chirish va tuzatib yozishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Inventarlash ro'yxatining har bir sahifasida so'z bilan tovar-moddiy boyliklar tartib raqamlari soni va ushbu sahifada yozilgan barcha boyliklar miqdorining umumiy yakuni, bu boyliklar qanday o'lchov birliklarida ko'rsatilganidan qat'iy nazar, ko'rsatiladi.

Ro'yxatlarning barcha nusxalarida xatolarni tuzatish noto'g'ri yozuvlar ustiga chizish va chizilganlari ustiga to'g'ri yozuvlarni qo'yish yo'li bilan amalga oshirilishi kerak. Tuzatishlar ta'kidlanishi va inventarlash komissiyasining barcha a'zolari va moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzolanishi kerak.

Inventarlash ro'yxatlarda to'ldirilmagan satrlarni qoldirishga yo'l qo'yilmaydi. Ro'yxatlarning oxirgi varaqlarida to'ldirilmagan satrlar ustiga chizib qo'yiladi.

Moddiy javobgar shaxslar inventarlashdan so'ng inventarlash ro'yxatlarida xatolarni aniqlagan taqdirda ular darhol (ombor, omborxona, shu'ba va hokazolar ochilguniga qadar) buni ishchi inventarlash komissiyasiga ma'lum qilishlari shart. Moddiy javobgar shaxslarning kamomad yoki ortiqcha chiqish, tovar-moddiy boyliklar nomidagi xato, o'tkazib yuborish, yanglishish va hokazolar tufayli yuz bergani xususidagi tushuntirishlari ombor, omborxona, shu'ba ochilguniga qadar qabul qilinadi.

Ishchi inventarlash komissiyasi ko'rsatilgan faktlarni tekshirishni amalga oshiradi va ular tasdiqlangan taqdirda aniqlangan xatolarni belgilangan tartibda tuzatadi.

Budjet tashkilotlari rahbarlari tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'larining to'g'ri hamda o'z vaqtida o'tkazilishi va ularning kutilmaganda o'tkazilishini ta'minlash uchun javobgardir. Ular boyliklarning haqiqatda mavjudligini qisqa muddatlarda to'liq va aniq tekshirishni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratib berishlari shart.

Bosh hisobchi tegishli bo'linmalar va xizmatlar rahbarlari bilan birgalikda inventarlash o'tkazishning belgilangan qoidalariga rioya etilishini sinchiklab nazorat qilishga majbur.

Tovar-moddiy boyliklarni inventarlash bilan bir vaqtida budjet tashkilotining buxgalteriyasi tegishli barcha hisobvaraqlar bo'yicha yozuvlarni ikki yoqlama yozuvlanuvchi hisobvaraqlar bilan qiyoslagan holda tekshirishi kerak. Masalan, asosiy vositalar bo'yicha foydalanishga qabul qilingan barcha obyektlar hisobga olingan-olinmagani; tovar-moddiy boyliklar bo'yicha – barcha kelib tushgan boyliklar kirim qilingan-qilinmagani, chiqib ketganlari esa hisobdan o'chirilgani va unda aks ettirilgani; tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha – barcha xarajatlar chiqarilgan mahsulotga hisobdan o'chirilgan-o'chirilmagani va hokazolar aniqlanishi zarur.

Inventarlashni rasmiylashtirish uchun mol-mulk va moliyaviy majburiyatlarni inventarlash bo'yicha birlamchi hisob hujjatlari shakllari qo'llanishi lozim. Inventarlash tugaganidan so'ng inventarlash to'g'ri o'tkazilganini nazorat tariqasida tekshirishlar o'tkazilishi mumkin. Ularni inventarlash komissiyalari a'zolari va

moddiy javobgar shaxslar ishtirokida albatta inventarlash o'tkazilgan ombor, omborxona, shu'ba va hokazolar ochilishiga qadar o'tkazish kerak.

Inventarlashlar to'g'ri o'tkazilganini nazorat tariqasida tekshirish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va inventarlash to'g'ri o'tkazilganligini nazorat tariqasida tekshirishlarni hisobga olish daftarida ro'yxatga olinadi.

## **10.2-§. INVENTARLASH NATIJALARINI HISOBGA OЛИSH**

### **10.2.1.Budget tashkilotlarida inventarlashni tartibga solish**

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2004-yil 10-martdag'i 37, 2004-26, 20/1-sonli qo'shma qarori bilan tasdiqlangan «Inventarlash jarayonida aniqlangan mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to'g'risidagi nizom» bilan inventarlash jarayonida aniqlangan mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi belgilangan.

Budget tashkilotining moddiy qiymatliklariga yetkazilgan zararlar xodimning moddiy javobgarligi doirasida O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

Inventarlash va boshqa tekshirishlarda aniqlangan qiymatliklarning haqiqatda borini buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga nisbatan farqlari quyidagicha tartibga solinadi.

Ortiqcha chiqqan asosiy vositalar, moddiy qiymatliklar, pul mabag'lari va boshqa mol-mulk kirim qilinadi va budget tashkiloti moliyalashtirishni ko'paytirishga hisoblanadi, keyin ortiqcha chiqish sabablari va aybdor shaxslar aniqlanadi.

Budget tashkilotlari bosh hisobchilari har bir muomala mazmudidan kelib chiqib, ularga buxgalteriya ikki yoqlamali yozuv(ikki tomonlama yozish)larini berishi va umumlashtirib borishi lozim.

Aytaylik, inventarlash jarayonida hisobga olinmay qolgan asosiy vositalar aniqlandi. Mazkur xo'jalik jarayoniga quyidagicha buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi berilsa to'g'ri bo'ladi. Ya'ni:

01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

273-Inventarlash natijasida ortiqcha chiqqan mol-mulklar

Moddiy javobgar shaxs kamomad chiqishida aybdor deb tan olingan holda (agarda asosiy vosita budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan sotib olingan bo'lsa):

a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi

02-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi

170- kamomadlarga doir hisob-kitoblar

01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

d) agarda, mazkur asosiy vositaning qoldiq qiymati moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilgan summadan kam bo'lsa

170 kamomadlarga doir hisob-kitoblar

272 Boshqa budgetdan tashqari daromadlar

e) agarda, mazkur asosiy vositaning qoldiq qiymati moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilgan summadan ko'p bo'lsa

231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

170 kamomadlarga doir hisob-kitoblar

f) aybdor shaxs tomonidan kamomad summasining to'lanishi pul mablag'larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar

170 kamomadlarga doir hisob-kitoblar

Belgilangan me'yrorlar doirasida qiymatliklarning kamayishi budget tashkiloti rahbarining farmoyishi bo'yicha budget tashkiloti moliyalashtirishni kamayishiga hisobdan chiqariladi. Kamayish me'yorlari haqiqatda kamomad aniqlangan holatlardagina qo'llanishi mumkin.

Belgilangan me'yor doirasida qiymatliklarning kamayishi navlarning aralashuvi bo'yicha kamomadlar ortiqchalik bilan qoplan-gandan keyingina aniqlanadi. Agar belgilangan tartibda navlar almashuvi bo'yicha qoplash o'tkazilgandan so'ng ham qiymatliklarning kamomadi qolsa, u holda tabiiy kamayish me'yorlari qiymatliklarning faqat kamomad aniqlangan nomi bo'yicha qo'llaniladi.

Tasdiqlangan me'yorlar bo'lмаган тақдирда, камайishi ме'yordan ortiq kamomad deb qaraladi, qiymatliklarning tabiiy kamayish

me'yordan ortiq kamomad hamda qiymatliklarning buzilishidan ko'rilgan nobudgarchiliklar aybdor shaxslar hisobiga o'tkaziladi.

Kamomadlar va nobudgarchiliklar suiste'mol qilinishi natijasida sodir bo'lgani aniqlanganda, tegishli materiallar kamomadlar va nobudgarchiliklar aniqlangandan so'ng 5 kun ichida tergov organlariga beriladi, aniqlangan kamomadlar va nobudgarchiliklar summasiga fuqarolik davosi qilinadi. Kamomadlar va nobudgarchiliklarning aybdorlari aniqlanmagan hollarda qiymatliklar tabiiy kamayishining me'yordan ortiqcha kamomadi va qiymatliklarning buzilishidan ko'rilgan nobudgarchiliklarni budget tashkiloti moliyalashtarilishining kamayishiga hisobdan chiqarish mumkin. Bunda, qiymatliklar tabiiy kamayishining me'yordan ortiqcha kamomadi va qiymatliklarning buzilishidan ko'rilgan nobudgarchiliklarni hisobdan chiqarishni rasmiylashtirish uchun taqdim etiladigan hujjatlarda shunday kamomadlar va nobudgarchiliklarning oldini olish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Navlar almashuvi natijasidagi ortiqchaliklar va kamomadlarni o'zaro hisobga o'tkazish faqat istisno tariqasida ayni shu tekshirilayotgan davrda, ayni shu tekshirilayotgan shaxsda, ayni shu nomdagi va shu miqdordagi moddiy qiymatliklarga nisbatan budget tashkiloti rahbarining ruxsati bo'yicha amalga oshiriladi. Moddiy javobgar shaxslar yo'l qo'yilgan navlar almashuvi haqida budget tashkilotining rahbariga batafsil tushuntirish xatini beradi.

Moddiy javobgar shaxslarning aybisiz paydo bo'lgan kamomadlar tomoniga navlar almashuvidagi qiymatlar farqiga Inventarlash bayonnomasida bu farq aybdor shaxslar hisobiga o'tkazilmaganligi sabablari haqida batafsil tushuntirish berilishi kerak. Inventarlash natijalari inventarlash tugallangan oyda hisob va hisobotda, yillik inventarlash bo'yicha natijalar esa yillik moliyaviy hisobotda qayd qilinishi kerak.

Inventarlashda aniqlangan qiymatliklarning haqiqatda bori va buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining tafovutlarini tartibga solish haqidagi takliflar budget tashkilotining rahbariga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

## **10.2.2. Inventarlash jarayonida aniqlangan kamomadlarni moddiy javobgardan undirilishi**

Undirib olish bir oylik o‘rtacha ish haqidan oshmaydigan yetkazilgan zarar summasini aybdor xodimdan undirish budget tashkiloti rahbarining buyrug‘iga muvofiq amalga oshiriladi. Budget tashkiloti rahbarining buyrug‘i yetkazilgan zarar aniqlangan kundan boshlab bir oydan kechikmasdan chiqarilishi mumkin. Bunda zarar hajmi Inventarlash o‘tkazish davrida mazkur joyda amal qilayotgan bozor baholari bo‘yicha hisoblanadi.

Budget tashkilotidagi xodimdan undirilishi lozim bo‘lgan yetkazilgan zarar miqdorini uning o‘rtacha oylik ish haqidan yuqori yoki zarar aniqlangan kundan boshlab bir oydan oshgan bo‘lsa, uning yechimi tuman xo‘jalik sudi orqali amalga oshiriladi.

Inventarlash jarayonida aniqlangan mol-mulkning qiymatini bozor qiymatida aniqlash uchun quyidagilardan foydalanish mumkin:

a) ishlab chiqaruvchi tashkilotlardan va ularning rasmiy dilerlaridan, tovar-xomashyo birjalaridan, ko‘chmas mulk birjalaridan yozma shaklda olingan xuddi shunday mahsulotga doir narxlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

b) tegishli davlat idoralarida mavjud bo‘lgan narxlar darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

d) Markaziy bankning kamomad aniqlangan sanadagi va tegishli mulkni sotib olish sanasidagi kurslarning nisbati shaklida aniqlangan hisob-kitob koeffitsiyentini qo‘llagan holda sotib olish sanasidagi mulklarning erkin konvertatsiyalanadigan valutadagi qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

e) inventarlash o‘tkazilayotgan davrda ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda e’lon qilingan narx darajalari to‘g‘risidagi axborotlar.

Ortiqcha chiqqan aktivlar, moddiy qiymatliklar, pul mablag‘lari va boshqa mulk kirim qilinadi va keyin ortiqcha chiqish sabablari va aybdor shaxslari aniqlanadi.

Kamomadlar va nobudgarchiliklar iste'mol qilinishi sodir bo'lganda, tegishli materiallar kamomadlar va nobudgarchiliklar aniqlangandan so'ng budget tashkiloti rahbari imzosi bilan agar joyda bu masala qonuniy tartibda hal etilmasa, nizoni bartaraf qilish maqsadida zudlik bilan davlat sud yoki nazorat idoralariga xat-hujjatlar rasmiylashtirilib yuboriladi.

Inventarlash natijasida ortiqcha chiqqan tovar-moddiy zaxiralarning kirim qilinishi

Debet: Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga oluvchi analitik hisob-varaqlar

Kredit: 273 Inventarlash natijasida ortiqcha chiqqan mol-mulklar

Inventarlash natijasida kamomad chiqqan tovar-moddiy zaxiralarning chiqim qilinishi

Debet: 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

Kredit: Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga oluvchi analitik hisob-varaqlar

Inventarlash natijasida kamomad chiqqan budget mablag'lari hisobidan sotib olingan yoki sotib olinish manbasi noaniq bo'lgan tovar-moddiy zaxiralar summasiga (agarda moddiy javobgar shaxsdan undirilsa):

aybdor shaxsdan undiriladigan summaning budget daromadlariga hisoblanishi

Debet: 170 kamomadlarga doir hisob-kitoblar

Kredit: 160 budgetga to'lovlar bo'yicha budget bilan hisob-kitoblar

e) aybdor shaxs tomonidan kamomad summasini to'lanishi

Debet: pul mablag'larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar

Kredit: 170 kamomadlarga doir hisob-kitoblar

f) mablag'larni budget daromadiga o'tkazib berilishi

Debet: 160 budgetga to'lovlar bo'yicha budget bilan hisob-kitoblar

Kredit: pul mablag'larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar

Moddiy javobgar shaxs kamomad chiqishida aybdor deb tan olingan holda (agarda tovar-moddiy zaxiralar budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan sotib olingan bo'lsa):

Kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarning qiymatini hisobdan chqarilishi

Debet: 170 kamomadlarga doir hisob-kitoblar

Kredit: Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga oluvchi analitik hisob-varaqlar

agarda, mazkur tovar-moddiy zaxiralarning qoldiq qiymati moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilgan summadan kam bo'lsa

Debet: 170 kamomadlarga doir hisob-kitoblar

Kredit: 272 Boshqa budjetdan tashqari daromadlar

v) agarda, mazkur tovar-moddiy zaxiralarning qoldiq qiymati moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilgan summadan ko'p bo'lsa

Debet: 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

Kredit: 170 kamomadlarga doir hisob-kitoblar

g) aybdor shaxs tomonidan kamomad summasining to'lanishi

Debet: pul mablag'larini hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar

Kredit: 170 kamomadlarga doir hisob-kitoblar

### **10.3-§. G'AZNA MABLAG'LARI VA QAT'IY HISOBDAGI BLANKLARNI INVENTARLASHDAN O'TKAZISH**

#### **10.3.1.G'azna mablag'larni inventarlashdan o'tkazish**

G'azna inventarlanganda pul mablag'lari va g'aznada bo'lgan boshqa boyliklarning haqiqatda mavjudligi tekshiriladi.

G'aznada pul mablag'larining haqiqatda mavjudligi hisob-kitob qilinganda pul belgilari, pochta markalari va davlat boji markalari hisobga qabul qilinadi.

Hech qanday hujjatlar yoki tilxatlar g'aznadagi naqd pul qoldigi kiritilmaydi. G'aznachining g'aznada mazkur xo'jalik yurituvchi subyektga tegishli bo'limgan pul mablag'lari va boshqa boyliklar borligi to'g'risidagi bayonotlari e'tiborga olinmaydi.

Naqd pul mablag'larini inventarlash dalolatnomasida boyliklar qoldig'i inventarlash kunida naturada va hisob ma'lumotlari bo'yicha ko'rsatiladi va inventarlash natijasi belgilanadi.

Qat’iy hisobdagi blanklarning haqiqatda mavjudligini tekshirish blank turlari bo‘yicha u yoki bu blanklarning boshlang‘ich va oxirgi raqamlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Mazkur tekshirish natijalari maxsus ro‘yxat bilan rasmiylashtiriladi.

Yo‘ldagi pul mablag‘larini inventarlash buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida qayd etilgan summalarini bank muassasalari, pochta bo‘limi va hokazolarning kvitansiyalari ma’lumotlari bilan solishtirish vositasida amalga oshiriladi.

Bankda hisob-kitob va joriy hisobvaraqlar, akkreditivlar, maxsus, alohida va boshqa hisobvaraqlarda bo‘lgan pul mablag‘larini inventarlash xo‘jalik yurituvchi subyekt buxgalteriyasining ma’lumotlari bo‘yicha tegishli hisobvaraqlarda qayd etilgan summalar qoldig‘ini bank ko‘chirmasidagi ma’lumotlar bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.

### **10.3.2. Qat’iy hisobdagi blanklarni inventarlashdan o‘tkazish**

Qat’iy hisobdagi blanklar ham tekshiruvdan o‘tkaziladi. Banklar bilan ssudalar bo‘yicha, budget, xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar, hisobdor shaxslar, ishchi va xizmatchilar, deponentlar hamda boshqa debtor va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarlash tegishli hujjatlar bo‘yicha qoldiqlarni aniqlash va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida qayd etilgan summalarning asosliliginini sinchiklab tekshirishga asoslanadi. Komissiya debtor va kreditorlar hisobvaraqlari bo‘yicha qarzlarning paydo bo‘lishi, ularning realligi va shunday bo‘lgan taqdirda, davo etish muddatlarini o‘tkazib yuborishda aybdor shaxslarni aniqlaydi.

«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar» hisobvarag‘ining yo‘ldagi tovarlar va faktura qilinmagan mollar bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar summalariga doir qismi alohida sinchiklab tekshirilishi kerak. U hujjatlar bo‘yicha, shuningdek, ikki yoqlama yozuvlanuvchi hisobvaraqlar bilan kelishgan holda tekshiriladi. Bunda faktura qilinmagan mollar tarkibida to‘lanishi «Turli debtor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar» hisobvarag‘ida aks ettirilgan summalar yoki haqiqatda

to'langan va olingan, lekin yo'lida deb hisoblanuvchi materiallar va tovarlar summalarini aks ettirilgani yoki ettirilmagani aniqlashtiriladi.

Mol yetkazib beruvchilarining hisobvaraqlarida faktura qilinmagan mollar bo'yicha qolgan summalarga, ana shu hisobvaraq buxgalteriya tomonidan tekshirilgach, mol yetkazib beruvchilardan hisobvaraq-fakturalar talab qilinishi kerak. Mol yetkazib beruvchilar xaridorlarga hisobvaraq-fakturalar taqdim etishlari yoki ularni taqdim etmaslik sabablarini ma'lum qilishlari shart. Agar mol yetkazib beruvchida qarz bo'lmasa, u buni xaridorga ma'lum qilishi kerak.

Ishchi va xizmatchilarga qarzlar bo'yicha o'z vaqtida talab qilib olinmagan, deponentlar hisobvarag'iga o'tkazilishi kerak bo'lgan ish haqi summalarini, shuningdek, ishchi va xizmatchilarga ortiqcha to'lashlar summalarini va buning paydo bo'lish sabablari aniqlanishi kerak.

Hisobot beriladigan summalar inventarlanganda maqsadli foydalanimishini hisobga olgan holda hisobdor shaxslarning berilgan bo'naklar bo'yicha hisobotlari, shuningdek, har bir hisobdor shaxs bo'yicha berilgan bo'naklar summalarini, ularni berish sanalari va maqsadli foydalanimishi tekshiriladi.

Ishchi inventarlash komissiyasi hujjatli tekshirish yo'li bilan quyidagilarni ham aniqlashi kerak:

- banklar, xo'jalik yurituvchi subyekt qismlari bilan hisob-kitoblarning aynanligi;

- balans bo'yicha qayd etilgan kamomad va o'g'irliklarga doir qarz summalarini to'g'riliği va asosliligi hamda ana shu qarzni undirish uchun qabul qilingan choralar;

- balans bo'yicha qayd etilgan debitorlik, kreditorlik va deponentlik qarzlarini summalarining to'g'riliği va asoslangani, shuningdek, debitorlik qarzini majburiy tartibda undirishga da'volar taqdim etilgan yoki etilmagani;

- muddati o'tgan debitorlik qarzi mayjudligi sabablari.

## **10.4-§. SOLISHTIRISH QAYDNOMALARINI TUZISH VA NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI**

### **10.4.1.Solishtirish qaydnomalarini tuzish**

Solishtirish qaydnomalari inventarlash paytida hisob ma'lumotlarida tafovutlar aniqlangan boyliklar bo'yicha rasmiylashtiriladi. Ushbu qaydnomalarda inventarlash natijalari, ya'ni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha ko'rsatkichlar va inventarlash dalolatnomalari ma'lumotlari o'rtaсидagi tafovutlarning barchasi aks ettiriladi. Ortiqcha va kam chiqqan qiymatliklarning summalarini solishtirish qaydnomalarda ularning buxgalteriya hisobidagi bahosiga muvofiq yoziladi.

Inventarlash natijalarini rasmiylashtirish uchun yagona registrlar qo'llanishi mumkin, ularda inventarlash dalolatnomalari va solishtirish qaydnomalarining ko'rsatkichlari birlashtiriladi. Budget tashkilotiga tegishli bo'lмаган, lekin buxgalteriya hisobida qayd etilgan boyliklarga alohida solishtirish qaydnomalari rasmiylashtiriladi. Albatta, rasmiylashtirish vaqtida hisoblash va boshqa texnika vositalaridan foydalanib, shuningdek, qo'lда yozilishi mumkin.

### **10.4.2.Inventarlash natijalarini rasmiylashtirish tartibi**

Inventarlash va boshqa tekshirishlar paytida aniqlangan boyliklarning haqiqatda mavjudligi, buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan farqlari quyidagicha tartibga solinadi:

– ortiqcha chiqqan asosiy vositalar, moddiy boyliklar, pul mablag'lari va boshqa mol-mulk kirim qilinishi va tegishlicha xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalariga yoki budget tashkilotini moliyalashni (fondlarni) ko'paytirishga qayd etilishi, keyinchalik ortiqcha chiqish sabablari va aybdor shaxslar aniqlanishi kerak;

– belgilangan me'yorlar doirasida boyliklarning yo'qolishi xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlarining farmoyishiga ko'ra ishlab chiqarish va muomala chiqimlariga yoki budget tashkilotini moliyalashni (fondlarni) kamaytirishga hisobdan o'chiriladi.

Yo‘qolish me’yorlari haqiqatda kamomad aniqlangan taqdirdagina qo‘llanishi mumkin.

Bunda belgilangan me’yorlar doirasida boyliklarning yo‘qolishi boyliklar kamomadi qayta navlarga ajratishdagi ortiqcha mol bilan hisobga olgach belgilanishiga e’tibor beriladi. Agar belgilangan tartibda o‘tkazilgan qayta navlarga ajratish bo‘yicha hisobga olin-gandan keyin ham boyliklar kamomadi mavjud bo‘lsa, tabiiy yo‘qolish me’yorlari kamomad aniqlangan boyliklar nomi bo‘yicha-gina qo‘llanishi mumkin.

Tasdiqlangan me’yorlar bo‘lmagan taqdirda yo‘qolish me’yor-lardan ortiqcha kamomad sifatida qaraladi;

– yo‘qolish me’yorlaridan ortiqcha boyliklar kamomadi, shun-ningdek, boyliklar buzilishidan ko‘rilgan talafotlar aybdor shaxs-larga yuklanadi.

Suii’iste’molliklar oqibati bo‘lgan kamomad va talafotlar aniq-langanda tegishli materiallar kamomad va talafotlar aniqlansa, tergov organlariga berilishiga sabab bo‘ladi.

Boyliklarning yo‘qolish va boyliklar buzilishi tufayli talafotlar me’yorlaridan ortiqcha kamomadi, kamomad va buzilishlarning aniq aybdorlari aniqlanmagan hollarda, mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqarish va muomala chiqimlariga hisobdan chiqarilishi yoki budget tashkilotida moliyalashni (fondlarni) kamaytirishga qayd etilishi mumkin.

Bunda boyliklarning yo‘qolish va boyliklar buzilishi tufayli talafotlar me’yorlaridan ortiqcha kamomadini hisobdan o‘chirishni rasmiylashtirish uchun taqdim etiladigan hujjatlarda ana shunday kamomad va talafotlarning oldini olish bo‘yicha qabul qilingan choralar ko‘rsatilishi kerak.

Inventarlash natijasida kamomad chiqqan budget mablag‘lari hisobidan sotib olingan yoki sotib olinish manbasi noaniq bo‘lgan asosiy vositalar summasiga (agarda moddiy javobgar shaxsdan undirilsa) quyidagi buxgalteriya yozuvlari bo‘ladi.

a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi

Debet: 02-hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit: 01-hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari

b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi

Debet: 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

Kredit: 01-hisobvaraqning tegishli analitik hisobvaraqlari

d) aybdor shaxsdan undiriladigan summaning budget daromadlariga hisoblanishi

Debet: 170 Kamomadlarga doir hisob-kitoblar

Kredit: 160 budgetga to'lovlar bo'yicha budget bilan hisob-kitoblar

e) aybdor shaxs tomonidan tashkilot g'aznasiga kamomad summasining to'lanishi

Debet: 120 Milliy valutadagi naqd pul mablag'lari

Kredit: 170 Kamomadlarga doir hisob-kitoblar

f) kamomad summasini hisobvaraqa kirim qilinishi

Debet: 113 Boshqa budgetdan tashqari mablag'lar

Kredit: 120 Milliy valutadagi naqd pul mablag'lari

g) mablag'larni budget daromadiga o'tkazib berilishi

Debet: 160 budgetga to'lovlar bo'yicha budget bilan hisob-kitoblar

Kredit: 113 Boshqa budgetdan tashqari mablag'lar

Inventarlash vaqtida yuqoridagi yozishmalardan o'zgacha bo'lsa yoki boshqa hisobvaraqlar ishtirokida buxgalteriya yozuvlari mavjudligi aniqlansa bu ham inventarlash natijalariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Boyliklar buzilishi fakti to'g'risidagi xulosalar texnik nazorat bo'limi yoki sifat bo'yicha tegishli inspeksiyalardan olinishi kerak.

Tabiiy yo'qolish me'yorlaridan ortiqcha boyliklar kamomadi va buzilishini hisobdan o'chirishni rasmiylashtirish uchun taqdim etiladigan hujjatlarda tergov yoki sud organlarining aybdor shaxslar yo'qligini tasdiqlaydigan yoki aybdor shaxslardan zarar undirilishi rad etilgan qarorlari yoki texnik nazorat bo'limi yoki tegishli ixtisoslashtirilgan tashkilotlardan (sifat bo'yicha inspeksiyalar va

hokazolardan) olingan boyliklar buzilishi fakti to‘g‘risida xulosa bo‘lishi kerak.

Aytaylik, inventarlash natijasida kamomad chiqqan asosiy vositalar summalariga nisbatan (agarda moddiy javobgar shaxsdan undirilmasa) unga quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi

Debet: 02-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

Kredit:01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi

Debet: 231, 241, 251, 261 yoki 271 analitik hisobvaraqlarning tegishlisi

Kredit:01-hisobvaraqnning tegishli analitik hisobvaraqlari

Moddiy javobgar shaxslar aybi bo‘lmagan holda qayta navlarga ajratishda hosil bo‘lgan qiymatdagi kamomad farqiga inventarlash bayonnomalarida bunday farq aybdor shaxslarga kiritilmasligi xususida batafsil tushuntirish berilishi kerak.

Inventarlash natijalari inventarlash tugagan oydagি hisob va hisobotda, yillik inventarlashda esa yillik moliyaviy hisobotda aks ettirilishi kerak.

Hisobot yilda o‘tkazilgan inventarlashlar natijalari ma’lumotlari inventarlashda aniqlangan natijalar qaydnomasida umumlashtiriladi va aniqlangan boyliklar haqiqatda mavjudligi bilan buxgalteriya hisobi ma’lumotlari o‘rtasidagi tafovutlarni tartibga solish to‘g‘risidagi takliflar ko‘rib chiqish uchun budget tashkiloti rahbariga taqdim etiladi.

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. Inventarlashning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Moddiy yiliga necha marta inventarlash qilinadi?
3. Asosiy vositalarga necha yilda inventarlash qilinadi?
4. Kutubxona fondlari necha yilda inventarlash qilinadi?
5. Pul mablag‘lari, pul hujjatlari, qiymatliklar va qat’iy hisobotdagи blanklar qachon inventarlash qilinadi?

## **11-bob. HISOBVARAQLARGA YAKUNIY XULOSALAR VA ULARNING YOPILISHI YUZASIDAN BUXGALTERIYA HISOBOTLARI**

---

---

### **11.1-\$. JORIY HISOB HISOBVARAQLARIGA XULOSA**

#### **11.1.1.Budget tashkiloti hisobvaraqlarining yillik yakunlanishi**

Balansning barcha hisobvaraqlari bo'yicha buxgalteriya ma'lumotlarining realligi aniqlanganidan so'ng hisobvaraqlar yakunlanadi va yillik hisobot tuzishga kirishiladi. Budget tashkilotlari yil tugagandan so'ng xarajatlar smetalarining ijrosi bo'yicha yakuniy muomalalarni amalga oshiradi. Balans hisobvaraqlarining yillik yakunlanishi budget bo'yicha smetalar va maxsus mablag'lar bo'yicha smetalarning ijrosi jarayonida yil davomida amalga oshirilgan barcha xarajatlar hamda kapital qurilishga qilingan xarajatlar ular amalga oshirilgan manbalar hisobidan hisobdan chiqarilishidan iboratdir. Hisobvaraqlar yakunlanganda budget mablag'larining foydalanilmagan barcha qoldiqlari berkitiladi. Buning uchun dekabr oyida amalga oshirilgan barcha muomalalar bo'yicha tuzilgan memorial-orderlar bosh jurnalda qayd qilinadi hamda dekabr oyi bo'yicha aylanma summalarini aniqlanadi va yakunlovchi muomalalargacha bo'lgan keyingi yilning birinchi yanvariga hisobvaraqlar bo'yicha qoldiq summalarini aniqlanadi. Bu ma'lumotlar asosida dastlabki balans rasmiylashtiriladi. Dastlabki balansa xarajatlar hisobvaraqlari bo'yicha yil davomidagi aylanma summalarini aniqlangan bo'ladi. Endi xarajatlar hisobvaraqlarini tegishli moliyalashtirishlar va daromadlar hisobidan berkitilishi kerak bo'ladi.

Budgetdan moliyalashtirish hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlarni hamda maxsus mablag'lar hisobidan haqiqiy xarajatlarni hisobdan chiqarish asosiy yakunlovchi muomalalar hisoblanadi. Bunda, yanvar oyida to'lanadigan dekabr oyining ikkinchi yarmi

uchun hisoblangan mehnat haqidan tashqari, xarajatlarning barcha summasi hisobdan chiqariladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tashkilotiga bolalarning haqiqatda borgan kunlari uchun hisoblangan summalar hamda yetti yillik musiqa maktabiga bolalarning haqiqatda bongan kunlari uchun hisoblangan summalar yil davomida 242-«Bolalar muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag‘lari» hisobvarag‘ida hisobga olinadi va yilning oxirida bu summalar, maktabgacha yoshdagi bolalar tashkiloti hamda yetti yillik musiqa maktabi qaysi kreditlarni boshqaruvchilarining tashkiloti tarkibida bo‘lsa, o‘sha tashkilotni yuritishga va boshqa tadbirlarga budget bo‘yicha qilingan xarajatlar kamayishiga o‘tkazilishi kerak.

Yil oxirida yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalar tashkiloti hamda yetti yillik musiqa maktabini yuritishga ota-onalardan yig‘ilgan mablag‘lar summasiga quyidagi yakuniy buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi.

Tashkilotni saqlashga va boshqa tadbirlarga budget bo‘yicha xarajatlarning, mazkur tashkilot qoshidagi maktabgacha yoshdagi bolalar tashkiloti hamda yetti yillik musiqa maktabini saqlashga ota-onalardan yil davomida yig‘ilgan mablag‘lar summasi chegirilgandan so‘ng qolgan xarajatlar summasi hisobdan chiqarilganda:

a) kreditlarni bosh boshqaruvchilarining o‘z tashkilotini yuritishga va boshqa tadbirlarga budget bo‘yicha qilingan xarajatlar hisobdan chiqarilganida kreditlarni bosh boshqaruvchilarada quyidagi buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi:

– debet 232-«Budgetdan moliyalashtirish» hisobvarag‘i,  
– kredit 231-«Budget mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar» hisobvarag‘i

b) kreditlarni quyi boshqaruvchilarining o‘z tashkilotini yuritishga va boshqa tadbirlarga budget bo‘yicha qilingan xarajatlar hisobdan chiqarilganida kreditlarni quyi boshqaruvchilarada quyidagi buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi:

– debet 232-«Budgetdan moliyalashtirish» hisobvarag‘i  
– kredit 231-«Budget mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar» hisobvarag‘i.

Bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan obyektlar bo'yicha qilingan xarajatlar yil davomida 071-«Tugallanmagan qurilish» hisobvarag'ida hisobda turadi va yil oxirida bu xarajatlar tegishli moliyalashtirish hisobidan hisobdan chiqarilishi kerak.

Bitkazilmagan va bitkazilgan, lekin foydalanishga topshirilmagan, qurilish obyektlari bo'yicha xarajatlar 071-«Tugallanmagan qurilish» hisobvarag'ida qoldiq sifatida keyingi yil balansiga o'tkaziladi.

Bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan qurilish obyektlari bo'yicha budjetdan moliyalashtirish hisobidan qilingan xarajatlar hisobdan chiqarilganida:

– agar kapital qurilish xarajatlari kreditlarni bosh boshqaruvchi orqali amalga oshirilgan bo'lsa, u holda kreditlarni bosh boshqaruvchilarda quyidagi buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi:

- debet 232-«Budjetdan moliyalashtirish» hisobvarag'i
- kredit 071-«Tugallanmagan qurilish» hisobvarag'i.

Agar kapital qurilish xarajatlari kreditlarni quyi boshqaruvchilar orqali amalga oshirilgan bo'lsa, u holda:

Kreditlarni bosh boshqaruvchilar 232-«Budjetdan moliyalash-tirish» hisobvarag'ida o'zining kapital qurilish obyektlari xarajatlari uchun hamda tasarrufidagi tashkilotlarning kapital qurilish obyektlari xarajatlari uchun olingan budjetdan moliyalashtirish summalarini hisobga oladi. Shu munosabat bilan kreditlarni bosh boshqaruvchilarda tasarrufdagi kreditlarni quyi boshqaruv-chilarning yillik hisobotiga asosan ularning bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan qurilish obyektlari bo'yicha budjetdan moliyalashtirish hisobidan qilingan barcha xarajatlarini 232-«Budjetdan moliyalashtirish» hisobvarag'idan hisobdan chiqarish uchun yakuniy operatsiya rasmiylashtiriladi.

Yil davomida maxsus mablag'lar hisobidan qilingan xarajatlar yil oxirida hisobdan chiqarilganida ularning umumiyl summasiga, kreditlarni bosh boshqaruvchilarda ham, kreditlarni quyi boshqaruvchilarda ham, quyidagicha buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvi rasmiylashtiriladi:

– debet 262-«Budget tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar» hisobvarag‘i

– kredit 271 – «Maxsus mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar» hisobvarag‘i.

Moliyalashtirish hisobvaraqlari tashkilotdagi materiallar va oziq-ovqat mahsulotlarining qoldiq summasiga, hali olinmagan moddiy qiymatliklar va qabul qilinmagan bajarilayotgan ishlar hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun o‘tkazilgan mablag‘lar va boshqa debtor qarzlar summasiga yil oxirida berkilmay qolishi mumkin. Bu summalar molrshlashtirish hisobvaraqlaridagi qoldiq sifatida keyingi yilga o‘tadi.

Xarajatlarni hisobdan chiqarish natijasida keyingi yilning birinchi yanvariga qoldiq sifatida 231 – «Budget mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar» hisobvarag‘ida dekabr oyining ikkinchi yarmi uchun hisoblangan mehnat haqi summasi hamda agar hisobot davridagi xarajatlar summasi kreditorlik qarzlari hisobidan moliyalashtirishdan yuqori bo‘lsa, moliyalashtirilmagan xarajatlar summasi qoladi, 071-«Tugallanmagan qurilish» hisobvarag‘ida esa bitkazilmagan va bitkazilgan, lekin foydalanishga topshirilmagan qurilish obyektlari bo‘yicha xarajatlar summasi qoladi.

## **11.2-§. BUXGALTERIYA BALANSI**

### **11.2.1.Buxgalteriya hisobotlari va balanslarini taqdim etish va tasdiqlash tartibi**

Budget tashkilotlari tomonidan budget va budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha muomalalarning buxgalteriya hisobi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan o‘rnatalgan tartibga muvofiq yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan mablag‘ bilan ta’minaladigan budget tashkilotlarining buxgalteriya hisobi va hisobotlariga uslubiy rahbarlik O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalgalashiriladi.

Budget tashkilotlari budget va budgetdan tashqari xarajatlar smetasini ijrosi bo‘yicha oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzadilar va topshiradilar.

Budget tashkilotlari yillik buxgalteriya hisobotlari hisobot yilidan keyingi yilning 1-yanvar holatiga rasmiylashtiriladi. budget tashkilotlari choraklik buxgalteriya hisobotlari hisobot yilning 1-aprel, 1-iyul va 1-oktabr holatiga, oylik buxgalteriya hisobotlari hisobot oyidan keyingi oyning birinchi sanasi holatiga rasmiylashtiriladi. budget tashkilotlari tomonidan yillik va choraklik buxgalteriya hisobotlari g'azna va haqiqiy xarajatlar bo'yicha, oylik hisobotlar esa g'azna xarajatlari bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Budget tashkilotlari tarmoq, shtat va kontingentlar rejalarining bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllarga va tartibga muvofiq tuzib topshiradilar.

Buxgalteriya hisoboti shakllaridagi barcha rekvizitlar to'ldirilishi kerak. Budget tashkilotida tegishli aktivlar, passivlar va muomalalarning mavjud emasligi sababli biror-bir modda to'ldirilmagan taqdirda, ushbu modda ustidan chizib qo'yiladi.

Buxgalteriya hisoboti shakllari «Bosh-jurnal» kitobi (308-shakl) va boshqa buxgalteriya hisobi registrlari ma'lumotlari asosida rasmiylashtiriladi.

Bo'y sunish bo'yicha yuqori tashkilotga taqdim etiladigan buxgalteriya hisobotlari hisobot beruvchi budget tashkilotining rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi va muayyan budget tashkilotining muhri bilan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar budgetlaridan moliyalashtiriladigan budget tashkilotlari buxgalteriya hisobotlarini tegishli vazirlik va idoralarga, hokimliklar boshqarmalariga ular tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli «Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, moliya yiliga qo'shimcha vaqt etib belgilangan davr mobaynida muomalalarni amalga oshiruvchi budget tashkilotlari uchun Moliya vazirligi tomonidan hisobotlarni topshirishning alohida muddatlari belgilanadi.

Moliyalashtirilishi (xarajatlarining to‘lanishi) yil davomida bir budgetdan boshqasiga o‘tkazilgan, yoki bir vazirlik (idora) tasarrufidan boshqasiga o‘tkazilgan budget tashkilotlarida o‘tkazish sanasiga buxgalteriya hisoboti (yillik hisobot shakllari hajmida) rasmiylashtiriladi hamda u ilgarigi va hozirgi yuqori turuvchi idoralaraga taqdim etiladi. Kelgusida hisobot faqat yangi yuqori turuvchi idoraga taqdim etiladi.

Budget tashkilotlari uchun buxgalteriya hisobotlarini taqdim etish sanasi ular tomonidan haqiqatda taqdim etilgan sana hisoblanadi. Hisobot taqdim etish uchun belgilangan muddat dam olish kuniga to‘g‘ri kelgan taqdirda hisobot dam olish kuni arafasidagi so‘nggi ish kunida taqdim etiladi.

Buxgalteriya hisobotlarida o‘chirish va ustiga yozishlar bo‘lmassisligi kerak. Xatolar tuzatilgan taqdirda tegishli qaydlar qilinadi, ularni hisobotlarga imzo chekkan shaxslar tasdiqlab, tuzatish sanasini ko‘rsatadilar. Buxgalteriya hisobotlariga kiritilgan barcha tuzatishlar haqida ularni yuqori tashkiloti tomonidan ko‘rib chiqish paytida mazkur buxgalteriya hisobotlari taqdim etilgan barcha joylarga (manzilgohlarga) majburiy tartibda xabar qilinishi shart.

Idoralar, hokimliklar boshqarmalari (bo‘limlari) hamda boshqa yuqori budget mablag‘lari oluvchilar (Budget mablag‘larini bosh tasarruf qiluvchilar) o‘z tasarrufidagi budget tashkilotlarining buxgalteriya hisobotlarini qabul qiladi, ko‘rib chiqadi hamda tasdiqlaydi.

### **11.3-§. BUDJET TASHKIOTLARINING HISOBOTI**

#### **11.3.1. Buxgalteriya hisobotlarini tuzish qoidalari va budget tashkilotlari hisobotining mazmuni**

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetida turuvchi tashkilotlarning buxgalteriya hisobotlari va balanslari to‘g‘risidagi qoida bilan yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetida turuvchi tashkilotlar, shuningdek, vazirliklar, idoralar, hokimliklarning boshqarma(bo‘lim)lari, shaharlarning va tumanlarning markaziy shifoxonalari hamda boshqa budget mablag‘larini oluvchilar qoshidagi markazlashtirilgan buxgal-

teriyalar tomonidan buxgalteriya hisobotlari va balanslarini tuzish tartibi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi davlat budgetida turuvchi tashkilotlarning buxgalteriya hisobotiga uslubiy rahbarlik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tartibga solinadi. Tashkilotlar xarajatlar smetalarining ijrosi haqidagi buxgalteriya hisobotining namunaviy va maxsus shakllari hamda bu hisobot shakllarni to'ldirish tartibi haqidagi qoidalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Kapital qo'yilmalar va ularni moliyalashtirish manbalari tashkilotlarning balansida hisobga olinadi.

Tashkilot va buxgalteriya xizmati rahbarlari, markazlashtirilgan buxgalteriyalarning bosh hisobchilari buxgalteriya hisobi va hisobi ustidan rahbarlik qiladi, ularning to'laligi va haqiqiyligi uchun javobgardirlar hamda o'z tizimidagi tashkilotlar xarajatlar smetalarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Respublika budgetida turuvchi tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tegishli buyrug'i bilan belgilangan muddatlarda va manzillarga oylik, chorak va yillik buxgalteriya hisobotlarini, chorak va yillik hisobotlariga balanslarni ham ilova qilib, taqdim etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetida, viloyatlar, shaharlar va tumanlar budgetlarida turuvchi tashkilotlar tegishli vazirliklar va idoralar, hokimliklarning boshqarma (bo'limlari belgilagan muddatlarda ularga oylik, chorak va yillik buxgalteriya hisobotlarini, chorak va yillik hisobotlarga balanslarni ham ilova qilib, taqdim etadi.

Respublika budgetida turuvchi tashkilotlar o'zлari bo'ysunuvchi yuqori tashkilotlarga ular belgilagan muddatlarda hisobot taqdim etadi.

Budget yili davomida moliyalashtirilishi bir budgetdan boshqasiga berilgan yoki bir vazirlik (idora) tasarrufidan boshqasiga berilgan tashkilotlar berilish sanasiga buxgalteriya hisobotini (yillik hisobot shakllari hajmida) tuzadi va uni avval bo'ysunilgan yuqori organga hamda yangi bo'ysunish bo'yicha yuqori organga taqdim etadi. Keyinchalik hisobotni faqat yangi bo'ysunishi bo'yicha taqdim etiladi.

Tashkilotlar uchun hisobot va balanslarning taqdim etilgan sana-si ular haqiqatda taqdim etilgan sana deb hisoblanadi. Hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan muddat ishlamaydigan kunga to‘g‘ri kelsa, hisobot ishlamaydigan kungacha bo‘lgan oxirgi ish kunida taqdim etiladi. Ongli ravishda noto‘g‘ri hisobot ma’lumotlarini taqdim etganlik uchun va muntazam ravishda belgilangan shakllar bo‘yicha hisobotlarni taqdim etganlik uchun tashkilotlarning tegishli mansabdor shaxslari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Bo‘ysunishi bo‘yicha yuqori tashkilotga topshiriladigan hisobot va balanslar hisobot beruvchi tashkilotning rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi. Markazlashtirilgan buxgalteriyada hisobot va balanslar qoshida markazlashtirilgan buxgalteriya tashkil etilgan boshqaruv organining yoki tashkilotning rahbari va markazlashtirilgan buxgalteriyaning bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi. Shoxobchalar, shtatlar va kontingentlar bo‘yicha ko‘rsatichklarning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotlar reja-moliya xizmatlarining rahbarlari tomonidan imzolanadi.

Yuqori tashkilotlar o‘z tasarrufidagi tashkilotlarning hisobot va balanslarini ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi, shuningdek, ularning faoliyatini yaxshilash yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni ko‘radi.

Mahalliy budgetlardan moliyalashtiriladigan vazirliklar va idoralar, hokimliklarning boshqarma(bo‘lim)lari, boshqa budget mablag‘larini oluvchilar o‘z tasarrufidagi tashkilotlarning oylik, chorak, yillik hisobotlarini va tegishli balanslarini ular kelib tushgan kundan e’tiboran 5 kunlik muddatdan kechiktirmsandan ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi, buning ustiga ular bo‘yicha qarorlarni shu muddatlarda tegishli tashkilotlarga xabar qilishi kerak.

### **11.3.2. Buxgalteriya hisobotlari va balanslarini taqdim etish va tasdiqlash tartibi**

Buxgalteriya hisobotlari va balanslari tuzilganda:

a) hisobot davridagi barcha muomalalar va pul mablag‘lari, asosiy vositalar, moddiy qiyamatliklar va hisob-kitoblar, inventarlash natijalari to‘la qayd qilinishi ta’minlanishi kerak;

b) hisobot davrining birinchi sanasiga analitik hisobi ma'lumotlarning aylanma va sintetik hisob hisobvaraqlari bo'yicha qoldiqlari bir xilligi, shuningdek, buxgalteriya hisobotlari va balanslari ma'lumotlarining sintetik va analitik hisoblari ma'lumotlariga to'g'ri kelishi ta'minlanishi kerak. Tegishli ravishda rasmiylashtirilgan boshlang'ich hujjatlar buxgalteriya hisobida yozuvlar qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan asosiy shartlarga rioya qilinmasa, hisobot va balanslar noto'g'ri tuzilgan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari, hokimliklarning boshqarma(bo'lim)lari va budget mablag'larining boshqa oluvchilari o'zi tomonidan tekshirgan tasarrufidagi tashkilotlarning buxgalteriya hisoboti va balanslari hamda o'z muomalalari bo'yicha hisobot asosida yig'ma hisobot va balanslarni tuzadilar.

Budget mablag'larini oluvchilarning xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobot va balanslari ming so'm-bir o'nlik belgisi bilan rasmiylashtiriladi.

Davlat budgetidan moliyalashtiriladigan vazirliklar, idoralar, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar mamlakatning Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllar bo'yicha belgilangan muddatlarda xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi oylik, chorak va yillik hisobotlarni mamlakatning Moliya vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, shaharlar va tumanlarning moliya organlariga taqim etidi hamda budget va budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha yagona balans tuzadi.

Budget tashkilotlari xarajatlari smetalarining ijrosi va natijalarini nazorat qilish maqsadida barcha kreditlarni boshqaruvchilar xarajatlar smetalarining ijrosi haqida davriy (joriy) va yillik hisobot tuzadi. Hisobot analitik va sintetik hisoblarining tekshirilgan ma'lumotlari asosida rasmiylashtiriladi.

Budget tashkilotlari kreditlarni yuqori boshqaruvchilarga belgilangan muddatlarda hisobotlar topshiradi. Kreditlarni bosh boshqaruvchilar tasarrufidagi tashkilotlarning hisobotlari va o'zlarining xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisoboti asosida, moliya organlari tomonidan belgilangan muddatlarda tegishli moliya organlariga taqdim etiladigan yig'ma hisobotlarni tuzadi.

Budget tashkilotlari xarajatlar smetalarining ijrosi haqidagi hisobot mazmuni va qaysi davrga tuzilganligiga qarab davriy (oylik va chorak) va yillik hisobotga, hisobotda ko'rsatkichlari qayd qilingan tashkilotlarni qamrab olinganligiga qarab – individual va yig'ma hisobotlarga bo'linadi. Individual (birlamchi) hisobotlarda har bir budget tashkilotining moliyaviy faoliyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hamda shoxobcha, shtat va kontingentlar bo'yicha belgilangan reja ko'rsatkichlarining bajarilishi haqidagi ma'lumot aks ettiriladi. Yig'ma hisobotlarda bo'lim, boshqarma, idora yoki vazirlikning budget tashkilotlari xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi umumlashtirilgan ma'lumotlar beriladi. Ular individual hisobotlar asosida rasmiylashtiriladi.

Budget tashkilotlarining qaramog'idagi xo'jalik hisobidagi yordamchi korxonalar xo'jalik yurituvchi subyektlarining tegishli tarmoqlardagi asosiy faoliyati uchun belgilangan shakllar bo'yicha hisobotlar tuzadi.

Kreditlarni bosh boshqaruvchilar kreditlarni quyi boshqaruvchilari va markazlashtirilgan buxgalteriyalarning hisobotlarini tekshirganda ularning to'g'ri tuzilganligi, shaklning ko'rsatkichlari to'la to'ldirilganligi, ko'rsatkichlarning o'zaro muvofiqlashtirilganligi va kelishilganligini, shuningdek, tasdiqlangan smetaga asosan mablag'larni ishlatisch yo'nalishlari va maqsadga muvofiq amalga oshirilganligini ko'rib chiqadi.

### **11.3.3.Davriy hisobotlar**

*Budget tashkilotlarining oylik hisoboti.* «Xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi» 1-ox-shakldagi oylik hisobot barcha budget tashkilotlari tomonidan keyingi oyning 5-sanasiga taqdim etiladi. 1-ox-shakldagi oylik hisobotga 1-Kredit: (kompensatsiya to'lovlari) shakl hisoboti ilova sifatida topshiriladi. 1-ox oylik hisobotida chiziqchadan keyin aks ettirilgan ko'rsatkichlar 1-Kredit: shakl hisobotidan olinadi. Smeta xarajatlarining ijrosi bo'yicha oylik hisobotda (1-kt) har bir paragraf bo'yicha alohida va paragraflarni jamlab bob va bo'lim bo'yicha umuman hisobot holatida hamda ish haqi-jami qatorida g'azna xarajatidan keyin chiziqcha chizilib,

kompensatsiya to‘lovlari g‘azna xarajatlari hamda yana bir chiziq-chadan keyin haqiqiy xarajatlar aks ettiriladi.

*Budjet tashkilotlarining chorak hisoboti.* Budjet tashkilotlari quyidagi hajmda chorak buxgalteriya hisobotlarini tuzadi:

Xarajatlar smetasi ijrosining balansi budgetdan moliyalashtirish hisobvarag‘i bo‘yicha summalarining harakati to‘g‘risidagi ma’lumotnomaga bilan birga – 1-shakl;

«Budjet bo‘yicha xarajatlar smetasining ijrosi to‘g‘risidagi hisoboti» – 2-shakl;

«Rivojlantirish fondi mablag‘larining tushumi va xarajat qilinishi to‘g‘risidagi hisobot» – 2-rj-shakl.

Maxsus mablag‘larga ega bo‘lgan budjet tashkilotlari 1-iyul va 1-oktabrga «Maxsus mablag‘lar bo‘yicha smetalarning ijrosi to‘g‘risidagi hisobot» – 4-shakl bo‘yicha hisobot tuzadi.

Bolalar bog‘chalari va yasllari 1-aprel, 1-iyul va 1-oktabrga «Bolalar bog‘chasi(yasli)ni yuritish bo‘yicha hisoboti-3-ds-shakl bo‘yicha hisobot tuzadi.

Budjet tashkilotlari chorak buxgalteriya hisobotlarini choragidan keyingi oyning 10-sanasidan kechikmasdan taqdim etadi.

*Budjet tashkilotlarining yillik hisoboti.* Budjet tashkilotlari quyidagi hajmda yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzadi:

«Xarajatlar smetasi ijrosining balansi budgetdan moliyalashtirish hisobvarag‘i bo‘yicha summalarining harakati to‘g‘risidagi ma’lumotnomaga bilan birga» – 1-shakl;

«Budjet bo‘yicha xarajatlar smetasining ijrosi to‘g‘risidagi hisoboti» – 2-shakl;

«Shtatlar va kontingentlar bo‘yicha rejaning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobot» – 3-shakl;

«Maxsus mablag‘lar bo‘yicha smeta ijrosi to‘g‘risidagi hisoboti» – 4-shakl;

«Asosiy vositalarning harakati to‘g‘risidagi hisobot» – 5-shakl;

«Moddiy qiymatliklarning harakati to‘g‘risidagi hisobot» – 6-shakl.

Yillik hisobotga tushuntirish xati ilova qilinishi kerak. Unda budjet va maxsus mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar smetasining ijrosiga, shtat va kontingentlar bo‘yicha rejaning bajarilishiga ta’sir qilgan

asosiy omillar, o'tkazilgan inventarlashlarning natijalari va hisobot yilida tashkilotning moliyaviy holati o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumot, shuningdek, keyingi yilning yanvarida to'lanadigan dekabr oyining ikkinchi yarmiga hisoblangan ish haqi summalarini keltiriladi.

«Xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi» – 1-ox-shakl, «Budget bo'yicha xarajatlar smetasining ijrosi to'g'risidagi hisobot» – 2-shakl va «Rivojlantirish fondi mablag'larining tushumi va xarajat qilinishi to'g'risidagi hisobot» – 2-rj-shakllar bo'yicha hisobot har bir paragraf bo'yicha alohida-alohida va tashkilot bo'yicha umumiy yig'ma hisobot ham taqdim etiladi. Bunda budget tashkilotini rivojlantirish fondi daromadlari bo'yicha ma'lumot, tashkilot bo'yicha faqat «Rivojlantirish fondi mablag'larining tushumi va xarajat qilinishi to'g'risidagi hisobot» – 2-rj-shakldagi yig'ma hisobotda qayd qilinadi xolos. Budget tashkilotining rivojlantirish fondi bo'yicha xarajatlar «Rivojlantirish fondi mablag'larining tushumi va xarajat qilinishi to'g'risidagi hisobot» – 2-rj-shaklda har bir paragraf bo'yicha alohida-alohida va tashkilot bo'yicha jami umumlashtirib qayd qilinadi.

Budget tashkilotlari oylik, chorak va yillik buxgalteriya hisobtolarini tuzadi va ularni tegishli moliya organiga taqdim etadi.

Budget tashkilotining oylik buxgalteriya hisoboti «Xarajatlar smetasi ijrosi haqida oylik hisobot» dan iborat bo'ladi.

Budget tashkilotlari xarajatlar smetasi ijrosi haqida oylik hisobtobi tuzishdan oldin:

(a) barcha budget va budgetdan tashqari mablag'lar hisobvaraqlari bo'yicha mablag'larning harakati to'g'risidagi bank ko'chirmalarining to'liqligini;

(b) hisobvaraqlardan (shaxsiy hisobvaraqlardan) o'tkazilgan mablag'larning (amalga oshirilgan to'lov larning) to'g'riliqi va asoslanganligini;

(d) tegishli buxgalteriya hisobi registrlariga (294-shakl va 292-shakl daftarlarga) to'liq va to'g'ri yozilganligini tekshirib chiqishi kerak.

Buxgalteriya hisobi registrlaridagi (294-shakl va 292-shakl daftarlardagi) yozuvlarning to'g'riliqiga ishonch hosil qilingandan

so'ng, ushbu daftarlar (294-shakl) ma'lumotlari asosida «Xarajatlar smetasiga ijrosi haqida oylik hisobot» (1-ox shakl) to'ldiriladi.

«Hisobot oyi uchun ajratilgan mablag'lar»da tasdiqlangan xarajatlar smetasiga (keyinchalik belgilangan tartibda kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda) muvofiq hisobot oyida budget tashkilotiga xarajatlar tasnifining tegishli paragrafi bo'yicha hisobot oyi mobaynida g'aznachilik organlari tomonidan budget tashkilotining shaxsiy hisobvaraqlari orqali amalga oshirilgan to'lovlari ko'rsatiladi.

«Yil boshidan ajratilgan mablag'lar»da tasdiqlangan xarajatlar smetasiga (keyinchalik belgilangan tartibda kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda) muvofiq hisobot yili boshidan o'sib boruvchi tartibda budget tashkilotiga xarajatlar tasnifining tegishli paragrafi bo'yicha yil boshidan o'sib boruvchi tartibda g'aznachilik organlari tomonidan budget tashkilotining shaxsiy hisobvaraqlari orqali amalga oshirilgan to'lovlarni ko'rsatiladi.

«Oylik g'azna xarajatlari»da budget tashkiloti tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan maqsadlar uchun hisobot oyida budget hisobvarag'idan (shaxsiy hisobvarag'idan) o'tkazilgan (to'langan) mablag'lar hisobot shaklida keltirilgan xarajat moddalariga bo'lingan holda ko'rsatiladi. Bunda, noto'g'ri yoki ortiqcha o'tkazilishi (to'lanishi) va boshqa sabablar tufayli budget tashkiloti hisobvarag'iga (g'aznachilik organlaridagi shaxsiy hisobvarag'iga) qaytarilgan mablag'lar (g'azna xarajatlarining tiklanishi) hisobga olinishi lozim.

«Yil boshidan g'azna xarajatlari»da budget tashkiloti tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan maqsadlar uchun hisobot yili boshidan o'sib boruvchi tartibda xizmat ko'rsatuvchi bankdagi hisobvarag'idan (g'aznachilik organlaridagi shaxsiy hisobvarag'idan) o'tkazilgan (to'langan) mablag'lar hisobot shaklida keltirilgan xarajat moddalariga bo'lingan holda ko'rsatiladi. Bunda, noto'g'ri yoki ortiqcha o'tkazilishi (to'lanishi) va boshqa sabablar tufayli budget tashkiloti hisobvarag'iga (g'aznachilik organlaridagi shaxsiy hisobvarag'iga) qaytarilgan mablag'lar (g'azna xarajatlarining tiklanishi) hisobga olinishi lozim.

«Budjet tashkilotida hisobot choragining oxirgi kuniga tejab qolningan va budjet tashkilotining rivojlantirish fondi hisobvarag‘iga o‘tkazilgan mablag‘lar»—qatorida budjet tashkilotining budjet hisobvaraqlaridagi (g‘aznachilik organlaridagi shaxsiy hisobvaraqlaridagi) hisobot choragining oxirgi kuniga tejab qolningan mablag‘larini rivojlantirish fondi hisobvarag‘iga o‘tkazilgan summalar 4-ustun bo‘yicha joriy hisobot choragining so‘nggi oyida, 5-ustun bo‘yicha yil boshidan o‘sib boruvchi tartibda o‘tkazilgan mablag‘lar ko‘rsatiladi.

«Xarajatlarning hammasi»—qatorda 2–5-ustunlar bo‘yicha 7–10-qatorlarda keltirilgan summalarning yig‘indisi ko‘rsatiladi.

«Yil boshidagi qoldiqlar», «Mablag‘larni hisobot oyi boshidagi qoldiqlari» va «Hisobot davrining oxiriga qolgan qoldiqlar»da budjet tashkilotining budjet va budgetdan tashqari mablag‘lar hisobvaraqlari bo‘yicha (g‘aznachilik organlaridagi shaxsiy hisobvaraqlaridagi) mos ravishda hisobot yili boshidagi, hisobot oyi boshidagi hamda hisobot davri oxiridagi mavjud qoldiq mablag‘lar miqdori ko‘rsatiladi. G‘aznachilik organlarida shaxsiy hisobvaraqlari ochilgan budjet tashkilotlari (tegishli budgetdan tashqari mablag‘lar shaxsiy hisobvaraqlardan tashqari) ushbu ustunlarni to‘ldirmaydilar.

«Hisobot oyi uchun ajratilgan mablag‘lar» va 4-ustun «Yil boshidan ajratilgan mablag‘lar»da budjet hisob raqami (1-qator) bo‘yicha I bo‘limning 11-qatoridagi mos ravishda 2 va 3-ustunlarida ko‘rsatilgan summalar yoziladi.

Asosiy depozit hisobvaraqlarga (Budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha shaxsiy hisobvaraqlarga) kelib tushgan budgetdan tashqari mablag‘larning harakati budgetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tegishli qatorlarda aks ettiriladi.

«Budjet tashkilotlarini (tibbiyot muassasalarini) rivojlantirish fondining talab qilib olgunga qadar depozit hisobvarag‘i»—qatori bo‘yicha «Hisobot oyi uchun ajratilgan mablag‘lar» va «Yil boshidan ajratilgan mablag‘lar»da budjet tashkilotlarining rivojlantirish fondi hisobvarag‘iga hisobot oyida va yil boshidan kelib tushgan mablag‘lar miqdori ko‘rsatiladi.

«Xarajatlar smetasi ijrosi bo'yicha oylik hisobot» (1-ox shakl) budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan xarajatlar tasnifining har bir parografi bo'yicha alohida-alohida rasmiylashtiriladi.

Oylik hisobot hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmasdan taqdim qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli «Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, moliya yiliga qo'shimcha vaqt etib belgilangan davr mobaynida muomalalarni amalga oshiruvchi budget tashkilotlari uchun Moliya vazirligi tomonidan hisobotlarni topshirishning alohida muddatlari belgilanadi.

*Budget tashkilotlarining choraklik buxgalteriya hisoboti.* Budget tashkilotlarining choraklik buxgalteriya hisoboti tarkibida quyidagilar bo'ladi:

1. Balans;
2. Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobot (2-shakl);
3. Debitor va kreditor qarzlar to'g'risida ma'lumot va boshqalar.

Budget tashkilotlari tomonidan «Balans»ni (1-shakl) tuzishdan oldin barcha mavjud memorial orderlar bilan rasmiylashtirilgan buxgalteriya ikki yoqlamali yozuvlarini boshlang'ich hujjatlarga muvofiq holda to'g'ri tuzilganligi hamda «Bosh-jurnal» kitobiga (308-shakl) to'g'ri yozilganligi, analitik hisobvaraqlar bo'yicha oylik aylanmalar va hisobot davri oxiriga «Bosh-jurnal» kitobi bo'yicha qoldiqlar to'g'ri hisoblanganligi tekshirib chiqiladi. Hisobot davri oxiriga «Bosh-jurnal» kitobida chiqarilgan qoldiqlar balansning 4-ustuni «Yil (chorak) oxiriga» ko'chirib yoziladi.

Debitor va kreditor qarzlarni hisobga oluvchi analitik hisobvaraqlar bo'yicha debitorlar va kreditorlar umumlashtirilmasdan, ya'ni mavjud debitor qarzlar summalari balansning aktiv qismida, kreditor qarzlar summalari esa balansning passiv qismida ko'rsatiladi. Bunda, ushbu debitor va kreditor qarzlar to'g'risidagi ma'lumotlar «Aylanma qaydnomasi» (285-shakl) va boshqa tegishli hisob registrlaridan olinadi.

«Balans»ning (1-shakl) 3-ustun «Yil boshiga» ko'rsatkichlari o'tgan hisobot yili balansining 4-ustun «Yil (chorak) oxiriga» ko'rsatkichlariga aynan bir xil holda ko'chiriladi.

«Balansdan tashqari hisoblar»da budjet tashkilotlarining balansdan tashqari «Ijaraga olingan asosiy vositalar» (01), «To'lashga qobiliyatsiz debitorlarning hisobdan chiqarilgan qarzlari» (05) va boshqa tegishli balansdan tashqari hisobvaraqlarda aks ettirilgan summalar ko'rsatiladi.

«Balans» (1-shakl) budjet tashkilotlari tomonidan har chora-kda hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar topshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli «Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvo-fiq, moliya yiliga qo'shimcha vaqt etib belgilangan davr mobaynida muomalalarni amalga oshiruvchi budjet tashkilotlari uchun Moliya vazirligi tomonidan hisobotlarni topshirishning alohida muddatlari belgilanadi.

*2-shakl*

### Xarajatlar smetasi ijrosi haqida

#### H I S O B O T

201 \_\_\_\_-yil \_\_\_\_\_ holatiga

Xarajatlar nomi	Xara-jatlar moddasi	Qator kodi	Aniq-langan smeta bo'yicha	Hisobot davri uchun moliyalash-tirilgan	G'azna xarajati jami	Haqiqiy xarajat-lar jami
...						
<b>Xarajatlarning hammasi:</b>						

Rahbar \_\_\_\_\_ Bosh hisobchi \_\_\_\_\_  
 «\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 201 \_\_\_\_yil

«Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobot»ni (2-shakl) tuzishdan oldin budjet tashkilotlari:

1) tasdiqlangan xarajatlar smetalariga belgilangan tartibda kiritilgan o'zgartirishlarni buxgalteriya hisobi registrlariga (294-shakl daftarlariiga) to'g'ri yozilganligini;

2) hisobot davri uchun budjetdan moliyalashtirilgan mablag‘-larni tasdiqlangan xarajatlar smetalariga muvofiq holda (kiritilgan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda) amalga oshirilganligini (tegishli memorial order, 294-shakl daftari va boshqa buxgalteriya hisobi registrlari asosida);

3) hisobot choragida amalga oshirilgan g‘azna xarajatlarining (g‘aznachilik organi orqali amalga oshirilgan to‘lovlarining) to‘g‘riligini (tegishli memorial order, 294-shakl daftarlari va boshqa buxgalteriya hisobi registrlari asosida);

4) haqiqiy xarajatlarni buxgalteriya hisobi registrlariga to‘g‘ri yozilganligini (tegishli memorial orderlar va 294-shakl daftarlari ma’lumotlari asosida) tekshirib chiqishlari kerak.

«Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobot»ning (2-shakl) «Aniqlangan smeta bo‘yicha» ustuniga budget tashkilotlarining tegishli tasdiqlangan xarajatlar smetalari bo‘yicha kiritilgan o‘zgartirishlar hisobi bilan hisobot davriga aniqlangan rejani xarajatlar tasnifining hisobot shaklida keltirilgan xarajat moddalari bo‘yicha yoziladi (01-1-40-«Tibbiyot tashkilotlari xodimlariga ustamalar va qo‘srimchalar», 01-1-50-«Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi» va «Budget tashkilotida hisobot choragini oxirgi kuniga tejab qolining va budget tashkilotining rivojlantirish fondi hisobvarag‘iga o‘tkazilgan mablag‘lar» qatorlaridan tashqari).

«Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobot»ning (2-shakl) «Hisobot davri uchun moliyalashtirilgan» ustuni bo‘yicha budget tashkilotiga budjetdan xarajatlar smetalariga muvofiq yil boshidan o‘sib boruvchi tartibda moliyalashtirilgan mablag‘lar (294-shakl daftar ma’lumotlari asosida) xarajatlar tasnifining hisobot shaklida keltirilgan xarajat guruhlari va moddalari bo‘yicha yoziladi (4-guruhning xarajat moddalaridan tashqari). budget tashkilotlari ushbu ustun bo‘yicha yil boshidan o‘sib boruvchi tartibda g‘aznachilik organlari orqali amalga oshirilgan to‘lovlarini ko‘rsatadilar.

«Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobot»ning (2-shakl) «G‘azna xarajati jami» ustunida budget tashkilotining budget mablag‘lari bo‘yicha depozit hisobvarag‘idan xarajatlar smetalarida ko‘zda tutilgan maqsadlar uchun o‘tkazilgan mablag‘lar yil boshidan o‘sib boruvchi tartibda (294-shakl daftar ma’lumotlari

asosida) xarajatlar tasnifining hisobot shaklida keltirilgan xarajat guruhlari va moddalari bo'yicha yoziladi. Budget tashkilotlari ushbu ustun bo'yicha yil boshidan o'sib boruvchi tartibda g'aznachilik organlari orqali amalga oshirilgan to'lovlarni ko'rsatadilar.

«Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobot»ning (2-shakl) «Haqiqiy xarajatlar» ustunida budget tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar (Budget bo'yicha) yil boshidan o'sib boruvchi tartibda (294-shakl daftarlari ma'lumotlari asosida) xarajatlar tasnifining hisobot shaklida keltirilgan xarajat guruhlari va moddalari bo'yicha yoziladi.

«Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobot» (2-shakl) budget tashkilotlari tomonidan har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar topshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli «Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, moliya yiliga qo'shimcha vaqt etib belgilangan davr mobaynida muomalalarni amalga oshiruvchi budget tashkilotlari uchun Moliya vazirligi tomonidan hisobotlarni topshirishning alohida muddatlari belgilanadi.

«Debitor va kreditor qarzlar to'g'risida ma'lumot» budget tashkilotining hisobot davri oxiriga budget va budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan mavjud qarzlar to'g'risidagi axborotni umumlashtirish va tahlil qilish uchun xizmat qiladi.

«Debitor va kreditor qarzlar to'g'risida ma'lumot»ning «Debitor qarzlar» qismida mavjud debitor qarzlar, «Kreditor qarzlar» qismida esa mavjud kreditor qarzlar ko'rsatiladi. Uning «Jami qarzlar» ustuni bo'yicha budget tashkilotining budget va budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan tegishli xarajat moddalari bo'yicha hisobot davrining oxiriga mavjud debitor va kreditor qarzlarning jami summasi ko'rsatiladi.

«Debitor va kreditor qarzlar to'g'risida ma'lumot»ning «Budget hisobidan» ustuni bo'yicha «Jami qarzlar» ustunida ko'rsatilgan summaning budget hisobiga vujudga kelgan qismi, «Budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan» ustuni bo'yicha esa budget tashki-

lotining budgetdan tashqari mablag‘lari hisobiga vujudga kelgan qismi ko‘rsatiladi.

Agarda, yuzaga kelgan debitor qarzni budget va budgetdan tashqari mablag‘lar hisobiga aniq ajratishning imkonini bo‘lmasa, u holda ushbu debitor qarz budget hisobidan o‘tkazilgan mablag‘ doirasida xarajatlar tasnifining tegishli moddasi bo‘yicha budget hisobidan ko‘rsatiladi. Debitor qarzning qolgan (Budgetdan oshgan) qismi xarajatlar tasnifining tegishli moddasi bo‘yicha budgetdan tashqari mablag‘lar hisobiga yoziladi.

Agarda, yuzaga kelgan kreditor qarzni budget va budgetdan tashqari mablag‘lar hisobiga aniq ajratishning imkonini bo‘lmasa, u holda ushbu kreditor qarz xarajatlar tasnifining tegishli moddasini budget bo‘yicha qoldiq limit mablag‘i doirasida mazkur xarajatlar tasnifi tegishli moddasing bo‘yicha budget hisobidan ko‘rsatiladi. Kreditor qarzning qolgan (Budgetdan oshgan) qismi xarajatlar tasnifining tegishli moddasi bo‘yicha budgetdan tashqari mablag‘lar hisobiga yoziladi.

«Debitor va kreditor qarzlar to‘g‘risida ma’lumot»ning «Shundan muddati o‘tgan qarz — jami» ustunida «Jami qarz» ustunida ko‘rsatilgan qarzdan muddati o‘tkazib yuborilgan, qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugatilmagan qarzning umumiy summasi, «Budget hisobidan» ustunida budget mablag‘lari hisobiga vujudga kelgan qismi, «Budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan» ustunida esa budget tashkilotining budgetdan tashqari mablag‘lari hisobiga vujudga kelgan qismi ko‘rsatiladi. Uning «Shundan Respublika tashqarisida» ustunida esa muddati o‘tgan qarzning O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi qismi ko‘rsatiladi.

«Debitor va kreditor qarzlar to‘g‘risida ma’lumot»ning «Izoh» ustunida qo‘srimcha izohlar keltiriladi.

«Debitor va kreditor qarzlar to‘g‘risida ma’lumot» budget tashkilotlari tomonidan har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar topshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli «Budget tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq, moliya yiliga qo‘srimcha vaqt etib belgi-

langan davr mobaynida muomalalarni amalga oshiruvchi budget tashkilotlari uchun Moliya vazirligi tomonidan hisobotlarni topshirishning alohida muddatlari belgilanadi.

*Budget tashkilotlarining yillik buxgalteriya hisoboti.* Budget tashkilotlarining yillik buxgalteriya hisoboti tarkibida quyidagilar bo‘ladi:

- 1) Balans (1-shakl);
- 2) Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobot (2-shakl);
- 3) Budget tashkilotining rivojlantirish fondi bo‘yicha daromad va xarajatlar to‘g‘risida hisobot (2-rj-shakl);
- 4) Tibbiyot muassasasini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha daromad va xarajatlar to‘g‘risida hisobot (2-tmmrrj-shakl) (faqat tibbiyot muassasalari uchun);
- 5) O‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar bo‘yicha daromad va xarajatlar smetasi ijrosi to‘g‘risida hisobot (2-tk-shakl);
- 6) Boshqa maxsus mablag‘lar fondi bo‘yicha daromad va xarajatlar ijrosi to‘g‘risida hisobot (2-bmmj-shakl);
- 7) Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasining hisoblanishi va to‘lanishi to‘g‘risida hisobot (3-vmqn-shakl);
- 8) Debitor va kreditor qarzlar to‘g‘risida ma’lumot;
- 9) Asosiy vositalar harakati to‘g‘risida hisobot (5-shakl);
- 10) Material zaxiralar harakati to‘g‘risida hisobot (6-shakl);
- 11) Budget tashkilotlarida pul mablag‘lari hamda moddiy qiymatlarning kamomadi va o‘g‘irlanishi to‘g‘risidagi hisobot (15-shakl).

Budget tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda moliya organlariga – «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot»ni (2-shakl) ham taqdim qiladi.

Budget tashkilotlarining yillik va choraklik buxgalteriya hisobotlariga tushuntirish xati ilova qilinadi.

Tushuntirish xati budget tashkilotining rahbari yoki uning o‘rinbosari (birinchi imzo huquqidan foydalanuvchi shaxs), budget tashkilotining bosh hisobchisi yoki uning o‘rinbosari (ikkinci imzo huquqidan foydalanuvchi shaxs) hamda moliya-iqtisod bo‘limi

Debitörlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida

M A L U M O T

20 yill holtiga

Tashkilotning nomi

Hissobot davri: Yillik, 1-aprel, 1-iyul, 1-oktabr holatiga  
O'qchov birilgi:

Vazirlilik

Bo'lim            kichik bo'lim            bob             
Budget turi

216

KREDITOR QARZDORLIK

boshlig‘i (shtatlar jadvaliga muvofiq holda reja-iqtisod bo‘yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi va budjet tashkilotining muhri bilan tasdiqlanadi.

Hududiy moliya organlarining xalq ta’limi muassasalarini moliyalashtirish bo‘limlari tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan xalq ta’limi muassasalarining (yuridik shaxs maqomi berilmaganlari bo‘yicha) tushuntirish xati mazkur moliya organining xalq ta’limi muassasalarini moliyalashtirish bo‘limi boshlig‘i (yoki bosh iqtisodchi–xalq ta’limi muassasalarini moliyalashtirish bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari), bosh hisobchi–xalq ta’limi muassasalarini moliyalashtirish bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari (yoki budjet tashkilotigacha bolalar muassasalari va boshqa muassasalarning moliyaviy-hisob muomalalari sektori mudiri) hamda bosh iqtisodchi–xalq ta’limi muassasalarini moliyalashtirish bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari (yoki xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish bo‘yicha sektor mudiri) tomonidan imzolanadi va tegishli moliya organining muhri bilan tasdiqlanadi.

### **Mustaqil ta’lim uchun savollar**

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetida turuvchi tashkilotlarning buxgalteriya hisobotiga uslubiy rahbarlik qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?
2. Davlat budjetida turuvchi tashkilotlar qanday buxgalteriya hisobotlarini taqdim etadi?
3. Budjet yili davomida moliyalashtirilishi bir budjetdan boshqasiga berilgan yoki bir vazirlilik (idora) tasarrufidan boshqasiga berilgan budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobotini qanday hajmda va qaysi organlarga taqdim etadi?
4. Bo‘ysunishi bo‘yicha yuqori tashkilotga topshiriladigan hisobotlar va balanslar kimlar tomonidan imzolanadi?
5. Budjet tashkilotlari qanday hajmda oylik buxgalteriya hisobotlarini tuzadi?
6. Budjet tashkilotlari qanday hajmda yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzadi?

---

---

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T.: «O'zbekiston», 2003-yil (keyinchalik kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarini hisobga olgan holda).
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. (O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi 2007-yil 25-dekabrdagi 136-son qonuni bilan tasdiqlangan (keyinchalik kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarini hisobga olgan holda).
3. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagи «Davlat budgetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi «Budget tizimi to'g'risida»gi qonuni ( 2005-yil 23-may, 2005-yil 19-dekabr, 2005-yil 31-dekabr va 2007-yil 27 apreldagi, 20-sentabrdagi va 17-dekabrdagi hamda 2008-yil 31-dekabrdagi o'zgarishlar bilan).
5. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagи «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustdagи «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 16-iyundagi 210-sonli «Ish beruv-chining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi qonuni.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari**

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 25-noyabrdagi PQ-227-sonli «Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagи PQ-594-sonli «Davlat budgetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori (keyinchalik kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarini hisobga olgan holda).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 30-iyuldagи 929-sonli «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish va ular mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-son «O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va budget parametrlari to'g'risida»gi qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi 1449-tonli «O‘zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatichlari va davlat budgeti parametrlari to‘g‘risida» qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi PF 3618-tonli «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlash-tirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.

### **III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagи 133-tonli «O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori va uning 6 va 7-tonli ilovalari.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabr-dagi 414-tonli «Budget muassasalarini mablag‘ bilan ta‘minlashni takomil-lashtirish to‘g‘risida»gi qarori va unga ilova qilingan «Budget tashkilotlarini moliyalashtirish tartibi» (keyinchalik kiritilgan o‘zgartirish va qo‘simechalarini hisobga olgan holda).
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabr-dagi 456-tonli «Tender savdolarini tashkil qilishni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori (keyinchalik kiritilgan o‘zgartirish va qo‘simechalarini hisobga olgan holda).
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 2-iyuldagи 310-tonli «Umumta‘lim maktablari o‘qituvchilarining mehnatini rag‘-batlantirish bo‘yicha qo‘simechalarini hisobga olgan holda»gi qarori.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrdagi 595-tonli «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi qarori.
19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrdagi 275-tonli «Xalq ta‘limi tizimi xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori.
20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgust-dagi 165-tonli «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori.
21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 21-iyuldagи 206-tonli «Mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori va unga ilova qilingan «Mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasi».
22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 20 martdagи 53-tonli qarori (Bu qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazir-lining G‘aznachiligi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan).

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 24-iyundagi 177-sonli «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi qarori.
24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8 apreldagi 102-sonli «Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-dekabrdagi 312-sonli «O'quv mashg'ulotlari o'tkazganlik uchun mehnatga soatbay haq to'lash miqdorlari to'g'risida»gi qarori.

#### **IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

26. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. «Xalq so'zi» gazetasi 2011-yil 22-yanvar, № 16 (5183)-son.
27. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz –Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T.: «O'zbekiston», 2010-y. -80 b.
28. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. –T.: «O'zbekiston», 2009-y. – 56 b.
29. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. –T.: «O'zbekiston», 2005-y. –525 b.

#### **V. O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining me'yoriy-huquqiy hujjatlari**

30. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobini 19-sonli «Inventarlashni o'tkazish va tashkil etish» milliy standarti (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999-yil 2-noyabrda 833-son bilan ro'yxatga olingan).
31. Moliya vazirligida va moliya organlarida budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasini va shtatlar jadvalini ro'yxatga olish tartibi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999-yil 13-dekabrdha 849-son bilan ro'yxatga olingan).
32. Budjet tashkilotlari daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 18-iyunda 1828-son bilan ro'yxatga olingan) (keyinchalik kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni hisobga olgan holda).
33. Budjet tashkilotlarining asosiy vositalarini eskirishini aniqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 30-oktabrda 2028-son bilan ro'yxatga olingan).

#### **VI. Darsliklar va qo'llanmalar**

34. Alimardonov M.I., Kuzieva N.R.Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv-uslubiy qo'llanma./–T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007.–214 s.

35. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: «Sharq», 2009.–447 b.
36. Vahobov A., Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. – T.: Sharq, 2003.–400 b.
37. Jo'raev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. / Monografiya. «Fan» nashriyoti. 2004-y.
38. Jo'rayev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi –T.TMI, 2008. -210 b.
39. Malikov T.S., Haydarov N.H. «Davlat budjeti». O'quv qo'llanma. «IQTISOD-MOLIYA»–Toshkent. TMI. 2007-y.
40. Malikov T.S., Haydarov N.H. «Budjet daromadlari va xarajatlari». O'quv qo'llanma. «IQTISOD-MOLIYA»–Toshkent. TMI. 2007-y.
41. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002.–204 b.
42. Mirzayev T, Toshmurodov T, Abdullayev O, «Soliqlar va soliqqa tortish» O'quv qo'llanma. Toshkent: «Mehnat» nashriyoti, 2003-y.
43. Налоги в условиях экономической интеграции. / В.С. Бард и др. под ред. проф. В.С. Барда и Л.П. Павловой.–М.: КНОРУС, 2004.–288 с.
44. Пансков В.Г., Князев В.Г. Налоги и налообложение: Учебник для ВУЗов. –М.: МТСФЕР, 2003.–336 с.
45. Рушкарева В.М. История финансовой мысли и политики налогов. – М.: Финансы и статистика, 2003.–256 с.
46. Финансы, налоги и кредит: Учебник / Под общ.ред. И.Д. Матскуляка.– М.: Изд-во РАГС, 2007. – 385 с.

## **VII. Statistik ma'lumotlar to'plamlari va matbuot nashrlari**

47. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillardagi (1990–2010-yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011–2015-yillarga mo'ljallangan prognozlari. T.:–«O'zbekiston»–2011.
48. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining yillik ma'lumotlari.
49. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik ma'lumotlari.
50. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasining yillik ma'lumotlari.
51. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnali, 2010–2011-yil sonlari.
52. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 2010–2011-yil sonlari.
53. «Soliq to'lovchi» jurnali, 2010–2011-yillar sonlari
54. «Soliqlar va bojxona xabarlari» gazetasi. 2010–2011-yillar sonlari.

## **VIII. Internet saytlari:**

- |   |   |
|---|---|
| 55. <a href="http://www.nalog.uz/">http://www.nalog.uz/</a> | 59. <a href="http://www.undp.uz">http://www.undp.uz</a> |
| 56. <a href="http://www.cer.uz/">http://www.cer.uz/</a>     | 60. <a href="http://www.stat.uz">http://www.stat.uz</a> |
| 57. <a href="http://www.mf.uz">http://www.mf.uz</a>         | 61. <a href="http://www.tfi.uz">http://www.tfi.uz</a>   |
| 58. <a href="http://www.gov.uz">http://www.gov.uz</a>       | 62. <a href="http://www.lex.uz">http://www.lex.uz</a>   |

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
<b>1-bob. BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISH .....</b>	<b>5</b>
1.1-\$. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari va uning asosiy qoidaları .....	5
1.2-\$. Xo‘jalik muomalalarini hujjatlashtirish .....	13
1.3-\$. Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejası .....	15
1.4-\$. Buxgalteriya hisobi registrlari.....	25
1.5-\$. Bosh hisobchining huquq va majburiyatları.....	31
1.6-\$. Harajatlar smetasi va uning tarkibi.....	37
<b>2-bob. BUDJET TASHKILOTLARIDA PUL MABLAG‘LARI HISABI .....</b>	<b>56</b>
2.1-\$. Bankdagi joriy depozit hisobvaraqlardagi mablag‘lar hisobi.....	56
2.2-\$. Bankdagi muassasani rivojlantirish depozit hisobvaraqlardagi mablag‘lar va boshqa pul mablag‘lari hisobi .....	59
2.3-\$. Hisobvaraqlardagi budjetdan tashqari mablag‘lar hisobi.....	60
<b>3-bob. BUDJET TASHKILOTLARIDA G‘AZNA MUOMALALARI HISABI .....</b>	<b>62</b>
3.1-\$. G‘azna hisobvarag‘i va undagi muomalalarni rasmiylashtirish .....	62
3.2-\$. G‘azna muomalalarining analitik va sintetik hisobi .....	65
<b>4-bob. BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISABI .....</b>	<b>73</b>
4.1-\$. Asosiy vositalar to‘g‘risida tushuncha va uning analitik va sintetik hisobi.....	73
4.2-\$. Budget tashkilotlarida asosiy vositalar kirimi va balansdan chiqarish hisobi.....	88
<b>5-bob. BUDJET TASHKILOTLARIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISABI .....</b>	<b>113</b>
5.1-\$. Budget tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralarni turkumlash, baholash va hisobga olish vazifalari .....	113
5.2-\$. Budget tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralarning kelib tushushi va sarflanishini rasmiylashtirish tartibi .....	114

5.3-§. Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar analitik va sintetik hisobi.....	120
5.4-§. Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralarni inventarlashdan o'tkazish .....	127
<b>6-bob. BUDJET TASHKIOTLARIDA MEHNAT SARFI VA UNGA HAQ TO'LASH HISOBI .....</b>	<b>131</b>
6.1-§. Ish haqi turi, shakli va uni hisoblash tartibi .....	131
6.2-§. Ish haqi foning tarkibi va uni hujjatlashtirish .....	132
6.3-§. Ish haqidan ushlab qolinadigan summalar (daromad solig'i va boshqalar)ning hisob-kitobi .....	133
6.4-§. Ish haqi to'lashning analitik va sintetik hisobi.....	136
<b>7-bob. YAGONA IJTIMOIY TO'LOV VA FUQAROLARNING BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASIGA SUG'URTA BADALLARI .....</b>	<b>140</b>
7.1-§. Yagona ijtimoiy to'lov va majburiy sug'urta badallari .....	140
7.2-§. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari .....	143
7.3-§. Jamg'arilib boriladigan pensiya fondiga ajratmalar hisobi .....	143
<b>8-bob. DEBITOR VA KREDITORLAR BILAN HISOBLASHISHLAR HISOBI .....</b>	<b>145</b>
8.1-§. Turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashishlar .....	145
8.2-§. Mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashishlar .....	147
<b>9-bob. BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR HISOBI .....</b>	<b>154</b>
9.1-§. Budjetdan tashqari mablag'lar turlari va ularni sarflash hisobi .....	154
9.2-§. Budjetdan tashqari mablag'lar analitik va sintetik hisobi.....	158
<b>10-bob. BUDJET TASHKIOTLARIDA INVENTARLASHNI O'TKAZISH TARTIBI VA ULARNI HISOBGA OLİSH .....</b>	<b>175</b>
10.1-§. Inventarlashning o'tkazish obyektlari va ularda inventarlashni o'tkazish tartibi .....	175
10.2-§. Inventarlash natijalarini hisobga olish .....	184
10.3-§. G'azna mablag'lari va qat'iy hisobdagи blanklarni inventarlashdan o'tkazish .....	189
10.4-§. Solishtirish qaydnomalarini tuzish va natijalarini rasmiylashtirish tartibi .....	192

<b>11-bob. HISOBVARAQLARGA YAKUNIY XULOSALAR VA ULARNING YOPILISHI YUZASIDAN BUXGALTERIYA HISOBOTLARI .....</b>	<b>196</b>
11.1-§. Joriy hisob hisobvaraqlariga xulosa .....	196
11.2-§. Buxgalteriya balansi .....	199
11.3-§. Budjet tashkilotlarining hisoboti.....	201
<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>218</b>

**Saidmurod Yaxyoyevich ATAMURODOV,  
Musurmon Suyunovich SODIKOV**

## **BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI**

*Kasb-hunar kollejlari o‘quv qo‘llanma*

2-nashr  
 «Vneshinvestprom» MChJ  
 Toshkent – 2013

Muharrir *A. Xusanov*  
 Badiiy muharrir *Sh. Xodjayev*  
 Texnik muharrir *N. Akramova*  
 Musahhih *D. Sagatova*  
 Kompyuterda sahifalovchi *S. Akramov*

«Voris-nashriyot», Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.  
 Nashriyot litsenziyasi AI № 195 28.08.2011.

Original-maket «Voris-nashriyot» nashriyotida tayorlandi va bosishga ruxsat etildi 23.09.2013. Bichimi 60×84<sup>16</sup>/16. Ofset bosma usulida bosildi. Bosma t. 14,0. 1281 nusxada bosildi. Buyurtma №

«Vneshinvestprom» MChJ, 100020  
 Toshkent, Langar ko‘chasi, 78.